

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

D.RAHIMJONOV,

DINSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

Toshkent – 2009

«DINSHUNOSLIK» FANIGA KIRISH

Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgarigi dinga agressiv hujum etish uslubining salohiyatsizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo'lgan diniy bo'lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o'zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga prinstipial, professional, ilmiy yondashuv darkor.

Din e'tiqod hamdir, bu esa har bir kishining shaxsiy ishi. Lekin shaxsni har qanday missioner tashkilotlar ixtiyoriga ham tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ozod jamiyatda har bir inson o'z shaxsiy pozistiyasini belgilab olishi uchun unga har tomonlama, boy, ob'ektiv-ilmiy ma'lumot zarur. Bunday ma'lumot qomusiy xarakterda bo'lmog'i, birovning g'arazli sharhisiz asl matnlar shaklida bo'lsa, maqsadga muvofiqdir. Eskirgan ma'lumotlar asosida mutaxassis bo'lmagan mualliflar tomonidan yozilgan asarlar hozirgi zamon axborot erkinligi va uning etib kelishi oson bo'lgan sharoitlarda o'quvchilar ko'z o'ngida mazkur mualliflarning obro'sizlanishiga yoki o'quvchini noto'g'ri tasavvurga ega bo'lib qolishiga olib keladi.

Ko'p asrlar davomida xalqimizning milliy qadriyatiga aylanib qolgan islom dinining O'rta Osiyo mintaqasi tarixida, ushbu erlik xalqlar hayotida tutgan o'rnini bilish har bir vatandoshimizning muqaddas burchidir. Chunki milliy va diniy qadriyatlarni yaxshi bilmay, ularning hurmatini o'rniga qo'ymay turib, inson yuksak ma'naviyatli bo'la olmaydi. Dinshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri ana shu xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan din, unda jamlangan yuksak insoniy fazilatlar, yaxshilikka undov va yomonlikdan qaytarish kabi jihatlar bilan talabalarni yaqindan tanishtirib, to'g'ri dunyoqarashga ega yuksak ma'naviyatli insonlarni tarbiyalashdan iborat.

O'rta Osiyoga islom dini kirib kelguniga qadar bu erda buddizm, zardushtiylik, manixeizm, xristianlik kabi turli dinlar mavjud bo'lib, islom kirib kelganidan keyin ham ular xalq orasida saqlanib qoldi. Zero, bu dinlar ushbu xalqlarning hayoti, e'tiqodi va dunyoqarashlarida o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shuning uchun ham islom dinini o'rganish bilan birga mazkur dinlarning tarixi, ta'limoti, unga e'tiqod qiluvchilarning hayotida tutgan o'rnini bilish muhim masalalar qatoriga kiradi. Dunyodagi turli xalqlar bilan muloqot qilishda avvalambor ularning dunyoqarashi, urf-odatlar va qadriyatlarini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa mazkur xalqlarning qadimgi va hozirgi diniy e'tiqodlarini o'rganish talab etiladi. Dinshunoslik fani talabalarni ana shunday bilimlar bilan qurollantiradi.

Din va qonunning o'zaro munosabatlarini yaxshi bilish demokratik jamiyat poydevorini mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi va «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni turli diniy jamoa a'zolarining Huquqlari, majburiyatlari haqida to'la

ma'lumot beradi. O'quvchilarda Qonunga hurmat hissini, o'zininggina emas, boshqalarning ham diniy his-tuyg'ularini hurmat qilish, tushunishga harakat qilish, o'z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o'tkazish g'ayriqonuniy xatti-harakat ekanligi, jamoat joylarida diniy masalalarda zo'ravonlik, agressivlikka yo'l qo'ymaslik kabi tushunchalarni shakllantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, dinshunoslik fanini o'qitishdan maqsad – talabalarni dinlarning turlari, tarixi, rivojlanishi, ta'limoti, asosiy manbalari, o'tmish va hozirgi kunda xalqlar hayotida tutgan o'rnini o'rgatish orqali o'z xalqi va Vatani tarixini yaxshi biladigan, boshqa millat va elatlar oldida buyuk allomalarning avlodlari bo'lgan yuksak madaniyat va ma'naviyatli xalq farzandi ekanligini namoyon eta oladigan, bu xalqning kelajagi ham buyuk ekanligiga ishonтира oladigan insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

Din ta'rifi. Din so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «ishonch, e'tiqod»dir. Istilohiy ma'nosi lotin tilidagi «religion» so'zi bilan mos keladi.

Din insonni qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy borliqqa ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Din asli nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoq tuyg'usidir. Ishonmoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir.

Dinshunoslikning sohalari. Dinshunoslikda dinga «dinning o'zi nima?», «uning mohiyati nimadan iborat?» degan savol bilan yondashishdan tashqari «din jamiyatda qay tarzda mavjud bo'ladi?» degan nuqtai nazardan ham yondashuv mavjud. Bu masala bilan ko'proq din sostiologiyasi shug'ullanadi.

Sostiologik nuqtai nazardan qaralganda din jamiyat uchun zaruriy narsa, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. U ijtimoiy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi va amalga oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu dinni jamiyatda bajargan vazifalariga ko'ra o'rganish mumkin demakdir.

Dinning vazifalari uning alohida shaxsga va jamiyatga ta'siri va tabiatidan kelib chiqadi. Bunda har bir din unga e'tiqod qiluvchi muayyan bir shaxsga, u yoki bu jamoaga va umuman jamiyatga nima berishi, insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi kabi masalalar o'rganiladi.

Din ijtimoiy hodisa sifatida din sostiologiyasi doirasida o'rganiladi. Funkstionalizm ta'limoti jamiyatga ijtimoiy tizim sifatida qaraydi: unda jamiyatdagi har bir element muayyan funkstiyani bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, har qanday din o'z e'tiqod qiluvchilari uchun to'ldiruvchilik, tasalli beruvchilik (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy

ehtiyoj hosil bo'lishi hodisasini olaylik. Inson hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida o'z maqsadlariga erishish ilojisiz bo'lib ko'ringanida, qandaydir ma'naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat sezadi. Bu dinga bo'lgan ehtiyojdir. Din bu o'rinda ma'naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchilik, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan va hali ham bajarmoqda.

Masalan, buddizm dini rohiblikni targ'ib qilar ekan, bu dunyoda orzu-havaslardan, rohat-farog'atdan voz kechgan inson *nirvana* holatiga erishgach, abadiy rohatda bo'lishini ta'kidlaydi. Yoki har bir xristian Iso Masihning qaytishiga umid qilgan holda hayotning turli muammolarini engib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradi. Chunki xristianlik Iso Masih qaytib kelgach, barcha izdoshlarini saodatli hayotga etkazishi haqidagi ta'limotni ilgari suradi.

Islom dinida esa har bir musulmon bu dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istaklariga oxiratda erishishiga ishongan holda dunyo orzu-havaslariga ortiqcha berilmay, turmush mashaqqatlariga sabr qiladi.

Ikkinchidan, muayyan din o'z ta'limot tizimini vujudga keltirgach, o'ziga e'tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozirda ham shunday. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik – integrastion vazifasi deb ataladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotni qamrab olishga intiladi. Buning muntazamligini ta'minlash maqsadida din xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, shuningdek, adabiyoti va san'atiga chambarchas bog'lanib keta olgan.

Masalan, yahudiylukda mazkur din vakillarini bir mafkura atrofida saqlab turish uchun ularning bir millat va yagona maslak egalari ekanliklari, yagona xudo – Yahvening eng sevimli bandalari ekanliklari uqtiriladi.

Xristianlikda ham e'tiqod qiluvchilarni unga yanada ko'proq jalb etish uchun diniy me'moriy, tasviriy san'at, musiqa kabi san'at turlaridan unumli foydalaniladi. Xristianlikda maxsus ikona chizuvchilik maktablari faoliyat ko'rsatadi.

Uchinchidan, har bir din o'z qavmlari turmushini tartibga solib, yo'naltiruvchilik – regulativ vazifani bajaradi. Dinlar o'z urf-odatlarining, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o'z vaqtida, qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi.

Misol uchun, islomda kuniga 5 mahal namoz o'qilishi, har hafta juma namozining jome masjidlarida ado etilishi, ramazon oyida bir oy ro'za tutilishi, ro'za (*'id al-fitr*) va qurbon (*'id al-adho*) hayitlarining nishonlanishi musulmonlarning hayot tarzini tartibga solib turadi.

To'rtinchidan, din aloqa bog'lashlik, birlashtiruvchilik – kommunikativ vazifani ham bajaradi, ya'ni har bir din o'z qavmlarining birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqadorlikda bo'lishini ta'minlashga intiladi. Bunda u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchi kishilarning o'z dinidagi boshqa kishilar bilan aloqador ekanligi, o'zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, din legitimizastiya – qonunlashtiruvchilik funkstiyasini ham bajaradi. Dinning bu funkstiyasi nazariy asosini yirik amerikalik sostiolog T. Parsons ishlab chiqdi. Uning fikricha, «har qanday ijtimoiy sistema muayyan

cheklovlarsiz mavjud bo'la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo'lgan munosabatni ham belgilaydi».

Oltinchidan, din vazifalarining falsafiy, nazariy jihatlarini ham mavjud. Bu vazifa insonga yashashdan maqsad, hayot mazmunini, dorulfano va dorulbaqo masalalariga o'z munosabatini bildirib turishidan iboratdir.

Kishilik jamiyatida din doimo inson bilan birga bo'lganmi yoki qandaydir davrda jamiyat dinsiz yashaganmi, degan savolga turli fikrlar bildirilgan. Bu – dinning tarixiy masalasi bo'lib, unga ikki xil javob berganlar. Birinchisi, marksistik ta'limotning sobiq tarafdorlari fikricha, «qandaydir muddat insoniyat dinsiz yashagan va jamiyatning muayyan bosqichida – yuqori paleolit davrida, bundan 20-40 ming yil avval din paydo bo'lgan» deyiladi. Ikkinchisi, «dinning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq» degan fikrdir.

Diniy tafakkurning shaxsiy yoki ijtimoiy ildizlarini o'rganish bilan dinning kelib chiqishi muammosini hal qilish mumkin bo'ladi. E. Taylor kabi evolyuston yo'nalishdagi pozitivistlarning xulosasiga ko'ra, dinning ildizi «faylasuflik qilgan yovvoyi odam»ga borib taqaladi. Ya'ni, «u o'z-o'ziga borliq, o'zini o'rab turgan olamning paydo bo'lishi va o'zi kuzatgan hodisalarning haqiqati haqida savol bergan. Unda fikrlash yuqori darajada bo'lmagan. Shundan so'ng unda ruhlar, ilohiyotlar, farishtalar haqida tasavvurlar paydo bo'lgan».

Dinning kelib chiqishi haqida yana bir nazariya mavjud: «Birinci yolg'onchi birinchi nodonni uchratganda din paydo bo'ldi». Bunda din yomon niyatli kishilarning o'ylab topgan narsasi bo'lib chiqadi. Bu ikkala nazariya ham hech qanday ilmiy asosga ega emas.

Faylasuflik qilgan yovvoyi odam konstepstiyasi bo'yicha «ibtidoiy odam yolg'iz holdagi chuqur fikr yurituvchi bo'lgan. U o'z oldiga ulkan savollarni qo'ygan. Bu savollar uning kundalik hayotida kerak emas edi. Shuni ham unutmaslik kerakki, ibtidoiy odamning fikr yuritishi uning kundalik ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Bu faoliyatning tabiati, shart-sharoitlari birgina odamga tegishli bo'lib qolmay, barchaga barobar, ijtimoiy gruppaga, qabila, urug', xalqqa tegishli edi».

Din «bir odam boshqalarni aldashi natijasida kelib chiqqan» degan fikr ham tanqidga uchragan. Boshqa fikrga ko'ra, «din – bu jamiyatdagi kishilarning baravariga o'z-o'zini aldashi natijasida kelib chiqqan. Shuning uchun ham bu fikr egalari din ijtimoiy hodisadir degan xulosaga kelish mumkin», deydilar.

Din insonning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy hayotida doimo u bilan birga bo'ldi. Shuning uchun ham *dinni o'rganish – bu insoniyatni o'rganish* demakdir. Dinni insoniyatdan, insoniyatni dindan ajratib bo'lmasligini tarixning o'zi isbotladi. «Kommunistik jamiyatda din yo'q bo'lib ketadi» deyilgan gapning aksicha kommunizm xayoliy narsa-yu, din doimiy ekanligi amalda isbotlandi. Demak, din insoniyat bilan birga dunyoga kelgan.

Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik etuk bo'lishidan qat'i nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki har qanday

tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va h.k.

I. Tarixiy-geografik tasnif.

- 1) O'rta er dengizi havzasi dinlari:
 - a) grek;
 - b) Rim;
 - v) ellinistik.
- 2) Qadimiy Yaqin va O'rta Sharq dinlari:
 - a) Misr;
 - b) Shumer;
 - v) Akkad;
 - g) g'arbiy-somiy;
 - d) islomgacha arablar dinlari.
- 3) Yaqin va O'rta Sharqning payg'ambarli dinlari:
 - a) zardushtiylik;
 - b) yahudiylik;
 - v) xristianlik;
 - g) manixeizm;
 - d) islom.
- 4) Hindiston dinlari:
 - a) vedalar dinlari;
 - b) hinduizm;
 - v) hind buddizmi (teravada, maxayana);
 - g) jaynizm.
- 5) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dinlari:
 - a) Shri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;
 - b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);
 - v) Koreya va Yaponiya dinlari.
- 6) Amerika hindulari dinlari:
 - a) toltek va astteklar dinlari;
 - b) inklar dinlari;
 - v) mayyalar dinlari.

II. Etnik tasnif.

1) urug'-qabila dinlari – totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

3)jahon dinlari – dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'i nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik – yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik – ko'pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Dinshunoslik fanining asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Dinga qanday ta'riflar berilgan?
3. Din jamiyatda qanday funkstiyalarni bajaradi?
4. Dinni o'rganishda qanday yondashuv turlarini bilasiz?
5. Dinlar qanday belgilar asosida tasnif qilinadi?
6. Dinlarning qanday guruhlarini bilasiz?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
2. Mo'minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o'qitish va o'rganishning yagona kontseptsiyasi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
3. Джемс В. Многообразие религиозного опыта. Санкт-Петербург, 1993.
4. Зиммель Г. Социология религии // Зиммель Г. Избранное. Философия культуры. Т. I. М., 1995.
5. Кимелев Ю.А. Современная западная философия религии. М., 1989.
6. Классики современного религиоведения. М., 1996.
7. Лукашов В.А., Омурова Т.О., Трофимова З.П. Религиоведение. М., 2000.
8. Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии. 2-е изд. М., 1999.
9. Рикёр П. Герменевтика и психоанализ. Религия и вера. М., 1996.
10. Социология религии: классические подходы. М., 1994.
11. Фромм Э. Психоанализ и религия // Фромм Э. Иметь или быть? М., 1990.
12. Яблоков И.Н. Религиоведение. М., 1998.
13. Lanczkowski G. Einführung in die Religionwissenschaft. Darmstadt, 1991.
14. Stolz F. Grundzüge der Religionwissenschaft. Göttingen, 1988

DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI

Diniy ong asoslarining shakllanishi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, «ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu uning hayoti va faoliyati, fe'l-atvorigagina emas, balki uning fikrlash darajasi, kuchli hayajonlanishi, tasavvur etishi, haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta'sir ko'rsatdi. U ibtidoiy bo'lsa-da, aqlli, fikr yurituvchi, ma'lum mushohadaga qobiliyatli, konkret holatda fikr yurita oladigan, doimiy faoliyatida vujudga kelgan amaliy tajribalarga ega bo'lgan odam edi. Bunday tahlil nimaga asoslangan? Bilim miqdorining nihoyatda ozligi va uning doimiy takomillashib borishi, oldinda turgan hayotdan qo'rquv va uni engishga bo'lgan intilish, amaliy tajribaning uzluksiz ortib borishi, tabiat kuchlariga mutlaq tobelik va undan qutulishga tirishish, atrof-muhit injiqliklari va ularni engish va h.k. – bularning barchasi shunga olib bordiki, uning ilk qadamidan nafaqat mantiqiy talabchanlik, balki hissiy-ijtimoiy, xayoliy-fantastik munosabatlar kelib chiqdi. Gap «ongli yovvoyi» yoki «abstrakt fikrlovchi kishi» to'g'risida borayotgani yo'q, ayni jamoaning qonun-qoidalaridan chiqmagan holda, qolaversa, 20-50 kishidan iborat bo'lgan kichik qabila, mehnat faoliyati jarayoni (ov, oziqa izlash, qurol yasash, turar joyni jihozlash va h.k.), doimiy ijtimoiy munosabatlar, oilaviy urug'doshlik aloqalari va hodisalar jarayonida (nikoh aloqalari, tug'ilish va o'lim) ushbu jamoaning ruhoniylari, g'ayritabiiy kuchlar va voqeyilik o'rtasidagi g'ayrioddiy aloqalar to'g'risida ibtidoiy tasavvurlar mustahkamlanib borgan. Real hayot bilan bir qatorda o'zga dunyo mavjudligi, marhumlar tiriklar hayotiga ta'sir eta olishi to'g'risidagi g'oyalar yuzaga keldi».

Diniy adabiyotlar, xususan Avesto, Tavrot, Injil, shuningdek, Qur'oni karimda ham insonning yaratilishi, uning er yuzidagi ilk hayoti o'ziga xos tarzda talqin qilinadi. Ularning barchasida dunyo va insoniyatning yagona Yaratuvchi (Avestoda – Axura-Mazda, Tavrotda – Yahve, Injilda – Ota Xudo, Qur'onda – Alloh) tomonidan yaratilgani bir ovozdan ta'kidlanadi. Odamzodning diniy tasavvurlari paydo bo'lishiga kelsak, Xudo dastlabki inson – Odamni yaratgach, unga ma'lum yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berdi va bu ko'rsatmalar o'z navbatida din deb ataldi. Diniy ta'limotga ko'ra, inson boshdan mukammal holda yaratilgan, shunga o'xshash din ham unga mukammal holda berilgan. Evolyusionizm ta'limotiga ko'ra, insonning paydo bo'lishi ham, dinning shakllanishi ham bosqichma-bosqich, soddadan murakkabga qarab rivojlanib borgan. Umuman olganda, barcha ilmiy adabiyotlarda dinning paydo bo'lishi borasida bildirilgan fikrlar ilmiy farazlardan iborat bo'lib, ushbu masalaning diniy adabiyotlardagi talqini esa har bir insonning diniy e'tiqodiga bog'liq.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ishlar, jumladan, tug'ilish, oziqa topish, ov qilish, o'z xavfsizligini ta'minlash, dafn marosimi kabilar turli diniy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lganligini ko'ramiz.

Dafn marosimlari. Qadimgi dunyo tarixidan ma'lumki, odamzod yaratilganidan buyon o'z qarindoshlarini ko'mishda maxsus marosimlar, ma'lum

tayyorgarlik udumlariga amal qilib keladi. Masalan, Qadimgi Misrda fir'avnlarning jasadlari qizil mineral bo'yoq bilan qoplanar, yoniga kundalik ehtiyoj buyumlari, zeb-ziynatlar kabi turli-tuman asbob-anjomlar qo'yilar edi. Bu ham o'z navbatida qavmlarini dafn etayotgan jamoaning oxirat mavjud ekanligi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Ov qilish. Shu paytga qadar olib borilgan arxeologik izlanishlar davomida er yuzining turli joylaridagi g'orlarda ibtidoiy odam tomonidan chizilgan rasmlar topilgan. G'orlardagi suratlarining ko'pchiligida ov qilish jarayoni, odam va hayvonlarning tasvirlari, hayvon terisini kiygan odamlar, yarim odam va yarim hayvon qiyofasidagi mavjudotlar tasvirlangan. Demak, ibtidoiy odam o'zi va hayvonlar o'rtasida tabiiy va g'ayritabiiy aloqalar mavjudligi haqida tasavvurga ega bo'lgan va ayni paytda marhum ajdodlarining ruhlari sehrli usullar bilan hayvonlar xulqiga ta'sir etish imkoniyatiga ega deb bilgan. Bu tasavvurlar tiriklar bilan marhumlar o'rtasidagi vositachilar: sehrgarlar va shamanlar faoliyatining shakllanishiga turtki bo'ldi. Ibtidoiy odam hayoti haqidagi farazlarga ko'ra uning hayotida kelib chiqqan diniy tasavvurlar quyidagi ibtidoiy din shakllarida namoyon bo'lgan:

Totemizm. «Totem» so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «uning urug'i» ma'nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor» deb e'tiqod qilish, ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy oziqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabila diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlarga bunday e'tiqod uzoq o'tmishga tegishlidir, ularning mavjud bo'lganligini faqat qadimgi rivoyatlarga tasdiqlaydi. Masalan, hozirgacha Avstraliya aborigenlari orasida bu xususda afsonalar saqlanib qolgan.

Urug'dosh jamiyatning shakllanish jarayonida totemizm muhim rol o'ynadi, ayniqsa, qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga, «o'zimizniki», ya'ni «bir totemga tegishli» degan aniq taassurot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar va me'yorlar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Ayni totemga xos bo'lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va me'yorlaridan chetda hisoblangan. Totemizmning bunday ijtimoiy roli, tabiiyki, totemistik ko'rinishlarning evolyustion xarakteriga ham ta'sir kuchini o'tkazmay qolmadi. Vaqt o'tishi bilan qarindoshlik tizimining mustahkamlanib borishi jarayonida birinchi darajali totem tartibi haqida tasavvur ilgari surildi. Zooantropomorf ko'rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar, ya'ni odam vafot etgach, uning o'z totemiga aylanishi yoki aksincha, qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Bular hammasi o'tgan ota-bobolar ruhlari bilan bog'lanishning, umuman kuchayishiga va ilohiy kuchlarga, bir tomondan, ishonchning oshishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, *totemga* bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi, misol uchun *totemni* oziqa sifatida iste'mol qilishning taqiqlanishiga olib keldi. *Tabu* (taqiqlash) tizimi paydo bo'ldi. Bunda

eng muhimi *totemni* ovqat sifatida iste'mol qilishni taqiqlash edi. Faqat ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoxud qabila boshliqlarigagina *totemni* eyishga ruxsat etilardi. Shunday qilib, totemizm urug'chilik jamoasida diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari, yuqorida aytib o'tilganidek, birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi sanalsa-da, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

Animizm (lotin tilida «anima» – «ruh», «jon» ma'nolarini anglatadi). Animizm – ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy shakllardan biri. İlk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllanishiga vujudga kelgandir.

Animizmning totemizmdan farqli jihatlari bor. Albatta, totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga, uni boshqalardan farqlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy xarakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini – osmon va er, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki relefning ayrim alohida qismlari – tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar. Hattoki, ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o'xshash narsalar ham ibtidoiy odamlar tasavvurida jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shunday bo'lgach, har qanday voqea-hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish taqozo etilgan, qurbonliklar qilingan, ruhlar haqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilgan.

Animizm zamonaviy dinlarning barchasida asosiy aqidaviy qismni tashkil etadi. Jumladan, jahon dinlari sanalmish buddizm, xristianlik va islomda ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

Shamanizm («shaman» so'zining tungus tilidagi ma'nosi – «sehrgar»). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, unga ko'ra uning vositasida kishilar o'z *totemlari*, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. Shamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar, afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'la olishlariga, ularga jamoaning orzu-niyatlarini ruhlarga etkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda,

ma'lum harakatlar: ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga etish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zlarini yo'qotar darajaga etib, marosim ishtirokchisiga aylanib qolishar edi. Marosim oxirida shaman hech narsani eshitmay, ko'rmay qolar, uning ruhlar dunyosi bilan muloqoti xuddi shu holatda amalga oshadi deb hisoblanardi. Umuman olganda, turli diniy marosimlarni o'z ichiga olgan afsungarlik jamiyatning haqiqiy talablaridan kelib chiqqan holda hayotda amalga oshirilgan. Ilohiy kuchlar dunyosi bilan bunday bog'lanish yo'li hayotda noma'lum, oldindan bilib bo'lmaydigan sharoitlardan kelib chiqqan. Shuning barobarida afsungarlik odamlarning fikrlash qobiliyatining o'sib borishi, ongining mustahkamlanishida katta rol o'ynadi, diniy ongning shakllanish jarayonida muhim o'rin tutdi. Afsungarlik fikr yuritish rivojlangan sari odamga o'z-o'zidan bo'ladigan, faqatgina maqsadli yo'nalishdagi harakatlar natijasida olinadigan emas, balki ilohiy kuchlar afsuni bilan bog'liq bo'lgan sharoitlardan kelib chiqadigan ko'rinish deb hisoblangan. Natijada ko'pgina aniq hodisalar, hattoki alohida buyumlar sehrli kuch egasi sifatida qabul qilina boshlandi.

Sehrgarlik marosimlari ikki usul: yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirilardi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) zarar keltiruvchi – yovuz afsungarlik. Bundan kimgadir zarar etkazish niyat qilinadi; 2) harbiy afsungarlik. Bunday afsungarlik dushmanga qarshi qo'llaniladi (masalan, qurol-aslahalarni sehlash); 3) sevgi afsungarligi, boshqacha aytganda, «issiq» yoki «sovuq» qilish; 4) tibbiy afsungarlik. Davolashda ishlatiladi; 5) ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash ob-havoni o'zgartirish maqsadlarida foydalanilgan.

Sehrgarlik hozirda ham mavjud dinlarda, turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

Fetishizm («fetish» so'zi fr. *fétiche* – «but», «sanam», «tumor» ma'nosidagi so'zni anglatadi). Mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inishdir. Unga ko'ra alohida buyumlarda kishini o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqea-hodisalarni o'zgartirish qudrati mavjud. Fetish ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Butlarda va tumorlarda jamoalar g'ayritabiyy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rdilar.

Bunday *fetishga* odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik yo'li bilan buyumlarga ta'sir ko'rsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi. Haqiqatan, ajdodlarni va tabiatni jonlantirish bilan bog'liq bo'lgan animizm, turli *totemlar* hamda o'lib ketgan avlodlar shaxsiga bog'liq totemizm orqali ibtidoiy odamlar ongida real buyumlar bilan birga ilohiy va xayolot dunyosi borligi haqidagi tushuncha paydo bo'ldi. Natijada ularning ongida afsonaviy fikr yuritish qobiliyati mustahkamlandi. Va nihoyat, *fetishlarning* paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, afsonaviy qudrat faqatgina vaqt va bo'shliqda ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lib qolmasdan, balki voqeiy dunyodagi buyumlarda ham mavjud bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, urug'chilik jamiyatining tashkil topish jarayonida ibtidoiy odamlarning ongida dastlabki diniy ko'rinishlarning keng, aniq, tartibli majmuasi ishlab chiqildi. Demakki, diniy tasavvurlar odam hayotining bo'linmas, hattoki asosiy qismi bo'lib qoldi. Jamiyat va tabiat qonunlarini, albatta, o'sha dunyo kuchlari boshqaradi. Shuning uchun jamoa yaxshi yashayman desa, oziqalar bilan ta'minlangan, kimningdir tomonidan himoyalangan bo'lishni istasa, birinchi vazifasi u o'sha g'ayritabiiy kuchlarni juda ham hurmat qilishi kerak edi. Dunyo haqidagi bu tasavvurlar vaqt o'tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt o'z ta'sirini o'tkazib keldi.

Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va e'tiqodlarida saqlanib qolgan. Turli haykallar, suratlar, tumor, ko'zmunchoq va har xil ramzlar bunga yorqin misoldir.

Ibtidoiy mifologiya. Ibtidoiy odamning tasavvuri va e'tiqodlari majmuasi, ularning real hayotdagi qiyinchiliklari, muammolari va yutuqlari og'zaki ijodda aks etgan. Bu narsa odamlarning ongida qolib, turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy mifologiyani tashkil etgan ijod doimo odamlarning ma'naviy hayoti, ibodati, hissiyotlari va diniy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq edi. Buni tushunish oson: agar ibtidoiy odamning ma'naviy hayoti asosini totemlarga, marhum ajdodlarga ibodat qilish, ular bilan sirli qarindoshlik tashkil qilsa, mifologiyaning markazida zooantropomorfik ajdodlar yoki har xil mo''jizaviy kuchga ega bo'lgan ilohiylashtirilgan qahramonlar turardi. «Madaniy qahramon»larning ismlari afsonalarda biron-bir ixtiro yoki yangilikda mujassam bo'lgan. Masalan, olovni topish, oila va nikohlar shaklini o'rnatish, mehnat va ov qurollarini yasash hamda boshqa jasoratlarga oid aqidalarni tashkil qilish. Kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o'rin egallagan, ya'ni er va osmon, quyosh va oy, o'simlik va hayvonot, nihoyat, odamning yaratilishi to'g'risidagi rivoyatlar, afsonalarda diniy tasavvurlarning ta'siri yaqqol ifodalangan. Ruhlarining yangi shaklga kirish sehrli xususiyati, ya'ni o'z qiyofasini o'zgartirish qobiliyatini, bir vaqtning o'zida odam va hayvon shakliga kira olishini *monstrlik* deb hisoblashardi.

Ibtidoiy mifologiyada hayot va o'lim, tabiat va madaniyat, ayol va erkak orasidagi muhim aloqalar tasvirlangan edi. Mifologiyaning bunday qarama-qarshiliklarini tahlil qilish inson tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklash uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalar taraqqiyotida diniy tasavvurlarning rolini aniqlashga imkon yaratadi.

Neolit davridagi diniy tasavvurlar. Neolit revolyustiyasi odamlarning turmush tarzini tubdan o'zgartirdi. Odam asta-sekin o'simliklarni o'stirish, oziqa zaxiralarini hosil etishni o'rgandi, bu esa odamni o'troq hayot kechirishga majbur etdi. Yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatdi hamda ular berayotgan mahsulot: go'sht, sut va teridan foydalanishni o'rgandi. Ovqat pishirishni o'rgandi, idishlar yasash uchun yangi muhim materiallarni o'zlashtirdi. U ovqat va ichimliklar saqlash uchun mo'ljallangan idishlar, uy qurish uchun foydalaniladigan loyni tayyorlashga o'rgandi. Neolit davri yuqori paleolitdan shunisi bilan farqlanadiki, unda odamzod tosh buyumlarni silliqlash va sayqal berishni o'rgandi va shu farq mazkur davrga nom berdi (*neolit* – yangi tosh davri, yangi tosh ishlash, yangi usullar davri).

Neolit davrida dehqonlar yangicha ishlab chiqarish usullarini topdilar, zich va guruh-guruh bo'lib yashay boshladilar. Dushmanidan hamda yovvoyi hayvonlardan himoyalangan qishloqlar kengayib, atroflarida kichik qishloqchalar o'rnashar edi. Aholining keskin ko'payishi yangi erlarni o'zlashtirishga ehtiyoj tug'dirsa, hayot tarzining o'zgarishi diniy tasavvurlar rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratdi.

Dehqonchilikning muntazam tirikchilik tashvishlari: hosilni, yig'im-terimni kutish, aniq vaqtni belgilash, yil fasllarining stikllarini bilish kabilarning hammasi dehqonning osmonu erga, quyoshu oyga, yomg'iru shamolga yangi qiziqishi paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, yangi ruhlar qudratiga ishonch sezilarli va ko'zga tashlanadigan bo'lib qoldi. O'z navbatida, iltijo va qurbonlik ruhlarga atala boshlandi. Ammo tabiiy imkoniyatlar to'g'risidagi tasavvurlar keskin o'zgardi. Natijada qadimgi ruhlar – animistik sig'inish ob'ekti asta-sekin o'ta qudratli xudolarga aylandilar. Ular uchun mehrob hamda cherkovlar tashkil etilib, bunday joyda, odatda, dehqonlar jamoasidan maxsus ajratilgan alohida xizmatkorlar – kelajakdagi kohinlar kechayu kunduz xizmat qilar edilar. Qadimgi totemistik tasavvurlar ham o'zgardi, dehqonlar hayoti ov natijasiga bog'liq bo'lmagani bois, hayvonlar qadrlana boshladi, ammo totemistik tasavvurlar avlodlar xotirasida saqlanib qolaverdi. Bu esa zoomorfik tashqi qiyofani biron-bir sig'iniladigan ilohiyotda aks etishiga olib keldi. Aksar ilohiyotlarning ko'rinishi hayvon, qush, baliqlarning yo boshi, yo tanasi shaklida bo'lar edi. Bu mifologik qahramonlarning yuqorida aytib o'tilgan ilohiyotga qarindoshligi saqlanib qolgan.

Fetishizmning sokin xarakteri o'zgardi, ilohiyotlarning qudratli butlari mehroblar yoki cherkovlar yoniga o'rnatilgan yirik haykallar shakliga aylandi.

Ba'zan butlar o'rniga ramziy haykalchalar, turli shakldagi toshlardan foydalanildi. Fetishizmning rivojlanishida bu haykal va qurilmalar ibodatxonalarning ramzi bo'lib xizmat qildi.

Afsun ham o'zgardi. Afsungarlarning dushmanlarga ziyon etkazish va omadli ov bilan ta'minlash, ruhlar yordamida o'z maqsadiga etishishning ibtidoiy usullari o'rniga yangi, puxta o'ylangan ilohlar bilan aloqa marosimlari, boshqa diniy marosimlar, ibodat va qurbonlik qilish tartiblari yuzaga keldi. Tabiiyki, bular asosida qadimgi afsunlar yotar edi. Ammo bir qancha yangiliklar: fol va bashorat yuzaga keldi, bular afsunga yaqin bo'lgan hamda unga asoslangan afsun usullari bo'lsa-da, maqsad boshqa edi: bunda istakni amalga oshirish emas, balki uni bilish ko'zda tutiladi. Folbinlikning ilk shakllari neolit davridan ilgari ham amalda bo'lgan. Ammo tizim sifatida neolit davrida yakunlandi. Neolit davridagi dehqonlar qudratli tangridan qo'rqqan holda uning yaxshi niyat munosabatlariga juda qiziqar edilar. Buning uchun tabiat kuchlari ilohiyotlariga yoki ilohiylashtirilgan ajdodlarga ibodat qilishar edi. Ular xayolan qurbonliklar va ibodatlar ilohiyotlar ko'ngliga yo'l topadi, bizga yordam keladi deb ishonar edilar, ammo buni bilsa bo'ladimi? Mana shu erda fol ochishga ehtiyoj tug'ilar edi. Har bir jamoa uchun xos bo'lgan ibtidoiy shakldagi afsun marosimlaridan farqli o'laroq, folbinlik yuqori saviyadagi madaniyatni talab etardi. Marosimlarni olib boruvchi folbin kiyimi shartli belgilar tizimiga rioya qilishi shart edi. Bu shartli belgilar sig'inilayotgan ilohiyotining qoniqqanligini hamda ularning iltijolariga aniq javob berishga tayyorligini anglatardi. Belgilar tizimi har xil: elementar qur'a

tashlashdan to murakkab chiziq, yorug' nuqta va chiziqlarning qo'shilishigacha bo'lar edi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Dinning qanday ibtidoiy shakllarini bilasiz?
2. Dinning paydo bo'lishi haqida tadqiqotchilar qanday fikrlar bildirishgan?
3. Fetishizm nima?
4. Animizm qanday e'tiqodga asoslanadi?
5. Shamanizm deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Леви-Брюль Л. Первобытное мышление. М., 1930.
2. Мифологический словарь. М., 1990.
3. Мифы народов мира. В 2-х томах. М., 1991.
4. Основы религиоведения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Под общ. ред. И.Н. Яблокова. М., 1995.
5. Религиозные верования. Свод этнографических понятий и терминов. М., 1993.
6. Религиозные традиции мира. В 2-томах. М., 1996.
7. Тайлор Э. Первобытная культура. М., 1989.
8. Традиционные и синкретические религии Африки. М., 1986.
9. Фрейд З. Тотем и табу. Тбилиси, 1991.
10. Фрэзер Дж.Дж. Золотая ветвь: исследование магии и религии. М., 1986.

QADIMGI DINLAR: MISR VA YUNONISTON

Misr. Qadimgi Misr dinlari *nomlarning* rahnamo-xudolariga sig'inishga asoslangan. Mil. av. IV asrda qabilalar *nomlar* deb atalgan. *Nom* xudolariga sig'inish juda uzoq muddat davom etganligiga qaramasdan o'zining qadimiy xususiyatlarini saqlab qolgan. Har bir qabila o'z xudosiga ibodat qilish, uni e'zozlash bilan bir qatorda o'sha xudo bilan qandaydir jihat bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayvonni ham e'zozlagan va unga sig'ingan. Ular ikkalasi yoki alohida-alohida shaklda yoxud zooantropomorf, ya'ni odam-hayvon shaklida tasvirlangan. Masalan, Elefantinda – qo'yga, Denderada – sigirga, Siutda – chiyabo'riga, Germopolda – ibis (laylakka o'xshash uzun oyoqli qush) va pavianga (ittumshuq maymun), al-Fayyum vodiysida – timsohga, Bubastida esa mushukka sig'inganlar. Janubiy Misrning qadimiy birlashishiga asos bo'lgan Nexenda kalxat ayol xudosiga, unga yaqin joylashgan Naxabda suv nilufariga sig'inganlar. Shimoliy Misr birlashuvining qadimiy markazi Butoda muqaddas ilonga, qo'shni Pe jamoasida asalariga sig'inganlar.

Ko'rinib turibdiki, Qadimgi Misr dinlarida ko'proq totemistik unsurlar saqlanib qolgan. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, Misr totemizmi qabilaviy emas, balki mahalliy bo'lgan. Shunga qaramay, Afrika etnografiyasi keltirgan ishonchli dalillar hayvonlarni ulug'lash va ularga sig'inish odatlari avval ma'lum bir qabila miqyosida bo'lib, keyinchalik muayyan hudud doirasini qamrab olganligidan dalolat beradi.

Deyarli barcha mahalliy rahnamo-xudolarga sig'inish udumlari muqaddas hisoblangan hayvonga odam shaklini berish bilan kelib chiqqan. Masalan, mushuk keyinchalik mushuk boshli Bastet xudosiga, lochin – Gor xudosiga aylangan. Totaning ibis boshli, Anubisning it boshli, Sobekning timsoh boshli, Soxmetning urg'ochi sher boshli, Xator xudosining sigir boshli qilib tasvirlanishi muqaddas hayvonlarning keyinchalik yarim odam-yarim hayvon shakliga kirganidan darak beradi.

Misr xudolari orasida Nexebt, Xator, Neyt, Soxmet, Neftida kabi ko'p sonli ayol xudolarining mavjudligi Qadimgi Misrda matriarxal munosabatlar kuchli bo'lganligining oqibatidir.

Misrning birlashish davridan avvalroq butun Misrning umumiy xudolari kulti vujudga kelganligini kuzatish mumkin. Agar biron-bir qabila Misrning birlashtirilishida asosiy o'rinni egallasa, o'sha qabilaning xudosi umumdavlat ma'budiga aylangan.

Misrning umumiy xudolari orasida eng qadimiylaridan biri lochin Gor xudosi bo'lib, avval unga Ierakonpol va Edfuda sig'inganlar. Bu mintaqadan chiqqan Gorga sig'ingan podshohlar Misrning ilk birlashtiruvchilari bo'lganlar (1-2-sulola; mil. av. to'rtinchi ming yillikning oxiri). Ular o'z qabilaviy xudolarini umummisr quyosh xudosiga aylantirdilar. Mamlakat poytaxti Memfisga ko'chirilgan vaqtda (3-sulola; mil. av. 3000 y. atrofida) Misrning asosiy rasmiy xudosi Ptax nomli Memfis xudosi bo'lib qoldi. Mil. av. 2700 yillar atrofida 5-sulola hokimiyat tepasiga kelgan paytda On (Geliopol) shahri bilan bog'liq bo'lgan Atum (Ra) xudosi Misrning oliy xudosiga aylandi. 11-12-sulolalar

davrida (mil. av. 2100-1800 y.) juda ham mashhur bo'lmagan Amon xudosi umummisr xudolarining asosiysiga aylandi va oldingi oliy xudo Ra bilan birlashib Amon-Ra shaklini oldi.

Mamlakatning birlashtirilishi natijasida mahalliy xudolar ham ikkinchi darajali ma'budlarga aylanganlar. Germopol xudosi Tot (Ibis) olimlar va kotiblar rahnamosiga, Siut xudosi Anut narigi dunyo hukmdoriga, Latopolning ayol xudosi urush xudosiga, Koptos xudosi Min ajnabiylar rahnamosiga aylandi va h.k.

Qadimgi Misr dinlari guruhlaridan biri xalq dehqonchilik e'tiqodlari va marosimlari bilan bog'liq bo'lgan. Ular haqida ma'lumotlar nisbatan kam, chunki qadimgi yozma yodgorliklarda xalq dinlari emas, balki davlat dinlari haqida xabar beriladi. Biroq davlat dinlariga ham xalq e'tiqodlari o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu ta'sirni rasmiy din xudolari timsolida ko'rish mumkin: serhosillik xudosi avvalda Koptos xudosi Min, Fiva xudosi Amon, Elefantin xudosi Xnum, Delta ayol xudosi Isida va h.k. bo'lgan. Ammo xalqning dehqonchilik dinlari asosiy xudosi Osiris bo'lgan.

Qadimgi Misrda podshohlar – fir'avnlarning ilohiylashtirilish holatlarini kuzatish mumkin. Mamlakatni birlashtirgan Gor xudosiga sig'ingan qadimiy podshohlar o'zlarini xudolarining panohida deb hisoblaganlar va hatto o'zlarini uning nomi bilan ataganlar. 5-sulola davridan boshlab, fir'avn quyosh xudosi Raning o'g'li deb sanaladigan bo'ldi. Podshohlarni xudoning o'g'li deb bilish milodning boshlarigacha davom etgan. Podshohning o'zi asosiy diniy marosimlarni shaxsan ijro qilgan: ibodatxonalarga asos solgan, uning yolg'iz o'zi xudoga atalgan qurbonliklarni ado etgan. Ruhoniylar faqatgina podshoh nomidangina ish yuritganlar. Fuqarolar uning huzurida er o'pib ta'zim qilganlar, podshoh nomini aytish taqiqlangan, diniy ramzlarda uning surati aks ettirilgan. Bularning hammasi podshoh nasabining xudoga tegishli deb e'tiqod qilinganidan darak beradi.

Qadimgi Misrda dafn marosimlari asta-sekin taraqqiy etib bordi. Avvalda o'lgan odam jasadini yonboshlatib, ba'zi ashyolar bilan birga ko'mganlar. Ba'zan jasad bo'laklarga bo'lib ko'milgan. Vaqt o'tishi bilan, ayniqsa, podshohlar dafn rasm-rusumlari o'zgarib borgan. Sag'analar bora-bora keng va murakkab uslubda qurila boshlagan. Avval erdan ozgina yuqori ko'tarilgan piramida shaklida, keyinroq esa baland piramida shaklini olgan. Vafot etgan podshohning jasadi mumiyolanib dafn etilgan. Keyinchalik podshoh mulozimlari, so'ngroq o'rta tabaqa kishilari ham mumiyolanadigan bo'lgan. Mumiyolashning murakkab texnologiyasi tobora rivojlanib borgan. Mumiyolash ruhoniylar tomonidan bajarilgan. Ular bu ishda juda mohir bo'lganlar. Mana shuning uchun ham ular tomonidan mumiyolangan jasadlar bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Qadimgi Misrda jasadlarning mumiyolanishi o'limdan keyingi hayotga bo'lgan ishonchdan darak beradi. Qadimgi misrliklar e'tiqodlariga ko'ra, odam o'lishi bilan uning jasadidan uning nomi (*ren*), ruhi (*ba*), joni (*ka*) chiqib ketadi. *Ka* – insonning joni jasadning taqdiri bilan bog'liq hisoblangan. *Ka* o'lmas emas, agar jasad kerakli anjomlar bilan qo'shib dafn etilmasa, *ka* ochlik va chanqoqdan o'lishi mumkin. Agar turli sehrli duolar yozib qo'yilmasa, *kani* narigi dunyodagi maxluqlar eb qo'yishi mumkin. Jasad yaxshilab mumiyolanib, uzoq saqlansa yoki

hech bo'lmasa, uning ustixonini qancha uzoq saqlansa, ruhi ham shuncha uzoq yashaydi.

Misrlarning esxatologik tasavvurlariga ko'ra, oliy nasab, boy kishilar o'lgandan keyin narigi dunyoda farovon hayot kechiradilar. Ushbu tasavvurlar haqida 6-sulola vakillari sag'analarida aks ettirilgan suratlar xabar beradi. Bu kabi farovon hayotga, ularning fikrlaricha, bu dunyoda farovon hayot kechirganlar etishganlar yoki bunday hayotga sehr-jodu bilan erishish mumkin bo'lgan. Misrning qadimgi e'tiqodlarida o'lganlar rahnamolari bo'lgan xudolar haqida tasavvurlar mavjud bo'lgan.

O'rta podshohlik davrida o'lganlar ruhlari ustidan hukm chiqarish haqidagi tasavvurlar paydo bo'lgan. Bu ta'limotlar piramidalar matnlarida uchramaydi. Ular Osiris xudosini ruhlari ustidan hukm qiluvchi xudo sifatida ta'riflaganlar.

Qadimgi Misr dinlari tarixida sehr-jodu katta o'rinni egallagan. Bizgacha etib kelgan yozma va tasviriy manbalar, ashyoviy dalillar xalq hayotining turli sohalarida Misr tarixining barcha bosqichlarida sehrgarlikdan keng foydalanilganligidan dalolat beradi. Jumladan, tibbiyot bilan bog'liq davolash-himoyalash sehrgarligi bunga yaqqol misoldir. Misr tibbiyoti, xususan, dorishunosligi nisbatan yuqori o'rinda turgan va ularning barchasi sehrgarlik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. Ebers papirusi (12-sulola davri, mil. av. 2000 y.) nomini olgan tibbiyotga oid nisbatan ilmiy asarda ham dorilar tarkibi haqida yozila turib, ular orasida bir qator kasallikni ketkazuvchi sehrli so'zlar ham berilgan. Boshqa tibbiy asarlarda esa sehrgarlik yanada ko'proq uchraydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tibbiyot ruhoniylar qo'lida bo'lgan. Undan tashqari, ob-havo sehrgarligi ham amalda ko'p qo'llangan. Mana shunday marosimlardan biri *Raning* dushmani *Apopga* qarshi *Fiva* ibodatxonasi ruhoniylari doim quyosh porlab turishi uchun har kuni sehrgarlik marosimlarini o'tkazar edilar. Shuningdek, dushmanga zarar etkazish sehrgarligi mavjud edi. Bunda dushman timsoliga qarata zarar etkazuvchi duolar o'qilar edi. Shu bilan birga, yuqorida zikr etilganidek, o'lganlarning ruhi narigi dunyoda rohat-farog'atda yashashi uchun o'tkaziladigan sehrgarlik marosimlari ham bo'lgan.

Misr diniy hayotida, ayniqsa, keyingi davrda ruhoniylar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Avval boshda bunday mansab bo'lmagan. Qadimiy podshohlik davrida ruhoniylar juda kam bo'lgan. Diniy marosimlarni asosan dunyoviy kishilar – hokimlar, oqsoqollar, markazda esa fir'avnlarning amalga oshirgan. Ruhoniylar esa mazkur boshliqlar nomidan ish yuritganlar. Ruhoniylar orasida faqatgina Memfis xudosi Ptah, Geliopol xudosi *Ra* ibodatxonasi ruhoniylarigina nufuzli mavqega ega bo'lganlar.

Misr aholisining milliy hissiyotlari kuchaygan va podshohlikning zaiflashgan davrida (mil. av. 1700-1570 y.) ruhoniylarning obro'si oshdi. Keyinchalik ruhoniylar avloddan-avlodga meros tarzida o'tadigan bo'ldi.

19-20-sulolalar davriga kelib (mil. av. XIV – XI asrlar) nufuzi pasayib qolgan fir'avnlarning ruhoniylar yordamisiz ish yurita olmas edilar. Shuning uchun ham ruhoniylarga katta-katta er-mulklar berar edilar.

Misr hayotining mafkuraviy sohasini o'z qo'lga olgan ruhoniylar mamlakat ijtimoiy hayotida sezilarli ta'sirga ega edilar.

Yunoniston. Qadimgi yunon dinlari haqida ma'lumot beruvchi manbalar ko'p, ular ichida qadimgi yunon dostonlari hamda yunon faylasuflarining bizgacha etib kelgan asarlari yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi.

Qadimgi yunonlar hayvonlar timsollarini ilohiylashtirganlar. Bunda ho'kiz timsoli birinchi o'rinda bo'lib, xo'kiz suratlari qadimgi yunon tasvirlarida tez-tez uchrab turadi. Shuningdek, yunonlar ilon timsolini, yana bir qator hayvon va qushlarni ilohiylashtirganlar. Demak, aytish mumkinki, qadimgi yunonlarda totemistik tushunchalar keng tarqalgan.

Qadimgi yunonlarda odam shaklidagi xudo timsollari ko'p uchraydi va ushbu xudolar ko'pincha ayol timsolida bo'ladi. Masalan, shunday tasvirlardan birida bir ayolning ikki qo'lini osmonga ko'tarib turgan itning oldida qo'llarini yuqori ko'targan holda turgani tasvirlangan.

G'ildiraksimon shakllar yordamida quyosh va oy timsollariga ishora qilganlar va buning bilan ularni ham ilohiylashtirganlar. Toshlarda ba'zi daraxtlarda ilohiy kuch mavjud deb hisoblaganlar, g'orlar va ungurlarga esa o'limdan keyingi hayot hamda turli marosimlarga bog'lab diniy tus berganlar.

Qadimgi yunon dinida totemizm singari ilk diniy tasavvurlarning ba'zi belgilari sezilib turadi: *mirmadanlarning* chumolidan tarqaganligi haqidagi afsona yoxud ilonoyoq Kekropning Afina asoschisi ekanligi haqidagi afsonalar shunga asos bo'la oladi.

Yana qadimgi ovchilik an'analariga oid marosimlar va sehrgarlik rasm-rusumlari ob-havo bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, Mefanax (Korinfika) shahrida jazirama issiq shamollarni haydash uchun ikki kishi bir oq xo'rozni ikkiga bo'lib, qo'lga ko'tarib tokzor atrofida har tomonga yugurganlar. Yoxud shunga o'xshash yomg'ir chaqirish ham alohida marosimni talab etgan.

Yunonlar dinining mana shu qadimgi shaklida tabiatni o'rab turgan turli-tuman mayda ruhlari: suv ruhlari, o'rmon ilohlari, *nayad*, *driad*, tog' ruhlariga ishonish asosiy o'rin tutgan.

Ushbu xalqlarda ildizi qadim o'tmishga borib taqaladigan yomonlik keltiruvchi sehrga ishonch mavjud bo'lgan. Bunda er ostidagi qora kuchlar haqidagi tasavvurlar nazarda tutiladi. Ulardan qahrli Gekata birinchi o'rinda turgan. Agar odamlar biron kimsani dushman tutib yo'q qilmoqchi bo'lsalar, shu xudolar ismini tilga olib la'natlaganlar. La'nat yuborish va duoibad qilishning ham o'ziga xos rasm-rusumlari bo'lgan, biroq bunday yovuz sehrgarlik u qadar ahamiyatga ega sanalmagan. Yunonlar sehrdan keng foydalanganlar. Bemorlarni davolash, kasallikning muolajasida ham tabobat bilan bog'liq urf-odatlar uzoq saqlangan. Tarixan juda ham qadim-qadimlarga borib taqaladigan yunon e'tiqodlaridan biri – bu o'lim va undan keyingi holat haqidagi tasavvurlardir. Yunonlar odatiga ko'ra, o'lgan kishi tanasini erga ko'mishgan yoki sag'anada saqlangan. Ularning fikricha, o'lganlar ruhi er osti makoni – Aidada to'planadi. Inson qanday hayot kechirgan bo'lishidan qat'i nazar, xoh u qo'rqmas askar bo'lsin, xoh dehqon, barcha birdek mana shu Aida deb atalgan joyda og'ir mashaqqatlarga yo'liqadi. Shuning uchun ham yunonlar bu qiyinchiliklar girdobiga tushadigan marhumni so'nggi yo'lga kuzatish marosimini o'zlariga burch deb bilganlar va katta e'tibor bilan amalga oshirganlar. Yunonlar, garchi o'limdan unchalik qo'rqmagan

bo'lsalar-da, insonning o'limidan keyingi taqdirini o'ylab dafn etilmay itlar yoki biron boshqa yirtqichlarga em bo'lishini nihoyatda katta fojia sanaganlar. Ular marhumlar oziq-ovqatga muhtoj bo'ladilar deb, ularga maxsus oziqalar hozirlashgan.

Yunon diniy qarashlarining yana bir o'ziga xos jihati – aslzoda qahramonlarni ilohiylashtirish. Xalq qahramonlariga ishonchning shakllanishi biroz kechroq bo'lgan. Bunday ishonchning yuzaga kelishiga xudolarga bo'lgan ishonchning pasayishi sabab qilib ko'rsatiladi. Ilk ko'rinishida alohida urug'ning madadkor ruhlari, boshlang'ich ajdodlari qahramon sifatida talqin qilingan. Aslzoda xonadonlarning alohida ajratilishi bilan ularning ilk ajdodlari ham ulug'lana boshladi. E'tiborli va kuchli xonadonlarning ajdodlari nomi boshqalarnikidan yuqori qo'yilib, uni ulug'lovchi va unga sig'inuvchilar soni ham ortib borgan. Shu tariqa Gerakl, Iffikal, Ivrimom, Borea, Erota kabi qahramonlardan iborat xudolar panteoni vujudga keldi.

Gerakl butun yunon o'lkasida mashhur qahramon timsoli bo'lib, uni quyosh xudosi deb bilganlar. Ammo ba'zi tadqiqotchilar uni tarixiy shaxs deb hisoblaydilar, ya'ni Gerakl timsoli xalq qahramoni shaxsining afsonaviylashtirib yuborilgan ko'rinishidir. U doriylar qabilasiga mansub Geraklidlar sulolasining bobokaloni hisoblanadi. Doriylar tomonidan Peloponnessaning katta qismini bosib olinishiga sabab bo'lgan «Geraklidlar yurishi» mil. av. XII – XI asrlarda bo'lgan tarixiy voqeadir. Geraklning mana shu yurishlar davomida ko'rsatgan qahramonliklari uning butun Yunoniston bo'ylab mashhur bo'lishiga va u haqda ko'plab afsonalar to'qilishiga olib keldi: uning hatto osmonga ko'tarilib ketgani va Ellada xudolaridan biriga aylangani haqida afsona tarqaldi. Geraklning o'g'li Fest sikionliklarni o'z otasini qahramon sifatida emas, xudo sifatida ulug'lashga majbur qildi.

Bundan tashqari, joylarda e'tiborli oilalar jamiyatda keng tarqalib ulgurgan marosimlarni qo'llariga ushlab qolishga harakat qildilar. Jumladan, Afinada Eretey, Buta kabi qahramonlar kulti zodagon Butadlar xonadoni qo'lida bo'lgan.

Qadimgi yunon xudolari mahalliy va umumiy xudolar toifasiga bo'linadi. Mahalliy xudolarga o'zaro urushlarda yordam beradi, deb e'tiqod qilingan bo'lsa, umumiy xudolar tashqi dushmanga qarshi kurashlarda yordam beradi deb ishonilgan. Yunonistonda alohida shaharlarning o'z xudolari bo'lganligi bu mamlakatning siyosiy tarqoqligidan xabar beradi. Gomer davrida yunonlarning madaniy jamoasi umumiyunon xudolari hisoblanmish Olimpiya xudolariga ibodat qilishi bilan ajralib turar edi. Olimpiya ulug' xudolari panteonining kelib chiqish masalasi juda murakkab. Ularning har biri o'ziga xos bo'lib, ba'zilari Ellada davridan avvalgi xudolarning yunonlar tomonidan o'zlashtirib olinganidir.

Ularning eng ulug'i Zevsning xotini shahloko'z Gera hisoblangan. U Mikenning qadimiy homiysi sigir-xudo ko'rinishidadir. Ikkinchisi Poseydon Peloponnessada qadimiy dengiz xudosi bo'lib, unga sohildagi baliqchilar sig'inishgan.

Afina ham Olimpiya xudolaridan bo'lib, shaharlar va qo'rg'onlar homiysi hisoblangan. Uning «Afina xudosi», «Afinalik ayol», «Pallada», «Poliada» kabi ellikka yaqin sifatleri bo'lib, o'z davrida Yunonistonning eng oliy xudolaridan biri

bo'lgan. «Ellada tavsifi» kitobida unga atab 73 ta ibodatxona, ziyoratgohlar qurilgani eslatiladi. Bu jihatdan Afina Artemidadan keyingi o'rinda turar edi. Qadimgi afsonalarga ko'ra Afina jangovar xudo sifatida to'la qurollangan holda tasvirlangan. Shuningdek, uning obrazida totemistik jihatlar ham saqlanib qolgan. U goho boyqush, goho ilon, gohida esa zaytun daraxti timsollarida tasavvur qilingan.

Artemida yunon xudolari orasida buyuklaridan hisoblanar edi. Eng ko'p ibodatxona va muqaddas qadamjolar unga atab qurilgan. Qadimiy afsonalar va turli tasvirlarda Artemida ovchi qiz shaklida tasvirlangan.

Eng ko'p tasvirlangan Apollon timsoli o'ta murakkab va noaniq obrazdir. U Zevs va Letoning o'g'li, Artemidaning akasi hisoblanadi. Apollon so'zining ma'nosi ba'zida «halok qiluvchi», ba'zida «chorva rahnamosi» sifatida talqin qilingan.

Zevs esa «xudolar va odamlar» otasi hisoblangan. Unda ellikka yaqin mahalliy xudolarning sifatleri jamlangan bo'lib, ular Zevsning sifatleri o'laroq saqlangan. Zevs haqidagi afsonalar ko'proq Krit va Fessaliyada tarqalgan. Zevs ismi «yog'duli osmon» ma'nosini bildiradi.

Bulardan tashqari, yunonlar Asklepiy, Pan, Afrodita, Ares, Gefest, Gestiya, Hermes kabi xudolarga sig'inganlar.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Qadimgi Misr va Yunoniston madaniyatlari tarqalgan hududlar qaysi?
2. Qadimgi Misr diniga xos qaysi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
3. Qadimgi yunon panteonini tavsiflab bering.
4. Qadimgi Misr va Yunoniston dinlari o'rtasida qanday aloqadorlik bor?
5. Fir'avn shaxsi qaysi yo'llar bilan ilohiylashtirilgan?

Adabiyotlar

1. Винничук Л. Люди, нравы, обычаи Древней Греции и Рима. М., 1988.
2. Коростовцев М.А. Религия Древнего Египта. М., 1976.
3. Кун Э.А. Легенды и мифы Древней Греции. М., 1957.
4. Леви-Брюль Л. Первобытное мышление. М., 1930.
5. Матье М. Древнеегипетские мифы. М.-Л., 1956.
6. Мифологический словарь. М., 1990.
7. Мифы народов мира. В 2-х томах. М., 1973.
8. Немировский А.И. Мифы Древней Эллады. М., 1992.
9. Тайлор Э. Первобытная культура. М., 1989.
10. Токарев С.А. Религия в истории народов мира. 4-е изд. М., 1986.

HINDISTON DINLARI

QADIMIY DINLAR

Vedizm. Mil. av. ikkinchi ming yillik o'rtalarida Hindistonning shimoli-g'arbiy qismiga, hozirgi Panjob hududiga g'arbdan Hindikush dovoni orqali o'zlarini *oriylar* deb atagan jangari xalqlar bostirib kela boshladilar. Bu xalqlar Eronga ko'chib kelgan qo'shni qabila tillariga juda yaqin bo'lgan, hind-evropa tillaridan kelib chiqqan tilda gaplashar edilar. Harbiy jihatdan katta mahoratga ega bo'lishlari bilan birga she'riyatga ham usta edilar. Shu yo'l bilan ular bu mintaqada mavjud dunyoqarashni o'zlari xohlagan tarafga o'zgartira olardilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlari – Vedalar (sanskrit. – *muqaddas bilim*)ni ham olib kelgan edilar.

Hind adabiyoti juda boy, uch yarim ming yildan ortiq tarixga ega. Vaqt o'tishi bilan undan anchagina qismi umuman yo'qolib ketdi. Ammo bu adabiyotning boshlanishi Vedalardir. Bu boshlanish bo'sh, sayoz bo'lmay, aksincha, juda ham puxta va ajoyib edi. U keyinchalik o'z o'rnida katta daryolar paydo bo'lgan kichik irmoqni emas, balki ulkan dengizni eslatadi. U doimo asos-manba bo'lib qolaveradi. Albatta, Rigvedadan oldin qandaydir boshlanish bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin biz bu haqda hech narsa bilmaymiz. Rigveda o'z sohasida nafaqat eng ko'zga ko'ringan kitob, balki Hindistonning o'sha davr voqealari haqida xabar beruvchi noyob manba hamdir.

Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular o'z ichiga ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy xabarlarini olgan edi. Vedalar to'rt yirik to'plamdan iborat:

1. Rigveda («Madhiyalar vedasi»);
2. Samaveda («Qo'shiqlar vedasi»);
3. Yajurveda («Qurbonliklar vedasi»);
4. Atxarvaveda («Afsun va jodular vedasi»).

Rigveda. Rigvedaning qadimiy hindlar madaniyatida, shuningdek, umumhind-evropa madaniyatidagi o'rnini tushunish uchun kitobning asli paydo bo'lish tarixiga nazar solish lozim. *Oriy* qabilalarining ko'chib kelishlari ko'p asrlarga cho'zilgan va juda keng miqyosni qamrab olgan uzoq jarayon bo'lgan. Rigvedada bu qabilalarning Hindistonga ko'chib kelishlaridan oldingi harakatlari haqida aniq esdaliklar uchramaydi. Ammo *oriylar* bu erda birinchi paydo bo'lganlarida ularda faqatgina jang aravalari emas, balki xudolarga aytilgan, ularning jangovar ruhini qo'llab- quvvatlagan, ularning dushman ustidan g'alaba qilishlari, shon-shuhrat, boylik, erkak avlod qoldirish, taraqqiy etish uchun bo'lgan intilishlarini aks ettirgan madhiyalar ham bor edi. Bu madhiyalar ruhoniylar oilalarida og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga uzatildi. Rigvedada zardushtiylikning muqaddas kitobi Avesto bilan juda hamohang afsona va marosimlar bor. Ba'zi noaniq afsonaviy shaxslar bu ikki manbani bir-biri bilan qiyoslash yordamida ayon bo'ladi.

Rigveda yagona asar, to'plam sifatida Hindiston hududida, asosan, Panjobda, Hind daryosi havzasida mujassam bo'ldi. Hindiston tarixi bo'yicha qadimiy sana

hisoblanmish mil. av. VI asr buddizmning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Vedalar esa undan ancha avval qayd etilgan. Shunday qilib, Rigveda Shimoliy Hindistonda mil. av. ikkinchi-birinchi ming yilliklarda yuz bergan voqealar haqida ma'lumot beruvchi yagona manba bo'lib qolmoqda. Bu yodgorlik juda noyob bo'lganligi sababli u faqat o'zini-o'zi sharhlaydi.

Veda – «muqaddas bilim», Rigveda – «madhiyalar vedasi» ma'nolarini beradi. Veda o'sha davrda yashagan insonning o'zi va uni o'rab turgan olam: xudolar, jinshaytonlar, fazo, marosimlar, ijtimoiy tuzum, milliy qadriyatlar va boshqalar haqidagi bilimning barchasini o'z ichiga oladi. Rigveda xudolarga aytilgan madhiyalarning to'plami, ya'ni diniy yodgorlik bo'lib, uning mualliflari, *rishi* kuylovchilarning asosiy vazifalari xudolarni *oriylar* tomoniga og'dirish bo'lgan. Ular madhiyalarni kuylab xudolarni maqtaganlar, ularning qahramonlik va sharaflarini ulug'laganlar, ularni qurbonlik keltirish marosimlariga taklif etganlar va shundan so'ng ulardan *oriylarni* qo'llab-quvvatlash hamda hayot farog'atlarini ato etishlarini so'raganlar. Xudolarga ta'cir etishning eng asosiy yo'li – ularga madhiya aytish bo'lgan. Rigveda qadimgi yunon dostonlari «Iliada» va «Odisseya»ning birgalikdagi umumiy hajmiga teng keladi.

Samaveda. Boshqa vedalar orasida Rigvedaga ko'proq bog'liq bo'lgani bu Samavedadir. U hozirgi davrga ikki tahrirda etib kelgan (çākhā aynan. shahobcha): Kautxuma (Kauthuma) va Ranayaniya (Rānāyaniya). Kautxuma to'plami 1810 she'rdan iborat bo'lib, undan faqatgina 76 tasi Rigvedada uchramaydi. Undagi she'rlar, asosan, Rigvedaning VIII va IX mandalasidan olingan bo'lib, tantanali qurbonlik marosimi paytida o'qiladi. To'plam ikki qismdan iborat: birinchi kichikroq bo'lgan hajmi Agni, Indra ilohiyotlariga, ikkinchisi *Somaga* qurbonlik keltirish marosimida aytiladigan qo'shiqlardan iborat. She'rlar orasida ichki bog'liqlik bo'lmay, ularning tartibi marosimlarning borishiga qarab belgilangan. Bu she'rlar ohang bilan qo'shiq tarzida aytish uchun mo'ljallangan. Ushbu vedaning maqsadi diniy marosimlarda aytiladigan qo'shiqlarni o'rgatishdan iborat. Hindistonda hozirgacha vedalarni kuyga solib kuylovchilar – *samavedinalar* saqlangan bo'lib, ularning turli maktablari mavjud. Keyingi paytlarda qadimiy musiqiy an'ananing davomi deb da'vo qilinayotgan zamonaviy ijro san'atini o'rganish bo'yicha ko'p ishlar qilindi.

Yajurveda qolgan vedalardan farqli o'laroq, to'laligicha *shruta* (qurbonlik marosimi) bilan bog'liq. Uning asosiy qismini qurbonlik usullari – *yajus* tashkil qiladi. Mazkur yajuslar marosimning ma'lum bo'limlarida ijro etilib, bu she'rlarni marosimning borishidan kelib chiqib tushunish mumkin.

Yajurvedaning matni turli marosim o'tkazuvchi braxmanlar maktablari tomonidan tahrir qilingan shakllarga ega. Ulardan Yajurvedaning asl nusxasini ajratib olish juda qiyin, ammo ulardagi umumiy jihatlarni aniqlash mumkin: to'lin oyli tunda, yangi oy chiqqanda, Agni uchun o'tkaziladigan qurbonlik marosimlari.

Hind an'anasiga ko'ra vedaning bu maktablari Qora va Oq Yajurvedaga bo'lingan. Qora Yajurvedaning turli maktablarga xos bo'lgan Katxaka, Kapishtxala-Katxa, Maytrayani, Tayttiriya kabi tahrirlari mavjud. Uning «qora» deb atalishiga sabab unda she'riy yajus va mantralardan tashqari nasriy izohlar – *braxmana* qismini o'z ichiga olganligidir. Oq Yajurvedaning Vajasaneyi nomli

birgina tahriri bor. U faqat yajus va mantralardan iborat bo'lib, nasriy izohlardan xoli bo'lganligi uchun «sof, oq» deb ataladi.

Yajurvedaning tarkibi uch asosiy bosqichni tashkil etadi: I. Marosim. II. Yajus va mantralar. III. Braxmana sharhlari.

Atxarvaveda mil. av. 1-ming yilliklar boshlariga borib taqaladigan qadimiy hind afsunlarini o'zida aks ettirgan. U boshqa vedalardan mazmun va mohiyat jihatdan farqli o'laroq, qadimiy hind jamiyatida mavjud bo'lgan barcha taraflarni, nuqson va kamchiliklarni o'zida aks ettirgan.

Atxarvaveda «afsunlar va jodular vedasi» degan ma'nolarni anglatadi. U afsonaviy ruhoniylar Atxarvana («Olov ruhoniysi») nomi bilan bog'liq. Bunga sabab o'sha davrda afsun va jodular olov ustida bajarilganligidir.

Dastavval vedaning uch turi mavjud bo'lgan: Rigveda («Madhiyalar vedasi»), Yajurveda («qurbonlik uslublari vedasi»), Samaveda («qo'shiqlar vedasi»). Bu uch veda ham xudolarning abadiyligini ta'minlovchi ichimlik tayyorlanadigan *soma* o'simligiga bag'ishlangan qurbonlik marosimlari bilan bog'liq. Hind an'anasiga ko'ra bu marosim «shrauta» deb ataladi. Atxarvavedada veda dini ruhoniylarining asosiy ibodati hisoblangan *Somaga* qurbonlik qilishga umuman e'tibor qaratilmagan. Shuning uchun ham u yuqoridagi uch vedaga e'tiqod qiluvchilar tomonidan tan olinmagan. U oila atrofida markazlashgan marosimlar bilan ko'proq bog'liq. Shunday qilib, Atxarvaveda o'zidan avvalgi uchta vedadan o'z marosimlarining negiz va mohiyati bilan farqlanadi. Uning asosida uzoq o'tmishga borib taqaladigan xalq sehrgarlik marosimlari yotadi.

Atxarvavedaning qachon paydo bo'lganligi masalasi aniqlikdan ancha yiroq. U eng qadimiy hisoblanmish Rigvedadan ancha keyin yaratilgan.

Atxarvaveda olti ming she'rdan iborat 371 madhiyani o'z ichiga oladi. Ular 20 ta kitobda jamlangan.

Vedalar ta'limoti. Vedalarda butun tabiatning ilohiyligi haqidagi ta'limot ilgari suriladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Hindiston ko'pxudolikning o'chog'i hisoblanadi. Undagi tasavvurlarda biri ikkinchisidan yuqori bo'lgan, ikkinchisi, aksincha, pastroq bo'lgan qator ilohiyotlar siymosi namoyon bo'ladi. Biroq bu darajalar to'xtovsiz almashinib turadi. Ilohiyotlar orasida «eng ulug'i, eng kichigi, eng qarisi, eng yoshi» bo'lmay, ular barchasi ulug'likda tengdir. Eng yuqori hokimiyat ham ko'pchilikka tegishli. Bir vaqtning o'zida bir xudo butun borliqning hukmdori bo'lishi va shu bilan birga u ikkinchi bir xudoga tobe bo'lishi mumkin. Masalan, Indra va barcha xudolar Varunaga tobe bo'lgan bir paytda, Varuna va boshqa barcha xudolar Indraga bo'ysunadilar. Xuddi shu munosabat boshqa xudolarga ham tegishli. Bu belgi veda ilohiyotiga ham xosdir.

Veda xudolari. Vedalarda xudolar – osmon xudolari, quyosh xudolari, havo xudolari, er xudolari, ayol xudolar kabi xudolar toifasi haqida madhiyalar bayon etilgan.

Osmon xudolari. Ular sirasiga Dyaus, Varuna, Indra kabi turli osmonlarni boshqarib turuvchi xudolar kiradi. Biroq Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosisiga aylanib ketgan.

Quyosh xudolari. Rigvedada quyosh energiyasining turlicha namoyon bo'lishidan besh xudo yuzaga kelganligi haqida so'z yuritilgan. Ularning eng qadimiysi Mitra («do'st») dir. Surya quyoshning yorqinroq namoyon bo'lgan ko'rinishidir. U yunonlardagi Apollon kabi etti ot biriktirilgan g'ildirakli

aravalarda tasvirlangan. Savitri esa quyoshning quvvat beruvchi kuchida namoyon bo'ladi. Pushan muruvvatli hisoblanib, quyoshning mahsuldorlik faoliyatini o'zida namoyon qiladi. Ularning yana biri Vishnu vedalarda zikr qilingan va keyinchalik unut bo'lib ketgan xudolar orasida abadiy hisoblangan, hozirgi paytda butun Hindistonda ulug'lanadi.

Havo xudolari. Ulardan tashqari bu xudolar qatoriga Ashvina va Savitar nomi bilan ataluvchi ikki tong xudosi ham qo'shiladi.

Ularning boshida osmon podshosi va oriylarning milliy xudosi Indra turadi. U avvalo ikkita sariq otga qo'shilgan g'ildirakli aravada turuvchi jang xudosidir. U oriylar urug'ining etuk sardori ramzidir. Dastavval Indra hind an'alarida chaqmoq xudosi sifatida namoyon bo'lgan. Biroq bosqinchilar tomonidan ko'p yillar davomida olib borilgan urushlar uni urush xudosi ga aylantirdi. Yomg'ir xudosi Panjanya, shamol xudosi Vayyular vedalarda aniq tasvirlanmagan. Ular tez-tez Indra bilan umumlashgan holda tasvirlanadi. Ulardan yana biri Rudna bo'lib, odamlarning unga nisbatan cheksiz qo'rquvlari ularni doimiy ravishda Rudnaga bag'ishlab madhiya va duolar o'qishga undagan. U Rigvedada Shiva («yoqimli») nomi bilan zikr etiladi. Keyinchalik Shiva Vishnu bilan birgalikda «ikki xudo» sifatida unutilgan Hindiston xudolari turkumi o'rnini egalladi.

Er xudolari. Er xudolarining eng ulug'i erda quyoshning, havoda chaqmoqning, er ustida olovning mujassamlashuvi hisoblangan olov xudosi Agnidir. Agni haqidagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan. U odamlarning qurbonliklarini xudolarga etkazuvchi ruhoniylar sifatida tasavvur qilingan. Biror qurbonlik uning vositasiz xudolarga etib bormaydi deb hisoblangan.

Ayol xudolar qatoriga tong va tong nuri ma'budasi Ushas, daryo xudosi Sarasvatilar kirgan. Sarasvati keyinchalik braxmanizm da so'z xudosi sifatida tasvirlangan.

Veda ibodatlari. Veda ibodatlari ikki turga bo'linadi. Birinchisi duolar, ikkinchisi xudolarga atab qilinadigan qurbonliklar yoki boshqa bir narsalarni taqdim qilishdan iborat. Dastavval duo kitoblari bo'lmagan paytda ibodatlar faqat qurbonliklar shaklida amalga oshirilgan. Unda ma'budlarga kuydirilgan moy, non va nihoyat, suv yoki sut bilan aralashtirilgan soma ichimligi tortilgan. Shuningdek, hayvonlar (masalan, ot) ham qurbonlik qilingan. Vaqt o'tishi bilan bu marosimlar murakkablashib borgan. Qurbonlik banda bilan xudo o'rtasidagi savdo, kelishuv ma'nosida qabul qilingan. Masalan, inson bir narsaga muhtoj bo'lsa, xudoga qurbonlik qila turib undan o'z ehtiyojini qondirishni so'ragan. Keyinchalik Rigveda, Atxarvaveda kabi madhiya va duolarni o'zida jamlagan kitoblar paydo bo'lgach, ibodatning ikkinchi ko'rinishi – xudolarga atab duo va madhiyalar o'qish odat tusiga kirgan.

Braxmanlik veda dinlarining bir shahobchasidir. Vaqt o'tishi bilan vedalardagi qo'shiqlar ommaga, hatto ruhoniylarga ham tushunarsiz bo'lib qoldi. Bu qo'shiqlar hali o'zgarishga uchramay, muqaddas til va muqaddas matnlar paydo bo'ldi. Nihoyat, bu tilni o'rganish uchun kishilar alohida guruhlar tuzib, maxsus vaqt ajratdilar. Natijada o'z hayotlarini ibodat qilish, ilohiyot ilmini o'rganish, murakkab marosimlarni o'tkazish va xalq ruhoniylar hayotini boshqarishga bag'ishlagan braxmanlar *kastasi* (tabaqasi) vujudga keldi. Dinga xos bo'lgan xususiyatlardan biri – ilohiy tilni o'zgartirib bo'lmasligidir. Xuddi shu bir tilning

eskirib amaldan qolishi va faqat muqaddas tilga aylanib qolishi braxmanizmning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillardan biridir.

Oriylar umuman boshqa madaniyatga, hayot tarziga ega bo'lgan turli xalqlar bilan uchrashib, mutlaqo boshqa tabiiy sharoitga duch keldilar. Ular ko'chmanchilikdan endi o'troq hayotga o'tib, davlatdagi hukmron sinfga aylandilar. Shundan so'ng ularning eski dinlari – vedizm mazkur jarayonlar ta'sirida taraqqiy etdi. Bu taraqqiyot dinni falsafiy jihatdan chuqurlashtirish, ruhoniylar tabaqasining mavqeini ko'tarish, ibodat va marosimlarni murakkablashtirish, ilohlar sifatini murakkab tomonga o'zgartirish hisobiga bo'ldi. Shundan keyin o'zgartirish taqiqlangan diniy aqida vujudga keldi.

Zikr etilgan faktlardan kelib chiqib aytish mumkinki, braxmanizmda xalqning emas, ko'proq ma'lum ruhoniylar tabaqasining manfaatlari himoya qilinadi.

Braxmanlikning asosiy elementlari braxmanlar va vedalarga tegishli sutralardir. Sutralar san'atning alohida ko'rinishi bo'lib, yaqqol ajralib turuvchi ustalik bilan sof sanskrit tilida yozilgan. Unda mavjud vaziyatga alohida e'tibor qaratilgan holda ma'lum tabaqaga yuqori o'rin beriladi.

Braxmanlar o'z nomlarini tuzgan dinlarigagina emas, joy nomi (Braxmaniya) sifatida, butun boshli fan va san'atga (braxmanizm she'riyati, tibbiyoti, matematikasi kabi) nom qilib berdilar. Ular o'zlarining kelib chiqishlarini etti ruhoniylar oilaning boshliqlari bo'lgan etti rishidan deb hisoblaydilar. Madhiyalarning ilk mualliflari bo'lgan shoirlar, tilshunoslar va hozirjavob kishilar o'z kasblarini avlodlariga uzatganlar. Vedaning o'zida aytilishicha, «rajarshi» («rishi-podshoh»)lar ba'zan shunday madhiyalarning mualliflari bo'lganlar.

Braxmanlar tabaqasi *oriylarning* Hindiston hududiga kirib kelishlaridan oldin shakllangan, degan fikrlar ham mavjud. Ammo ular ilk davrda katta mavqega ega bo'lmaganliklari uchun ularning qachon va qanday qilib asosiy nufuzga ega bo'lgan davrlarini bilish muhim. *Oriylar* Hindiston bo'ylab harbiy yurishlarini davom ettirganlari sayin kamroq qarshilikka duch kelardilar. Natijada kshatriylar (jangchilar) tabaqasi tobora e'tibordan chetga chiqib, bosib olingan erlardagi xalqlar orasida tartib o'rnatish uchun diniy-ruhiy jihatdan ta'siri kuchliroq bo'lgan boshqa tabaqa – braxmanlarning nufuzi oshib bordi. Chunki braxmanlar diniy marosimlardan tashqari huquq, urf-odat kabi sohalaridan ham xabardor edilar.

Braxmanning hayoti to'rt muayyan belgilangan bosqichdan iborat. Xususan, uning har bir kuni mashaqqatli ibodat, o'rganish va vazifalar bilan to'la. Braxmanning diniy hayoti tug'ilishi bilanoq emas, balki uning balog'at yoshiga etib, muqaddas bog'ichni qabul qilishi va «baxshida qilish» marosimidan keyin boshlanadi. Shundan keyin braxmanning yoshligi birorta donishmand braxmanning qo'lida vedalarni yodlash, uning uyida muqaddas olovni doimo tutib turish, ustozining xizmatini qilish, jumladan, uning uchun sadaqa yig'ish bilan o'tadi. Braxman bu bosqichda «braxmacharin» deb nomlanadi. Uzoq vaqt davom etadigan bunday ta'limotdan so'ng u ikkinchi bosqichga o'tadi. Braxman «grixastxa» deb nomlanadigan bu bosqichda uy xo'jayini vazifasini bajaradi. U uylanishi, oilani boqishi (xususan, o'g'il etishtirishi), amaliy hayot ilmini egallashi va o'zining fuqarolik burchlarini bajarishi lozim. Qonun uy xo'jayinining o'zini qanday tutishini soat sayin qat'iy ravishda diqqat bilan

kuzatib boradi. Qachon va nimani eyish, nimani ichish, qachon ibodat qilish, marhumlarni qanday dafn etish, mehmonlarni qanday kutish, ovqatni qanday tayyorlash, qariyalarga, ayollarga, yosh bolalarga qanday munosabatda bo'lish va boshqa ko'p narsalar belgilab qo'yilgan.

Braxman «vanaprastxa» (o'rmon zohidi) deb ataluvchi hayotining uchinchi qismida oilasi bilan yoki yolg'iz holda o'rmonga ketishi kerak. Bu erda u «o'z nafsini jilovlab» ildizlar yoki mevalarni eb, diniy amallarni jiddu jahd bilan bajarishi kerak. Bu bosqichda braxmanga bir qator mashaqqatlarni boshdan kechirish tavsiya etiladi: u tuproqqa qorishib dumalashi yoki kun bo'yi oyoq uchlarida turishi va yo navbat bilan turib o'tirishi mumkin. Jazirama kunda o'zini «besh olov issig'iga» duchor qilishi, yomg'irli paytda ochiq joyda yashashi, qishda esa ho'l kiyimda yurishi kerak.

Braxman hayotining to'rtinchi bosqichi «saniyasi» (zohid) tarkidunyochilik yoki diniy qashshoqlik davridir. U hayotning barcha tashvishlarini ortga tashlab, xursandchilik, qayg'u, orzu-havas va jismoniy ehtiyojlarni tark etib, hamma narsaga befarq bo'lgan holda bir maqsadga – «Oliy Braxmaga etishish, ya'ni u bilan qo'shilib ketish, bu dunyo va o'lgandan keyingi abadiy baxtga erishishga» intilishi kerak. Braxman tarkidunyochilik bosqichida faqat sadaqadan tushgan narsalar hisobiga kuniga bir marta ovqatlanib kun kechiradi.

Zikr etilgan – «braxmanning muqaddas to'rtlik qonuni» deb atalmish hayot tarzini faqatgina diniy qoidalar bilangina bog'lab tushuntirish mumkin emas. Hindiston tarixida ko'plab bunday hodisalarni kuzatish mumkin. Faqatgina oliy tabaqadan chiqqan kishilar emas, oddiy xalq vakillari ham ba'zan shon-shuhrat istab, o'z irodasini chiniqtirish maqsadida yoki o'zini boshqalardan kam bilmay, o'zlarini ana shunday hayot qiyinchiliklariga solganlar. Qadimda kishilar kuzatgan mazkur holatlarni Hindistonda hozir ham tez-tez uchratish mumkin. Budda hayotini o'rganishda uchraydigan ko'pgina hodisalar o'sha davrda ham braxmanlar «to'rtlik qonuniga» amal qilganlarini ko'rsatadi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Vedalarning boshqa muqaddas kitoblardan qanday farqi bor?
2. Qaysi Vedalarni bilasiz?
3. Veda dinlarida qanday ibodatlar mavjud?
4. Vedalarda ilohiyotlar qanday tasvirlanadi?
5. Braxmanlik jamiyatni qanday tabaqalarga bo'ladi?
6. Braxman hayoti qanday bosqichlardan iborat?

Adabiyotlar

1. Атхарваведа. Избранное. М., 1977.
2. Махабхарата. М., 1967.
3. Ригведа. Мандалы I-IV. М., 1989; Мандалы V-VIII. М., 1995.
4. Упанишады. В 3-х книгах. М., 1992.
5. Боги, брахманы, люди. Четыре тысячи лет индуизма. М., 1969.

6. Бонгард-Левин Г.Н. Древнеиндийская цивилизация: философия, наука, религия. М., 1980.
7. Бэшем А. Чудо, которым была Индия. Пер. с англ. М., 1977.
8. Ильин Г.Ф. Религия Древней Индии. М., 1955.
9. Кёйпер Ф.Б.Я. Труды по ведийской мифологии. М., 1986.
10. Луния Б.Н. История индийской культуры, М., 1960.
11. Снесарев А.Е. Этнографическая Индия. М., 1981.
12. Три великих сказания древней Индии. М., 1978.
13. Чаттерджи С., Датта Дж. Введение в индийскую философию. М., 1955.
14. Шохин В.К. Брахманистская философия. М., 1994.
15. Эрман В.Г. Очерк ведийской литературы. М., 1980.

HINDUIZM

Hinduizm juda murakkab dindir. U bir tomondan yirik ijtimoiy tashkilot, ikkinchi tomondan turli dinlar qorishmasidir. Ijtimoiy tashkilot sifatida kastachilik asosiga qurilgan. Ma'lumki, mil. av. VI asrda Hindistonda buddizm dini vujudga keldi. U braxmanizmdagi bir necha jihatlarni qabul qilgan bo'lsa-da, kasta ta'limotini inkor etdi. O'sha davrda Hindistonda kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanizm dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanizm bilan buddizm o'rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduizm edi.

Bu din, asosan, Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83 foizi, ya'ni 650 mln. kishi shu dinga e'tiqod qiladi. Hinduizm e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchi o'rinda turadi. Barcha hinduistlarning soni 700 mln.ni tashkil etadi. Yirik jamoalar Bangladeshda (12 mln.), Indoneziyada (3,6 mln.), Shri Lankada (3 mln.), Pokistonda (1,5 mln.), Malayziyada (1 mln.), AQShda (0,5 mln.), Butanda (0,3 mln.) mavjud. Hinduizm uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan birinchi va asosiy shart Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishdir.

Diniy qorishma sifatida hinduizm *oriylargacha* bo'lgan dinlar, hind-skif jamoalarining ibtidoiy diniy tasavvurlarini va qadimgi braxmanlarning buddizm bilan aralashgan qadimiy urf-odatlarini o'zida mujassam qilgan.

Shunisi qiziqki, hinduizm o'zining asosi hisoblanadigan vedizm va braxmanizmdan tashqi ko'rinishda farqlanadi. Unda yangi braxmanizm dinlari, to'g'rirog'i, oqimlari mujassamdir. Ularning barchasini umumiy jihatlarga qarab bir guruhga jamlash mumkin: tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddasligi; *guru* (pir, ustoz)ning tan olinishi; muqaddas joylarga ziyoratga borish; sanskritning muqaddas til ekanligi; va nihoyat, sigirning muqaddas ekanligi. Bu besh qoida yoki aqida umum tomonidan tan olingan bo'lsa-da, ko'p sonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farq va o'ziga xoslik kasb etgan.

Hinduizmda keyingi davrda vedalardan tashqari xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, «Maxabxarata» ham muqaddas yozuvlar qatoriga qo'shilgan. Hinduizmda ham braxmanlar asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham mazkur adabiyotlarning ko'pchiligi braxmanlar tomonidan yaratilgan. Ular eski aqidalarning zamon talabiga javob bermasligini ko'rib, yangi qonun-qoidalarga

mos ravishda turli oqimlarni yuzaga keltirdilar. Ular shu yo'l bilan o'z raqiblari hisoblangan buddistlarga qarshi kurash olib bordilar.

Hinduizm braxmanizmdan katta farq qiladi. Unda Maxabxarata va boshqa she'riy matnlar qadimgi sanskrit tilidan zamonaviy hind tiliga tarjima qilinib, muqaddasligi jihatidan asl matni bilan bir xil hisoblanadi. Hinduizm ta'limotiga ko'ra, braxmanlar nafaqat oliy tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan, hatto ayollardan bo'lishi ham mumkin.

Hinduizmda *trimurti* (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy xudolar sanalib, Braxma ularning eng kattasi – dunyoni yaratgan xudo hisoblanadi. Biroq hinduizmda faqatgina Vishnu va Shivagagina sig'inadilar. Shunga binoan, hinduizm ikki asosiy oqimga bo'linadi: Shivaga sig'inuvchilar va Vishnuga sig'inuvchilar.

Shiva oddiy xalq ommasi – kambag'allarning ilohiyoti hisoblanadi. U Rigvedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarvavedada Rudraning roli oshib boradi. Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. U Ishana, Ishvara, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

Hindistonda shivaizmning o'n uchga yaqin asosiy oqimlari mavjud. Shivachilar orasida asosiy oqim sifatida *tridandinalar* (uch tayoqlilar) va *smartlar* (*smriti* so'zidan – *haqqoniy rivoyatlar*)ni aytib o'tish mumkin. *Tridandinalarning* markazi Varanasi bo'lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar. *Smartlarning* bir qismi rohiblikda, yana bir qismi – dunyoviylik holatida yashaydilar. Ushbu oqimlarning har ikkalasi ham faqat braxmanlarnigina o'z saflariga qabul qiladilar. *Dandilar*, ya'ni zohidlar oriylarga xos bo'lmagan ba'zi marosimlarni o'tkazadilar. Jumladan, shu oqimga kirayotgan paytda oyoqlarining pastki qismidan qon chiqaradilar. O'lganlarni erga dafn qiladilar yoki muqaddas daryolardan biriga topshiradilar. Shivaizmning katta oqimlaridan yana biri *lingachilar* bo'lib, ular bo'yinlariga *linga* osib yuradilar. Kimdir uni oltin, kumush qutida olib yuradi. Ibodat vaqtida uni chap qo'llarida tutib turadilar. *Lingachilar* bir necha urug'larga bo'linib, o'zaro qudachilik qilmaydilar.

Yoglar o'zlarini tarkidunyo qilgan odam sifatida turli ko'ygga soladilar. Uzoq vaqt nafas olmay o'zlaridan ketadilar, bu vaqtda ular Shiva bilan yolg'iz qoladilar; omma oldida havoga ko'tariladilar; yana gipnoz usulida o'rgatilgan echki yoki ilon yordamida sadaqa yig'adilar.

Shivaizmning mayda oqimlari *oriylarga* tegishli bo'lmagan an'analar bilan sug'orilgan. Deylik, Shaktra yoki Shakta oqimi hayvon yoki odamlarni qurbon qilishi bilan ajralib turadi. Hozir turli balo-ofatlar paytida qilinadigan bunday qurbonliklar yo yo'q bo'lib ketgan, yoki maxfiy ravishda amalga oshiriladi. Xalq orasida Shivaning 1008 ta nomi bor.

Vishnu – hozirgi Hindiston panteonida birinchilik uchun kurashayotgan ikkinchi ilohiyotdir. Rigvedada tabiatga jon ato etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali ilohiyotdir. Unda Vishnu juda saxiy qilib tasvirlangan. Ibodat paytida uni Savitar, Roxita, Surya, Adita nomlari bilan ham ataydilar. U butun koinotni uch qadamda bosib o'tishi va havoda muallaq yura olishi xususiyati bilan tavsiflanadi. Yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon Krishna Vishnuga qo'shilib ketgan deb tasavvur qilinadi.

Maxabxarata va Ramayana dostonlarida *Avatara*, ya'ni insonning Vishnuga qo'shilib ketishi haqida so'z yuritiladi. Vishnu gohida to'rt qo'lli qilib tasvirlanadi. Vishnuning ommaviy ibodat marosimlari ba'zan juda murakkablashib, uzoq vaqt davom etadi. U hech qachon inson yoki hayvonni qurbonlik qilishni talab qilmagan.

Krishna («qora») o'zining tabiiy kelib chiqishiga ko'ra juda murakkab obrazdir. U haqda olov, chaqmoq, momaqaldiraq, osmon, quyosh bilan bog'liq afsonalar mavjud. Krishna jangovar, engilmas qahramon sifatida ta'riflanadi. U urushda ham, sevgida ham engilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega. Xalq orasida u erotik ilohiyot hisoblanadi. Krishnaga sig'inuvchilar, asosan, Mattra shahri va uning atroflarida yashaydilar, shuningdek, u Bengaliya va Orissada ham katta shuhratga ega.

Vishnuizm bayramlari turli-tuman: ba'zilar umumiy, ba'zilar esa tabaqalarga ajratilgan holda o'tkaziladi. Ular asnosida duolar o'qib, ta'zim bajo keltiriladi, ommaviy diniy marosimlarda qatnashiladi, turli hadya va qurbonliklar ataladi, shuningdek, ibodatxona yaqinidagi yoki ichidagi muqaddas hovuzda cho'milish majburiydir. Bu marosimlar ba'zi paytda bir necha kunga ham cho'zilib ketadi. Ularda faqatgina ruhoni rahbarligida hadyalar (pul, qimmatbaho buyum yoki qimmatli toshlar) xudolarga hamda ruhoniylarga ataladi. Qurbonliklar turli gullar, xushbo'yliklar, ovqatlardan, xudolar nomiga atab ozod qilinadigan yoki so'yiladigan hayvonlardan bo'ladi. Sigir qadimdan hindlar e'tiqodida muqaddas hayvon hisoblangan. Shuning uchun uni qurbonlik qilish yoki boshqa maqsadlarda o'ldirish katta gunoh hisoblangan. Sigirning besh mahsuloti (sut, suzma-tvorog, sariyog', siydik va tezak)dan tayyorlangan *panchagavyam* hinduiylar e'tiqodida odamlarni va uylarni poklashda alohida kuchga ega. Sigir muqaddas hayvon hisoblanganligi uchun u xudolar bilan bir qatorda ehtirom qilinadi. U keyinchalik «tirik but»ga aylanib, Shivaning ma'budlik o'rnini to'ldirdi.

Vishnuizmda ham o'zining muqaddas hayvoni bor. U maymundir. Rigvedada Vrishakani (erkak maymun) timsolida Xanumanning ajdodini ko'rish mumkin, degan rivoyat keltiriladi. Shuning uchun maymun Ram («Ramayana» dostonidagi odam-xudo)ning ittifoqchisi maymun-xudo Xanumanning vakili sifatida ulug'lanadi.

Bundan tashqari, ilon, sher, fil, ba'zi qushlar ham ilohiylashtiriladi. Umuman olganda, hinduizmde deyarli har bir Hindiston hayvoni xudo yoki xudoning hamrohi deb e'tiqod qilinadi.

Hinduizmde bayramlar ma'lum bir oqimga tegishli bo'lsa-da, ular ommaviy tarzda nishonlanadi. Masalan, Krishna (avgust) va Shivaning (fevral) tug'ilgan kunini nishonlashda shivachilar ham, vishnuchilar ham, garchi bayramga har bir oqim o'zicha ma'no bersa-da, teng ishtirok etadilar. Qadim zamonlardan ulug' bayramlar qatorida muqaddas joylarni ziyorat qilish Hindiston diniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Vedalarda faqatgina ayrim joylarni ziyorat qilishga ruxsat etilgan bo'lsa, Maxabxaratada Hindistonning shimolida joylashgan bir necha muqaddas ziyoratgohlar aniq ko'rsatib o'tilgan.

Hinduizmning aqidaviy, marosimiy va ramziy sohalaridagi juda ham murakkab tizimi unga e'tiqod qiluvchilarning turlicha talqinida yana ham murakkablashib ketadi. Garchi, hinduizm ilohiyotchilari uni animistik va butparastlik asoratlaridan tozalab, taraqqiy etgan dinlar qatoriga ko'tarishga harakat qilsalar-da, xalq ommasi doirasida u juda ham sodda, but va ruhlarga sig'inish xususiyatlarini to'la saqlagan holda davom etmoqda.

Jaynizm. Jaynizmning kelib chiqishi haqida ko'plab afsonaviy rivoyatlar mavjud. Rigveda kitobida jaynizmning ikki *tirtxakarlari* (yo'l tuzuvchi, ruhlarni ozod qiluvchi) Rishabxa va Arishtanem haqidagi rivoyat keltirilgan. Ulardan birinchisi – Rishabxa jaynizm ta'limotining asoschisi hisoblanadi. Bu rivoyatlarda Rishabxa shaxsida ilohiyot Naroyana, ya'ni Vishnu mujassam bo'lgan. Bu ma'lumotlar jaynizmning veda dinlaridan ham qadimiyroq ekanligini ko'rsatadi.

Jaynizm dini vakillarining e'tiqod qilishicha, bu ta'limotga 24 *tirtxakar* (payg'ambar yoki avliyo) asos solgan. Ularning barchasi *kshatriylar* xonadonidan bo'lgan. Ushbu *tirtxakarlarning* 22 tasi haqida ma'lumot deyarli yo'q, 23-si – Vardxamana Maxaviradan 250 avval yashagan Parshvanadxa – Banoras podshohi Ashvasanning o'g'li bo'lgan. Biroq rohiblik yo'lini ixtiyor etib, otasining saroyini tark etgan. U o'zidan keyin juda ham chiroyli nizomga solingan diniy ko'rsatmalar qoldirgan. Vardxamananing ota-onasi, oila a'zolari Parshvanadxaning dinida bo'lganlar. Vardxamanada yoshligidan jaynizm ta'limotiga kuchli qiziqish paydo bo'lgan. Shunday qilib, Vardxamananing o'zi jaynizmning navbatdagi va so'nggi *tirtxakari* bo'lib etishgan.

Vardxamana mil. av. VI asrda (599 y.) Hindistonning Bixar shtatida boy *kshatriy* oilasida tug'ildi. Otasi Siddxardxa Jnatrik qishlog'ining *kshatriylar* sulolasi boshlig'i edi. Onasi Trisala Lichchxavi sulolasidan bo'lgan mashhur podshoh Vayshali hukmdori Chetakining singlisi edi. Magadxi podshohi Bimbisara Chetakining qizi Chillanaga uylangach, Vardxamana qudratli Magatxi sulolasi bilan qarindosh bo'ldi. Buning natijasida uning oldida oliy darajada ta'lim olish, ilm va san'atning barcha sohaları bilan tanishish imkoni paydo bo'ldi.

U Yashoda ismli qizga uylandi va undan qiz farzand ko'rdi. Aynan mana shu qizining eri Jamali Maxaviraning birinchi shogirdi, keyinchalik esa jaynizm ibodatxonasining hinduizmdan ajralib chiqishining tashabbuskori bo'ldi. Vardxamana o'ttiz yoshigacha oddiy dunyoviy kishilardek hayot kechirgan. Keyin esa barcha mulkidan voz kechib, ko'p yillar sayohat qilgan. Doimiy o'y-fikrga cho'mib, o'zini ichki iztiroblar domiga tashlagan. 13 yildan keyin Parshvanadxa tepaligida go'yoki, «botiniy» bilimga ega bo'ladi. Bu eng oliy bilim bo'lib, Vardxamanani 42 yoshida shodlik va qayg'ulardan butkul ozod qilgan va uni yuqori darajadagi diniy ustozlarga beriladigan Jina nomi bilan mashhur qildi. Keyinchalik unga Maxavira («ulug' qahramon») unvoni berildi. Maxavira ko'p yillik sayohatlari davomida ko'plab insonlarni o'ziga ergashtirdi. Uning shogirdlari *nigrantxa* («kishandan ozod qilinganlar») deb atala boshlandi. Vardxamana Maxavira rohiblar, oddiy erkak va ayol insonlar barobar e'tiqod qila oladigan diniy ta'limotga asos soldi. Maxavira mil. av. 527 yili 73 yoshida vafot

etdi. Jaynizm adabiyotida keltirilishicha, u *nirvana* – so'nggi ozodlik holatiga erishgan.

Ta'limoti. Jaynizm ta'limotining asosiy g'oyasi deyarli barcha hind dinlari uchun umumiy bo'lgan *karmalar* va *nirvana* haqidagi ta'limot hisoblanadi. *Nirvanaga* erishgan inson qayta tug'ilishdan ozod bo'ladi. Bunga esa faqat tarkidunyo qilganlarga erishishi mumkin, xolos. Shuning uchun ham ushbu ta'limotda tarkidunyochilikka alohida e'tibor beriladi. Inson dunyoda o'zining barcha ehtirosalaridan voz kechgach, o'z nafsini tiyishi, o'z-o'zini engishi – yangi *karma* hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Natijada *karmaning* kuchi emirilib, uning ruhi kishanlardan ozod bo'ladi. Kishining *karmasi* qanchalar zaiflashsa, uning ichki dunyosi shuncha boyib boradi. Bu jarayon ruhning to'la ozod bo'lgunigacha davom etadi. Va, nihoyat, ruhning butunlay ozod bo'lishi – *nirvana* holati yuz beradi.

Dunyoviy kishidan ham, tarkidunyo qilgan rohibdan ham ma'lum axloqiy qoidalarini bajarish talab qilinadi. Chunki hayotning maqsadi ruhni yomon *karmadan* saqlash, yangi *karmaning* yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, borini ham asta-sekin yo'q qilib yuborishdan iborat. Buning uchun dunyoviy odam besh narsaga amal qilishi kerak: birinchisi – zarar etkazmaslik (*axinsa*), ikkinchisi – rost so'zlash (*satya*), uchinchisi – o'g'irlik qilmaslik (*asteya*), to'rtinchisi – zino qilmaslik (*braxmacharya*), beshinchisi – tamagirlik qilmaslik (*aparigraxa*). Mana shular insonning axloqiy mezonini tashkil qiladi. Bundan tashqari, u yana ikki asos – *chin e'tiqod* va *to'g'ri bilim* tamoyillariga ham amal qilishi lozim. Ularning birinchisi jaynizm diniga e'tiqod qilishni bildirsa, ikkinchisi – ruhning abadiy ozodligi va hayotning har bir jismda mavjudligini bilishdir. Rohiblar uchun bir muncha murakkab qoidalar ishlab chiqilgan.

Jaynizm ta'limoti borliqning ilohiyot tomonidan yaratilgani va uning borliq ustidan nazorat qilib turishini tan olmaydi. Unga ko'ra, ruh – abadiy mavjudot, olam esa azaliydir. Ruh moddiy tanani engib o'tib, abadiy hayotga etishi mumkin. Maxaviraning fikricha, dunyodagi har bir jism, uning jonli yoki jonsiz bo'lishidan qat'i nazar, qandaydir darajadagi anglash xususiyati bilan yaratilgan. Shuning uchun jaynizm *axinsa* – zarar etkazmaslik qoidasiga ko'proq e'tibor beriladi, ya'ni jonli yoki jonsiz narsalarga ozor etkazmaslik talab qilinadi.

Maxavira vedalarning ulug'ligini inkor etdi va veda urf-odatlariga braxmanlarning hukmronligiga qarshi chiqdi. U insonni ma'naviy yuksaklikka olib boruvchi hayot qonunlarini, ashaddiy rohiblikni, ruhni ozodlikka olib chiquvchi deb hisoblangan nafsni tiyish fazilatini keng targ'ib etdi.

Maxavira jaynistlarning diniy tashkilotiga asos soldi. Uning ashaddiy rohiblik tamoyillari va sodda bayon qilingan ta'limoti ko'pchilikni o'ziga jalb qildi. Uning *ganadxara* («maktab boshliqlari») nomi bilan mashhur bo'lgan 11 shogirdi bo'lib, ular Maxavira vafotidan keyin uning ta'limotini davom ettirganlar.

Jaynizmning asosiy qoida-tamoyillarini o'z ichiga olgan 45 ta asar mavjud bo'lib, ular Maxavira tomonidan bitilgan. Biroq mil. av. III asr atrofida og'zaki matnlarni kitob holatiga keltirish maqsadida qilingan harakatlar oqibatida jaynizm ikki oqim – *shvetambarlar* yoki *svetambarlar* («oq kiyim kiyganlar») va *digambarlar* («moviy kiyim kiyganlar»)ga bo'linib ketgan. *Digambarlar*

jaynizmning asl holatini saqlab qolishga ko'proq ahamiyat berganlar. Ular Rishabxaning qadimiy qonunini yo'qolgan deb hisoblab, *shvetambarlardagi* matnlarni haqiqiy emas deb e'lon qildilar. Jaynizmning ikki oqimga bo'linishi har ikki oqimning o'ziga xos urf-odatlarini, kiyinishi va boshqa hayotiy qirralarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Vaholanki, ular asosiy diniy qoidalarda o'zaro farqlanmaydilar.

Hozirgi kunda dunyoda bir yarim milliondan ortiq jaynistlar mavjud. Ular, asosan, Hindistonning Rajputan, G'ujarat va bir qator janubiy mintaqalari, Madhya, Bxarat shtatlarida istiqomat qiladilar.

Sikxizm. Hozirda sikxizm diniga e'tiqod qiluvchilarning soni 17 mln. atrofida bo'lib, bu dinga bo'lgan qiziquvchilar soni ortib bormoqda. Shunisi qiziqki, XV asr oxiri yoki XVI asr boshlarida sof diniy islohot shaklida boshlangan sikxizm harakati XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib o'z e'tiqod qiluvchilarini faol harbiy an'analar bilan sug'orilgan siyosiy tashkilot atrofida jamladi. Bunday o'ziga xos taraqqiyotning natijasi shu bo'ldiki, o'tgan asr boshlarida kichkinagina harbiy-diniy jamoa Ranjid Singx asos solgan kuchli davlatga aylandi.

Sikxizm diniga Panjobda guru (ustoz) Nanak (1469-1539) tomonidan asos solinib, unga ergashganlar o'zlarini *sikxlar*, ya'ni shogirdlar deb atashgan. «Sikxizm» atamasi ham shu so'zdan olingan.

Nanakning vafotidan keyin uning ta'limotini 9 ta *guru* rivojlantirgan. Xususan, to'qqizinchi *guru* Govind Singx (1675-1708) bu ishda muhim rol o'ynagan. Ular yagona ta'limotni targ'ib qilgan yagona *guruni* 10 qiyofada namoyon bo'ladi deb hisoblaganlar.

Sikxizm talqinida hinduizmdagi Braxma, Vishnu, Shiva va islomdagi Alloh bir ilohiyotda mujassam bo'ladi. U *nirgun* («sifatlardan xoli») va *sagun* («sifatlar egasi») deb talqin qilinadi. Uning asosiy holati *nirgun* bo'lib, bu holat har qanday sifatlardan xolidir. Biroq inson uni qandaydir sifatlardan orqali tanishi uchun u o'z xohishi bilan *sagun* holatiga o'tadi. Sikxizm ta'limotiga ko'ra, ilohiyot – Yaratuvchi, Saqlovchi, Vayron qiluvchi (Braxma, Vishnu, Shivalardek) sifatlarni o'zida mujassam qiladi. U qudratli va hukmdordir. Uning tomonidan yaratilgan dunyo esa o'zgaruvchan va foniidir. Ilohiyot esa – abadiy. U azalda ham, hozirda ham, kelajakda ham mustaqil ravishda mavjuddir. Azaliylik, vaqtdan tashqarida bo'lish, tug'ilmaganlik, o'lmaslik kabi unga berilgan sifatlarning mohiyatini anglatadi. Xudoga bo'lgan muhabbat, ishonch, sadoqat yo'lini tutgan har bir inson Unga etishishi va U bilan birlashib ketishi mumkin. Xudoga ibodat qilish, sikxizm ta'limoti bo'yicha, aslo dunyoviy hayotdan uzilishni, rohiblik yo'lini tutishni anglatmaydi, aksincha, hayotda faollikni, to'la mehnatni va oiladagi o'z vazifasini bajarishni anglatadi. Bu tamoyillarga to'la amal qilish pirovard natijada tug'ilishlar zanjirining uzilishiga va insonning xudo bilan birlashib ketishiga olib keladi. Har kim xudo bilan bevosita muloqotda bo'lishi mumkin.

Sikxizm Hindiston xalqi diniy tafakkurining bir bosqichi sifatida kuchli islohotchilik harakatlari zaminida yuzaga keldi. Bu harakat Ramanand, Gorakxnax, Chaytanyax, Kabir va Vallabxacharya nomlari bilan bog'liq bo'lib, butun XVI asrni o'z ichiga oldi. Bu davrda hinduizm kabi sikxizmga ham

islomning ta'siri kuchli bo'ldi. Bu joyda madaniyatlar orasidagi doimiy kurash o'z aksini topdi. Nanak ham Kabir kabi hinduizmni butparastlikdan tozalab, islomga yaqinlashtirishga harakat qildi. Tadqiqotchilarning fikricha, sikxlar bir Xudoga e'tiqod qiladilar. Bu din boshqa iloh va butlarga ibodat qilishni, hinduizmning yirik ziyoratgohlariga borishni, folbinlik va sehr-joduga ishonishni taqiqlaydi hamda tug'ilish va o'lim bilan bog'liq bo'lgan poklash marosimlarini tan olmaydi. Sikxizm ijtimoiy tizim sifatida kasta tabaqalanishini inkor etadi va bu yo'l bilan braxmanlarning tug'ilish, o'lim va nikoh marosimlaridagi rahbarlik mavqeiga barham beradi.

Boshqa dinlar kabi sikxizm ham o'zining muqaddas kitobiga ega. Uning muqaddas kitobi – Adigrantx («Boshlang'ich kitob») bo'lib, beshinchi *guru* Arjun (1581-1606) tomonidan tuzilgan. U, shuningdek, Gururantx («Guru kitobi») yoki Grantxsahib («Sohibning kitobi») nomlari bilan ham ataladi. Unga avval dastlabki besh *guruning*, keyinchalik esa boshqa *gurularning* madhiyalari kirgan. Jumladan, Kabirning, Namdevning, Farididdin Ganjishakarning (XV asr) madhiyalari bilan bir qatorda bir necha Bxakti va sufiylik harakati namoyandalarining ham madhiyalari kirgan. U panjob tilida yozilgan bo'lib, hozirgi kunda Amritsardagi sikxlarning bosh ibodatxonasi hisoblanmish «Oltin Haram»da saqlanadi.

Keyingi yillarda sikxizmدا hinduizm odatlarini o'zlashtirib olgan din vakillari bilan sof sikxlar orasida bo'linish kuzatilmoqda. Birinchi guruh namoyandalari tomonidan eng muqaddas joylarning ishg'ol etilishi 1926 yili Panjob siyosiy maydonida «Aqoliy Dal» harakatining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Diniy tamoyillar asosida tuzilgan bu harakat namoyandalari musulmonlar, hinduiylar va sikxlarning siyosiy tengligini talab qilib chiqdilar. 1947 yili Hindistonning ikkiga bo'linishi natijasida musulmonlar Panjobning Pokistonga tegishli qismiga, hinduiy va sikxiylar esa Panjobning Hindistonga tegishli qismiga ko'chib o'tganlaridan keyin bu harakatning ta'siri kuchaydi.

XX asrning 50-60-yillarida bu harakat yagona irq va til masalasidan kelib chiqib, Panjob shtati tuzilishini talab qildi. Natijada 1966 yili shunday shtat tashkil etildi. Hozirgi kunda bu shtatda Hindiston sikxiylarining 80 foizi istiqomat qiladi.

XX asr 90-yillarining boshida sikx jamoasining soni 14 mln. kishiga teng edi. Ular Hindistondagi dinlarning kattaligi jihatidan to'rtinchisi hisoblanadi.

60-yillarning o'rtalariga kelib mintaqaviy sikxizm harakatlari siyosiy tus olib, sikxlarning mustaqil, yagona Xoliston davlatini tuzishga qaratildi. Hozirgi kunda ham Hindiston siyosatida sikxizm omili katta o'rin tutadi.

Sikxizm taqdiri hinduizmning ulkan va ko'p qirrali dengizida ortga chekinmoqda. Buni hinduizm ibodatxonalari yo'llarida tarkidunyo qilgan sikxlarning tez-tez uchrayotganligi tasdiqlaydi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Hinduizm qanday dinlar qatoriga kiradi?
2. Hinduizm ta'limoti nimalardan iborat?

3. Hinduizmda qanday oqimlar bor?
4. Hinduizmning qanday marosimlarini bilasiz?
5. Hinduizmning qanday ilohiyotlarini bilasiz?
6. Jaynizmning asoschisi kim?
7. Jaynizm ta'limotining xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Sikxizm qachon vujudga keldi?
9. Sikxizmda ilohiyot qanday tasavvur qilinadi?
10. Hozirgi zamon Hindiston siyosiy hayotida sikxlarning roli qanday?

Adabiyotlar

1. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. II tom. T., 1968.
2. Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. М., 1980.
3. Бэшем А. Чудо, которым была Индия. Пер. с англ. М., 1977.
4. Гусева Н.Р. Джайнизм. М., 1968.
5. Гусева Н.Р. Индуизм. История формирования. Культовая практика. М., 1977.
6. Индуизм. Джайнизм. Сикхизм. Словарь. М., 1996.
7. Луния Б.Н. История индийской культуры с древних времен до наших дней. М., 1960.
8. Невелева С.Л. Мифология древнеиндийского эпоса (пантеон). М., 1975.
9. Радхакришнан С. Индийская философия. Т. I-II. М., 1956-1957.
10. Сигх Мохиндер. Угнетенные касты Индии. М., 1951.
11. Снесарев А.Е. Этнографическая Индия. М., 1981.
12. Темкин Э.Н., Эрман В.Г. Мифы Древней Индии. М., 1982.
13. Шри Шримад А.Ч. Бхагавад-Гита. М., 1990.

BUDDIZM

Buddizm – dunyodagi eng yirik dinlar ichida qadimiylaridan biri hisoblanib, mil. av. VI – V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tailand, Laosda va qisman Evropa va Amerika qit'alarida, Rossiya Federastiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikiya respublikalarida istiqomat qiladilar.

Hozirgi kunda e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan buddizm xristianlik, islom va hinduizmdan so'ng to'rtinchi o'rinni egallaydi. Buddistlarning soni taxminan 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir.

Buddizm bundan 2500 yildan avvalroq Hindistonda diniy-falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelib, unda ko'plab diniy manbalar va diniy yo'nalishlar mavjud.

Buddizm turli milliy va diniy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng qabul qilindi. Buddizm hayotning barcha sohalari: diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlariga kirib bordi.

Buddizmni din yoki falsafa, mafkura yoki madaniyat qoidalari to'plami yoxud hayot tarzi deb baholash mumkin.

Ayni kunda bu dinga e'tiqod qilib kelayotgan Sharq mamlakatlaridagi buddizm ta'limotini o'rganish u erdagi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy madaniyatni tushunishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu davlatlarda ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar nazarida buddizmning qoida va an'analari markaziy hukumat qonunlaridan ko'ra ustunroqdir, tabiiyki, buning zahirida uning potentsial kuchi yotadi.

Buddizm asoschisining shaxsi. Buddizm tarixi tadqiqotchilari mavjud manbalar asosida bu oqim asoschisi real tarixiy shaxs ekanligini ta'kidlaydilar. Bu ta'limot to'g'risida xabar beruvchi adabiyotlarda u Siddxartxa, Gautama (Gotama), Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etiladi. Bu ismlar ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa – shaxsiy ism, Gautama – urug' nomi, Shakyamuni – «Shakya qabilasidan chiqqan donishmand», Budda – «nurlangan», Tadxagata – «shunday qilib, shunday ketgan», Djina – «g'olib», Bxagavan – «tantana qiluvchi». Ular ichida eng mashhuri «Budda» bo'lib, shundan ushbu dinga buddizm nomi berilgan.

Bizgacha Buddaning bir necha biografiyalari etib kelgan: «Maxavostu» – milodning II asrida yozilgan, «Lalitavistara» – milodning II – III asrlarida yuzaga kelgan, «Buddxacharita» – buddist faylasuflardan biri Ashvagxosha tomonidan milodning I – II asrlarida yaratilgan, «Nidanakatxa» – milodning I asrida yozilgan va «Abnixishkramansutra».

Mazkur biografiyalarda Buddaning qaysi yillarda yashaganligi turlicha berilgan. Ularda mil. av. IX – III asrlar oralig'idagi har xil muddatlar ko'rsatiladi. Rasmiy hisobga ko'ra, Butama-Budda mil. av. 623 yilda tug'ilib, 544 yilda vafot etgan. Biroq ko'pchilik tadqiqotchilar uning tavalludi mil. av. 564 yilda, vafoti esa 483 yilda deb hisoblaydilar. Ba'zan 560 va 480 deb yaxlit sonlar bilan

ko'rsatadilar. Aytish joizki, yuqorida zikr qilingan biografiyalarda Buddaning haqiqiy hayoti bilan uning haqidagi afsonalar o'zaro qorishib ketgan.

Siddxartxa Shakya qabilasining podshohlaridan biri Shuddxodananing o'g'li edi. Uning saroyi Himolay tog'lari etagida Kapilavasti degan shaharda bo'lgan (hozirgi Nepal hududida). Onasi – malika Mayya. Podshoh o'g'lini orzu-havaslar og'ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxartxa ulg'ayib qo'shni hukmdorlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxartxa bir kuni ittifoqo bir keksa chol, bir bemor hamda og'ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi, bir kishining esa vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlangan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini izlash uchun saroyini tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohib bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Shu asnoda Siddxartxa bir narsaga amin bo'ldi: bu yo'l uni o'z oldiga qo'ygan maqsad, ya'ni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormaydi va u rohiblar jamoasidan ajraladi.

Birmuncha vaqt changalzor o'rmonlarda kezib horib charchagach, bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi, va o'zicha, to haqiqatni topmaguncha shu erdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko'radi: hech bir joyda osudalik yo'q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch. *Trishna* – yashash, mavjud bo'lish umidi barchaning tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Buddha kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Buddha – *nurlangan* deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa – nurlangan daraxt (*botxa*) deb atala boshladi.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida o'zining besh rohib do'stlariga qildi va ular Buddaning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

Shu kundan boshlab Budda o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib, o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil mobaynida Hindistonning turli joylarida bo'ladi, odamlarga o'z g'oyalarini etkazadi, singdiradi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tadi. Uning jasadi, hind udumiga ko'ra, kuydirilib, xoki 8 ta buddist jamoalariga bo'lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona (*stupa*) barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli asotirlar paydo bo'ldi. Ularda aytilishicha, Budda ko'p yillar davomida er yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan: 84 marta ruhoni, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida qayta tug'ilgan. Jami 550 marta qayta tug'ilgan. U doimo qaerda, qay qiyofada tug'ilishini o'ziga o'zi belgilagan.

So'nggi marta uni xudolar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko'ra, er yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o'tgan. Shuning uchun buddizmning ba'zi muqaddas joylarida 7

ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Bodxa daraxti o'tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o'tgan desa, ba'zilar minglab buddalar o'tgan deb da'vo qiladi.

Ta'limoti. Buddizm qadimiy hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, o'ziga xos nazariyot va amaliyotdan iborat bo'lgan diniy tizimdir. Budda yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan, balki har bir inson tug'ilish va o'lim mashaqqatlaridan qutulishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan bir necha ko'rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta'limoti insonning xayolida, ishlarida va o'zini tutishida samimiy oliyjanoblik g'oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta'limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurbon qilishni qoraladi, *varna* (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda «Yaratuvchi oliy kuch»ning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir.

Budda ta'limotining asosida «hayot – bu azob-uqubat» va «najot yo'li mavjud» degan g'oyalar yotadi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini-o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar Buddaning ilk da'vatida ta'birlangan to'rt haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat – «azob-uqubat mavjuddir». Har bir tirik jon uni boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday dunyoviy hayot – qiynoq, azob-uqubatdir.

Tug'ilish – qiynoq, kasallik – azob, o'lim – kulfat, qiyinchilikka duch kelish – mashaqqat, ayriliq – ezilish, orzu-havasga etolmaslik – uqubat. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog'liqlik. Hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddizm dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddizm ta'limotiga ko'ra, har qanday narsa yoki hodisa u xoh moddiy, xoh ma'naviy bo'lsin, *dharma* (element)lardan tashkil topgan. Ular, o'z xususiyatiga ko'ra harakatsiz bo'lib, dharmalarni qo'zg'atuvchi kuch insonning xayol va so'zlaridir. Ob'ektiv haqiqat bu doimiy ravishda o'zgarib turuvchi dharmalar oqimidir. Harakatdagi dharmalar o'z mavjudligining besh shakli – tana, sezgi, his-tuyg'u, harakat, anglashni yaratadi. Mazkur besh shakl insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi, borliq bilan aloqada bo'ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Besh elementning o'zaro mavjudligi insonning o'limi bilan barham topadi. Insonni tashkil qiluvchi besh shakl (*skandx*) o'z navbatida qayta tug'iladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo'luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va me'yor. Bu jarayon «hayot g'ildiragi»ni tashkil qiladi. «Hayot g'ildiragi»da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo'ladi.

Ikkinchi haqiqat – «qiynoqlarning sabablari mavjuddir». Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun *karma* hozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, qaytadan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Aksariyat buddistlar fikricha, Buddadan keyin hech kim *nirvana* holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat – «qiynoqlarni tugatish mumkin». Yaxshi yoki yomon niyatlardan, intilishlardan butunlay uzilish *nirvana* holatiga olib boradi. Bu holatda inson qayta tugʻilishdan toʻxtaydi. Buddistlar fikricha, *nirvana* holati «hayot gʻildirigidan» tashqariga chiqish, «men» degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuygʻularini toʻla tugatishdir.

Toʻrtinchi haqiqat – «qiynoqlardan qutulish yoʻli mavjuddir». Bu yoʻl sakkizta narsaga amal qilish, toʻgʻri tushunish, toʻgʻri harakat qilish, toʻgʻri muomalada boʻlish, fikrni toʻgʻri jamlashdir. Bu yoʻldan borgan inson Budda yoʻlini tutadi.

Buddizm taʼlimoti, asosan, uch qismdan iborat: 1) axloq; 2) meditatiya; 3) donolik.

1. Axloq normalari – «Pancha shila» (Buddaning besh nasihati):

- 1) qotillikdan saqlanish;
- 2) oʻgʻrilikdan saqlanish;
- 3) gumrohlikdan saqlanish;
- 4) yolgʻon, qalbaki narsalardan saqlanish;
- 5) mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

2. Meditatiya.

- 1) toʻgʻri tushunish (toʻgʻri eʼtiqod qilish) – Buddaning birinchi daʼvatida soʻz yuritilgan toʻrt haqiqatni bilish va unga ishonish;
- 2) toʻgʻri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos boʻlishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar etkazib qoʻyishdan saqlanishga intilish;
- 3) oʻzini toʻgʻri tutish – oʻziniki boʻlmagan narsaga koʻz olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;
- 4) toʻgʻri anglash – oʻz tanasi va ruhiga oʻzini yoʻqotib qoʻymaydigan darajada nazoratda boʻlish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qoʻyish;
- 5) toʻgʻri harakat qilish – oʻzidagi yomon tuygʻularni jilovlash hamda ezgu tuygʻular va harakatlarni rivojlantirish;
- 6) toʻgʻri hayot kechirish – nomaʼqul hayot tarzidan saqlanish;
- 7) toʻgʻri fikr yuritish – kamolotning toʻrt bosqichini ketma-ket bosib oʻtish;
- 8) toʻgʻri gapirish – yolgʻondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

3. Donishmandlik – bu buddizmning asosiy maqsadi boʻlib, narsalar tabiatini toʻgʻri tushunishdan iborat.

Yuqorida koʻrsatilgan uch amaliyot bosqichini oʻtagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, yaʼni *nirvana* holatiga erishadi. *Nirvana* soʻzining lugʻaviy maʼnosi – «oʻchish, soʻnish». Unda hayotning har qanday koʻrinishiga intilish yoʻqoladi.

Tarqalishi. Ushbu taʼlimotning yoyilishida buddist jamoalarning (*sangha*) roli katta boʻlgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi boʻlgan toʻqqiz oyida shahar-mahallalar, qishloq-mahallalar yurib, aholini bu dinga daʼvat qilib yurganlar. Faqatgina *musson* yomgʻirlari tinmay quygan uch oydagina oʻz ibodatxonalarida muqim boʻlib meditatiya bilan shugʻullanganlar.

Mil. av. 273-232 yillarda hukmronlik qilgan imperator Ashoka davrida buddizm keng hududlarga jadal tarqaldi. U buddist monaxlarga (rohiblar), ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik

harakatlariga xayrixohlik bildirardi. Buddist missionerlari o'z prinstiplarida mahkam turib, yumshoqlik va kelishuvchanlik bilan harakat qildilar.

Buddizm jamoalari begona din, madaniyat va urf-odatlar ustun bo'lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o'zlarini saqlab qolish, fursat kelganda, ularga o'z ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlari davrida, Shri Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya konfutsiychilari davrida mazkur hududlarga buddizmning yoyilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Buddizm milodning I asrida Xitoy, IV asrda – Koreya, VI asrda – Yaponiya, VII asrda – Tibet, XIII – XVI asrlarda – Mongoliya, XVII – XVIII asrlarda – Buryatiya va Tuva, XIX – XX asrlarda esa Amerika va Evropa qit'alariga kirib borgan.

Buddizm boshqa xudolarga sig'inishni taqiqlamaydi. Budda, ularga ibodat qilish insonga vaqtincha tasalli berishi mumkin, biroq ular *nirvana* holatiga olib bormaydi, deb ta'lim bergan. Shu sababli buddizm ta'limoti turli joylarda yoyilishi bilan ular ibodat qilib kelgan ilohiyotlari yoki ulug'langan shaxslari timsollari ibodatxonalarni egallagan.

Masalan, Hindistonning buddizmga mansub ilohiyotlari dunyoni yaratuvchi Braxma, chaqmoq va momaqaldiraq xudosi Indra, hunarmandchilar homiysi Xatimanu, Tibetda qahramon Baser timsoli, Mongoliyada Chingizxon kabi milliy qahramonlar buddizm ilohiyotlari timsoliga aylandi. Biroq bu ilohiyotlar *nirvana* holatiga olib bormaydi. Faqatgina Budda *nirvanaga* boshlay oladi va shu yo'sinda insonni azoblardan xalos etadi.

Manbalari. Buddizm ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka – «uch savat» ma'nosini anglatadi). U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular Budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan *sutra* matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan *vinaya* matnlari – Vinaya-pitaka, buddizmning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan *abxidxarma* matnlari – Abxidxarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddizmga oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammo ularning ilk buddizm tarixi uchun ahamiyati ozroq. Budda hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan.

Xitoyga kirib kelishi. Buddizmning Maxayana yo'nalishi Xitoyga I asrda kirib kelgan. III – VI asrlarda buddizm Xitoy hududida keng tarqaldi. Bu vaqtda poytaxt yaqinidagi Loyana hamda Chanani kabi shaharlarda 180 ga yaqin buddizm ibodatxonalari hamda diniy markazlari faoliyat yuritgan.

Maxayananing shakllanishida Kushon davlatining ham roli katta bo'ldi. Aynan Kushon davlatidan, ayniqsa, Kanishkaning to'rt qurultoyidan so'ng buddizmning Maxayana yo'nalishi Markaziy Osiyo davlat va shaharlariga tarqala boshladi. Buyuk Ipak yo'li orqali ilk buddist targ'ibotchilar mil. av. II asrdayoq Xitoyga kelgan edilar. Buddizmning Xitoyga kirib kelishi haqida keyinchalik ko'plab rivoyat va asotirlar paydo bo'ldi. Biroq xitoy manbalarida ham, diniy rivoyatlarda

ham Xitoydagi birinchi buddistlar haqida biror aniq ma'lumot mavjud emas. Ilk davrga taalluqli ma'lumotlardan biri imperator Min-Dining tushi haqidagi rivoyat hisoblanadi. Unga ko'ra, Min-Di tushida oltindan yasalgan bir but ko'rgan. U Buddaning timsoli ekanligini o'z maslahatchisi Fuidan so'rab bilgach, milodning 60-yillarida buddizm asoschisi va uning ta'limoti bo'yicha diniy matnlar keltirish uchun Hindistonga elchilar yuborgan. Shundan so'ng Xitoyga Hindistondan bir necha buddizm targ'ibotchilari kelib, ular uchun maxsus qurilgan «Baymasi» («Oq ot ibodatxonasi»)ga joylashganlar.

Buddizmning xitoylashuvi va tarqalish jarayonini o'rganish qiyin va murakkab ilmiy masaladir. Buddizm Xitoy hududida yoyilishi bilan alohida yangi shakl ham kasb etdi. IV – V asrlarda buddizm katta muvaffaqiyatga erisha boshladi. Ushbu ta'limot o'lkaning janubiy viloyatlariga yanada chuqurroq joylashdi. IV asrning o'rtalariga kelib Xitoyda ayollar ibodatxonalari, ayol monaxlar va tinglovchilar paydo bo'lgan. Shu asrning oxiriga borib, podshohlar buddizm ibodatxonalariga doimiy ravishda katta miqdordagi xayriyalar beradigan bo'lganlar. Bu davrda Sharqiy Stzin davlatining o'zidagina 1786 ta *sangxa*, 24 ming monax mavjud bo'lgan. Xususan, imperator Siyaou-Di 381 yili birinchi bo'lib o'zini buddist deb e'lon qildi. U saroyida ibodatxona barpo qildirib, unga monax keltirishni buyurdi. Lyao sulolasidan bo'lgan U-Di hokimligi davrida (502-549) buddizm mamlakat janubida rasmiy din sifatida tan olindi.

Shunday qilib, buddizm mil. av. birinchi ming yillik oxirlarida Markaziy Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorimizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O'ra-tepa, Dalvarzin-tepa, Quva, Zar-tepa, Qorovul-tepa, Ayritom mavzellaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar va *stupa* qoldiqlaridan Kushon imperiyasida buddizmga katta ahamiyat berilganini anglash mumkin.

Oqimlari. **Xinayana** buddizmning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Xinayana «*kichik arava*» ma'nosini anglatib, u diniy yo'nalish sifatida mil. av. I asrda shakllangan. Biroq uning asosiy qoidalari ancha avval, shu jumladan, Tripitakada bayon qilingan.

Xinayana ta'limotiga ko'ra, *dharmalar* tabiatini o'rganishga va *nirvanaga* ma'naviy yo'l bilan erishiladi. Bu yo'l juda og'ir, shu sababli faqat monaxlargina *nirvana* holatiga etishi mumkin. Keyinchalik Xinayanada juda ham murakkab va dabdabali ibodatlar (masalan, «Budda tishiga sig'inish»), buddizmning muqaddas joylariga ommaviy ziyoratlar joriy qilingan. Bu yo'nalish Sharqiy Hindistonda, Shri Lanka, Hindi-xitoy davlatlarida tarqalgan.

Maxayana Xinayana bilan bir qatorda buddizmdagi ikkinchi asosiy yo'nalish bo'lib, u ruhiy kamolot ahdiga rioya etuvchi, xudoga iltijo qiluvchi rohiblarga in'omlar berib yordam ko'rsatuvchi har qanday oddiy dindor najot topishi mumkin, degan ta'limotga asoslanadi. Unga ko'ra, Budda tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli maxluqotlar shakliga kirishi va hayot zanjirining barcha vakillari uni o'rganishi, anglashi mumkin. Bu narsa cheksiz Budda *ramlarining*, xudolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu xudolarga ishonish yo'llari barcha uchun mumkin bo'lganligi sababli u «*katta arava*» nomini olgan.

TSzintu yo'nalishi Xitoyda vujudga kelgan va keyinchalik Yaponiyaga o'tgan. Unga Xuey-Yuan asos solgan. V – VII asrlarda uning shogirdlari bu yo'nalishni rivojlantirganlar. Shuningdek, ushbu yo'nalish Xitoy buddizmida sezilarli mavqega ega bo'lgan va rasman e'tirof etilgan.

Xitoyshunos olimlarning ta'kidlashlariga qaraganda, Stzintu yo'nalishi daosizm, hatto qadimgi Xitoy «sinizm»i ta'sirida shakllangan.

Tyantay yoki **Tenday** yo'nalishi. Bu nom shunday deb atalgan bir ibodatxona nomi bilan bog'liq. Mazkur yo'nalishning ilk va ko'zga ko'ringan vakillaridan biri monax Chji-I bo'lgan. Chji-I ta'limotiga ko'ra, bu dunyodagi hamma narsa haqiqiy emas, ular faqat bo'shliqdan iborat bo'lib, vaqtinchalik mavjuddir. Mana shu asosga binoan u xulosa qiladiki, olamdagi barcha narsa yolg'iz mazmundadir. Budda hatto mayda qum zarrachalarida ham mavjud bo'lishi va oxirida esa har bir insonning hayoti Budda hayotining bir qismi bo'lishi mumkin.

Ushbu ta'limotni Chjan-Jan (711-782) maktabining 9-patriarxi rivojlantirib, shunday xulosaga keldi: Budda hamma joyda, hamma narsada, hattoki jonsiz narsalarda ham mavjud bo'lib, ularda Budda-tabi'atning bir bo'lagi mavjud.

Tyantay yo'nalishi o'z tarafdorlari orasida katta obro'ga ega bo'lgan va XIV asrga qadar mavjud bo'lgan. Xitoyda, yuqoridagilardan tashqari, ko'plab mayda sektalar ham bo'lgan. Ular orasida mamlakat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan «Chan» va «Tantrizm» yo'nalishlarini alohida qayd etish o'rinli.

Tantrizm Hindistonda birinchi ming yillik o'rtalarida vujudga kelib, keyinchalik Xitoyga ham o'tgan. Buddizmning ushbu yo'nalishi VIII asrga kelib juda taraqqiy topdi. Bunga mazkur yo'nalishning uch mashhur patriarxlari Hindistondan kelib faoliyat olib borishlari sabab bo'ldi. Tantrizm mustaqil hamda ta'sirchan yo'nalish sifatida Xitoyda uzoq qolmadi.

Chan-buddizm. Mazkur yo'nalishning nomi sanskrit tilidagi «*dxiana*» (*meditastiya, fikrni jamlash*) so'zidan kelib chiqqan. Hindistonda vujudga kelgan *dxiana* buddizm maktabi tarafdorlari vaqti-vaqti bilan tashqi olamdan uzilib, ushbu abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtaga jamlash ta'limotini ilgari surganlar. Bu ishda kishi, haqiqatan ham, *trans* holatiga tushadigan bo'lsa, bu orqali haqiqatga erishish *dxiananing* oliy maqsadi hisoblanadi.

Dxiana ta'limotining Xitoydagi ilk namoyandalari Dao-An hamda Xuey-Yuanlar edilar. Ular *dxiana* *sutralarini* xitoy tiliga tarjima qilib meditastiyani amaliyotga joriy qilganlar. Meditastiya amaliyoti eng shuhrat qozongan davriga Xitoyda birmuncha kechroq erishdi. Bu narsa «Chan» sektasining muvaffaqiyatlari bilan bog'liq. Biroq shuni aytish kerakki, Chan meditastiyasi hind *dxianasidagi* meditastiyaning oddiy takrori, aynan rivojlangan shakli emas. Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mazkur ta'limot hind buddizmiga qarama-qarshi ta'limot sifatida vujudga kelgan. Darhaqiqat, Chan yo'nalishi Xitoy buddizmining boshqa oqimlariga qaraganda ko'proq Xitoyga xosroq. Uning asosiy g'oyasi quyidagicha: kishi tumanli, xira *nirvanaga* intilishi zarur emas, faqatgina kelajak haqida qayg'urish qachondir Bodxisatva yoki Buddaga aylanishi va mana shuning uchungina o'zini hamma narsadan mahrum qilishi befoyda. Inson ayni vaqtda, shu onda yashamog'i hayotdan u bera olishi mumkin bo'lgan narsalarni imkon qadar olib qolmog'i lozim.

Lamaizm buddizmning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tibet tilida «*lama*» – «eng ulug'» degan ma'noni anglatadi. Mazkur diniy yo'nalish rahbari shu nom bilan – *lama* deb ataladi.

Lamaizm Tibetda VII – XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon-Po (shamanizmning bir turi) unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelgan bo'lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa va mazhablarga bo'linadi. Lamaizm XVI asr oxiridan mo'g'ullar, XVI asr boshlaridan Rossiya hududida yashovchi buryatlar, tuvaliklar va qalmiqlar orasida ham tarqaldi. Buddizmning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat *lamalar* yordamida najot topadi. *Lamalarsiz nirvanaga* etishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hech narsaga erisha olmaydi, deb ta'kidlanadi.

Lamaizmning an'anaviy qonunlashgan asosi Kanjur (108 jildli) va Tanjur (225 jildli) nomli muqaddas kitoblarda bayon qilingan. Bu dinda dabdabali ibodatlar, teatrlashtirilgan muqaddas tomoshalar – *misteriyalar*, ko'pgina maishiy rasm-rusumlar, xudolarning g'azabini, yovuz ruhlarning ziyonlarini qaytarish uchun qilinadigan xatti-harakatlar, duo va afsunlar bor. Lamaizmga ko'ra, *lamalarga* va dunyoviy hokimlarga so'zsiz bo'ysunish asosiy fazilat sanaladi. Masalan, buryat lamalari rus podshohlarini – *avatara*, ya'ni ma'buda Stagan-Daraexening erdagi ko'rinishi deb e'lon qilganlar.

Lamaizm ta'limotiga ko'ra, odam o'ldirish, o'g'rilik, yolg'onchilik, tuhmat, g'iybat, bekorchi so'zlash, ochko'zlik, kek saqlash, zino qilish – o'nta «og'ir gunoh» sanaladi. Gunoh qilishdan o'zini tiyish insonga eng yaxshi *qayta tug'ilishga* imkon beradi.

Lamaizm yo'nalishining oliy diniy rahnamosi Dalay-Lama sanaladi. U tug'ilgan mavjudotlarning eng ulug'i, *bodxisatva* Avalakiteshvaraning erdagi ko'rinishi, *tirik xudo* hisoblanadi. *Dalay* – tibet tilida «dengiz» ma'nosini anglatadi. Dalay-Lama «dengizdek ulug' lama» deganidir. Bu unvon 1391 yilda joriy qilingan. Birinchi Dalay-Lama Binduidub (1391-1475) bo'lgan. Hozirgi kunda Dalay-Lama XIV Lozondantzenjansto-Igvant hisoblanadi. U 1935 yilda tug'ilgan. Uning o'limi bilan erda yangi Dalay-Lama paydo bo'ladi. Oliy *lamalardan* tashkil qilingan hay'at uning o'limidan so'ng bir yil mobaynida yangi tug'ilgan go'daklar orasidan yangi Dalay-Lamani qidirib topadilar. Shundan so'ng go'dak monastirda tarbiyalanadi. U voyaga etgunga qadar uning vazifasini regent – muvaqqat vakil bajarib turadi.

Lamaizm diniy hayotining markazini monastir tashkil qiladi. U erda Dalay-Lama, Lamalar diniy uyushmasi, rohiblar, talabalar faoliyat olib boradilar.

O'rta Osiyoda buddizm. O'rta Osiyoda dinlar tarqalganligi manzarasi rang-barang va tadqiq qilish uchun o'ta qiziqarli. Bu mintaqada boshqa qadimiy dinlar bilan bir qatorda buddizmning ham keng yoyilganligini kuzatamiz.

O'rta Osiyoda buddizm tarixini o'rganish bo'yicha tadqiqotchilardan L.I. Albaum, R.Ch. Bagchi, V.V. Bartold, T.V. Belyaeva, A.N. Bernshtam, V.A. Bulatova, V.P. Vasilev, B.V. Veymarn, V.V. Vertogradova, V.L. Vyatkin, T.V. Grek, B.P. Denike, E.P. Denisov, B.N. Zasipkin, T.I. Zeymal, A.N. Zelinskiy, V.N. Kesaev, G.A. Koshelenko, V.A. Livshits, B.A. Litvinskiy, M.E. Masson, G.V.

Parfyonov, G.A. Pugachenkova, E.G. Pchelina, E.V. Rtveladze, B.Ya. Staviskiy, A.S. Strelkov, B.A. Turg'unov, Z.I. Usmonova, V.B. Henning, V.A. Shishkin kabi o'zbekistonlik va chet ellik arxeolog olimlar izlanishlar olib borganlar. Ularning ekspeditsiyalari natijasida yozilgan maqola, risola va monografiyalar ushbu mavzuni o'rganishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan mualliflarning barchasi buddizm tarixini O'rta Osiyodagi tarixiy-me'moriy yodgorliklarning arxeologik tadqiqotlari asosida yoritib berganlar.

Bir guruh tadqiqotchilar mazkur din O'rta Osiyoga kirib kelishini Kushonlar shohi Kanishka hukmronligi davriga taalluqli deb biladilar (I asrning oxiri – II asrning boshlari). Ikkinchi guruh esa bu jarayonning boshlanishini biroz ertaroq deb hisoblaydilar. Tadqiqotchi B.A. Litvinskiyning fikricha, buddizm Shimoli-G'arbiy Hindiston va Janubiy Afg'oniston (Qandahor) orqali taxminan mil. av. III asrda Baqtriyaga (O'zbekistonning janubiy hududlari) tarqala boshlagan.

Baqtriyaga buddizmning kirib kelishi va yoyilishi haqida boshqa fikr ham mavjud. Tadqiqotchi R.Ch. Bagchi bu jarayon podshoh Ashoka (mil. av. 273-232 yillar) hukmronligi davrida yuz bergan deb hisoblaydi. Ammo bu fikrni tasdiqlovchi arxeologik materiallar etarli emas. Shuning uchun ham buddizm bu hududga Kushonlar davrida kirib kelgan degan fikr haqiqatga yaqinroq. Chunonchi B.Ya. Staviskiy bu fikrni Kushonlar hukumatining hind viloyatlari va buddist jamoalarning homiylari bilan aloqalari mustahkam bo'lganligi bilan isbotlaydi. Ammo shu bilan bir qatorda baqtriyaliklarning Kanishkaga qadar buddizm bilan tanish bo'lganliklarini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham mavjud.

Mil. av. I asr va milodning IV asrlari oralig'ida Kushon imperiyasida buddizmning Maxayana yo'nalishi davlat dini deb e'lon qilindi. Bungacha buddizm Hindistonda uzoq tarixga ega bo'lsa-da, u erda asosiy yo'nalish bo'lgan Xnayana ham bunday mavqega erishmagan edi. Kanishka, Vima, Kadfiz va ulardan keyingi Kushon imperatorlari buddizmni keng yoydilar. Ular bu din an'analari amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o'rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O'sh, Bolosog'un, Koshg'ar va boshqa shaharlarda buddizm takyagohlari va xonaqohlari, ibodatxonalarini qurib, buddizmning muqaddas kitoblari, *sutra* va *pastrilarni* o'rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratib berdilar.

Hozirgi Termizdagi Qora-tepa, Fayoz-tepa, Sayram, Quva va boshqa joylarda topilayotgan budda haykalchalari yoki ularning parchalari, Ayritomdagi ayvon peshtoqi parchasidagi buddist musiqachilarning tasviri va boshqa osori atiqalar, saroy va ibodatxonalar O'rta Osiyodagi buddizm haqida xabar beruvchi manbalardir. Bu dinga tegishli yozma manbalar qadimgi turkiy yozuvda, uyg'ur bitiklarida va boshqa yozuvlarda saqlanib qolgan.

O'rta Osiyoning janubida *Sarvastivada* maktabining ilk ko'rinishi – *Vaybxashika* maktabining ta'limoti yoyilgan. U buddizmning Xnayana oqimiga tegishli. Ammo Vaybxashika ta'limoti ba'zi jihatlari bilan Maxayana doirasidagi maktablarga yaqin turadi. Bunda, ayniqsa, Maxayana doirasiga kiruvchi *Sarvastivadaning Vinaya* maktabi muhim ahamiyatga ega. Manbalarning xabar

berishicha, Xo'tanda *Vaybxashika* maktabi vakillari Maxayanani yoyish uchun zamin tayyorlaganlar.

O'rta Osiyoda buddizmning boshqa maktablari ham yoyilgan. Qora-tepadan topilgan sopol buyumlardagi *kxaroshtxi* yozuvlari bu erdagi *Maxasangxika* ta'limotini aks ettiradi. *Maxasangxika* maktabi O'rta Osiyoda buddizmning tarqalishida muhim rol o'ynagan. Qora-tepaning boshqa qismida *braxmi* yozuvidagi bitiklar esa O'rta Osiyoga keyinchalik Kanishka davrida kirib kelgan *Sarvastivada* buddist maktabi ta'limotining yoyilganligidan xabar beradi.

Mil. av. III – I asrlarda buddizm Hindiston hududidan chiqib janubi-sharqiy yo'nalish bo'yicha asosan Xinayana ta'limoti shaklida yoyilgan. Lekin milodning boshlarida shimolga, shimoli-g'arbga hamda shimoli-sharqqa Maxayana tarzida harakat qildi. Buning sababi bir necha asrlar mobaynida Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo hududlarining yagona Kushon saltanati bayrog'i ostida birlashtirilishi bo'ldi. Aynan Markaziy Osiyo orqali buddizm Uzoq Sharqqa kirib bordi va u erda ikkinchi hayotini boshladi.

O'rta Osiyoda buddizmga tegishli tarixiy obidalarining ko'pligi jihatidan Fayoz-tepa eng yirik yodgorlik hisoblanadi. U erdan chiqqan diniy bitiklar, haykallar bilan birga topilgan ibodatxonaning hududi ancha katta joyni egallaydi.

1926 yilda A.S. Strelkov tomonidan aniqlangan Eski Termizning sharqidagi Zurmala minorasi O'rta Osiyo hududidagi birinchi ochilgan, katta ahamiyatga molik bo'lgan buddizm inshootidir.

Eski Termizdan topilgan Qora-tepa buddist majmuasi milodning I asri Kushon saltanatining gullagan davriga to'g'ri keladi. Qora-tepadagi har bir inshoot er usti va g'or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, bir monax (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat.

Dalvarzin-tepa majmuasi 1967-1968 yillarda qazib ochilgan bo'lib, Termiz yaqinidagi Surxon vohasining o'rta qismida joylashgan. Mazkur kompleks G.A. Pugachenkova va B.A. Turg'unov boshchiligidagi O'zbekiston san'atshunoslik akademiyasi tomonidan ochildi. Dalvarzin-tepada topilgan buddizm majmuasi bu din ta'limoti Kushon saltanatining shimoliy viloyatlariga I asrda yoyilganligini ko'rsatadi.

Janubiy O'zbekistonda joylashgan Baqtriya-Toxaristonning shimoliy qismida 60-yillarning ikkinchi yarmidan 80-yillargacha buddizm inshootlarining ettitasi aniqlanib o'rganildi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan Janubiy Tojikistondagi Ajina-tepa, Kofir-qal'adagi kichik ibodatxona, Qal'a-i Kofirnigon ibodatxonasi, Ayritom majmuasi, Turkmanistondagi Marvdan 30 km uzoqlikda joylashgan Gyaurl-qal'a majmuasi, Quvadagi ibodatxona va boshqa ko'plab buddizmga tegishli yodgorliklar ushbu dinning mazkur mintaqadagi tarixi haqida xabar beradi.

O'rta Osiyoning Marv, Balx, Termiz, Sug'diyona viloyati, Quva, Koson, Samarqand va Buxoro kabi shaharlari, viloyatlari buddizm ta'limoti va marosimlarini ishlab chiqishda, boshqa o'lkalar, mamlakatlarda targ'ib va tashviq etishda, eng muhimi, buddizmning hozirgi zamonning ilg'or jahon dinlaridan biriga aylanishida favqulodda ahamiyatga ega markazlari bo'lgan.

Sug'd viloyati Xitoy bilan savdo-sotiq hamda madaniy aloqalarni o'rnatishda ahamiyatli rol o'ynagan. Sug'dliklar Xitoyda buddizmni yoyishda juda muhim

o'rin egallaydilar. Biroq Sug'dda buddizmning keng yoyilganligi masalasi haligacha ochiq qolmoqda. To'g'ri, hozirga qadar bu erda buddizmga oid ba'zi haykalchalar, Sanzordagi buddizm ibodatxonasi, Samarqand yaqinida budda haykalining boshi topilgani ma'lum. Ammo bu topilmalar ushbu hududda bu din keng tarqalgan degan xulosani chiqarishga hozircha etarli emas.

Surxondaryo Toxaristonidan chiqqan buddizmning yirik vakili – Tanmonanti (yoki Dxarmanandin). U yoshligidan tarkidunyochilik yo'lini tutib, uzlatga chekingan. Yosh bo'lsa-da, aqli tiniq bo'lib, *sutralarni* o'rgangan va yoddan aytib yurgan, bunga o'zining butun borlig'ini bag'ishlagan. U Tripitakani to'la o'zlashtirgan. Dxarmanandinning ilmdagi salohiyati chuqur va benihoya edi. U o'z vatanida ham, boshqa uzoq erlarda ham katta obro'ga ega bo'lgan. 365-385 yillarda Dxarmanandin Xitoyning Chan'an viloyatiga Buddha ta'limotini targ'ib etgani va ibodatxonalar, *vag'n* va *vixaralar* qurgani kelgan. Imperator Fu Stzyan Xitoydagi barcha avliyolarning Dxarmanandining ko'rsatayotgan izzat-hurmatini ko'rib, uni juda oliy maqomli mehmon sifatida kutib oladi va tortiqlar qiladi. Xitoyda bu paytda buddizm ancha keng tarqalganiga qaramay, to'rt qismli *Agama-Sutralardan* birortasi ham hali xitoy tiliga tarjima qilinmagan edi. Imperator Fu Stzyanning maslahatchisi va Uvey tumani hokimi Chjao Chjen Dxarmanandindan ana shu *sutralarni* tarjima qilib berishini so'rash niyatida edilar. Chjao Chjen barcha avliyolar va Dxarmanandinni o'z poytaxtiga taklif etib, *Agama-Sutralarning* ikkitasini – Chjun va Stzen hamda mustaqil asarlar sanalgan Pi Tan Sin, San Fa Du va boshqa asarlarni tarjima etish, sharhlab berish va e'lon etishni iltimos qiladi. Dxarmanandin bu ishga 2 yil rahbarlik qilib, uni muvaffaqiyatli yakunlaydi. So'ngra o'z vataniga qaytadi, lekin uning qachon va qayerda vafot etganligi to'g'risidagi ma'lumotlar bizgacha etib kelmagan.

Turkiy xalqlar butun Osiyoni, Xitoy va Uzoq Sharqni nafaqat qilich va ot kuchi bilan zabt etishgan, balki mavjud bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlar, madaniyat, insonparvarlik sohalarida ham etakchilik qilganlar. O'zlaridan boshqa xalqlarni «varvarlar» deb atagan kalondimog' qadimxitoy siyosatchilari ham bu jihatdan ularni tan olishga majbur bo'lganlar.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Ilk buddizm ta'limoti nimalardan iborat?
2. Buddizm amaliyotida meditatsiya qanday o'rin tutadi?
3. Xinayana va Maxayana orasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
4. Buddizm o'zga stivilizastiyalar ichiga qanday kirib borgan?
5. Hozirgi Yaponiya hayotida buddizm qanday o'rin egallaydi?
6. Lamaizm qaysi davrda vujudga keldi?
7. Lamaizmning Rossiya Federastiyasida tutgan maqomi qanday?
8. Markaziy Osiyoda buddizm tarixini o'rganishning qanday ilmiy muammolari bor?

Adabiyotlar

1. Буддизм. Словарь. М., 1992.
2. Буддийская философия в средневековой Японии. М., 1998.

3. Васильев Л.С. История религий Востока. М., 1997
4. Васильев Л.С. Культы, религии, традиции в Китае. М., 1970.
5. Волков С.В. Ранняя история буддизма в Корее. М., 1985.
6. Далай-Лама XIV. Буддизм в Тибете. М., 1991.
7. Дервиш Р.А., Левтеева Л.Г., Мусакаева А. Памятники истории религии и культуры в Узбекистане. Пособие для факультатива по истории религии. Т. Укитувчи, 1994.
8. Мифы народов мира. В 2-х томах. М., 1991.
9. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство, ислам. Справочник школьника. Бишкек, 1997.
10. Розенберг О.О. Труды по буддизму. М., 1994.
11. Светлов Г.Е. Путь богов: синто в истории Японии. М., 1985.
12. Ставиский Б.Я. Судьбы буддизма в Средней Азии. По данным археологии. М., 1998.
13. Щербатской Ф.И. Избранные труды по буддизму. М., 1988.
14. Щербатской Ф.И. Теория познания и логика по учению позднейших буддистов. Части 1-2. М., 1995.

UZOQ SHARQ DINLARI

KONFUTSIYCHILIK

Konfutsiychilik falsafiy g'oya sifatida maydonga kelgan. Uning asoschisi Konfutsiy (Kun Stzi) mil. av. 551 yilda tug'ilib, mil. av. 479 yilda vafot etgan.

Konfutsiy otasidan erta ajrab, onasi qo'lida tarbiyalanadi. Onasi ham ko'p o'tmay dunyodan o'tadi. Konfutsiy ilm tahsilini olgach, 19 yoshida uylanadi. Birinchi marta u omborchi vazifasiga ishga tayinlanadi. U bir necha yillar davomida turli podshohlar qo'l ostida ishlagandan keyin yoshlarga ta'lim berishga kirishadi. Yangi ustozning ong haqidagi fikrlari, chuqur ma'noli so'zlari mamlakat bo'ylab keng tarqaladi. Shundan so'ng Konfutsiy huzuriga mamlakatning turli mintaqalaridan ilmga chanqoq yoshlar oqib kela boshlaydilar. U ilm istab keluvchilarga hech qachon rad javobini bermas edi. Konfutsiyning 3000 ga yaqin shogirdlari, 72 eng ko'zga ko'ringan izdoshlari orasida mamlakatning obro'li xonadonlaridan bo'lgan kishilar bilan bir qatorda kambag'al, oddiy kishilar ham bo'lgan. Konfutsiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-sekin katta ta'sir doirasiga ega bo'lib bordi. Uning ko'plab shogirdlari Qadimgi Xitoy podshohliklarida e'tiborli mansablarni egalladilar. Konfutsiy yoshlar tarbiyachisi va ustoz sifatida keng shuxrat qozonib, ilk Xitoy ma'rifatparvari nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa, u tomonidan taklif qilingan islohotlarning amalga oshirilishida buning aksi bo'ldi.

Garchi Konfutsiy podshohlar xizmatida bo'lgan paytlarida o'zining ish faoliyatida ba'zi islohotlarni amalga oshirishga harakat qilgan bo'lsa-da, ammo uning ko'pchilik takliflari amaldorlar va hukmdorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Konfutsiyning asosiy e'tiborini tortgan narsa o'z zamonasining kamchiliklari va aybu nuqsonlari edi.

Oddiy xalqning nochorligi, amaldorlarning zolimligi, hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, qadimgi ma'naviy an'ana va qadriyatlardan uzoqlashish – bularning hammasi Konfutsiyning keskin tanqidiy qarashlari yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. U mavjud muammoni hal qilishda yangicha qarashlarga tayanish lozimligini anglab etdi. Biroq u o'z fikrlarining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi uchun hamma e'tirof qilgan obro'ga ega bo'lishi kerak edi. Konfutsiy xuddi ana shu obro'ni uzoq o'tmishning yarim afsonaviy obrazlaridan topdi. Konfutsiy vafotidan bir necha asr o'tgach, uning ta'limoti xalq hayotining ajralmas bir qismiga aylandi.

Konfutsiyning falsafiy qarashlari. Konfutsiy komil inson (*stzyun-stzi*) haqidagi g'oyani yaratdi. *Stzyun-stzi*, ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarz)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim. U buning uchun tinimsiz, o'zini ayamasdan o'z ishonchi, hukmdori, o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur.

Konfutsiychilikning ilk ko'rinishida axloq masalasi birinchi o'ringa qo'yilgan, diniy e'tiqod esa ikkinchi darajali sanalgan. Diniy masalalar, aqidalarga konfutsiychilik ancha sovuqqon munosabatda bo'lgan, ba'zi o'rinlarda ularni inkor qilgan. Konfutsiy o'z vaqtida Qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ruhlarga e'tiqod masalasiga shubhali munosabatda bo'lgan. «Lunyuy» (Konfutsiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi, konfutsiychilikning asosiy manbasi)da keltirilishicha, Konfutsiy g'ayritabiiy narsalar va ruhlar to'g'risida gapirishni yoqtirmagan. Shuningdek, u taqdir, inson umri, o'lim haqida so'z yuritishdan qochgan. Undan: «O'lim nima?» – deb so'raganlarida, u: «Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o'lim nima ekanligini qaerdan bila olar edik» deb javob bergan.

Biroq qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlariga Konfutsiy hurmat bilan munosabatda bo'lgan.

Konfutsiyning yana bir ta'limoti – «*Syao*» bo'lib, u inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi g'oyani o'zida mujassam qilgan. Konfutsiy fikricha, inson uchun *Syaodan* muhimroq narsa yo'q. U: «*Syao* va *Di* (ukaning akaga, kichiklarning kattalarga hurmati) insoniylikning asosidir» degan. *Syaoning* asosiy ma'nosi nima, farzandlik xizmati qanday bo'lishi kerak, degan savolga Konfutsiy shunday javob bergan: «Aqlli va ota-onangni boqishga yaroqli bo'lishingdir. Chunonchi, odamlar uylarida itlar va otlarini ham boqadilar-ku? Agar ota-onalariga ortiq ehtirom ko'rsatmasalar, hayvonlarni boqishlaridan nima farqi qoladi?».

Syao ta'limotining «*Li qonunlari*»ga ko'ra, farzand ota-ona hayotlik chog'ida mutlaqo ularning ixtiyoridadir. To ular dunyodan o'tgunicha o'ziga-o'zi egalik qilishga haqli emas. Agar ota-ona vafot etsa, farzand qanday ish bilan mashg'ul bo'lishidan qat'i nazar, barcha ishni tashlab uch yil aza tutishi shart. Konfutsiychilikning *Syao* ta'limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy me'yorlariga katta ta'sir o'tkazib keldi.

Oila va nikoh tushunchasi. Konfutsiychilik Xitoyda oila masalalariga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi. Konfutsiychilik ta'limotiga ko'ra, oila nikohdan, yoshlarning kelishuvi bilan boshlanmaydi. Balki oila ehtiyojlari uchun nikoh

amalga oshiriladi. Konfutsiychilar urf-odatlariga ko'ra, avlodlar o'z ajdodlari ruhi oldida qilishlari kerak bo'lgan barcha marosimlarni o'z o'rnida, muntazam ravishda bajarishlari lozim.

Xitoyda ilk Chjou va In davrlarida o'tganlar ruhlari tiriklar uchun madad bo'lishi kerak deb e'tiqod qilinsa, Konfutsiy ta'limoti buning aksini, ya'ni tiriklar o'tganlar oldida qarzdordirlar, degan g'oyani ilgari surdi. Konfutsiy o'zidan oldin jamiyatda mavjud bo'lgan o'tganlar ruhlari haqidagi aqidalarni tamoman o'zgartirib yubordi.

Modomiki, tiriklarning asosiy vazifasi o'tganlarni rozi qilish, ularga xizmat qilish ekan, butun oila mana shu asosiy g'oyaga xizmat qiluvchi bir jihozni tashkil qiladi. Mana shuning uchun ham har bir oila boshliqlari o'z ajdodlari oldidagi qarzlarini ado etishlari uchun oila naslini davom ettirishlari kerak.

Konfutsiychilikning Xitoyda tarqalishi. Konfutsiy fikricha, dunyodan befarzand o'tish va o'zidan nasl qoldirmaslik nafaqat shu insonning yoki shu xonadonning, balki butun jamiyatning fojiasidir.

Konfutsiychilikning yoyilishi sekin kechdi. Konfutsiyning o'zi esa zamondoshlari tomonidan tan olinmay vafot etdi. Uning shogirdlariga ham oson bo'lmadi.

Garchi konfutsiychilar o'z ta'limotlarini qadimgi Chjou aqidalariga bog'liq urf-odatlar, marosimlar, axloqiy me'yorlar asosiga qurgan bo'lsalar-da, ular mazkur aqidalar orasida o'z munosabatlari, qolaversa, har bir masala yuzasidan o'z xulosalarini ham berib bayon qilar edilar. Mana shu narsa konfutsiychilikning muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari uning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan omillardan yana biri konfutsiychilarning o'zlari foydalangan qadimgi kitoblar, she'rlar, risolalarni yig'ib o'quvchilariga o'rgatganliklaridir. Bu ishning asosiy qismi Konfutsiyning o'zi tomonidan bajarilgan edi. U turli podshohlklarda mavjud bo'lgan uch mingdan ortiq qadimiy qo'shiqlar, yozuvlarni jamlab, ularni qayta tahrir qilgan edi. Konfutsiy va uning shogirdlari tomonidan tahrir qilingan asarlar keyinchalik konfutsiychilikning asosiy manbalariga aylandi.

Mil. av. IV – III asrlarga kelib Konfutsiy ta'limoti ancha keng tarqaldi va katta ta'sir doirasiga ega bo'ldi. Xan sulolasi davriga kelib (mil. av. III – II asrlar) konfutsiychilik davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Xan podshohlari Konfutsiy ta'limotlarini to'liq qabul qilmagan bo'lsalar-da, uning kuchini, jamiyatda egallab ulgurgan mavqeini e'tirof qilgan holda undan davlat boshqaruvida foydalandilar.

Konfutsiy nomining ilohiylashtirilishi. Konfutsiy o'zi yashab ijod etgan joy – Stuyfuda vafot etgandan keyin uning qabri yaqinida bir ibodatxona qurdilar. Ibodatxonaga Konfutsiyning shogirdlari va yaqinlari tomonidan uning barcha tabarruk narsalari va unga taalluqli ashyolar: yozgan asarlari, musiqa asboblari, ro'zg'or anjomlari, aravasi va boshqa narsalari keltirib qo'yildi. Vaqt o'tishi bilan faylasufning obro'si oshib, ta'limoti keng tarqalgani sari ushbu ibodatxona ham ziyoratgohga aylanib bordi. Stuyfu yaqinida Konfutsiy shogirdlari va izdoshlari makon tutgan kattagina qishloq barpo bo'ldi. Lu podshohligi hukmdorining o'zi Stuyfuga kelib Konfutsiy ibodatxonasida uning xotirasiga qurbonlik qildi. Ibodatxonaning ahamiyati oshgan sayin er mulklari bilan boyidi. Bu joy oddiy

mahalliy ibodatxona shaklidan Xan sulolasi davriga kelib butun mamlakat miqyosidagi muqaddas ziyoratgohga aylandi. Mil. av. 195 yilda birinchi Xan podshohi Lyu Ban shaxsan o'zi Konfutsiy ibodatxonasida unga atab «tay-lyao» (Xitoyda eng oliy qurbonlik – qo'y, xo'kiz va cho'chqa) uchlik qurbonligi keltiradi.

Mana shu asrdan boshlab Konfutsiy nomi Xitoyda ilohiylashtirildi va unga atab muntazam qoidalar asosida qurbonliklar qilinadigan bo'ldi.

Xan sulolasi davrida Konfutsiyga knyazlik unvoni berildi. X – XIII asrlarga kelib, Sun sulolasi davrida unga imperatorlik unvoni, otasiga esa knyazlik unvoni berildi. Keyinroq Yuan va Min sulolalari (XIII – XIV asrlar) davrida unga yana ham yuksakroq daraja – «Haqiqiy donishmand», «Millatlarning buyuk ustози» unvonlari berildi.

Xitoyning deyarli barcha shaharlarida Konfutsiyga atab qurilgan ibodatxonalar paydo bo'ldi. Bunday ibodatxonalar soni mingga yaqin edi. Dastlabki paytda ibodatxonaning qurbonlik qilinadigan joyida oddiygina Konfutsiy nomi yozilgan lavha osilgan edi. Xitoyga buddizm kirib kelgach, lavha o'rnini endi Konfutsiyning haykali egalladi. Stuyfudagi ibodatxonadan boshqa hammasi bir xil shaklga ega edi. Unda Konfutsiy haykali yoniga 86 shogirdining nomi bitilgan lavha yoki haykallar qo'yilgan. Stuyfudagi ibodatxonada ularning soni ko'proq.

Faylasufga atab qilinadigan qurbonliklar va boshqa muhim marosimlar tartibga solingan. Har oyning birinchi va 15-kunlarida ikki marta Konfutsiy haykali oldida odatiy qurbonliklar, yilda – bahorda va kuzda ikki marta alohida tantanali marosimlar o'tkazilar edi. Tantanaga kelgan imperator va ularning mulozimlari donishmand timsoli oldida turib, unga: «Sen buyuksan, ey mutlaq donishmand, sening fazilatlarining ko'p, ta'limoting beqiyos, o'tganlar orasida senga tengi yo'q!» – kabi hamdu sanolar bilan murojaat qilganlar.

Konfutsiy nomi o'rta asrlarga kelib Xitoyda ilohiylashtirildi. Uning timsoli podshohlar boshidagi tojlardan o'rin oldi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Konfutsiychilik nima asosida vujudga kelgan?
2. Konfutsiychilik hozirgi Xitoyda qanday mavqega ega?
3. Konfutsiychilik ta'limoti nimalardan iborat?
4. Konfutsiyning g'oyalari qaysi asarlarda ifodalangan?
5. Konfutsiy shaxsi qaysi davrdan ilohiylashtirila boshlandi?
6. Mazkur dinning qanday marosimlarini bilasiz?

Adabiyotlar

1. Конфуций. Изречения. М., 1994.
2. Васильев Л.С. Культы, религии, традиции в Китае. М., 1970.
3. Васильев Л.С. История религий Востока. М., 1997.
4. Древнекитайская философия. В 2-х томах. М., 1972-1973.
5. Конфуцианство в Китае. Проблемы теории и практики. М., 1982.
6. Крывелев И.А. История религии. Очерки в 2-х томах. 2-е изд., дораб. М., 1988.
7. Лукьянов А.Е. Начало древнекитайской философии. М., 1994.

8. Овермайер Д.Л. Религии Китая. Мир как живая система // Религиозные традиции мира. Т. II. М., 1996, С. 395-490.
9. Основы религиоведения. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. Под общ. ред. И.Н. Яблокова. М., 1995.
10. Токарев С.А. Религия в истории народов мира. 4-е изд. М., 1986.
11. Thompson Laurence G. Chinese Religion. An Introduction. 4th ed. Belmont, 1989.
12. Young G. Confucianism and Christianity. The first encounter. Hong Kong, 1983.

DAOSIZM

Daosizm falsafiy ta'limot sifatida Xitoyda mil. av. birinchi ming yillikning o'rtalarida konfutsiychilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ldi. Bu ta'limot dastavval birmuncha mavhum xarakterga ega bo'lib, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan. Ushbu ta'limot tarafdorlari ham konfutsiychilar kabi o'z zamonalaridagi harakatlarga qarshi bo'lganlar. Daosizm targ'ibotchilari ham hukmdorlar orasidagi tinimsiz urushlarni qoralar edilar. Ular boshqa bir qator falsafiy ta'limotlar qatori orqaga – «oltin asr»ga qaytishga chaqirar edilar.

Daosizm o'zining ilk ko'rinishida nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga aloqador edi. Bu shamanizm, folbinlik, tabiblik bilan bog'liq edi. Chunonchi qadimgi davolash uslublari falsafa, ayniqsa, daosizm falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shamanlar davolash uslublari inson tanasidagi jarayonlarni tashqi fazoviy kuchlar, har xil ruhlar ta'siri bilan bog'lab, jodugarlik va sehrdan keng foydalanganlar.

Daosizm mil. av. IV – III asrlarga kelib nazariy asarlar paydo bo'la boshladi. Bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalar daosizm uchun unchalik muhim sanalmadi. Biroq daosizm vakillari ilk bor borliq, tabiat, koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqa boshladilar. Xitoydagi Stzis faylasuflar akademiyasida daosizm nazariyotchilari: Tyan Pen, Sun Stzyan, In Ven, Shen Dao, Xuan Yuan va boshqalar to'plangan bo'lib, ular inson va uni o'rab turgan borliq xususida beto'xtov munozaralar olib bordilar va risolalar yozdilar. Bunday asarlar hozirgi kungacha saqlanmagan, biroq daosizmning asosiy manbasi sanaladigan «Daodestzin» risolasida o'z aksini topgan. Mazkur risola muallifi Lao-TSzi hisoblanadi. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar kam, borlari ham noaniq. Afsonalarga qaraganda, Lao-TSzi onasining qornida bir necha o'n yillar yashab, kekxa donishmand holida dunyoga kelgan. Shuning uchun uni «Lao-TSzi» – «kekxa donishmand», «qari bola» deb atadilar.

Lao-TSzi mil. av. VII da tug'ilgan, Konfutsiyning zamondoshi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy yodgorliklarida Konfutsiyning Lao-TSzi bilan uchrashganligi, uning donoligidan hayratga tushgani va uni *ajdaho* deb atagani haqida rivoyat keltiriladi.

Lao-TSzi ta'limotiga ko'ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi «Ulug' Dao» hisoblanadi (*dao, tao* – «yo'l», «haqiqat», «tartib» demakdir). *Dao* haqidagi ta'limot konfutsiychilikda bo'lgan. Chunki *dao* to'g'risidagi fikrlar konfutsiychilik va daosizm shakllanishidan ancha oldin mavjud edi, shuning uchun ham har ikki ta'limotning o'xshash jihatlari ko'p. Konfutsiy *daoni*

jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar tajassumi deb hisoblagan. Boshqacha aytganda, *dao* – ijtimoiy me'yorlar, intizom va axloqning yig'indisidir. Daosizm vakillari uchun *dao* o'zgacha mazmunga ega: *dao* umumiy tabiat qonuni va ibtido, intihoning o'zagidir. Umumiy mazmunda *dao* – butun borliq demakdir. *Daoni* hech kim yaratmagan, barcha narsalar *daodan* kelib chiqqan va unga qaytadi. *Dao* hech kimga ko'rinmaydi, sezgi a'zolari uni ilg'ay olmaydi. Nimani ko'rish, eshitish, sezish, anglash mumkin bo'lsa, u *dao* emas.

Daosizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri bu *dao* va u bilan aloqador tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o'limning nisbiyligi va shunga bog'liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir. Milodning birinchi asrlari – Xan asriga kelib, abadiy hayot masalasi daosizm olimlarining asosiy muammosiga aylandi. Uchinchi va so'nggi masala *uvey* tamoyilidir. Daosizm falsafasining mana shu uch ta'limoti Xan asriga kelib daosizm dinining shakllanishiga asos bo'ldi.

Milodiy ikkinchi asrga kelib daosizm dinida yangi sektalar paydo bo'ldi. Ulardan biri «Taypindao» («Buyuk tenglik ta'limoti») bo'lib, uning asoschisi Chjan Stzue hisoblanadi. U xalq orasida sehr-jodu orqali barcha kasalliklarni tuzatuvchi hamda kishi umrini uzaytiruvchi shaxs sifatida shuhrat topdi. Uning atrofiga ko'plab odamlar yig'ildilar. Chjan Stzue odamlarni 36 jangovar guruhga bo'lgan. Katta guruhlariga «*da fan*» katta sehrarlar, kichik guruhlariga «*syao fan*» kichik sehrarlar boshliq etib tayinlanganlar. Sektada yuqori boshliq Chjan Stzue («Buyuk osmon rahnamosi») sanaladi. Uning ikki ukasi «Buyuk er rahnamosi» va «Buyuk inson rahnamosi» deb talqin qilinadi. Bu uchtalik daosizmdagi uchtalik ta'limoti – osmon, er va inson birligining ramziy timsoli edi. «Taypindao» sektasi ta'limoti «Taypinstzin» kitobiga asoslanadi.

«Taypindao» sektasi bilan birga yana bir «Udoudao» («Besh dou guruch ta'limoti») sektasi ham mavjud bo'lib, Qadimgi Xitoy jamiyatida katta ta'sir doirasiga ega bo'lgan. Uning asoschisi mashhur daochi Chjan Dao Lin bo'lib, u ushbu sektaninggina emas, balki butun daosizm ibodatxonasining asoschisi hisoblanadi.

Ushbu sektalar tarixda hukmron tabaqalarning adolatsizligiga qarshi ko'plab siyosiy kurashlarga, qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan.

Daosizm birinchi ming yillikda buddizm va konfutsiychilik bilan raqobatlashib keldi. VI asrga kelib daosizm konfutsiychilikdan keyin ikkinchi o'rinni egallagan edi. XIII asrdan boshlab daosizm ta'limotining aniq asoslarga ega emasligi va ilk davrdagi yuksak ta'limotlari turli xurofotlar bilan almashgani tufayli inqirozga yuz tuta boshladi.

XX asr boshlariga kelib Xitoyda turli daosizm sektalariga qarshi kurash boshlandi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida daosizm tarafdorlari juda ozchilikni tashkil qildi. Ushbu kichik guruhlar monaxlar, targ'ibotchilar va bashoratchilarni o'z ichiga olar edi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Daosizm asoschisi kim?
2. Daosizmning qanday asotirlarini bilasiz?
3. Daosizmda axloq masalalari qanday o'rinni egallaydi?
4. Hozirgi davrda Tayvanda daosizm qanday maqomga ega?
5. Diniy marosimlar qanday tashkil etiladi?

6. Daosizmda qanday sektalar mavjud?
7. Daosizm inqirozi nima bilan bog'liq?

Adabiyotlar

1. Васильев Л.С. История религий Востока. М., 1975.
2. Васильев Л.С. Культы, религии, традиции в Китае. М., 1970.
3. Го Мо-жо. Философы Древнего Китая. М., 1961.
4. Древнекитайская философия. В 2-томах. М., 1972-1973.
5. Кулаков А.Е. Религии мира. М., 1996, С. 150-173.
6. Померанцева Л.Е. Поздние даосы о природе, обществе и искусстве. М., 1979.
7. Торчинов Е.А. Даосизм: опыт историко-религиоведческого описания. Санкт-Петербург, 1994.
8. Федоренко Н.Т. Земля и легенды Китая. М., 1961.
9. Шариев В.А. Даосская йога. Бишкек, 1993.
10. Юань-Кэ. Мифы Древнего Китая. М., 1965.

SINTOIZM

Sintoizm dini Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (*sinto* – «xudolar yo'li»). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq u Yaponiyada Xitoy ta'siridan xoli bir sharoitda paydo bo'lgan va rivojlangan. Yaponlar sintoizmning mohiyati va kelib chiqishini bir-biri bilan aralashtirmaslikka harakat qiladilar. Sintoizm ular uchun ham tarix, ham an'ana, ham butun hayot demakdir.

Sintoizm ta'limotiga ko'ra, *mikado* (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali ruhlar(*kama*)ning vorisidir. Yaponlar *kamaga* ajdodlar va qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qiladilar. Xudojo'y yapon o'lganidan keyin o'zining ham o'sha *kamalardan* biri bo'lishiga ishonadi.

Sintoizmda «Oliy ilohiyot» tushunchasi mavjud emas. U ajdodlar ruhiga va tabiatga sig'inishga o'rgatadi. Sintoizmda umumiy hayotiy rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalaridan boshqa diniy urf-odatlar yo'q. Unda bir umumiy ma'naviy qoida – «Umumiy qonunlarga rioya qilgan holda tabiat qoidalariga mos harakat qil» g'oyasi mavjud. Yaponlar tasavvurida ular yaxshilik va yomonlik tushunchalarini tabiatan bilganlar, shu tufayli jamiyatdagi qoida va talablarga rioya qilish tabiiy. Agar shunday bo'lmaganda, ular o'rgatilmagan yovvoyi hayvonlardan ham pastroq darajada bo'lar edilar.

Sintoizm haqidagi ma'lumotlar «Kodziki» («Qadimiy yozuvlar») va «Nixongi» («Yaponiya annallari») manbalarida uchraydi.

Kodziki – bu sintoizmning muqaddas kitobi. U har bir yaponning eng yaqin kitobidir, boshqacha aytganda, bu kitob Yaponiyani, yapon xalqini tushunishning kaliti hisoblanadi. Unda ikkita asosiy mazmun mujassam: qon-qabilaviy birlik va siyosiy hokimiyat g'oyasi.

Yapon yozuvlarida ta'kidlanishicha, olamda avval tartibsizlik (xaos) hukmronlik qilgan. Undan so'ng er osmondan ajralib chiqqan hamda ayol va erkak jinsi paydo bo'lgan. Ayol jinsi timsolida ayol xudo Izdanami, erkak jinsi timsolida uning eri Izdanagi yuzaga keldi. Ulardan ayol jinsidagi quyosh ilohiyoti Amaterasu, erkak jinsidagi oy ilohiyoti Stukiyomi, shamol va suv ilohiyoti Susanoo tug'ildi. Amaterasu g'alaba qilib osmonda qoldi, Susanoo esa erdagi Idzumo mamlakatiga quvildi. Susanooning o'g'li Okuninusi Idzumo hokimi bo'ldi. Amaterasu bu holatga chidab tura olmay, Okuninusi hokimiyatini o'z nabirasi Ninigiga topshirishga majbur qildi. Ninigi osmondan tushib, Idzumo davlati rahbarligini qabul qildi. Unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa – ko'zgu (ilohiylik timsoli), qilich (qudrat timsoli) va *yashma* (sadoqat va fidoiylik timsoli) topshirildi. Ninigidan Dzimmutenno kelib chiqdi. Tinno unvoni «oliy hukmdor» ma'nosini anglatadi. Bu so'z boshqa tillarda imperator ma'nosini bildiradi. Dzimmutenno *mikado* – yapon imperatorlari sulolasining birinchi vakili, Yaponiyaning birinchi afsonaviy imperatori hisoblanadi. Ko'zgu, qilich, *yashma* o'sha qadim zamonlardan beri yapon imperatorlari xonadonining belgisi bo'lib qolgan.

Imperator-*mikado* yaponlar tasavvurida o'zining ilohiy kelib chiqishi sababli butun xalq bilan qon-qardosh bo'lib, u bir oiladan iborat millatning boshlig'idir.

Hatto Yaponiyada 300 yildan ortiq hukmronlik qilgan *syogunlar* ham o'zlarini *mikado* namoyandalari deb ataganlar. Sintoizm ta'limotida yoritilgan *mikado* g'oyasining boshqaruvchilik xususiyati kuchi hozirgi kunda anchagina zaiflashgan bo'lsa-da, yaponlar tasavvuridan o'chib ketmagan.

Hozirgi kunda yaponlar tashqi ko'rinishdan bu ta'limotga bir oz e'tiborsiz ko'rinsalar-da, chin dildan unga ongli ravishda ehtirom bilan yondashdilar. Hozirgacha sintoizm ibodatxonalarida imperator oilasiga atab turli marosimlar o'tkazilib turadi.

Sintoizm yaponlarga mavjudot olami, tabiat bilan o'zaro munosabatlarga o'ziga xos qarashni singdirgan. Bu qarashlar besh tamoyilda namoyon bo'ladi.

Birinchi tamoyil mohiyatiga ko'ra, butun borliq dunyoning o'z-o'zicha rivojlanishi natijasidir. Dunyo o'z-o'zidan vujudga kelgan bo'lib, yaxshi va mukammaldir. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, olamni boshqaruvchi kuch xristian yoki musulmonlar e'tiqodidagidek qandaydir oliy mavjudotda emas, balki olamning o'zida mujassamdir.

Ikkinchi tamoyil hayot kuchini anglatadi. Hayotdagi har bir tabiiy holat hurmat qilinadi. Faqatgina «nopok» bo'lgan narsagina hurmat qilinmaydi. Biroq har qanday «nopok»lik tozalanishi mumkin. Shu bois sintoizm marosimlari insonda moslashishga moyillik uyg'otishga qaratilgan: yaponlar tozalab, isloh qilingan va yapon urf-odatlariga moslashtirilgan har qanday yangilikni qabul qiladilar.

Uchinchi tamoyil tabiat bilan tarixni yagona deb tushuntiradi. Sintoizm ta'limoti dunyoni jonli va jonsizga ajratmaydi. Unga e'tiqod qiluvchilar nazdida dunyodagi hayvonlar, o'simliklar, jismlar, umuman, tabiatdagi barcha narsalar tirikdir va inson vujudida *kama* ilohiyotlari yashaydilar. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, *kamalar* dunyosi odamlar dunyosidan boshqa dunyo emas, balki u odamlar bilan birikib ketgan. Shuning uchun inson najotni qandaydir boshqa dunyodan olmaydi, balki najotga kundalik hayotda *kama* bilan birlashib ketish natijasida erishadi.

To'rtinchi tamoyil ko'pxudolik tushunchasi bilan bog'liq. Sintoizm mahalliy tabiat, urug', qabila ilohiyotlariga bag'ishlangan marosimlardan kelib chiqqan. Sintoizmning ibtidoiy shamanizm va sehrgarlikka oid odatlari faqatgina V – VI asrlarda – imperator *sinto* ibodatxonalari faoliyatini o'z nazoratiga olgach, hozirgi ma'lum bo'lgan yagona shaklga kirgan. VIII asr boshlarida imperator saroyida *sinto* ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil etildi. X asrga kelib esa *sinto* ilohiyotlarining ro'yxati tuzildi. O'shanda ularning soni 3132 ta edi, keyinchalik esa bu son yanada ortdi.

Beshinchi tamoyil milliy ruhiy asos bilan bog'liq. Bu tamoyilga ko'ra, *sinto* ilohiyotlari – *kamalar* barcha insonlarni emas, balki faqat yaponlarnigina yaratganlar. Shuning uchun ham yaponlar o'z farzandlariga yoshligidanoq «biz *sintoga* tegishlimiz» degan aqidani singdirib boradilar. Shu yo'l bilan axloq normalarini boshqarishning ikki muhim omili mavjud. Birinchidan, *kama* juda intim yo'l bilan faqat yapon millati bilan bog'liq ekanligini tasdiqlash; ikkinchidan, sintoizm nuqtai nazaridan agar chet ellik kishi *sintoga* e'tiqod qilib, *kamaga* ibodat qilsa, yapon bo'lmagan kishining bunday qilishi axloqsizlik sanaladi. Shuning bilan birga sintoizm yaponlarni boshqa dinlarga e'tiqod qilishlariga qarshilik qilmaydi: deyarli barcha yaponlar, sintoizm bilan bir

qatorda, yana boshqa bir dinga e'tiqod qiladilar. Agar yaponlarni diniy e'tiqodiga ko'ra guruhlariga ajratib, umumiy soni hisoblanadigan bo'lsa, ular soni mamlakat umumiy aholi sonidan ko'p chiqadi.

Sintoizmning o'ziga xos jihati shundaki, har bir ibodatxonaning o'z xudosi bo'lib, uning boshqa ibodatxonalarga hech qanday aloqasi yo'q.

Ibodat marosimlari. Oddiy yapon kishi uchun uning o'z ibodatxonasi, unda amalga oshiriladigan marosimlar, yilda bir marta bo'ladigan rangin bayramlar hayotining zaruriy qismi bo'lib qolgan. Uning ota-bobolari ham shunday yashaganlar, o'zi ham undan oshirmasdan shu tarzda yashaydi.

Ibodatxonalar uchun alohida o'ziga xoslik bilan birga ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud. Bu hukumatning din ishlarini tartibga solish va sintoizumni davlat diniga aylantirishga qaratilgan urinishlari natijasidir. Shunday urinishlarning biri 1868 yilda Meydzi qayta qurishidan keyin bo'lib o'tgan. O'shanda sintoizm ruhoniylarini o'qitadigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qilingan edi. *Kannusi* deb ataladigan bunday ruhoniylilik lavozimi odatda meros sifatida uzatilar edi. 1946 yilda konstitutiya yo'li bilan din davlatdan ajratildi.

Ibodatxonada turli amallar bajariladi. Dindorlar *mehrob* oldida turib, maxsus katakli qutiga biror tanga tashlaydilar, ta'zim qiladilar, bir necha chapak chalib, ibodat so'zlarini qaytaradilar. Ibodatxonada turli bayramlar ham uyushtiriladi.

Sintoizm bayramlari. Sintoizmning keng tarqalgan bayramlaridan biri Mosturidir. Bu bayram ba'zi ibodatxonalarda yilda bir marta, ba'zilarida esa ikki marta nishonlanadi. Ko'pincha bu bayram dehqonchilik ishlarining boshlanishi, hosil yig'ib olish, shuningdek, ibodatxona yoki mahalliy xudoga bag'ishlangan sana bilan bog'liq bo'ladi. Bayram ko'tarinki kayfiyatda o'tadi. Ruhoniylar bayram haqida faqatgina doimiy ibodatga keladigan kishilarni emas, barcha aholini xabardor qiladilar. Mosturi bayramida juda ko'p odam to'planib, ular katta tantanalar bilan o'yin-kulgu qiladilar. Ayrim ibodatxonalarda Mosturi rang-barang karnaval ko'rinishida o'tadi.

Xalq e'tiqodlari. Har bir ibodatxonada Sintay ilohiyoti turadigan *xonden* (muqaddas joy) bor. *Xondenning* yonida *xayden* (ibodat qiluvchilar turadigan joy) bo'ladi. Ibodatxonalarda ilohiyotlar timsoli yo'q. Ammo ayrim ibodatxonalar sher, ba'zilar tulki, maymun yoki kiyik timsollari bilan bezatilgan. Bu hayvonlar muayyan ilohiyotlarning elchisi hisoblanadi. Bularning barchasi sintoizmning turli-tuman, o'ziga xos milliy e'tiqodlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Xalq orasida tulki tabiatiga ega bo'lgan odamlarni sehrigar, folbin, bashoratchilik xususiyatiga ega deb hisoblaydilar. Ular tulki timsolidagi ilohiyotga sig'inadilar. Qadimda yaponlar bo'riga ibodat qilganlar. Yaqin-yaqinlargacha ular bo'rini Akama tog'larining ruhi deb hisoblab kelganlar. Shuningdek, yaponlar toshbaqa, ilon, chuvalchang, baliq, ninachi, akula, qisqichbaqa kabi ko'plab turli hayvonlarni muqaddas hisoblab, ularning timsollarini yomon ruhlardan himoya qiluvchi, omad-baxt keltiruvchi narsalar sifatida uylari, ibodatxonalariga osib qo'yadilar. Yana ba'zi daraxt va gullarni, tog', buloq, tosh kabilarni ham ilohiylashtiradilar. Shunisi ham borki, ushbu urf-

odatlar diniy e'tiqoddan ko'ra ko'proq xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yapon xalq e'tiqodlari juda xilma-xil. Ular bir shakldan ikkinchisiga o'tib hozirgacha yo'qolmay etib kelgan. Bu e'tiqodlar ham o'z navbatida chetdan kirib kelgan turli dinlar ta'sirida shakllangan.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Sintoizm qachon paydo bo'ldi?
2. Sintoizm ta'limoti nimalardan iborat?
3. Yaponiyada dinlarga e'tiqod qiluvchilarning soni aholi umumiy sonidan ko'p bo'lishiga sabab nima?
4. Sintoizmda ibodatlar qanday bajariladi?
5. Ibodatxona qanday bezatiladi?
6. Sintoizmning qanday bayramlarini bilasiz?
7. Turli hayvonlarning timsollari nimalarni anglatadi?

Adabiyotlar

1. Арутюнов С.А., Светлов Г.Е. Старые и новые боги Японии. М., 1968.
2. Васильев Л.С. История религий Востока. М., 1997.
3. Игнатович А.Н. Буддизм в Японии. М., 1987.
4. Крывелев И.А. История религии. Очерки в 2-х томах. 2-е изд., дораб. М., 1988.
5. Пронников В.А., Ладонов И.Д. Японцы. М., 1985.
6. Светлов Г.Е. Путь богов: синто в истории Японии. М., 1985.
7. Судзуки Д. Основы дзен-буддизма. Бишкек, 1993.
8. Ткачева А.А. Новые религии Востока. М., 1991.
9. Фромм Э., Судзуки Д., Марино Р. де. Дзен-буддизм и психоанализ. М., 1995.
10. Religions in Japan. Buddhism, Shinto, Christianity. Tokyo, 1980.

MARKAZIY OSIYO

ZARDUSHTIYLIK

Vujudga kelishi. Zardushtiylik mil. av. II-I ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bu din *vahy* orqali nozil bo'lgan. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g'oyalar yahudiylik, xristianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq echilgan masalalar emas. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish Avestoda «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi.

Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shilib, zardushtiylikning ilohiyoti – Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir.

Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushtra, Zardust, Zoroastr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan mil. av. 1200-570 yillar orasida yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Tadqiqotchi M. Boys ta'kidlashicha, u mil. av. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka negizlangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi.

Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joy xususida ikki xil qarash bor.

Birinchisi – «G'arb nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili shuki, birinchidan, zardushtiylikning Qadimgi Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiy eron-pahlaviy tilida bo'lganligidir. E'tibordan chiqarmaslik kerakki, zardushtiylik uch buyuk Eron imperiyasi – Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar davrlarida, ya'ni mil. av. VI asrdan to mil. VII asrigacha ketma-ket aynan Yaqin va O'rta Sharqda davlat dini maqomida bo'lgan.

Ikkinchisi, «Sharq nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra, Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko'pchilik

manbashunoslar ikkinchi nazariya tarafdorlaridirlar. Xorazm zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog'langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «Ozarxurra» «Airyanem-Vaeja» (ba'zi manbalarda – «Eran-vej»)da yoqildi», - deyiladi.

«Airyanem-Vaeja»ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to'g'ri keladi. Avestoda Axura-Mazda tomonidan yaratilgan «Barakat va najot» sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi, «dunyoda hech narsa chiroyiga teng kela olmas Airyanem-Vaeja», keyin esa «odamlar va chorva podalariga mo'l» Sug'd, «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati» Baxdi (Baqtriya) zikr etiladi.

Zardushtiylik ta'limoti. Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi aholisining «eski dini»ga) nisbatan monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi.

Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq er ochib, uni bog'u rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi. Aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar. Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. Bunga ko'ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajak, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa, na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy – *misvongatuga* tushadi.

Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Anxramaynyu (yoki Axriman) ifodalaydi.

Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliigi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab sig'inishi shart.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, er va havo ulug'lanadi.

Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha past, baland «sukut minoralari» – *daxmalarga* solinadi, u erda murdalarning go'shtlarini qushlar eb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib, minora o'rtasidagi quduqqa sohib yuboriladi. Bunda *poklik* bilan *nopoklik*ning bir-biriga yaqinlashmasligiga erishiladi.

Zardushtiylik dini dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri hisoblanib, mil. av. XII – VI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari unga e'tiqod qilganlar. Eronda Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida uning

muqaddas kitobi Avesto ruhoniylar tomonidan og'zaki rivoyatdan yig'ilib, birinchi marta kitob shakliga keltirilgan. Ayrim qismlariga, ayniqsa, «Videvdat» bo'limiga o'zgartirishlar kiritilib, qayta ishlangan.

VIII asrda O'rta Osiyoga islom dini kirib kelib keng tarqalgunga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan. Buni, jumladan, arxeologik tadqiqotlar isbotlaydi.

Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud. Ular Hindistonning Mumbai (Bombey, G'ujarat shtatlarida 115 ming kishiga yaqin), Pokiston, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh, Avstraliya va Eronning (Tehronda 19 ming kishidan ortiq) ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikasida zardushtiylik diniga e'tiqod qilish qonun tomonidan ruxsat etilgan. Mumbai'da zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. Undan tashqari Mumbai'da homiy Dxalla raisligida dunyo zardushtiylari madaniyati fondi ishlab turibdi. 1960 yilda zardushtiylarning I umumjahon kongressi Tehronda o'tkazildi. Keyingi kongresslar Bombeyda o'tkazildi.

Avesto. Avesto zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. Avesto O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avlodlardan-avlodga og'zaki tarzda uzatilib kelingan.

Zardushtiylik dini rasmiy tus olgunga qadar Avestoning bo'laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu – Axura-Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlarini deb hisoblangan bo'laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig'ila boshlangan. Bular Zardushtning o'limidan keyin kitob holida jamlangan va «Avesto» – «O'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar» deb nom olgan.

Bu qadimiy yozma manba bizgacha to'liq holda etib kelmagan. Avesto haqida Abu Rayhon Beruniy (vaf. 1048 y.) shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida [Abistonning] 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtda Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi».

Avestoning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Grestiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, 12 ming qoramol terisidagi tillo matn haqida (at-Tabariyda – 12000 pergament) keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida («Bundahishn», «Shahrihoi Eron», «Dinkard»; IX asr, «Arda Viraf-namak»; IX asr, «Tansar xatlari», al-Mas'udiyning «Muruj az-zahab», «Fors-noma» va boshqalarda) ma'lumotlar bor. Bu asarlarda yunonlar otashxonalarini vayron qilganlari, ibodatxonalar boyliklarini talon-taroj etganlari, din arboblarni o'ldirib, asir olib ketganliklari haqida yoziladi. Hozir bizgacha etib kelgan Avesto, Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. U «Avesto 30 *nask*» edi, majusiylar (zardushtiylar) qo'lida 12 *nask* chamasi qoldi» deb yozgan.

Yozma manbalarga ko'ra, haqiqatan ham Avestoni *mo'bad*lar avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga olib o'tib, asrlar osha saqlaganlar. Buning sababi *mo'badlar* mag'lub xalqlar (Yaqin va Sharq xalqlari) yozuvini *harom* hisoblab, *muqaddas xabarni* unda ifodalashga uzoq vaqt jur'at etmaganlar. Dastavval (mil. I yoki II asrlarida), Arshakiylar davrida Avesto qismlarini to'plash boshlangan. Keyinchalik Sosoniy Ardasher Popakon (227-243) davrida, ayniqsa, Shopur (243-273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, so'ng bu asosiy matn to'ldirib borilgan. Avestoning ana shu to'ldirilgan nusxasining ikki to'liq qo'lyozmasi Hindistonda saqlanadi – biri Mumbayda zardushtiylarning madaniy markazi bo'lmish Koma nomidagi institutda, ikkinchisi – Kalkuttadagi davlat kutubxonasida.

Avestoning eng qadimiy qismlarida Zardusht tug'ilgan va o'z faoliyatini boshlagan yurt haqida ma'lumot berilgan. Unda aytilishicha, «bu mamlakatning ko'p sonli lashkarlarini botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog'lari bor, yaylov va suvlari bilan go'zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, suvga mo'l, chuqur ko'llari, keng qirg'oqli va kema yurar daryolari o'z to'lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xarayva (Areya), Gava (sug'dlar yashaydigan yurt), Xvarazm (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor».

Shubhasiz, «keng qirg'oqli, kema yurar daryolar» bu Amudaryo va Sirdaryo bo'lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaharlar O'rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg'oqlarida joylashganlaridir.

Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, zardushtiylikning ilk makoni va Avestoning kelib chiqish joyi deb – Xorazm, tarqalish yo'nalishi deb – Xorazm-Marg'iyona-Baqtriya ayta olamiz.

Avestoning «Yasna» kitobida bayon etilishicha, Zardushtning vatandoshlari unga ishonmay, uning ta'limotini qabul qilmaganlar. Zardusht vatanni tark etib, qo'shni davlatga ketadi, u erning malikasi Xutaosa va shoh Kavi Vishtaspaning xayrixohligiga erishadi. Ular Zardusht ta'limotini qabul qiladilar. Natijada qo'shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g'alaba qozonadi. Shundan so'ng bu ta'limot xalqlar o'rtasida keng tarqala boshlagan. Keyingi davr rivoyatiga ko'ra, Shoh Kavi Vishtaspa farmoni bilan Avesto kitobi o'n ikki ming mol terisiga yozib olinib, otashkadaga topshirilgan.

Avestoning tarkibiy qismlari. Avesto zardushtiylik muqaddas kitoblarining majmuidir. U – murakkab to'plam. Avestoning saqlanib qolgan to'rtta kitobidan birinchisining nomi «Videvdat» (vi-daevodatam – «Devlarga qarshi qonun») deb ataladi. Ushbu kitob Avestoning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U yigirma ikki bob bo'lib, boblari *fragard* deb nomlangan. *Fragard*larning ma'nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: birinchi *fragard* – odamlar yashaydigan barcha yurtlarni Axura-Mazda qanday yaratgani to'g'risida bo'lib, ular orasida Xorazm, Sug'd, Marg'iyona, Baxdi (Balx) va boshqalar bor; ikkinchi *fragard*da Jamshid podsholigi – kasallik, o'lim, azob-uqubatlar bo'lmagan zamon haqida, ya'ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; uchinchi *fragard* dehqonchilikning savobli sharofatlari va h.k. haqida. Shuningdek, Videvdatning boshqa *fragardlaridan* Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari va muloqotlari ham o'rin olgan.

Ikkinchi kitob «Yasna» deb atalib, Avestoning e'tiborli bo'limi sanaladi. Yasna – yaz o'zagidan bo'lib, «sajda, topinch, namoz» ma'nolarini ifodalaydi. Yasna 72 bobdan iborat bo'lgan. Boblari *ha*, *haitiy* deb atalgan. Har bir *ha* zarur o'rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o'qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (*nask*) tarkibiga Zardusht o'zi ijod qilgan targ'ibot she'rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 28-34, 43-46, 47-50, 51, 53-jami bo'lib, 17 ta *hasini* tashkil qiladi. Zardusht she'rlari ilmiy adabiyotda *gatalar* deb atab kelinadi. *Ha* – «bashorat» demakdir. Yasnaning 35-42-*halari* ayniqsa, yuksak qadrlangan. Bu etti *ha Haptanxati Yasna* – «Etti bob Yasna» deb nomlangan. Ular orasida olovning muqaddasligi haqida bob bo'lib, zardushtiylik urf-odatlarini orasida olovga e'tiqod qilish, dinning esa «otashparastlik» deb atalishi shunga bog'liq. Binobarin, olov Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning erdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat *Arta* ham olovda o'z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg'onni rostdan ajratib bergan. Yolg'on esa chin e'tiqodga xiyonat deb qoralangan. *Arta* so'zi fonetik o'zgarib, dastlab *atar*, hozir esa *otash* shaklida ishlatilib kelmoqda.

Uchinchi kitob «Vispered» deb nomlangan. U 24 bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida *karde* deb atalib, ma'budlar sha'niga o'qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig'indisi ham deyishadi. Ayni paytda u Yasnaga qo'shimcha hisoblanadi.

To'rtinchi kitob «Yasht» (gimn) deb ataladi. U Avestoning eng qadimiy qatlami bo'lib, 22 bobdan iborat. Har bir bob Axura-Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma'lum vazifalarini bajaruvchi ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalardan iborat.

Avestoning bizgacha etib kelmagan kitoblaridan ba'zi qismlari uning yig'ma parchalar to'plami «Xo'rdak Avesto» kitobida jamlangan. Masalan, Exrpatastan kitobidan *mo'badlar* (kohinlar) uchun qonun-qoidalar, diniy boshqaruv tizimiga xos ma'lumotlarga oid qismlari, Nirangastan – diniy-mavsumiy, ijtimoiy marosimlar tartib-qoidalar qismi, 20-*naskda* jonning u dunyodagi ahvoli haqidagi qismi va boshqalar shu kitobda saqlangan.

Avesto haqida eng muhim manba IX asrga oid «Dinkard» (din amallari) asaridir. Unda Avestoning 21 kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar savobli ishlar yo'riqnomasi; diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta'limoti asoslari; dunyoning Axura-Mazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutish; jamiyat a'zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Zardushtiylik dini haqida fransuz olimi Anketil-Dyuperron juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, Anketil-Dyuperron 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u erdagi zardushtiylar orasida uch yil yashagan, ularning ibodatlarini, urf-odatlarini yaxshi o'rgangan va Avestoni fransuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda, shuni ham ta'kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, Avesto G'arbiy Evropa, Eron va Hindiston tillari orqali

bizga etib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to'g'ri kelmaydi. Avestoda turkona jihatlar kam qolgan.

Zardushtiylikni o'rganish hozirgi kunlarda ham faol olib borilmoqda. Ta'kidlash kerakki, bu sohadagi tadqiqotlar O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlar va ko'p qatlamli diniy tajribada mazkur dinning tutgan o'rni beqiyosdir.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Zardushtning vatani qaerda?
2. Zardushtiylik qanday davrda yuzaga keldi?
3. Zardushtiylikning muqaddas kitobi nima?
4. Hozirgi paytda zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchilar qaerlarda mavjud?
5. Zardushtiylik ta'limoti asoslari nimalardan tashkil topgan?
6. Zardushtiylik amaliyoti nimalardan iborat?
7. Zardushtiy dafn marosimlari qanday?
8. Etti pok va etti nopok unsurlar qaysilar?

Adabiyotlar

1. «Avesto» kitobi – tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai» mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. T., 2000.
2. Ishoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) // «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 1992, № 2, b. 3-12.
3. Mahmudov T. «Avesto» haqida. T., 2000.
4. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1997.
5. Авеста в русских переводах (1861-1996) / Составитель И.В. Рак. Изд. 2-е, исправ. Санкт-Петербург, 1998.
6. Авеста: Избранные гимны... Перевод с авест. И.М. Стеблин-Каменского. Душанбе, 1990.
7. Авеста: Избранные гимны. Из Видевдата / перевод с авест. И.М. Стеблин-Каменского. М., 1993.
8. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. 2-е издание, исправ. М., 1988; 3-е издание, полностью перераб. Санкт-Петербург, 1994.
9. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности: Тексты и исследования / Отв. ред. А.Н. Кононов. М.-Л., 1951.
10. Мифы народов мира. В 2-х томах. М., 1991.
11. Рак И.В. Мифы древнего и раннесредневекового Ирана. Санкт-Петербург-М., 1998.
12. Henning W. A Bibliography on Old Iranian Subjects. Teheran, 1946.

G'ARB DINLARI

YAHUDIYLIK

Yahudiylar dunyoda keng tarqalgan dinlardan biridir. Shu kunlarda yahudiylar Isroilda 4,7 mln. (aholining 80 foizi), AQShda 6 mln. (40 foizi Nyu Yorkda), Rossiyada 1,5 mln., G'arbiy Evropa davlatlaridan Fransiya 0,6 mln., Buyuk Britaniya 0,4 mln. ni tashkil qilib, boshqa ko'pgina mamlakatlarda ham yashaydilar.

Paydo bo'lishi. Yahudiylar miloddan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylar millat dini bo'lib, faqatgina yahudiy xalqiga xos. *Yahudiy* so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yozishicha, yahudiylar bu so'zni somiy tillaridagi *hoda* – «tavba qilmoq, tavba qilganlar» so'zidan kelib chiqqan deb da'vo qilsalar-da, aslida bu fikr noto'g'ri, «yahudiy» so'zi Banu Isroil xalqi ustidan hukmronlik qilgan Ya'qub payg'ambarning o'g'li Yahudo nomiga nisbat berilgan.

Yahudiy xalqining yana bir nomi Banu Isroil bo'lib, *Isroil* – Ya'qub payg'ambarning ikkinchi ismi, *banu* – «bolalar» ma'nosini beradi, ya'ni – «Isroil avlodlari».

Yahudiy xalqiga nisbatan ishlatiladigan yana bir atama *evrey* so'zi zamonaviy adabiyotlarda «yahudiy» so'zining aynan tarjimai sifatida ishlatiladi. Ammo bu ikki so'zning etimologiyasi turlicha: *evrey* qadimiy somiy tillardagi *ibriy* so'zining o'zgargan shaklidir. *Ibriy* so'zi (arab. *'abara-ya'buru* – «kechib o'tmoq» fe'lidan) «kechib o'tganlar» ma'nosini beradi. Tarixdan ma'lumki, yahudiy qabilalari Urdun (Iordan) daryosini kechib, hozirgi Falastin hududiga kelganlar. Shuning uchun ularga *ibriylar* yoki *ibroniylar* («kechib o'tuvchilar») nomi berilgan.

Yahudiylar ta'limoti. Yahudiylar ta'limoti to'rt asosga tayanadi:

1. Olamlarni yaratuvchi yagona xudo – Yahvega imon keltirish. Yahve so'zi «rabb, parvardigor» ma'nosini bildiradi. Tavrotning «Chiqish» kitobida Xudoning Musoga aytgan ushbu so'zi keltiriladi: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Ishoq, Ya'qublarning parvardigori, u meni sizga yubordi» (Chiqish; 3). Mil. av. VI asr oxirlarida yahudiy ruhoniylari oddiy xalq hurmatini pasaytirib qo'ymasliklari uchun Yahve so'zini ishlatishni man etib, uning o'rniga murojaat uchun «Adonay» («Rabb, Xoja») so'zini qo'llashni buyurganlar. Shundan so'ng faqat ruhoniylargagina ibodat vaqtida Yahve nomini tilga olishlariga ijozat berilgan.

Yahudiylar ta'limotiga ko'ra, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shu sabab yahudiylar dinida shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech bir ishga qo'l urilmaydi.

2. Yahudiylar er yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va u «dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi» ekanligi. Ular o'zlarini Xudo tomonidan saylangan muqaddas xalq ekanini, yahudiylarning ruhi Xudoning bir qismi hisoblanishini da'vo qiladilar.

3. Messiya – xaloskorning kelishi haqida. Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni isloh qilgan holda qaytadan quradi; 2) butun yahudiylarni *Sinion* atrofida to'playdi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.

4. Oxirat kuniga ishonish. Yahudiylikda oxirat haqidagi tasavvurlar, asosan Talmudda bayon etilgan. Unga ko'ra Yahvega chin e'tiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar. Aksincha, uning qonunlarini buzganlar shafqatsiz jazo oladilar.

Yahudiylik ta'limoti bo'yicha Muso payg'ambar Tur tog'ida Yahve bilan uchrashganda Yagona Xudo tomonidan 10 ta lavha tushirilgan. Ushbu lavhalarda mazkur din asosini tashkil etgan 10 ta nasihat bor edi. Bu nasihatlar Tavrotning «Ikkinchi qonun» kitobidan o'rin olgan bo'lib, yahudiylar ularga qat'iy rioya qilishlari shart. Ular quyidagilardir:

1. Yahvedan boshqani iloh deb bilmaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'rilik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.

Yahudiylarning muqaddas diniy manbalaridan hisoblangan Talmudda yahudiylik marosimlari tizimi ishlab chiqilgan. Unda yahudiylar amal qilishi va bajarishi lozim bo'lgan 248 ta buyruq, 365 ta taqiq mavjud. Ular yahudiyning ovqatlanishi, kiyinishi, ozodaligi, kun tartibi, ibodatlar, marosimlar va bayramlariga taalluqli masalalarni o'z ichiga oladi.

Har bir yahudiy ushbu buyruq va taqiqlarga umri davomida rioya qilishi shart. Masalan, har bir yahudiy farzandi tug'ilganining sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Shuningdek, yahudiylar o'zlarining maxsus qassoblari – *shoyixet* tomonidan diniy qoidalariga muvofiq so'yilgan go'shtlarnigina (to'ng'iz go'shti yahudiylikda harom hisoblanadi) iste'mol qiladilar. Kiyinish masalasidagi qoidalar, asosan, erkaklarga tegishli. Ularning kiyimlari bir rangdagi (sidirg'a) matodan uzun qilib tikilgan bo'lishi, cho'ntaklari beldan pastda joylashishi lozim. Boshlari esa doimo, hatto uyquda ham yopilgan bo'lishi kerak. Ibodat paytida yahudiylar maxsus ibodat choyshabi – «*tales*»ni elkalariga tashlab oladilar. Uning qirg'oqlarida olti yuz o'n uchta tugun tugilgan bo'lib, bu narsa yahudiy tomonidan yuqorida aytib o'tilgan «248 ta buyruq va 365 ta taqiqqa amal qilishni elkamga olaman» degan ma'noni anglatadi.

Tavrot manbalari. Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri – mil. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketilishiga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot; Torah of Moses; Torah shebikhtav), ikkinchisi Tavrotdan keyinroq paydo bo'lgan yozma manba Talmuddir. Yahudiylikdagi bu ikki muqaddas sanaladigan manba xristian Bibliyasining tarkibiy qismlarini (aynan emas) tashkil etadi. Xristianlar va

yahudiylar *Bibliya* so'zini turlicha tushunadilar. Yahudiylar uchun *Ibriy Bibliyasi* (Hebrew Bible) xristianlarning *Qadimiy Ahd* (Old Testament) hisoblanadi. Yahudiylar *Bibliya* so'zi ostida ko'pincha o'zlarining *Tanaxlarini* (Tanakh) tushunadilar. Musoga tegishli bo'lgan besh kitob «Tavrot» deb ataladi va quyidagi kitoblarga bo'linadi: 1) «Borliq» yoki «Ibtido»; 2) «Chiqish»; 3) «Levit»; 4) «Sonlar»; 5) «Ikkinchi qonun».

*Qadimiy Ahd*ning ichidagi diniy ta'limot va aqidaga bag'ishlangan eng asosiy va obro'li qismi Tavrotdir. U xristianlik an'anasiga ko'ra «Besh kitob», yahudiylar an'anasiga ko'ra «Tora» (ta'limot) hisoblanadi.

*Qadimiy Ahd*dagi «ahd» so'zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini bildiradi. *Qadimiy Ahd* matni ibriy (eski yahudiy) va oromiy tillarida yozilgan. U qadimgi payg'ambarlarning kitoblari (Ketuvim), Sulaymon payg'ambarning matallari (Nevi'im) va (Torah) nomli kitoblardan iborat. Unda «Xudo yarlaqagan» Isroil xalqining tarixi haqida hikoyalar beriladi.

«Ibtido» mil. av. 1400 yillarda Xudoning buyrug'iga ko'ra Muso payg'ambar tomonidan yozib olingan. Unda Xudo olamni qay yo'sinda yaratgani, odamzodning gunohga botgani, buning natijasida olamga azob va o'lim kelishi haqida xabar beriladi. Shuningdek, unda dunyodagi xalqlarning vujudga kelishi va jahonga tarqalishi tarixi bayon qilingan. Odam Ato va Momo Havvo, Hobil va Qobil, Nuh, Lut, Ibrohim, Ishoq, Ismoil, Ya'qub, Yusuf, Fir'avn va boshqa shaxslar, To'fon, Bobil minorasi va tillar chatishuvi, Sodom va Hamoraning xarob bo'lishi singari eng qadimiy hodisalar ham *Ibtidodan* o'rin olgan.

«Chiqish» kitobida Muso payg'ambarning tug'ilishi, hayoti, Misr Fir'avni tomonidan qattiq zulmga tortilgan yahudiylarni Yahve amri bilan xalos qilgani, unga Tur tog'ida Yahve tomonidan o'nta "vasiyat" (zapoved)ning berilishi haqidagi rivoyatlar keladi. Bundan tashqari, yahudiylikning ibodatlari, rasm-rusumlariga taalluqli ko'rsatmalar berilgan.

«Levit» kitobi turli-tuman urf-odat va diniy marosimlarga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan. Unda, asosan, qurbonlik haqida so'z yuritilib, Xudo yo'liga qanday hayvonni qurbonlik qilish yoxud, qay tarzda amalga oshirish lozimligi bayon qilingan. Shuningdek, yahudiy xalqiga hayvon va parrandalardan qaysilarining go'shtini eyish mumkin va qaysilarini eyish taqiqlangani hamda boshqa turli hayotiy masalalar yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

«Sonlar» kitobiga ko'ra yahudiy xalqining Muso payg'ambar boshchiligidagi Misrdan chiqishining ikkinchi kuni ularga urushga yaroqli barcha erkaklarning hisobini olishga buyurdi. Bu kitobda Muso payg'ambar rahbarligidagi yahudiylarning qabila, urug', avlodlar bo'yicha asosiy namoyandalarining nomlari sanab o'tiladi. Yana unda Misrdan chiqqan Banu Isroil qavmining Muso payg'ambar bilan kechirgan hayotlari va tortgan qiyinchiliklari va olib borgan janglari haqida so'z boradi. Yahve Musoga janglarda qo'lga kiritilgan o'lja va asirlarning hisobini olish va ularni qanday taqsimlash borasida ko'rsatmalar beradi.

«Ikkinchi qonun» kitobi 34 bobdan iborat. 27, 31, 34-boblardan tashqari qolgan qismlari birinchi shaxs nomidan yozilgan. Bibliyada keltirilgan rivoyatga ko'ra, birinchi avliyo Xilkiya nomli shaxs Iosiya podshohligining 18 yilida, ya'ni

mil. av. 621 yilda Quddus (Ierusalim) ibodatxonasida Qonun kitobini topgan. «Ikkinchi qonun»ning asosi ana shu Qonun kitobi hisoblanadi.

«Nevi'im» (Payg'ambarlar) kitobi ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismga avvalgi payg'ambarlarning kitoblari kirgan bo'lib, ular: Iisus Navin, «hukmlar», Samuilning ikki kitobi va ikkita «Podshohlik», Ruf, Esfir, Ezdra, Neemiya, Paralifomenon kitoblari; ikkinchi qismga keyingi payg'ambarlar kitoblari kirgan bo'lib, ular uchta katta payg'ambar – Isaiya, Ieramiya, Iezekiil va 12 ta kichik payg'ambar – Osiya, Ioil, Amos, Avdiy, Iona, Mixey, Naum, Avvakum, Sofoniya, Aggey, Zaxariya, Malaxiyalarning kitoblaridir.

«Ketuvim» qismi «Zabur», «Qissalar», Iov kitobi, Solomonning «qo'shiqlar qo'shiqlari», Ruf kitobi, «Ieramiya yig'isi», Ekkleziast, Esfir, Daniil, Ezdra kitoblari va Solnomalar kitobini o'z ichiga oladi.

Talmud. Milodning I – IV asrlarida yahudiy davlati boshdan kechirgan iqtisodiy va ijtimoiy tanazzul xalq orasida ruhoniylar obro'yining benihoya oshib ketishiga sabab bo'ldi. Ular o'zlarini *ravvinlar* (*hazrat, janob*) deb atadilar. 66-70 yillardagi qo'zg'olonda Isroil xalqini halokatdan qutqarib qolgan Ioann ben Zakkai nomli shaxs yashirincha O'rta er dengizi bo'yida Yavne (Yavneh) degan joyda diniy maktab (akademiya) tashkil qildi. Bu maktab *ravvinlar* ta'limotini tarqatish markazi bo'lib qoldi. Natijada Lidda, Sepforis, Ush, Tiveriada degan joylarda shunga o'xshash maktab – «akademiya»lar tashkil etildi. Bu akademiylarning rahbarlari «nasi» (knyaz) yoki *patriarx* deb ataldi. Ular bu maktablarga rahbarlik qilish bilan bir qatorda o'z hududlarida fuqarolik ishlari bo'yicha hakamlik vazifalarini bajardilar hamda jamoaning ishlarida rahbar, barcha yahudiylarning diniy rahnamosi hisoblanar edilar.

Mazkur patriarxlar boshqargan maktablarda «Talmid-xoxomlar», ya'ni yahudiy diniy qonunchilari avvalgi «Galaxa» (yahudiy diniy qonunlari)ni sharhlash va yangilarini ishlab chiqish bilan shug'ullandilar. Shu davrdan boshlab *Galaxalar*ni sistemalashtirish ishlari boshlandi. *Galaxalar* uzoq davr og'zaki ravishda avloddan-avlodga o'tib kelgan edi. Bizgacha etib kelgan «Mishna» (Mishnah) nomli *Galaxalar* to'plami 210 yil atrofida III asrda yashagan Yuda Ha-Nasi (Judah Ha-Nasi) ismli patriarx tomonidan yozilgan. Keyinchalik Mishnaga ko'p o'zgartirishlar kiritilgan va unga turli shaxslar tomonidan sharhlar bitilgan. Unga yozilgan sharhlar «Gemara» (Gemara) deb atalgan. Mishna va Gemarkaning, ya'ni *Galaxalar* va ularning keyingi sharhlarining to'plami birgalikda Talmudni tashkil etadi.

Talmud (qad. yahud. «lameyd» – «o'rganish») mil. av. IV asrlarda vujudga kelgan va yozma Toradan farqli o'laroq, avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib borgan. Shuning uchun Tora «yozma qonun» (*Torah shebikhtav*), Talmud esa «og'zaki qonun» (*Torah shebe'al peh*) deb yuritilgan. Talmudning Falastin (Yerushalmi) va Vavilon (Bavli) nusxalari mavjud. Yerushalmi Talmudi milodning 390 yili atrofida, Bavli Talmudi milodning 499 yili atrofida tahrir qilingan.

Unda yahudiylarning esxatologik (oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi, u dunyodagi ajr va jazo haqidagi) tasavvurlari o'z aksini topgan. Talmudda yahudiylikning marosimlari, urf-odatlarini aniq bayon etilgan bo'lib, ular 248 ta buyruq va 365 ta taqiqni o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda qadimiy yahudiylar

orasida din, firqa, guruhlar (saduqiylar, farziylar, esseylar)ning kelib chiqishi haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Unda bayon etilgan diniy qonun-qoidalar, aqidalar, ko'rsatmalar yahudiy dinining asosini tashkil etadi.

Yahudiylarning Talmud qatoriga kiruvchi yana bir diniy manbai *Midrashlar* (tafsir) hisoblanadi. Ular ham Talmud singari diniy qonun-qoidalar to'plami bo'lib, yahudiy ravvinlarining Toraga yozgan sharh-tafsirlari hisoblanadi. Ular *Midrashlardan* ko'proq sinagoga targ'ibotlarida foydalanadilar.

Yahudiylidagi oqimlar. Yahudiylidagi oqimlar haqida so'z yuritganda, ularni qadimiy oqimlar va zamonaviy oqimlarga bo'lish kerak. Qadimiy oqimlarga saduqiylar, farziylar, esseylar kiradi. Zamonaviy oqimlarga esa sionizm kiradi.

Saduqiy nomi podshoh Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniylar Saduq ismi bilan bog'liq. Ko'plab mansabdor ruhoniylar saduqiy bo'lganlar. Ular diniy ishlarda faqat Qonun (Musoning besh kitobi)ni tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so'z boradi, lekin oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun saduqiylar qiyomatda o'lganlarning qayta tirilishiga ishonmaydilar.

Farziy nomi qadimiy yahudiy tilidagi «tushuntirish», «ajratib ko'rsatish» so'zidan olingan bo'lib, ular Musoning Qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o'rgatganlar. Farziylar Muso zamonidan beri og'zaki an'ana davom etib kelyapti, deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o'z ehtiyojlarini qondirish uchun Qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.

Ular muqaddas manba sifatida nafaqat Musoning Qonunini, balki boshqa payg'ambarlarning ham muqaddas yozuvlarini, hatto o'zlarining urf-odatlarini ham qabul qilganlar va bularning hammasiga sinchkovlik bilan amal qilganlar. Shuning uchun ular taomga, kiyimga va boshqa narsalarga juda ehtiyotkor bo'lganlar, qo'l va badanlarining ozodaligiga katta e'tibor berganlar. Farziylar qiyomatga, o'lganlarning qayta tirilishiga ishonganlar.

Quddusdagi ko'pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba'zi diniy mansablarga Musoning Qonuniga nomuvofiq, munosib bo'lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko'rgan bir guruh ruhoniylar Quddusda ibodat qilish va qurbonlik qilish Qonunga to'g'ri kelmay qoldi, deb hisobladilar va Quddusni tashlab, yahudiy sahrolariga chiqib ketib, o'sha erda o'z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni *esseylar* deb atashdi. Esseylar Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor – Messiyaning kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Sionizm (Zionism) nomi Quddusdagi Sion (Zion) tog'i bilan bog'liq. Bu oqim avstriyalik yahudiy jurnalist T. Herstlning (Theoder Herzl, 1860-1904) nemis tilidagi «Yahudiylar davlati» (Der Judenstaat) risolasi asosida XIX asr oxirlarida tuzilgan. Sionizm ilk davrda ravvinlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Bu oqimning maqsadi – yahudiylarning xudo tomonidan tanlangan mumtoz xalq ekanini targ'ib etish va ularning o'zlari yashab turgan turli o'lkalardan chiqib, Falastinda «milliy birlashishi»ga erishishdir. Sionizm «jahon yahudiy millati» – «oliy millat» kabi g'oyalarni ilgari suradi. G'oyasiga ko'ra sionizm siyosiy oqim bo'lib, maqsadiga erishish yo'lida yahudiy dinidan foydalanadi.

Qayta quruvchilar. Yahudiy ilohiyotchilari orasida yahudiy dinini isloh qilish va uni o'rta asrlardagi holatiga qaytarish tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning fikricha, dinni qaysidir bir jihatdan tanqid qilish uning ta'sir kuchini kamaytiradi. Shuning uchun dinning o'zi qanday bo'lsa, uni shundayligicha qabul qilish kerak. Bu fikr tarafdorlari yahudiy ruhoniylari orasida va Isroil davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Ular o'zlarini «qayta quruvchilar» deb ataydilar. Qayta quruvchilar yahudiylilikni sionizmning millatchilik g'oyalari bilan qayta ishlab, uni o'rta asrlardagi ravvinchilik holatiga qaytarishga urinadilar.

Yahudiy marosimlari va bayramlari. Yahudiylar o'zlarining Yahvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro etadilar. Ular yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan, marosimlardan iborat. Ibodat uyda ham sinagogada ham birday olib boriladi. Yahudiylar sinagogasining sharqiy tomonida Toraning nusxalari saqlanadigan sandiq va ravvin uchun minbar qo'yilgan. Ayollar erkaklardan alohida ibodat qiladilar. Sinagogada ibodat xor shaklida olib boriladi.

Yangi tug'ilgan o'g'il bolalar sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylilikda bir necha xil oziq-ovqatlar, asosan, cho'chqa, quyon, qo'shoyoq, tuya, yaxlit tuyoqlilar, o'laksaxo'r qushlar kabi ba'zi hayvon go'shtlarini eyish taqiqlanadi.

Yahudiylarning yillik bayramlari ichida eng e'tiborlisi Peysax (Pessah; Pasxa) bayramidir. Bu bayram xristianlarning pasxasidan farqli o'laroq, yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulib chiqqanlari munosabati bilan nishonlanadi. Qadimiy yahudiylarda Pasxa deb qo'zichoq go'shti va sharobdan iborat kechki ovqatga aytilgan. Xudo Misrdagi yahudiy bo'lmagan go'daklarni qirib tashlashga qaror qilganida, ular o'z uylarining peshtoqini qon bilan bo'yab o'zlarining yahudiy ekanliklarini bildirganlar.

Yahudiylar Pasxa bayramidan keyingi etti kun davomida tuzsiz, xamirturushsiz patir – *masta* tanovul etadilar. Mastani tanovul qilish bilan har bir yahudiy Muso boshchiligidagi o'z ota-bobolarining chekkan mashaqqatlarini his etadilar. Bu bayram yahudiylarning quyosh-oy kalendari bo'yicha *nison* oyining 14 kuni nishonlanadi (bu sana aprel oyining o'rtalariga to'g'ri keladi).

Pasxadan keyingi 50-kuni yahudiylar Shabuot yoki Shevuot bayramini nishonlaydilar. Bu bayram dastlab dehqonchilik bayrami bo'lgan, keyinchalik Sinay tog'ida Musoga Xudo tomonidan Toraning berilishini nishonlab o'tkaziladigan bayramga aylangan. U yahudiylarning kalendari bo'yicha *sivona* oyining 6- va 7-kunlari nishonlanadi.

Kuzda yahudiy kalendaridagi *tishri* oyining 1- va 2-kunlari (sentyabr oxiri-oktyabr boshlari) yangi yil bayrami – Rosh-Ashona nishonlanadi. Bu bayram yahudiylar uchun poklanish bayrami hisoblanib, ular qurbonlik qilingan qo'chqor shoxidan yasalgan surnaylarni chaladilar, cho'ntaklarini to'ntarib yaxshilab qoqadilar.

Tishri oyining 9-kuni gunohlardan poklanish bayrami – Yom-Kipur nishonlanadi. Rosh-Ashona va Yom-Kipur bayramlari o'rtasida yahudiylar ro'za tutadilar. Ro'za kunlari ular yuvinmaydilar, yalangoyoq, eski-tuski kiyimlarga o'ranib yuradilar, sinagogada nadomatlar bilan yig'lab tavba qiladilar.

Purim (qur'a) bayrami yahudiy bayramlarining ichida eng quvnog'i hisoblanadi. Bu bayram yahudiylarni qirib tashlamoqchi bo'lgan fors podshohi Homon zulmidan qutulganliklari sharafiga bahorda nishonlanadi. Ularni Homondan o'z amakisi Mordexay tarbiyalagan Esfir ismli qizcha qutqargan. Shuning uchun bu kuni yahudiylar «Homonga la'natlar bo'lsin», «Mordexayga Xudoning rahmatlari yog'ilsin», deb qichqiradilar.

O'rta Osiyodagi yahudiylar. Ma'lumki, yahudiylar O'rta Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Ularning ichida umume'tirof etilganlaridan biri shuki, yahudiylar bu mintaqaga Eron orqali kirib kelganlar. Bu xalqning O'rta Osiyoga hijrati ko'p asrlar mobaynida davom etdi. Taxminlarga ko'ra, ular Assuriya quvg'inlari paytida – mil. av. VII – VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Hatto mil. av. VIII asrlarda ba'zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham xabarlar bor. Fors davlati ma'lum muddat O'rta Osiyoni o'z hukmi ostida tutib turgan va xuddi shu davrda yahudiylarning ko'chib kelishi amalga oshgan. Yahudiylar O'rta Osiyoda Sug'diyona davlati davrida, ya'ni milodning II asrida paydo bo'ldilar. Ular Eron orqali Marvga kelib, so'ng u erdan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarga tarqaldilar. Bu fikrni mahalliy yahudiylarning fors lahjalarining birida gaplashishlari ham quvvatlaydi.

Ispaniyalik yahudiy sayohatchisi Beniamin de Tudelning ma'lumotiga ko'ra, 1165 yilda Samarqandda 30 mingga yaqin yahudiylar yashagan. Ma'lumki, bu sayyoh sharqda Bag'dodgacha safar qilib, Samarqandda bo'lgan emas. Bu raqam mahalliy Bag'dod yahudiylarining afsonaviy ma'lumotlariga asoslangan holda keltirilgan bo'lsa, ajab emas.

Yahudiylarning turmush tarzlari, urf-odatlar qadimiy yahudiy, fors va mahalliy madaniyatlarning qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba'zilarining ta'siri kuchayishi yoki aksincha, susayishi kuzatilgan. XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi. Yahudiylarning asosiy qismi Buxoro shahri va uning atroflarida yashaganligi tufayli O'rta Osiyo yahudiylari «Buxoro yahudiylari» nomi bilan tanildilar.

Yahudiylar yagona millatga xos din bo'lganligi sababli ular qaerda bo'lmasin, biri ikkinchisidan qancha uzoq bo'lmasin, muqaddas kitobi va e'tiqodi yagona bo'lib qolaverdi. XVIII asrda O'rta Osiyo yahudiylari tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili asli G'arbiy Afrikadan bo'lib, Falastinning Stfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag'ribiy o'z shahri yahudiylari uchun moddiy yordam to'plash maqsadida Buxoroga keladi. U mahalliy yahudiylarning o'z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko'rib, shu erda qolishga va millatdoshlariga diniy ta'lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar. Garchand o'rta osiyolik yahudiylar Buxoro yahudiylari deyilsa-da, ular ko'proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o'rtalarida Nodirshoh (1736-1747) Samarqandni bosib olganda uning lashkarlari orasida turklar, lezginlar, afg'onlar, ironiylar, shuningdek, yahudiylar bo'lganlar. Ular

Samarqandning Shoh-Kash, Chor-Raga, Novadon, Qo'shhovuz kabi guzarlarida yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodirshoh davrida yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo'lgan.

Son jihatdan ko'paygan yahudiylar bir mavzega jam bo'lib yashashni xohlardilar. Biroq Buxoroda ham, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana kabi viloyatlarida ham yahudiylar musulmonlardan ajralgan holda yashar edilar. 1843 yilning bahorida mahalliy yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2,5 gektar joyni 10 ming kumush tangaga sotish haqidagi shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudiydardan 32 kishi imzoladi, davlat uning haqiqiyligini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, yahudiylar o'zlarining birinchi mahallalariga ega bo'ldilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yahudiylarning milliy, diniy erkinliklariga yo'l ochib berildi. Hozirda Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida *buxorolik* hamda *ashkenazi* (evropalik) yahudiylarining milliy madaniy markazlari, shuningdek, sinagogalari faoliyat ko'rsatib kelmokda.

Yahudiy jamoalari mamlakatning uchta ma'muriy hududida o'zining ibodatxonalariga ega bo'lib, jami sakkizta sinagoga ro'yxatdan o'tgan.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Yahudiylik dini qachon vujudga kelgan?
2. Yahudiylik dinining muqaddas kitobi qaysi?
3. Yahudiylik dinining asosiy ta'limoti nimalardan iborat?
4. Yahudiylarning qanday diniy bayramlarini bilasiz?
5. Mustaqil O'zbekistonda yahudiy jamoalarining diniy hayoti qanday?

Adabiyotlar

1. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar, I tom. T., 1968.
2. Beruniy, Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. T., 1973, 157-167-betlar.
3. Амусин И.Д. Рукописи Мертвого моря. М., 1960.
4. Барац А. Лики Торы. М., 1995.
5. Кон-Щербок Д., Кон-Щербок Л. Иудаизм и христианство. Словарь. М., 1995.
6. Лайтман М. Каббала. Тайное еврейское учение. Новосибирск, 1993.
7. Телушкин Й. Еврейский мир. М., 1992.
8. Учение. Пятикнижие Моисево / Перевод, введение и комментарии И.Ш. Шифмана. М., 1993.
9. Фрэзер Дж.Дж. Фольклор в Ветхом Завете. М., 1989.
10. Шифман И.Ш. Ветхий завет и его мир. М., 1987.
11. Encyclopaedia Judaica, 16 vols and Year Books. Jerusalem, 1972.
12. Finkelstein L. (ed.) The Jews: their History, Culture and Religion. 4th ed., 3 vols. New York, 1970.
13. Herzl T. Der Judenstaat. Leipzig and Vienna, 1896; repr. Osnabrueck, 1968.

14. Textual Sources for the Study of Judaism / Edited and Translated by Philip S. Alexander. Chicago, 1990.
15. Textual Sources for the Study of Judaism / Edited and Translated by Philip S. Alexander. Chicago, 1990.

XRISTIANLIK

Paydo bo'lishi. Xristianlik buddizm va islom dinlari qatorida jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri hisoblanadi. Ushbu din taravdorlarining miqdori boshqa dinlarga qaraganda eng ko'p bo'lib, bu ko'rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini (taqriban 28 foizi) tashkil etadi.

Xristianlik, asosan, Evropa, Amerika, Avstraliya hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alarida tarqalgan.

Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin erlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Xristos), Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq.

Milodning boshlarida yahudiylar hokimiyatning uch tabaqasi bilan bog'liq og'ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan, Rim imperatori va uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan, Falastin podshohi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko'mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yahudiylar o'rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo'ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiylikni isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoni 33 yoshida fitnachilikda ayblab, qatl etishga hukm qildilar.

Isoning tarixi xususida diniy va diniy bo'lmagan manbalar orasida ixtilof mavjud: xristian manbalarida Isoning o'zi xudo bo'la turib, insoniyatning gunohlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilgani, uning hayot tarzi, insonlar bilan muloqoti haqidagi ma'lumotlar qayd etilsa-da, diniy bo'lmagan manbalarda Iso nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxs deb hisoblovchilar ham bor.

Iso nomiga qo'shiluvchi "Masih" so'zi qadimiy yahudiy tili – *ivrit*dagi *meshiax* so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z «xristos» shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – «Nazaret» bilan bog'lab, *nazroniya* deb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom *nasroniya* shaklini olgan.

Iso Masih o'z ta'limotini o'zining 12 o'quvchisi apostollar – havoriylarga o'rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta'limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning «Yangi Ahd» qismini tashkil etadi.

Xristianlik ta'limoti. Manbalarining xabar berishicha, xristianlik yahudiy muhitida yuzaga kelgan. Shu bois xristianlikning shakllanishida yaxudiylikning ta'siri salmoqli bo'lgani, shubhasiz. Xristianlikning asosiy g'oyasi – Isoning odamzodning xaloskori «messiya» ekanligi yahudiylikda mavjud bo'lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta'limotdan kelib chiqqandir.

Keyinchalik bu ta'limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil – odam va xudo mohiyati haqida «gunohni yuvish», ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustahkamlanadi. Xristianlik Ota-Xudo, o'g'il-Xudo va Muqaddas Ruh – Uch yuzlik Xudo (Trinity) to'g'risidagi ta'limotni, jannat va do'zax, oxirat, Isoning qaytishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristian jamoasining shakllanishi, aqidalarining tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi milodning IV asr boshlarida, yani 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng amalga oshirildi.

325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Listiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o'zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikeya shahrida I Butun Olam Xristian Soborini (o'tkazilgan 21 sobordan birinchisi) chaqirdi. Bu soborda «e'tiqod timsoli»ning (Credo) dastlabki tahriri qabul qilingan, *Pasxani* bayram qilish vaqti belgilangan, *ariychilik* qoralangan (Ariy Aleksandriya shahridan chiqqan ruhoni; 318 yilda o'g'il-Xudo va Ota-Xudoning yagona mohiyati haqidagi cherkov ta'limotiga qarshi chiqib, Isoni ilohiy xususiyatlari va shon-shuhrati jihatidan Ota-Xudodan keyin turadi, chunki ota-xudo azaliy va abadiy, Isoni u yaratgan deb targ'ib qilgan). 20 ta kanon, jumladan, Aleksandriya, Rim, Antioxiya, Quddus mitropolitlarining imtiyozlari to'g'risidagi qoidani ishlab chiqqan. 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo'lib o'tdi. Bu soborda Nikeyada qabul qilingan «e'tiqod timsoli»ga aniqlik kiritish, ariychilar, evnomiychilar, fotinianlar, savelianlar kabi adashgan firqalar bilan kurashish masalalari ko'rilgan. II Jahon sobori *troista* (Trinity) haqidagi qoidani ishlab chiqqan va «e'tiqod timsoli»ni qonunlashtirgan. Konstantinopol patriarxi Rim patriarxi kabi barcha boshqa episkoplarga nisbatan imtiyozlarga ega degan qoidani kiritgan. Bu soborda qabul qilingan «e'tiqod timsoli» 12 qismda ifodalandi:

- birinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida;
- ikkinchi qismda nasroniylkda Xudoning o'g'li hisoblangan Iisus Xristosga imon keltirish haqida;
- uchinchi qismda ilohiy mujassamlashuv haqida so'z yuritilib, unga ko'ra, Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;
- to'rtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va o'limi haqida so'z ketadi. Bu gunohlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechiriladi deb e'tiqod qilinishi haqida;
- beshinchi qismda Isoning xochga mixlanganidan so'ng uch kun o'tib qayta tirilganligi haqida;
- oltinchi qismda Isoning me'roji haqida;
- ettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba erga qaytishi) haqida;
- sakkizinchi qismda Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasida;
- to'qqizinchi qismda cherkovga munosabat haqida;
- o'ninchi qismda cho'qintirishning gunohlardan forig' qilishi haqida;
- o'n birinchi qismda o'lganlarning ommaviy tirilishi haqida;

– o'n ikkinchi qismda abadiy hayot haqida so'z yuritiladi.

Xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustinning ta'limoti katta ahamiyat kasb etdi. V asr bo'sag'asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ'ib qila boshladi. Uning ta'limotiga ko'ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulug' va qudratli Yaratuvchining irodasi yashiringan.

Avgustinning taqdir haqidagi ta'limotida aytilishicha, Xudoga imon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan o'rin egallashi mumkin, chunki imon taqdir taqozosidir.

Xristianlikdagi oqimlar. Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav (ortodoks) cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istambul patriarxining xristian olamida etakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy tafovutlari o'sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida papa Nikolay va Istambul patriarxi Fetiyl orasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katolistizmdan bir necha Evropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakati vujudga keldi. Buning davrasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi. Bular bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o'zlariga xos bo'lgan tomonlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda bir necha yo'nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo'lindi.

Pravoslav (ortodoks) oqimi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy shohobchasi sifatida shakllandi. Bu oqim, asosan, Sharqiy Evropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingan bo'lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo'nalish u erdagi hukmron din edi.

Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'gitlar, IV – VIII asrlardagi etti butxona soborlarining qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning sharqiy tarmog'i bo'lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 16 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCh, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo'lib, unga 19 ming cherkov va 127 eparxiya birlashgan. Bulardan 150 dan ortiq cherkov va 5 eparxiya chet elda faoliyat olib boradi.

Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladi.

Cho'qintirish sirli hodisasi (tainstvo). Bunda dindor o'z tanasini uch marta suvga botirishi, Xudo-Otani, o'g'ilni va Muqaddas Ruhni chaqirishi bilan ruhiy tug'ilishni kasb etadi.

Badanga miro surkash ham sirli bo'lib, bunda dindorga Muqaddas Ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

Poklanishning sirliligi. Unda dindor non va vino ko'rinishida o'z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

Nadomatning sirliligi shundaki, dindor o'z gunohlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunohlarini Iso nomidan kechiradi.

Ruhoniylikning sirliligi u yoki bu shaxsni ruhoniy darajasiga ko'tarish uchun episkop qo'lini o'sha shaxs badaniga tegizishi (yoki qo'yishi) orqali amalga oshiriladi.

Nikohning sirliligi. Bunda kelin-kuyov turmush qurish, farzand ko'rish va uni tarbiyalashga oq fотиha oladilar.

Badanni eley bilan ishqalash sirida Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Pasxadan so'ng pravoslav dinining o'n ikki kunlik o'n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular:

1. Bibi Maryamning tug'ilishi (*Rojdestvo Bojey materi*);
2. Isoning xochini tiklash (*Vozdvijenie kresta Gospodnya*);
3. Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (*Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogorodisty*);
4. Isoning tug'ilishi (*Rojdestvo Xristovo*);
5. Isoni cho'qintirish (*Kreçenie Gospodnya*);
6. Olqishlash (*Sretenie*);
7. Xushxabarning nozil bo'lishi (*Blagovestanie*);
8. Isoning Quddusga kirishi (*Vxod Gospodnya v Ierusalim*) – pasxa postidan 6 hafta keyingi yakshanba;
9. Isoning qayta tirilishi (*Voskresene Xristovo*) – Pasxa, bahorgi kecha va kunduz tengligi va oy to'lishgan birinchi yakshanba;
10. Isoning osmonga ko'tarilishi (*Voznesenie Iisusa*) – Pasxadan 39 kun keyin;
11. Muqaddas Ruhning tushishi (*Soshestvie Svyatogo duxa – Troistin Den*);
12. Iso qiyofasining o'zgarishi (*Preobrajenie*) – 6 avgustda.

Cherkov yili eski hisobga muvofiq 1 sentyabrdan boshlanadi. 8 sentyabr kuni «*Rojdestvo Bojey materi*» bayrami o'tkaziladi. 12 sentyabr kuni «*Vozdvijenie kresta Gospodnya*» bayrami nishonlanadi. Bu bayram imperator Irakliy davrida Iso krestining forslar tutqunidan qaytarib olib kelinishiga bag'ishlanadi. 21 noyabr kuni «*Vvedenie vo xram Presvyatoy Bogorodisty*» bayrami o'tkaziladi. Bu bayram uch yoshli Maryamning birinchi ruhoniy tomonidan Qadimiy Ahd ibodatxonasiga olib kirilganligiga bag'ishlanadi. Ibodatxonaga kirish bayramidan bir hafta oldin, yani 15 noyabrda *Rojdestvo* posti boshlanadi. Va nihoyat, 20 dekabrda *Rojdestvo* bayrami kiradi va 31 yanvargacha davom etadi.

Isoning cho'qintirilishi (*Kreçenie Gospodnya*) bayrami 6 yanvarda nishonlanadi. Bu bayram Isoning Yahyo tomonidan cho'qintirilishiga bag'ishlanadi.

Navbatdagi yana bir yirik bayram Sretenie (olqishlash, kutib olish) bayramidir. Bu bayram Iso tug'ilgach, avliyo Simeon tomonidan uning kutib olinishiga bag'ishlanadi.

Buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi o'rinda turadi. Pasxa – Isoning o'lganidan so'ng qayta tirilganini nishonlab o'tkaziladigan bayram. Pasxaning tarixi yahudiylikdagi peysax bayrami bilan bog'liq bo'lib, u yahudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishining nishonlanishidir. Xristianlik yahudiylikdan to'la ajralib chiqqach, Pasxa yangicha tus olgan.

Yuqorida sanab o'tilgan bayramlar oldidan ularga tayyorgarlik sifatida turli muddatli postlar o'tkaziladi. Postning mohiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhim voqealariga tayyorgarlikdan iborat.

Rus Pravoslavining ko'p kunlik postlari (ro'zalari) bo'lib, ular to'rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogorodista uyqusidan oldin va Iso tug'ilgan kundan oldin bo'ladigan postlar. Pasxa oldidan bo'ladigan «Velikiy post» 40 kunga cho'ziladi. Ushbu post davrida – eski hisob bo'yicha 25 martda «Blagoveshenie» bayrami o'tkaziladi. Post boshlanishidan olti hafta o'tgach, yakshanba kuni xristianlikning o'n ikkinchi bayrami yoki 8-bayram «Xudoning Quddusga kirishi» nishonlanadi.

Pravoslav oqimidagi diniy mansablar. Pravoslav oqimidagi diniy mansablar. Pravoslav cherkovida ruhoniylar uch tabaqaga bo'linadi: 1) diakon, 2) ruhoni (svyashennik), 3) episkop.

Diakon (grek. “xizmatchi”) ruhoniylarning eng quyi tabaqasi hisoblanadi. U mustaqil hech qanday ibodatni boshqara olmaydi, balki faqatgina ruhoni yoki episkopga ibodat marosimini o'tkazishda yordam bera oladi, xolos. Uni ruhoniylar sirliligiga (tainstvo) episkop qabul qiladi. Katta diakonlar protodiakon, rohib diakonlar ierodiakon, katta ierodiakonlar arxidiakon deb ataladi.

Ruhoni (svyashennik) yoki ierrey pravoslav ruhoniyligining ikkinchi tabaqasi hisoblanadi. U boshqalarni ruhoniylikka bag'ishlash va cherkov suvini muqaddaslashtirishdan boshqa barcha sirli marosimlarni bajara oladi. Kichik ruhoniylar ierrey, katta ruhoniylar protoierrey va eng katta ruhoniylar protopresviter deb nomlanadi.

Episkop yoki arxiierrey ruhoniylarning eng oliy unvoni hisoblanadi. Episkoplar barcha ibodat va sirli marosimlarni bajara oladilar. Shuningdek, ular ma'lum bir shahar, viloyat cherkovi yoki eparxiyani boshqara oladilar. Nisbatan kattaroq episkoplar arxiepiskop deyiladi. Poytaxt shaharlarning episkoplari mitropolit deb ataladi. Pravoslav cherkovining eng oliy mansabi patriarxdir.

Katolik oqimi. Xristianlikning yirik yo'nalishlaridan biri katolik oqimidir. U Evropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil etadi.

Katolizm “umumiy, dunyoviy” degan ma'nolarni ifodalaydi. Uning manbai uncha katta bo'lmagan Rim Xristian jamoasi bo'lib, rivoyatlarga ko'ra uning birinchi episkopi apostol Petr bo'lgan. Katolik diniy ta'limotining asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq pravoslav cherkovidan farqli o'laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi etti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha

bo'lib o'tgan barcha soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.

Katolistizmda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, chunki ular uylanmaslik – *stelibat* haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va soxtalashtirilgan ko'rinishga ega, diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviyadagi kabi katolistizm ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig'inish odatlari mavjuddir.

Katolistizm xristianlikning yo'nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig'inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat'iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig'i bo'lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarini belgilaydi. Uning hokimiyati dunyoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlashuvi, jumladan, diniy ta'limotni noan'anaviy tahlil qilish (sharhlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, pravoslav cherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda ta'kidlanishicha, Muqaddas Ruh Ota-Xudodan kelib chiqadi. Katolik aqidasi ko'ra esa Muqaddas Ruh Ota-Xudodan va o'g'il-Xudodan kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o'ziga xos alohida ta'limot shakllangan. Najotning asosi imon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, katolik ta'limotiga ko'ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga – Iso tomonidan yaratilgan «Xayrli ishlar zaxirasiga» ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya'ni gunohlarni afv etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Pul yoki tuhfa evaziga avf qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirish – *indulgenstiya* haqidagi ta'limot mana shundan kelib chiqqan.

A'rof haqidagi (do'zax va jannat oralig'idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo'lmagan gunohkorlarning ruhi u erda o'tda kuyadi (ehtimol, bu vijdon va nadomat azobining ramziy in'ikosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruhning a'rofda bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr-ehsonlar o'lganlar xotirasiga yaqinlari tomonidan qilinadi.

A'rof haqidagi ta'limot I asrdayoq paydo bo'lgan edi. Pravoslav va protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi.

Bundan tashqari pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogorodistaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan Bibi Maryamning me'roji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi etti asrorni tan oladi, biroq bu asrlarning talqin qilinishida qarashlar mos kelmaydi. Masalan, *pricheshenie* (tamaddi) qilish qattiq non bilan (pravoslaviyada bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy(*miryane*)larga non va vino bilan, shuningdek,

faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi.

Miropomazanie (cho'qinuvchining peshonasiga eley surkash) etti-sakkiz yoshlarda amalga oshiriladi, go'dakligida emas. Bunda o'spirin (bola) yana bitta ismga ega bo'ladi. Bunda u o'sha avliyoning qilmishlari va g'oyalarini maqsad qilib qo'yadi. Shunday qilib, bu rusumning ijro etilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi zarur.

Pravoslavlarda nikohsizlik rusumini faqat qora ruhoniylar qabul qiladi. Katoliklarda esa nikohsizlik (*stelibat*) papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko'ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi ehromdir. Katolistizmning muhim elementlari cherkovga qatnovchilar hayotining maishiy asoslarini tartibga soluvchi bayramlar, shuningdek, postlardir.

Milodiy post katoliklarda *advent* deb ataladi. U Avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanba – 30 noyabrda boshlanadi. Ular uch ibodat bilan: yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi ibodat bilan nishonlanib, Bibi Maryamning homilador bo'lishi, Isoning tug'ilishi va dindorning qalbida bo'lishi kabi ramziy ma'noni anglatadi. O'sha kuni ta'zim qilish uchun ehromlarda go'dak Isoning timsoli qo'yilgan belanchaklar o'rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: *diakon*, *ruhoniy* (*kyure*, *pater*, *kendz*), *episkop*. Episkopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiya saylaydi. Bunda umumiy ovozning uchdan ikki qismi qo'shuv 1-ovoz (yashirin ovoz berish) yo'li bilan II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Bu birinchi navbatda ibodat an'alariga tegishli bo'ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

Protestantizm. Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi.

U XVI asrda Evropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformastiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlar va sektalarni o'z ichiga oladi.

Protestantizm atamasi «protest» (norozilik) so'zidan kelib chiqqan. Bunday nomni olishiga sabab 1526 yilda Shpeyer reyxsstagi nemis lyuterchi knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi. Ammo 1529 yilda ikkinchi Shpeyer reyxsstagi bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning barcha shaharlari va besh knyazlik norozilik (protest) e'lon qildi.

Protestantizmning ilk shakllari: lyuterchilik, stvinglichilik, kalvinizm, unitarizm va sostinchilik, anabaptizm, mennochilik va anglikanchilik edi. Keyinroq «so'nggi protestantizm» shakllari: baptistlar, metodistlar, kvakerlar, adventistlar, Iegova shohidlari, mormonlar yoki «*Oxirat avliyolari*», «*Najot armiyasi*», «*Xristian fani*», pyatidesyatniklar va boshqa diniy oqimlar paydo bo'ldi. Bu oqimlarning ko'pchiligi «diniy uyg'onish», ilk xristianlik va Reformastiya ideallariga qaytish shiori ostida tashkil topdi. Hozirgi vaqtda protestantizm dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan. Protestantizmning jahon markazi AQShda, bu erda baptist, adventist, Iegova shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan. Hozirgi protestantizm integrastiya

(birlashish)ga intilmoqda, bu 1948 yilda Jahon cherkovlari kengashining tuzilishida o'z ifodasini topdi. Protestantizm ilohiyoti xristian mafkurasining bir ko'rinishi sifatida o'z taraqqiyotida muayyan bosqichlardan o'tdi. XVI asr ortodoks ilohiyoti (M. Lyuter, J. Kalvin), XVIII – XIX asrlardagi yangi protestantizm yoki liberalizm ilohiyoti (F. Shleyermaxer, E. Tryolch, A. Garnak), Birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan dialektik ilohiyot (K. Bart, P. Tillix, R. Bultman), Ikkinchi jahon urushidan so'ng tarqalgan radikal yoki «yangi» ilohiyot (D. Bonxeffe va boshqalar) shular jumlasidandir.

Protestantizm Xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, jonning o'lmasligi, jannat va do'zax (katolistizmdagi a'rofdan tashqari) haqidagi, vahy va boshqalar to'g'ricidagi umumxristian tasavvurlarini e'tirof etadi. Biroq Lyuter katolik cherkovi bilan aloqani uzib, protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko'ra inson Xudo bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Papaning diniy va dunyoviy hokimiyat, katolik dindorlarining imonni va vijdonni inson bilan Xudo o'rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi mulohazalariga Lyuterning qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizmning mohiyatiga ko'ra ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning ishtirokisiz in'om etiladi. Insonning najot topishi uning shaxsiy e'tiqodi va Isoning vositasi orqali ro'y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylar hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirish saqlanib qoldi.

O'lganlarga bag'ishlangan duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Ibodatlar faqatgina lotin tilida olib borilishi, Bibliyaning faqatgina ruhoniylar tomonidan sharhlanishi zarurligi shartlari inkor etildi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'yni eng muhim burchi bo'lib qoldi. *Asror* (tainstva)lardan faqat cho'qinish va mansublik (cherkovga) e'tirof etiladi. Ibodat va'z-nasihatlari, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo'ldi.

Lyuter tomonidan tuzilgan Reformastiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib berilgan. Ular Vittenberg nasroniy cherkovining shimoliy eshiklariga yozib qo'yilgan. Tezislarning bir nusxasida Iso payg'ambar: «Tavba qiling, chunki samoviy shohlik yaqinlashib qoldi», deb jar solganida shuni ta'kidlaydiki, imon keltirganlar hayoti boshdan-oyoq to'xtovsiz tavba-tazarrudan iborat bo'lmog'i darkor.

Tavba ruhoni (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to'rt tezisda Lyuter ta'kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro'yobga chiqmaydi. Bu bilan u katolistizmdagi «a'rof» va u bilan bog'liq indulgenstiya masalasini rad etadi. Aytadiki, papa faqat o'zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi).

«Ruhlar uchun indulgenstiya olgan shaxslarga tavba-tazarru qilish talab qilinmaydi» degan ta'limot Iso ta'limoti emas. Chindan tavba qilgan kishilarning gunohlarini Xudo kechadi va abadiy azobdan ozod qiladi. Gunohkor papa yorlig'isiz ham bunday mag'firatdan umid qilishi mumkin. Bu erda va keyingi bir qancha tezislarda papaning a'rof ustidan hukmronligi rad etiladi.

Lyuter bir necha tezislarda ta'kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian «samoviy jazoga shoshilmaydi, ya'ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi».

Lyuterning ta'kidlashicha, cherkovning haqiqiy xazinasini muqaddas Injil va Xudoning marhamatidir. «Xayrli amallar xazinasini»ning mavjudligi kambag'allar uchun emas, boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o'z amallari bilan erishuvi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mehrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog'i zarur. Najot yo'li ruxsatnoma yorlig'ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir.

1517 yil 31 oktyabrda jamoatchilik hukmiga havola qilingan tezislar shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo'lib qoldi.

Kalvinizm. Diniy islohotning boshqa bir yirik arbobi Jan Calvin (1509-1564) edi. Uning 1536 yilda nashr etilgan «Xristian dinidagi ko'rsatmalar» degan bosh asari protestantizm ta'limot sifatida shakllanganidan keyin yangi bir diniy yo'nalish – kalvinizmning asosi bo'lib qoldi.

Dastlabki islohot arboblariidan farqli o'laroq Calvin uchun diqqat markazi Injil emas, Tavrot bo'lib qoladi. Calvin absolyut taqdir haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Bu ta'limotga ko'ra barcha odamlar xudoning biz uchun noma'lum bo'lgan irodasiga asosan mag'firat qilinganlar va mahkum etilganlar toifasiga bo'linadi. Inson na imon, na «xayrli ishlar» bilan taqdirga yozilganini o'zgartira olmaydi: mag'firat qilinganlar najotga mahkum, mag'firatdan mahrum bo'lganlar esa abadiy azobga mahkum. Taqdir haqidagi ta'lim shunday asosga qurilganki, Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan edi.

Protestant cherkovining kalvinistik yo'nalishdagi davomchilari (kalvinistlar yoki reformatorlar) Shotlandiya, Gollandiya, Shimoliy Germaniya, Fransiya, Angliyada katta obro' va ta'sirga ega edilar.

Presviterianlik. Presviterianlik kalvinistik cherkovdan kelib chiqqan bo'lib, (yunoncha eng eski) mo'tadil puritanlardir. 1592 yili Shotlandiya parlamenti bu ta'limotni asosiy mafkura deb hisoblash haqida qaror qabul qilgan. Bu jamoa boshida jamoa a'zolari tomonidan saylangan *presviter* turadi. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadi. Diniy marosim juda soddagina, ibodat paytida va'z aytiladi, birgalashib duolar o'qiladi va diniy qo'shiqlar kuylanadi. Presviterning mav'izasi oyatlarni kuylashdan iborat. Liturgiya bekor qilingan, boshqa oqimlarda asosiy ibodat qo'shig'i hisoblangan «*din ramzi*» va «*otche nash*» o'qilmaydi. Faqat dam olish kunlari bayram kuni deb hisoblanadi.

Presviterianlar diniy ta'limotining asosiy aqidalari «Vestminster» kitobida bayon qilingan. Bu aqidalar ortodoks kalvinizm ruhida bo'lib, olamdagi barcha odamlarning gunohkorligi va qismatning mutlaqligiga ishonishdan iborat.

Presviter jamoasi qavmlar saylagan presviterlar va pastorlardan iborat konsistoriya tomonidan boshqariladi. Presviterchilarning oliy organi – bosh assambleya. Bosh assambleya presviteriyalar vakil qilib yuborgan presviter va pastorlardan iborat. Presviterchilarning ko'pchiligi o'zlarining xalqaro tashkiloti – «Presviterchilarning tashkiliy tuzilishiga amal qiluvchi Jahon reformastiya cherkovlari alyansi»ga a'zodir. Mazkur alyans 1875 yilda tashkil etilgan.

Hozirgi paytda Shotlandiya (davlat cherkovi), Angliya, Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda presviterchilar mavjud.

Anglikan cherkovi. Anglikan cherkovi – Angliyaning davlat cherkovi 1534 yilda mahalliy katolik cherkovi Rim qiroli Genrix VIII'ni cherkov boshlig'i deb e'lon qildi, ya'ni cherkov qirol hokimiyatiga bo'ysundirildi. XVI asr o'rtalariga kelib ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi, postlar bekor qilindi, but va sanamlar olib tashlandi, ruhoniylar uylanmasligi majburiy bo'lmay qoldi. «*Mo'tadil yo'l*» ta'limoti, ya'ni Rim katolistizmi va protestantizm orasidagi o'rtacha yo'l shakllandi. Anglikan diniy ta'limoti «Umumiy ibodatlar kitobi»da aks ettirilgandir. U cherkovning najotkorlik kuchi haqidagi katolik aqidalari hamda shaxsiy e'tiqod orqali najotga erishish haqidagi protestant ta'limotlarini o'zida jamlagan. Anglikan cherkovida katolistizmdagi marosimlar shundayligicha qabul qilinib, undagi ierarxiya tuzumiga o'xshash tartib joriy etilgan. Bu tartibga ko'ra, qirol Anglikan cherkovining boshlig'i hisoblanadi va u episkoplarni tayinlaydi. Anglikan cherkovining birinchi diniy rahbari Kenterberi arxiepiskopi hisoblanadi. Anglikan cherkovi tarkibiga 3 cherkov kiradi. Ular katolistizmga yaqin turadigan oliy cherkov, puritanizmga va pietizmga yaqin quyi cherkov, xristian oqimlarining barchasini birlashtirishga intiluvchi hukmron oqim – keng cherkov. Anglikan cherkovidan rasman ajralgan cherkovlar Shotlandiya, Uels, Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya kabi jami 16 mamlakatda tarqalgan. 1867 yildan Anglikan cherkovi o'z mustaqilligini saqlagan holda Anglikan cherkovlar ittifoqiga birlashgan. Lambet konferestiyalari Anglikan cherkovida konsultativ organ hisoblanadi.

Baptizm. Protestant ta'limotining eng ko'p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha «suvga cho'ktirish») XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o'z tarafdorlariga ega. Bu ta'limot tarafdorlari faqat o'spirinlarnigina cho'qintirishga olib boradilar. «Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydilar. Kishi dinni ongli ravishda o'zi ixtiyor qilmog'i zarur» degan qoida baptistlar va zabur xristianlarining asosiy qoidasidir. Ularda ibodat o'ta soddalashtirilgan bo'lib, diniy qo'shiq, ibodat va mav'izadan iborat. Zabur xristianlari to'rtta rusumni saqlab qolishgan: cho'qintirish (o'spirinlar uchun), tanovul, nikoh, qo'l bilan silab qo'yish. Bu xristianlar uchun but ehtirom ramzi emas.

Adventistlar harakati. Adventistlar harakati (lot. – “kelish”) Amerikada XIX asrning 30-yillari og'ir iqtisodiy buhron, umumiy ishsizlik davrida vujudga keldi. Asoschisi Vilyam Miller (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo'lingan bo'lib, ularning eng kattasi «Ettinchi kun adventistlari» sanaladi. Ularning asosiy g'oyasi Isoning ikkinchi bor erga tushishi va insoniyatni

shayton va uning tarafdorlaridan mutlaq xalos etishidir. Ular odamlarni Isoni kutib olish uchun xushaxloq bo'lishga chaqiradilar. Dindorlardan mablag'larining o'ndan birini cherkov hisobiga o'tkazishlarini va targ'ibot ishlarini uzluksiz olib borishlarini talab qiladilar. Iso payg'ambarning ikkinchi marta erga qaytishi haqidagi bashorat «najot yo'li» deb hisoblanadi.

Hozirgi paytda g'arbiy hamda sharqiy cherkovlarning rahbarlari ko'p asrli ixtiloflarning ayanchli oqibatlarini bartaraf qilishga intilmoqdalar. Masalan, 1964 yili Rim papasi Pavel VI va Konstantinopol patriarxi Afinagor ikkala cherkov vakillarining XI asrda aytgan o'zaro qasamyodlari tarqoqligini bartaraf qilish uchun birinchi qadam qo'ydilar.

Bibliya. Bibliya yahudiylilik va xristianlik dinlari talimotiga ko'ra, Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o'zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

U ikki qismdan iborat: «Qadimiy Ahd» (Old Testament) va «Yangi Ahd» (New Testament).

Yahudiy va xristian Bibliyalari (Bible) bir-biriga mos kelmaydi. Yahudiylarning muqaddas kitobi qadimiy Isroil va qadimiy yahudiylarning diniy ta'limot va urf-odatlarini asosida mil. av. XIII asrda yozilgan bo'lsa, xristianlarning kitobi milodning boshlarida vujudga keldi. Yahudiylar xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar. Xristianlar esa yahudiylarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Bibliya so'zi grek tilida biblia – “kitob”, “o'ram” ma'nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72, protestant nashrlarida 66 kitobdan iborat. Yahudiylarning yana bir diniy manbai Talmudning xabar berishicha, Qadimiy Ahdda 24 ta kitob bo'lishi kerak. Qadimiy yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning aytishicha, 22 ta kitob bo'lishi kerak. Protestantlar va yahudiylar, Trident Soboridan keyin (1545-1563) katoliklar ham Qadimiy Ahd tarkibiga 45 ta kitob kiritadilar. Bu son bilan yuqorida keltirilgan son o'rtasidagi tafovutni keyinchalik ba'zi kitoblarning bir necha mustaqil kitoblarga bo'linib ketgani bilan izohlash mumkin. Masalan, «Musoning besh kitobi» avval bir butun bo'lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga, «Kichik payg'ambarlar kitobi» 12 kitobga ajratib yuborilgan.

Xristianlar Qadimiy Ahdni «Rivoyatlar kitoblari», «Ta'limotlar kitoblari», «Payg'ambar kitoblari»ga bo'ladilar. Ular Yangi Ahdning 27 kitobini shunday tasnif qiladilar: «Rivoyatlar kitoblari»ga «Injil» va «Havoriylar faoliyati» kiradi. «Ta'limotlar»ga «Havoriylar maktublari» kiradi, «Payg'ambarlar kitoblari»ga «Vahy» kitobi kiradi.

Bibliyaning kitoblari boblarga, boblar esa suralarga bo'linadi. Uning hozirgi qabul qilingan bo'linishi Nenterberiya episkopi Stefan Langton (vaf. 1228 y.) tomonidan kiritilgan. U 1214 yili lotin tilidagi matnni boblarga bo'lib chiqdi va bu narsa keyinchalik yahudiy va yunon tillaridagi matnlarga ham joriy qilindi. Suralar avval Santes Panino (vaf. 1541 y.), keyinchalik 1555 yillarda Robert Etenlar tomonidan raqamlandi.

Evangeliya. Injil so'zi yunoncha «evangelion» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «xushxabar» ma'nosini anglatadi. Unda odamzodni qutqaruvchi yagona Najotkor hisoblanmish Iso Masihning er yuziga yuborilganligi haqida hikoya qilinadi.

Injil milodning birinchi asrida yozilgan, 27 bo'limdan iborat. Injil Iso Masihni ko'rib, uni yaqindan bilgan, uning ta'limotini sinchiklab o'rgangan mualliflar tomonidan yozilgan. Xristianlikda bu mualliflar xudoning ruhidan ilhomlanib, aynan xudoning buyurganini Injilda yozib qoldirganlar deb hisoblanadi. Injilning matni yozib tugatilgandan keyin undan ko'p nusxa ko'chirilib, dunyoning har tarafiga tarqatilgan.

Xristianlikda Yangi Ahd tarkibiga kirgan Injil 4 qismga bo'linadi:

1. Injilning dastlabki 4 kitobchasi Iso Masihning hayoti va ta'limotiga bag'ishlangan, ular Matto (Matfey), Marko, Luka, Yuhanno (Ioann) bayon etgan Muqaddas xushxabar (Evangeliye) deb ataladi. Bu 4 kitob muallifining har biri Iso Masih shaxsiyati va faoliyatining alohida xususiyatlarini tasvirlaydi, to'rtala kitob ham Isoning yo'li va qayta tirilishi bilan yakunlanadi. Bu Injil xushxabarining markaziy nuqtasi hisoblanadi.

2. Aziz havoriylarning faoliyati (Deyaniya svyatykh apostolov) nomli kitobchada Iso Masihning alohida tanlagan shogirdlari – havoriylarning nasroniylik dinini tarqatish yo'lida qilgan ishlari, nutqlari, quvilishlari, xristian jamoalarining vujudga kelishi haqida hikoya qilinadi.

3. Pavel, Iakov, Petr, Ioann, Iuda nomli havoriylarning turli mamlakat va podshohlarga xristianlik dinining aqidalarini bayon qilib yo'llagan maktublari ham Injilda jamlangan.

4. Vahy (Otkrovenie) deb nomlangan kitob xudo tomonidan avliyo Ioangga yuborilgan bashorat hisoblanadi. Unda oxirzamonda yuz beradigan musibatlar, Iso Masihning dunyoga qaytishi, Ya'juj-Ma'juj, Dajjol, qiyomat, jannat va jahannam tasvirlanadi.

O'zbekistonda xristianlik. Hozirgi kunda mamlakatimizda bir necha xristianlik oqimlari faoliyat olib boradi. Xristianlikning ham zardushtiylik, buddizm kabi O'rta Osiyo xalqlari tarixida o'ziga xos o'rni bor.

Bu din O'rta Osiyoga, xususan, O'zbekistonga ikki yo'l bilan kirib kelgan: bunga, bir tomondan, xristianlikka da'vat etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik faoliyati, ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining bu hududga ko'plab ko'chib kelishi sabab bo'ldi. Bu din missionerlari O'rta Osiyoning turli viloyatlariga milodning III asrlarida kirib kelganlar. Masalan, 280 yilda Taroz (Merke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotida (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida episkoplik va missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotida (658 yillar) episkoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar tashkil bo'lgan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiyalar, monaviylar, buddistlar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lganlar. Ular Sosoniylar va Qoraxitoylarga qarashli erlarda yashaganlar.

Markaziy Osiyo hududida islomning tarqalishi davrlarida islom bilan xristianlik o'rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklar keskinlasha boshladi. Biroq X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning

manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1056) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo'lgan.

XIX asrning 70-yillari O'rta Osiyo mintaqasiga, pravoslavie bilan bir qatorda boshqa oqimlarning tarafdorlari ham kirib kela boshladilar. Ular ortidan turli sektalarga mansub dindorlar, masalan, baptistlar, adventistlar, katoliklar va boshqalar ham paydo bo'ldi. 1879 yil 27 martda Rossiya imperatorining maxsus qonuni e'lon qilingach, bu jarayon yanada faollashdi. Rossiya armiyasi tomonidan Birinchi jahon urushida asr olingan nemis, polyak, eston, shved, litvalik, latish va boshqa g'arbiy evropalik askarlarning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi ular e'tiqod qiladigan din yoki oqimning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bu, o'z navbatida, evropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20-30-yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligida 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, e'tiqod jihatidan 10,1 ming pravoslav oqimiga mansub starobryadchilar, 8,2 ming lyuteranlar, 7,8 ming katoliklar, 26 ming yahudiy diniga va 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar bo'lgan.

Pravoslav yo'nalishi O'zbekiston hududiga Rossiya orqali kirib kelgan. 1871 yil 4 mayda Rossiya imperatori tomonidan Toshkentda Turkiston (hozirgi vaqtda O'rta Osiyo va Toshkent) eparxiasini ochishga qaror qilindi.

1880 yillarga kelib Rus pravoslav cherkovi (RPCCh) o'zining yangi ibodatxonalari sonini ko'paytirishga harakat qildi. Ularning aksariyati Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida qurildi.

1916 yil 16 dekabrda imperator buyrug'i bilan Turkiston kafedral sobori Verniydan (hozirgi Almati) Toshkent shahriga ko'chirildi.

Cherkovlar soni 1930 yillarga qadar O'zbekiston hududida O'rta Osiyo mintaqasining boshqa hududlariga nisbatan ko'p edi. 1920-1940-yillarda O'rta Osiyo va Qozog'istonda xristian diniga mansub turli etnik guruhlar ko'payib bordi. Ikkinchi jahon urushi va undan so'ng O'zbekistonga Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Moldova va Boltiqbo'yi mamlakatlaridan ko'plab aholi evakuatsiya qilindi, pravoslaviyaga e'tiqod qiluvchi aholining soni taxminan 1 millionga etdi.

1990 yil 20 iyuldan O'rta Osiyo va Toshkent eparxiyasi episkop sifatida, 1991 yil 23 fevraldan e'tiboran arxiepiskop Vasiliy Zaxarovich Ikim (ruhoniyluk ismi – Vladimir) rahbarligida boshqarib kelinmoqda. Uning tasarrufiga O'zbekistondan tashqari Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi rus pravoslav cherkovlari kiradi. Rus pravoslav cherkovining O'rta Osiyo va Toshkent eparxiyasi O'zbekistonning 11 ta hududiy tuzilmasida o'zining ibodatxonalari va markaziy boshqaruv organi hamda diniy o'quv yurtiga ega.

Xristianlikning O'zbekistonda tarqalgan oqimlaridan biri katolistizmdir. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta'mirlandi.

Vatikan davlati O'zbekistonning mustaqilligini 1992 yil 1 fevralda tan olib, shu yilning 17 oktyabr kuni diplomatik aloqalar o'rnatdi. 1994 yil 31 oktyabr kuni

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Vatikan davlatining nunstiy elchisi Marian Olesdan Ioann-Pavel II ning ishonch yorlig'ini qabul qildi. Shundan so'ng Vatikanning Toshkentdagi elchixonasi rasman o'z ishini boshladi. M. Olesning qarorgohi Qozog'istonning sobiq poytaxti Almatida bo'lganligi sababli Toshkentdagi elchixona rahbarligini hozirgi vaqtga qadar K. Kukulka bajarib kelmokda.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo'lib, uning «Echmiadzin» jurnali hamda maxsus diniy o'quv yurti mavjud. Kilikiya katolikosati, Quddus va Konstantinopol patriarxatliklari, AQSh, Janubiy Amerika, Evropa, Yaqin, O'rta va Uzoq Sharqdagi eparxiya boshqarmalari Echmiadzin katolikosatiga bo'ysunadi.

O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga, bir tomondan koreyslarning o'z qarindosh-urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo'ldi. Xorijda ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQShlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi markazlari hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda.

Rossiyada hamda O'rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910 yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga etgan. Jamoa 1912 yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 yili O'zbekistonda adventistlarning O'rta Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi.

1976 yil 26 avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 1967 yili Toshkentda V.A. Shelkov boshchiligidagi adventist-islohotchilar paydo bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ularning faoliyati hozirgi davrga qadar davom etib kelmoqda. Adventistlar respublikaning besh hududiy tuzilmasida 9 ta cherkoviga ega.

Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktyabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi.

1921 yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar qurultoyida O'rta Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi.

1946 yildan O'zbekiston hududida Evangelchi xristian-baptistlar (EXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948 yil oktyabr oyidan esa T.Penkov Butunittifoq EXB kengashining O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930 yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958 yilga kelib O'zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko'rsatgan.

1964 yilda bu jamoalar norasmiy O'rta Osiyo Evangelchi xristian-baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik «Osiyo janubi bo'yicha baptist birodarlar kengashi» deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan baptistlarning 1-qurultoyida Evangelchi xristian-baptistlar ittifoqi federastiyasi Evro-Osiyo EXB ittifoqi nomiga o'zgartirildi. EXBIF respublikaning 8 ta hududiy tuzilmasida o'zining cherkovlariga hamda markaziy boshqaruv organiga ega.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan To'liq Injil xristianlarining (pyatidesyatniklik) asrimiz 20-yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30-yillarga kelib ularning soni 950 kishiga etdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo'lsalar-da, Toshkent jamoasi markaziy o'rin tutdi. 1945 yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to'liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 yildan e'tiboran rasmiy faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Respublikamizda mavjud bo'lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e'tirof qilingan ta'limotdir. U protestantizmdagi eng yirik yo'nalishlardan biri hisoblanib, tarafdorlari taxminan 75 million kishini tashkil etadi. Lyuteranlar diniy ta'limoti XVI asrda Evropa Reformastiyasida M. Lyuter va uning tarafdorlari, birinchi navbatda, Melanxtonning kuch-g'ayrati bilan qaror topdi.

1989 yildan e'tiboran Rossiya, Ukraina, Qozog'iston va O'rta Osiyodagi Evangelchi-lyuteranlar cherkovi tarkibiga birlashtirilib qayd etildi. Hozirgi vaqtga qadar uning rahbari Georg-Fridrix-Karl Krechmar hisoblanadi. Lyuteranlarning oliy huquqiy organi Bosh sinoddir.

Mazkur cherkov MDH mamlakatlarida 5 eparxiyaga bo'lingan bo'lib, uning markazlari Moskva, Omsk, Odessa, Almati hamda Toshkentda joylashgan.

Evangelchi-lyuteranlar O'zbekiston hududida 1877 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1884 yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 yilda arxitektor A.L. Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

O'zbekistonda yana bir cherkov Novoapostollik cherkovi bo'lib, u xristian dinining protestantlik yo'nalishiga mansub oqimdir. Novoapostol cherkovi O'zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlagan bo'lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Navoiy shaharlarida ro'yxatdan o'tgan. O'zbekistondagi Novoapostol cherkovlari Berlin-Brandenburg okrugi tasarrufidadir. Uning apostol-prezidenti Frist Shreder.

O'zbekistonda «Iegova shohidlari» protestant yo'nalishidagi diniy tashkilot ham faoliyat yuritmoqda. Mazkur diniy sektaga 1870 yilda amerikalik ishbilarmon Ch.T. Rassel tomonidan asos solingan. Sektaning markazi Bruklin shahri Akioda joylashgan va 15 a'zodan iborat bo'lgan «Rahbar korporastiya»gagina bo'ysunadilar.

Ayrim manbalar O'rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40-yillapida paydo bo'lganligini bildiradi. O'sha davrda ular o'zlarini «kanalistlar» deb atab kelganlar.

Iegova shohidlari sifatida O'zbekistonda 1994 yildan Toshkent hamda Farg'ona viloyatlarida rasmiy ro'yxatdan o'tdi. 1998 yil yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilinganidan so'ng qayta ro'yxatdan o'tish uchun respublikaning 3 ta hududiy tuzilmasidagi tashkilotlari hujjatlarini joylardagi adliya bo'limlariga topshirgan.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Xristianlik birinchi bo'lib qaysi davrda va qaerda tarqaldi?
2. Xristianlikning asosiy aqidasi qanday?
3. Xristianlikning qanday asosiy oqimlarini bilasiz?
4. Xristianlikning muqaddas kitobi qaysi?
5. Iso Masih shaxsi haqida nimalarni bilasiz?
6. Hozirgi paytda xristianlikning asosiy markazlari qaerda?
7. Xristianlikning qanday manbalarini bilasiz?
8. Bibliyaning tarkibiga qanday kitoblar kirgan?
9. Pravoslaviyaning asosiy ta'limoti qanday?
10. Katolistizmning tarqalishi qanday yuz berdi?
11. Protestantlik oqimi qanday holatda vujudga keldi?
12. Jumhuriyatimiz hududida xristianlikning qaysi oqimlari tarqalgan?

Adabiyotlar

1. Injil. Stokgolm, Bibliyani tarjima qilish instituti, 1992.
2. Апокрифы древних христиан: исследование, тексты, комментарии. М., 1989.
3. Артемьев А.И. Свидетели Иеговы Казахстана и Средней Азии: историко-религиоведческий анализ. Алматы, 2002.
4. Библейская энциклопедия. М., 1991.

5. Булгаков С.Н. Православие. М., 1991.
6. Гергей Е. История папства. М., 1996.
7. Государственно-церковные отношения в России: Курс лекций. В 2-х частях. М., 1995.
8. Девятова С.В. Современное христианство и наука. М., 1994.
9. Закон божий: Вторая книга о православной вере. Волгоград, 1987.
10. Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. Т., Главная редакция энциклопедий, 1994.
11. Католицизм. Словарь. М., 1991.
12. К истории христианства в Средней Азии (XIX – XX вв.). Т., Узбекистан, 1998.
13. Никитин А.Б. Христианство в Средней Азии (древность и средневековье) // Восточный Туркестан и Средняя Азия. М., 1984.
14. Никольский Н.М. История русской церкви. 3-е изд. М., 1985.
15. Очерки историографии Библии и раннего христианства. Минск, 1970.
16. Протестантизм. Словарь. М., 1990.
17. Ранович А.В. Первоисточники по истории раннего христианства. Античные критики христианства. М., 1990.
18. Христианство. Энциклопедический словарь. В 3-х томах. М., 1993-1995.
19. Юдина Н.С. Теология и философия в религиозной мысли США XX века. М., 1986

MANIXEIZM

Moniy hayoti va faoliyati. Sharq o'lkalarida er mulkchiligiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mustahkamlanayotgan O'rta asrlar boshlarida zardushtiylik, buddizm, xristianlik, hinduizm dinlari bilan bir qatorda manixeizm dinining ham nufuzi kuchli edi. Arab xalifaligi tashkil topib, islom dini Eron-Turon bo'ylab tarqalishi davomida Eron, G'arbiy Osiyoning anchagina aholisi manixeizmni qabul qilib, bu din katta ijtimoiy ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Ko'plab monaviy jamoalar shakllana boshladi. Jumladan, ilk o'rta asrlarda turkiy xalqlar orasida manixeizm jamoalari ko'pchilikni tashkil qilgan. Ular butun Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston bo'ylab tarqalgan edilar.

Manixeizm dinining asoschisi Surayk Patik (216-277) hisoblanadi. Keyinchalik unga *Moniy* – «Ruh» laqabi berilgan. Uning nomining arablashtirilgan to'la shakli X asr arab tarixchisi Ibn an-Nadimning «Fihrist» kitobida Moniy ibn Fattaq Bobak ibn Abi Barzom deb zikr etilgan.

Moniyning ajdodlari Parfiya podsholari Arshakiylar xonadoniga qarindosh bo'lgan va o'z davrida Parfiyaga qaram Bobil yurtiga yuqori mansablardan biriga tayinlab yuborilgan. Moniyning milodiy 216 yilda (Arshakiylar podsholigi tugab, Sosoniylar hukmronligi boshlanishiga o'n yil qolgan bir paytda) Bobil yaqinidagi Mardinu qishlog'ida tug'ilganiga mana shuni sabab qilib ko'rsatiladi. Moniyning onasi Maryam yozma manbalarda xabar berilishicha, Parfiyada nufuzli Ashg'oniya urug'idan bo'lib, u ham Arshakiy podsholari xonadonidan bo'lgan.

Moniyning bolalik va yoshlik yillari Bobilning shimoliy hududlarida, somiy tilli xalqlar orasida o'tgan. Ziyrak, qiziquvchan, ko'pincha o'z fikrlari og'ushida o'ychan yuruvchi Moniy yosh chog'ida otasining xizmati taqozosi bilan Bobil yaqinidagi Ktesifon (al-Madain) shahriga ko'chib keladi. Shahar markazidagi majusiylar ibodatxonasi o'zining salobati, hashamati bilan bolani maftun etadi. Moniy qadimgi dinlarning qonun-qoidalari va mazhablarini yaxshi bilar, o'zi majusiylikka e'tiqod qilgani uchun ular ibodatxonasiga tez-tez borib turar edi. Kunlardan birida ibodatxonaga kelgan Moniy ongiga sirli ilohiy tovush eshitiladi. Ibodatxonadagi turli diniy marosimlar yosh Moniy uchun o'z mazmunini yo'qotadi. Avvaliga u o'sha zamonda rasm bo'lgan gnostiklarning «Mug'tasila» (*yuvinuvchilar*) nomli jamoasiga a'zo bo'ladi. Tezda bu jamoadan ham ko'ngli to'lmay qoladi. Nihoyat, chuqur tafakkurga berilgan Moniy 12 yoshga to'lganda o'ziga ilohiy xabar (*vahy*) kelganini ma'lum qiladi. O'zidan xabar bergan ilohning nomini Moniy «Ikki mohiyat Ruhi» deb ataydi. Shunga ko'ra, Moniy dinini dualistik g'oyaga asoslangan deb aytish mumkin. 241 yilda Moniy 24 yoshga etganda unga o'z ilohidan yana xabar keladi. Shundan so'ng Moniy o'zining da'vatchilik faoliyatini boshlaydi. Bu paytda Eronda Arshakiylar (Parfiya) podsholigi tugab, Sosoniylar sulolasining asoschisi Ardashir Popak o'g'lining xukmronligi nihoyalab qolgan edi. Uning o'g'li Shopur I (242-273) Moniy ta'limotining ilk homiysiga aylanadi. Podshoh Shopurning taxtga o'tirish marosimi paytida Moniy o'z ta'limotini birinchi marta oshkora bayon etib, va'z aytadi. U o'zini «Samo nuri elchisi» deb hisoblagan hamda o'z ta'limotida odamlarni urushmaslikka, mol-dunyo to'plamaslikka da'vat etgan.

Moniy ta'limoti. Moniy targ'ib qilgan dinning asosi – nur va zulmat o'rtasidagi azaliy kurash ta'limoti. Uning mazmun-mohiyati esa nurning zulmat

ustidan g'alaba qozonishiga ishonish g'oyasidir. U butun borliq – jonli va jonsiz tabiat insoniyat jamiyati o'z ibtidosidan boshlab ana shu ikki qarama-qarshi dunyoning qutblarida turib kurashib keladi, deb tushuntiradi. Manixeizmdagi nur va zulmat tushunchalari ezgulik va yovuzlik kabi ijtimoiy-axloqiy kategoriyalarning timsoli sifatida ifodalanadi.

Manixeizm zardushtiylik va xristianlikning xususiyatlarini o'zida jamlagan. Moniy o'zini avvalgi dinlarni to'g'rilovchi payg'ambar (*xotam al-anbiyo'*) deb e'lon qildi. Manixeizm xristianlikdan *messiya* g'oyalarini olgan. Zardushtiylikdagi dualizm – yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan qorong'ulik, ruhiy olam bilan moddiylik orasidagi kurash manixeizm e'tiqodining asosini tashkil etadi. Birinchi olamda xudo, ikkinchisida – shayton hukm suradi. Bu ikki olam kurashi falokat bilan tugaydi. Natijada moddiylik halokatga uchrab, ruh ozodlikka chiqadi.

Manixeizm ta'limotiga ko'ra, bu dunyo – yovuzlik dunyosi. Inson ikki unsurdan – nur farzandi bo'lgan ruh va zulmat farzandi hisoblanmish jismdan iborat. Shuning uchun ham u zulmatga qarshi kurashda nur kuchlariga madad bera oladi. Moniy o'zini Iso ishining davomchisi, Injildagi Paraklet deb atadi.

Zurvanizmdan farqli o'laroq, dualizm ta'limotiga ko'ra, nur va zulmat azaliydir. Zardushtiylar ta'limotida esa zulmat keyin paydo bo'ladi. Manixeizmda nur va zulmat azaliylik jihatidan teng bo'lib, javhar (yadro), tabiat (xarakter), fe'l-harakat, joylashgan taraf va o'rni, unsurlari, jism va ruhlari jihatidan turlichadir. Hech bir narsa – yo'qdan bor bo'lmaydi. Azalda bor narsa – yo'q bo'lmaydi. Shuning uchun ham nur va qorong'ulik azaliy va abadiydir. Bu ikkala kuch ham qudratli, eshituvchi, ko'ruvchi, sezgir, bilimdondir. Ammo o'zlariga xos xususiyatlarga ko'ra, bir-birlariga qarama-qarshidir.

Muqaddas kitoblari. Ular Moniy tarafidan tuzilgan «Shopurakon», «Tirik Evangelie», «Pragmateyya», «Kefalayya» va boshqa kitoblardan iborat. Ularda yangi din ta'limoti asoslab berilgan.

Manixeizmning tarqalishi. Moniy o'z diniga targ'ibotni, avvalo, o'z oilasi va yaqinlarini da'vat qilishdan boshladi. Bobil va Eron xalqlari orasida an'anaviy dinlarning mavqei kuchli bo'lganligi sababli Moniy ta'limoti u erlarda katta muvaffaqiyatga erisha olmadi. Natijada Moniy o'z dinini targ'ib qilish maqsadida Sharqqa safarlar qildi. U Xuroson, Hind, Turon, Sharqiy Turkiston o'lkalarida bo'ldi va muvaffaqiyat qozondi. Bu o'lkalarda Moniy ta'limotini qo'llab-quvvatlovchi jamoalar paydo bo'la boshladi.

Moniy safardan qaytgach, ilk Sosoniy podshohi Ardashir Popakning Firuz (Peroz), Mirshoh ismli o'g'illari uning diniga kirdilar. Sulolaning ikkinchi vakili Shopur I davrida Moniyning saroydagi martabasi yana ham ortda va u davlatning diniy-g'oyaviy rahnamosiga aylandi. Shundan boshlab Moniy saroy a'yonlari safida Shopur bilan birga ko'p yillar yonma-yon yashadi. Moniy barcha tadbirlarda, shuningdek, safarlarda podshohga hamrohlik qildi.

244-261 yillar mobaynida Moniy Misr va bir qator G'arbiy Evropa mamlakatlarida, Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyo o'lkalarida o'z dinining missionerlik targ'ibotlarini g'oyat samarali olib bordi. Bu ishda uning Mar Ammo singari izdoshlari katta xizmat qildilar. Moniy o'zining asarlaridan birida:

«Mening dinim har bir elda, har bir yurtida va har qanday tilda barcha uchun quyoshday ravshan bo'ladi va uzoq mamlakatlarga tarqaladi», deya bashorat qilgan edi.

Markaziy Osiyoda manixeizm. Manixeizmning tarqalishida Erondan sharqda joylashgan o'lkalar, sobiq Parfiya erlari hamda Markaziy Osiyo tayanch maydoni bo'lib xizmat qildi. VIII – IX asrlarga kelib xuddi shu o'lkalar orqali Moniy dini Sharqiy Turkiston (Turfon podshohligi), Sharqiy Osiyo bo'ylab keng tarqaldi.

Uyg'ur, turkiy, sug'diy, parfiya tillaridagi ko'plab yozma yodgorliklar manixeizmning ham Buyuk Ipak yo'li bo'ylab yoyilib, xalqaro din darajasiga etganligidan dalolat beradi.

Manixeizm Sosoniylar davlati bilan bir qatorda Kushon imperiyasida ham tarqalgan edi. Bu haqda ko'plab tarixiy yozma manbalar guvohlik beradi. Moniy dini Markaziy Osiyo o'lkalari bo'ylab III asrdan to XV asrgacha o'z jamoalariga ega bo'lib kelgan. Bu dinning tarqalishi va taqdiri haqida Abu Rayhon Beruniy shunday deydi: «Moniy da'vatini qabul qilganlarning qoldiqlari islom shaharlarining biror joyida jam bo'lishlari mumkin bo'lmaydigan darajada tarqalib ketganlar. Islom mamlakatidan tashqarida esa, sharq turklarining, Xitoy, Tibet aholisining aksari, hindlarning ba'zilar Moniy diniga e'tiqod qiladilar».

Markaziy Osiyoda manixeizmning yirik markazlari Marv va Samarqandda bo'lib, bu dinning Sharqda keng tarqalishida ushbu markazlarning mavqei katta edi.

Olib borilgan ko'plab tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Moniy hayotlik paytida uning jamoasi vakillari Marvda, Kushon imperiyasi chegaralarida bo'lganlar. Manixeizmning Sharqdagi birinchi targ'ibotchisi Mar Ammo hisoblanadi. Sharqiy Turkistondan topilgan manixeizmga oid ikki hujjat shundan darak beradiki, Moniy o'z ta'limotini Erondan sharqda yoyishni juda ham orzu qilgan. Shu maqsadda o'z missionerlarini Sharqning turli o'lkalariga jo'natgan. Bu hujjatlarning birida ko'plab monaviy missionerlarning Marvdan Zammga (hozirgi Turkmenobodga yaqin) jo'natilganligi haqida gapiriladi. Ikkinchi hujjatda esa Mar Ammoning Xurosonga, Kushon chegaralari yaqiniga aynan Moniyning o'zi tomonidan uning ta'limotini yoyish uchun yuborilganligi haqida xabar berilgan. Unda aytilishicha, Mar Ammoning yo'lini ilohiy pari Bag Ard (Xuroson chegaralarining ruhi) to'sib turganligi va uzoq davom etgan muzokaralardan keyin Xurosonning barcha darvozalari unga ochilganligi tilga olinadi.

Mazkur yodgorliklarning birinchisida monaviy missionerlarining Sug'ddagi faoliyatlari haqida gap boradi. Balki Sharqiy Turkistonga ham ular orqali manixeizm kirib borgandir. Hujjatlarning ikkinchisi III – IV asrlardagi Baqtriya va undagi manixeizmning holati haqida xabar beradi.

Parfiya manixeizmiga oid bir qator yodgorliklar xabar qilishicha, monaviylar bilan buddistlar Eron va Hindiston chegaralarida yaqin aloqada bo'lganlar. VI asrning o'zida Balx va uning atrofida tarqalgan monaviy jamoalar yuz yillardan beri mavjud edi.

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, VI asrda manixeizm jamoalari Balxda mavjud bo'lgan. Lekin bu hujjatlar Kushon Baqtriyasida bunday jamoalarning borligi haqida asosli ma'lumot bermaydi. Shuningdek, monaviy

jamoalarining Kushon imperiyasi hududlariga shu davrda kirib kelganliklari haqidagi taxminlarni ham inkor etmaydi.

Manixeizmning Erondagi taqdiri. Shopur I vafot etgach, Eron taxtini uning o'g'li Ho'rmizd I (272-273) egalladi. Lekin uning podshohligi uzoqqa cho'zilmay, Shopurning boshqa o'g'li Varahron I (Bahrom) taxtga keldi. U zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchilardan edi. Shuning uchun uning humronligi davrida zardushtiylikning mavqei mavjud barcha dinlar, jumladan, manixeizmga nisbatan ancha baland edi. Zardushtiylik dinining kohinlari Moniyning ta'limotiga keskin qarshi chiqdilar. Varahron I davridagi zardushtiylikning ko'zga ko'ringan mo'badalaridan biri, Sosoniylar davlatining oliy sudyasi va «shohlar shohining» diniy ustози Kartirning ko'rsatmalariga asosan manixeizm ham boshqa dinlar qatorida ta'qib qilindi. Bu jarayon 275 yilda Moniyning qamoqqa olinib, 277 yilda qatl etilishiga olib keldi. Oqibatda Eronda zardushtiylikning davlat dini darajasiga ko'tarilishiga zamin yaratildi. Manixeizm jamoalari esa quvg'inga uchrab, Sharq o'lkalari bo'ylab tarqalib ketdilar. Kartir davrida yahudiy, buddist rohiblar, braxmanlar, xristianlar, monaviylar barchasi yo'q qilindi, ularning xudolarining tasvirlari hamda ibodatxonalari vayron qilindi, ko'plab otash ibodatxonalariga asos solindi.

Mazdakiylik. Eronda va unga qo'shni mamlakatlarda ilk o'rta asrlarda tarqalgan. Ta'limot asoschisi – Mazdak (470-529). Uning ta'limotiga ko'ra, dunyo jarayonlarining zahirida oqilona qonuniyat asosida harakat qiladigan yorqin va ezgu ibtido bilan betartiblik va beboshlik, ayqash-uyqash tarzda namoyon bo'ladigan nursiz yovuz ibtido o'rtasida murosasiz kurash boradi. Bu kurash pirovard natijada ezgulik foydasiga hal bo'ladi.

Mazdakiylik jamiyat a'zolarini o'zaro yordamga, adolat va tenglikka chaqirgan. U o'zining demokratik xususiyatlari bilan ajralib turgan. Boylikka ruju qilishni, shaxsiyat manfaatlari uchun kurashni inkor etgan. Xudo oldida har qanday inson teng, jamiyat boyliklari hamma uchun barobar deb targ'ib qilgan.

Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni yo'qotish uchun kurashgan. Ushbu tengsizlikni yovuzlik alomati deb hisoblagan. Odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy tengsizligiga barham berish uchun kuch ishlatishni halol deb topgan. Buning oqibatida milodiy V asr oxirlarida mazdakiylik ijtimoiy harakati Markaziy Osiyo va Eron hududlarida keng yoyilgan xalq qo'zg'olonlariga aylanib ketgan.

Mazdakiylik harakati 490-530 yillar orasida Sosoniylar Eronida davlat ahamiyatini kasb etadi. Bu davrda Eronda Sosoniylar sulolasi vakillarining mavqei pasayib, chin hokimiyat amalda yirik zodagonlar hamda zardushtiy ruhoniylari qo'lida edi. Mehnat ahlining qattiq ezilishi, boylikning bir to'p zodagonlar qo'lida to'planishi jamiyatda keskin ijtimoiy-iqtisodiy notenglikni vujudga keltirdi. Buning ustiga Eron saltanati harbiy munosabatlarda, ayniqsa, Markaziy Osiyodagi Eftalitlar davlati bilan harbiy-siyosiy to'qnashuvlarda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Harbiy xarajatlarning ko'payib ketishi, mamlakat ho'jaligining tanazzulga uchrashi xalq noroziligiga sabab bo'ldi. Mana shunday vaziyatda Mazdakning ijtimoiy tenglik g'oyalari mazdakiylikning g'oyaviy bayrog'iga aylandi.

Mazdakiy qo'zg'olonchilar zodagonlar mulklarini bosib olib, och-nahor, yalang'och qashshoqlarga ulashib bera boshladilar.

Sosoniylar podshohlaridan Qubod I avvaliga zodagonlarning hokimiyatga ta'sirini tugatish uchun Mazdak va uning tarafdorlarini qo'llab-quvvatladi. Chunki uni 496 yilda zodagonlar bilan zardushtiy dindorlar taxtdan ag'darib tashlagan edilar. Nihoyat 499 yili Qubod I mazdakiylar yordamida taxtni qayta egalladi, natijada mazdakiylar mavqei kuchaydi. Mazdakiylarning rahbari sifatida Mazdak Qubod I hukumatida eng oliy unvonga erishdi. Mamlakat bo'ylab mazdakiylar boylarni talon-taroj qilishda davom etishdi. Nihoyat bu vaziyat zodagonlarni ham o'z mulklari va ijtimoiy mavqelarini himoya qilish choralarini ko'rishga majbur etdi. Kuchli oppozitsiyadan cho'chigan Qubod I endi zimdan zodagonlar bilan til biriktira boshladi. U o'z vorisi Xusravni mazdakiylarga qarshi otlantirdi. VI asrning 30-yillari arafasida Xusrav mazdakiy harakatni, xususan, u boshliq qo'zg'olonni bostirishga erishdi. Mazdak o'ldirildi.

Mazdakning diniy-falsafiy, ijtimoiy harakati tarixchilar e'tiborini asrlar davomida o'ziga jalb qilib kelgan. Mazdakiylik, bir tomondan, demokratik, primitiv kommunachilik g'oyalari va harakat usullari bilan omma uchun jozibador ko'ringan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu harakat taqdiri ilohga qarshi isyon ko'tarish bilan teng edi. Bu ta'limot haqida «al-Asor al-boqiya» kitobida Abu Rayhon Beruniy qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Mazdak va uning diniy-falsafiy aqidalari orasida mulk umumiyligi va tengligini targ'ib qilish kabi band alohida o'rin tutgan. Bu qoidaga ko'ra, jamiyatda ayollarni barcha uchun umumiy mulk qilish ham ko'zda tutilgan. Lekin bu qoidaning qay darajada hayotga tatbiq etilgani ma'lum emas. Olimlar bu qoidani zodagonlar orasidagi yuzlab ayollardan iborat haramlar tutish odatiga qarshi qo'llangan, deb hisoblaydilar.

Mazdakiylik diniy g'oya yoki diniy ta'limotdan ko'ra ko'proq chuqur ijtimoiy-iqtisodiy sabablar zaminida yuzaga kelgan diniy-siyosiy harakat bo'lib, xalq ommasining orzularini amalga oshirish yo'lidagi urinishlar asosiga qurilgan edi. Ammo bu harakat o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmadi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Moniy ta'limoti asosi nimalardan iborat?
2. Moniy ta'limoti qaysi asarlarda ifoda etilgan?
3. Turk xalqlari tarixida manixeizm qanday mavqeni egallaydi?
4. Manixeizm dini Markaziy Osiyo xalqlari diniy tajribasi uchun qanday ahamiyatga ega?
5. Mazdakiylar tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. Qaysi g'oyalar mazdakiylikda asosiy o'rinni egallaydi?

Adabiyotlar

1. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. T. I. T., 1968.
2. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1997.
3. Артемьев А.И. Свидетели Иеговы Казахстана и Средней Азии: историко-религиоведческий анализ. Алматы, 2002.

4. Библейская энциклопедия. М., 1991.
5. Булгаков С.Н. Православие. М., 1991.
6. Гергей Е. История папства. М., 1996.
7. Государственно-церковные отношения в России: Курс лекций. В 2-х частях. М., 1995.
8. Девятова С.В. Современное христианство и наука. М., 1994.
9. Закон божий: Вторая книга о православной вере. Волгоград, 1987.
10. Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. Т., Главная редакция энциклопедий, 1994.
11. Католицизм. Словарь. М., 1991.
12. К истории христианства в Средней Азии (XIX – XX вв.). Т., Узбекистан, 1998.
13. Никитин А.Б. Христианство в Средней Азии (древность и средневековье) // Восточный Туркестан и Средняя Азия. М., 1984.
14. Никольский Н.М. История русской церкви. 3-е изд. М., 1985.
15. Очерки историографии Библии и раннего христианства. Минск, 1970.
16. Протестантизм. Словарь. М., 1990.
17. Ранович А.В. Первоисточники по истории раннего христианства. Античные критики христианства. М., 1990.
18. Христианство. Энциклопедический словарь. В 3-х томах. М., 1993-1995.
19. Юдина Н.С. Теология и философия в религиозной мысли США XX века. М., 1986.

ISLOM

Islom dini tarafdorlari jahon aholisining 20 foizga yaqin qismini tashkil etadi. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziya (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), Eron (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir. Darvoqe, arablar barcha musulmonlarning 20 foizini tashkil etadilar¹.

Paydo bo'lishi va ta'limoti. Islom tarixida bu din kelmasidan avvalgi muddat johiliya yoki johiliyat davri deb yuritiladi. «Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «yagona xudo – Allohni tanimaslik» ma'nolarini beradi. Bu istiloh musulmon mualliflari tomonidan Arabiston yarim orolining islomdan oldingi davr tarixiga nisbatan ishlatila boshlandi. Bu bilan yangi davr tarixchilari qadimgi davrda Ichki Arabiston aholisi orasida «ko'pxudolik» (*al-Vasaniya*) hukm surardi, degan fikrga urg'u berishni istaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikrni bildiradilar. Biroq ushbu davrning qancha muddat davom etganligini aniqlash birlamchi manbalar, birinchi navbatda, yozma adabiyotning ozligi, ba'zida butkul yo'qligi tufayli juda mushkul.

Arab erlari Osiyoning janubi-g'arbidagi yarim orolda joylashgan bo'lib, shimol tomondan – Shom (Suriya) sahrolari, sharqdan Fors (Arab) ko'rfazi, Umon dengizi, janub tomondan Hind okeani va g'arbdan Qizil dengiz bilan

¹ (CD-ROM диск: Энциклопедия стран мира. Version 1.0. Copyright 2001. Studio Korax).

chegaralangan. Mana shu bepoyon o'lka bu erda yashagan somiy tillarning birida so'zlashuvchi arablar nomi bilan Arabiston yarim oroli deb atalgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, islom paydo bo'lishi arafasida yarim orol hududida madaniyat nuqtai nazaridan uch stivilizastiya mavjud bo'lgan:

- 1) mustaqil ma'noga ega bo'lgan Janubiy Arabiston (tili – janubiy arab tili);
- 2) nisbatan chetki ta'sirlardan uzoqroqda joylashgan Ichki Arabiston;
- 3) Vizantiya va Eron imperiyalari madaniy an'analari bilan bog'liq Shimoliy Arabiston.

Islomning paydo bo'lishi tarqoq arab qabilalari uchun olamshumul voqeaga aylandi. Tarixda birinchi arab davlati – **Arab xalifaligi** vujudga keldi. Arab istilolari oqibatida mazkur uch stivilizastiya vakillari aralashib ketdi. Lekin ularning o'tmishda nisbiy mustaqil rivojlanganliklari *arablar nasabi* haqidagi tasavvurda saqlanib qoldi. Unga binoan, arablarning barchalari nasab jihatidan ikki katta avlod vakillaridir: *qahtoniylar – janub arablari, adnoniylar – shimol arablaridir*. Mana shu ikki avloddan barcha arab qabilalari tarqalgan. Lekin tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mazkur tasavvur VII asr oxirlari – VIII asr boshlarida Suriya va Iroqda hokimiyat uchun harbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar) vakillari tomonidan shakllantirilgan. Qadimgi arablar orasida ko'chmanchilik mafkurasi qoldiqlari, qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo'lsa-da, islom dini paydo bo'lishi davrlarida ularning katta (2/3) qismi o'troq holda shahar va qishloqlarda yashagan. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makka va Yasrib shaharlari Yaqin Sharq stivilizastiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan. Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o'z ichiga olgan qismi qadimdan Hijoz deb atalgan.

Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar «*ko'pxudolik*» e'tiqodi hukm surardi. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o'tmish ajdodlar ruhiga sig'inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalili sifatida ko'pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: *asad* (arslon), *kalb* (it), *bakr* (bo'taloq), *sa'lab* (tulki), *zi'b* (bo'ri) va h.k.

Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtda paydo bo'lgan emas, albatta. Ular uzoq vaqt shakllangan. Biroq keyingi davr islom tarixchilarining xabar berishlariga qaraganda, Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ'ib qilgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, u Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Amr ibn Luhay ba'zi shomliklar odatlaridan qattiq ta'sirlanib, ularning butlaridan birini Makkaga olib kelgan. Keyinchalik butlarga sig'inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlarga sig'inish – dinning yangi bosqichi bo'lgan. Ibn al-Kalbiyning (vaf. 763 y.) «Kitob al-asnom» asarida ta'kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o'z sanamiga ega edi. Tez-tez bo'lib turadigan qabilalararo urushlardan so'ng, odatda, mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlardi. Ba'zida g'olib qabila mag'lub

qabilaning sanamini ham o'z sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli erlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Ulardan biri Makka Ka'basi edi. Makka eski Arabistonning diniy markaziga aylangach, u erdagi Ka'baga sanamlar to'plandi. Ibn al-Asirning (vaf. 1232 y.) uqtirishicha, Makka fath etilgan 630 yili Ka'ba ichida 360 ta sanam bo'lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda katta ko'rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo'lsa, u Ka'baga shuncha nusxada qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Islomdan oldin Arabistonda yahudiy jamoalari mavjud bo'lgan. Arabiston yahudiylari haqida, asosan, Qur'on, hadis, tafsir, *sira* (Payg'ambar hayoti va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi – Yangi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil. av. 552-542 yillarda Shimoliy Arabistondagi Tayma shahrini o'ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu erdagi shaharlarni o'zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko'chirgan; ularning ko'pchiligini yahudiylar tashkil qilgan. Ma'lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming yahudiyni asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. Shundan so'ng ham ba'zi yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar.

Arabiston yarim orolida yahudiylar bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Xristianlar bu erda keng targ'ibotchilik ishlarini olib borar edilar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma'lum. Odatda targ'ibotchilar tib va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga yo'l topa oladigan odamlar bo'lganligi uchun ko'pgina qabila boshliqlariga ta'sir etganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki o'zlarining olib borayotgan faoliyatlarida yordam berishiga erishganlar. Islomga qadar Arabiston yarim orolining deyarli barcha hududlarida xristian rohiblari muntazam ravishda din targ'iboti bilan shug'ullanar edilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, xristianlikning Arabiston yarim oroliga qachon kirib kelgani aniq ma'lum emas.

Hijoz shaharlariga xristianlar (sharqiy cherkovlar vakillari) asosan Vizantiya qaramog'i ostidagi Falastin va Shomdan ko'chib kelganlar. Islom vujudga kelishi arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma, Yasrib, Makka va Toifda ham talaygina xristianlar bor edi. Habashiston xristianlari bilan aloqalar haqida efiop askarlarining yurishlari va ilk musulmonlarning hijralari dalolat beradi.

Qadimgi Arabiston jamiyatida «haniflar» nomi bilan ma'lum bir jamoa mavjud edi. Bu jamoa vakillari diniy tasavvurlarini fanda «noma'lum monoteizm» deb atash qabul qilingan. Ular sanamlarga sig'inmas, balki yagona Xudoga ibodat qilar hamda ochiqdan-ochiq butparastlarni tanqid qilishar edi. Ular bir erda muqim turmay, o'lka bo'ylab darbadar hayot kechirardilar. Ushbu toifa kishilaridan Zayd ibn Amr, Varaqa ibn Navfal, Ubaydulloh ibn Jahsh va Usmon ibn Huvayris, Quss ibn Sayyidolarni keltirish mumkin. Ular keyinchalik ilk islom jamoasida ma'lum mavqega ega bo'ldilar.

Sosoniylar Eroni dinlari ham Arabiston yarim orolida mavjud edi. Ular haqida adabiyotlarda kam gapiriladi. Vaholanki, zardushtiylik va manixeizm ta'limotlari

ham bu mintaqalarda keng tarqalgan edi. Bu davrda o'zini «Payg'ambarlar muhri» (*Xotam al-anbiyo'*) deb atagan Moniy va uning «o'zga dinlar ta'limotini to'g'rilovchi» dini atrof hududlarga etib ulgurgan edi. Chunki Laxmiylar davlati Sosoniylar ta'siri ostida bo'lib, islom dini shakllanishi arafasida Eron Yamanni zabt etgan edi.

Yangi dinning shakllanishida Arabiston yarim orolida mavjud holatning ta'siri, albatta katta bo'ldi. Ammo bu jarayonlarda birinchi arab davlati vujudga kelishi va uning mafkurasining shakllanishi muhim o'rin tutadi. Ularni to'laqonli idrok etishda Muhammad payg'ambar hayoti, uning yangi din targ'ibotchisi va davlat arbobi sifatidagi faoliyati asosiy o'rinni egallaydi.

Muhammad payg'ambar hayoti. Muhammad ibn Abdulloh ibn Abd al-Muttalib Makka va uning atrofi tarixida «Fil voqeasi» nomi bilan mashhur bo'lgan jangdan 50 kun keyin tavallud topdi. Bu sananing milodiy hisob bo'yicha qaysi kunga to'g'ri kelishi keyinchalik hisoblab chiqarilgan. Bu hisoblardan misrlik munajjim Mahmud poshoning aniqlashicha, Payg'ambarning tavallud topishlari milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to'g'ri keladi. Otasi Abdulloh Qurayshning Banu Hoshim, onasi Omina bint Vahb – Banu Zuhra urug'idan edilar.

Ota-onadan etim qolgan Muhammad payg'ambar to sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib qo'lida tarbiyalandi. So'ngra uni amakisi Abu Tolib o'z himoyasiga oldi. Payg'ambar yoshlik chog'larida ikki marta Shomga, bir marta Yamanga karvon bilan safarga chiqdi.

Arablar orasida o'zaro qon da'vosi sababi bilan bo'lgan urushlarning eng og'ir kechgani «Fijor jangi» hisoblanadi. Islomdan avval ham arablarda *muharram*, *rajab*, *zulqa'da* va *zuhlajja* oylari muqaddas sanalib, ularda urush taqiqlangan edi. Mazkur urush mana shu oylarda bo'lganligi uchun unga «Fijor jangi» («Gunohkorlar urushi») deb nom berilgan. Bu urushda Quraysh tarafida Muhammad payg'ambar ham ishtirok etdi. To'rt yil davom etgan bu urush sulh bilan nihoyalandi.

Muhammad payg'ambar 25 yoshga to'lganida Banu Asad urug'idan bo'lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylidga uylandi. Muhammad payg'ambarning etti farzandidan (Moriyadan tug'ilgan Ibrohimdan boshqa) oltitasi (Zaynab, Umm Kulsum, Ruqayya, Fotima, Qosim, Abdulloh)ning onasi Xadicha bint Xuvaylid edi.

Makkadagi Ka'ba binosi ustida tomi bo'lmaganidan, yomg'ir suvlari uni emirib yuborgan edi. Keyinchalik binoni sel oqimidan saqlash uchun bir to'siq qurilgan bo'lsa-da, u ham yillar o'tib emirilgan edi. Payg'ambar davrida Makka ahli Ka'bani yangidan qurishga qaror qildilar. Bu qurilishda Payg'ambar ham qatnashdi.

Vahy nozil bo'lishining boshlanishi. Muhammad payg'ambar 40 yoshga etganida ko'proq yolg'izlikni qo'msaydigan bo'lib qoldi. Shunday paytlarda Makkadan 3 mil uzoqdagi Hiro tog'ida joylashgan g'orga chiqib ketar, erlik aholi odaticha ramazon oyini u erda ibodat bilan o'tkazardi. G'amlagan oziqalari tugagach, Xadicha oldiga qaytib, bir oz vaqtdan so'ng yana o'sha g'orga ketar edi. U erda o'zini sukunatga berib, chuqur o'yga tolar, g'oyibdan quloqlariga «Sen

Allohning elchisidan» degan tovushlar eshitilar edi. Ko'p tush ko'rar, tushida ko'rgan narsalari o'ngida to'g'ri chiqar edi.

Islom tarixida ilk vahy «Alaq» surasining boshidagi besh oyatdir. Xadicha vahy nozil bo'lishi haqidagi xabarni yaxshilikka yo'yib, Varaqa ibn Navfal nomli samoviy kitoblardan boxabar bo'lgan qarindoshidan bo'lib o'tgan voqeaning tafsilotini so'radi. Varaqa ibn Navfal buni payg'ambarlikning nishonasi deb ta'bir qildi. Nozil bo'layotgan vahiyalarda Payg'ambarga o'z qavmini qiyomat haqida ogohlantirish, yagona, barchani yaratgan Parvardigordan qo'rqishga chaqirish uchun ko'rsatmalar bo'ldi. Shundan so'ng Muhammad payg'ambar yashirin da'vatga o'tdi. Birinchi bo'lib Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abi Tolib islomni qabul qilishdi. Vaqt o'tishi bilan musulmonlar soni 30 kishiga etdi. Ular o'z dinlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi.

Ochiq da'vatdan so'ng Makka mushriklari Abu Bakr, Usmon ibn Affon kabi islomni qabul qilgan ulug' va badavlat zotlarga hech narsa deya olmasalar-da, ammo zaif, kambag'al, himoyasiz musulmonlarni qattiq siquvga oldilar. Habashistonga borishni istagan 11 erkak va to'rt ayoldan iborat bo'lgan birinchi guruh Makkadan yashirin ravishda chiqib, Qizil dengiz bo'ylab ketdi. Ularning ichida Usmon ibn Affon va xotini Ruqayya (Payg'ambarning qizi), Abu Huzayfa va xotini, Zubayr ibn al-Avom, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Mas'ud bor edilar. Guruh boshlig'i Usmon ibn Maz'un edi. Bu 15 kishi vahyning beshinchi yili Habashistonga (Oqsum podshohligi) etib keldilar. Ularni Habashistonda xristianlar juda yaxshi kutib oldilar. U erda yaxshi, sokin hayot kechira boshladilar. Ularning bunday osoyishta hayot kechirayotganliklarini eshitgan boshqa musulmonlar ham bir yildan so'ng ikkinchi guruh holida u erga hijrat qildilar. Bu guruhning boshida Ja'far ibn Abi Tolib (Alining akasi) bo'lib, ular 80 kishi edilar. Habashiston xalqi va uning podshohi Najoshiy muhojirlarga juda yaxshi munosabatda bo'ldilar.

Makkaliklarning qattiq qarshiliklaridan ko'p ozor chekkan Payg'ambar Toifga yo'l oldi. Biroq toifliklardan hech kim islomni qabul qilmadi. Shu qiyinchilik yillarida «Isro va Me'roj» voqeasi yuz berdi. Qur'ondagi «Isro» va «Najm» suralarida bu hodisa haqida so'z yuritilgan.

Da'vatning o'ninchi yili haj mavsumida Payg'ambar Makkaning shimolida «Aqaba» deb ataladigan bir tepalikda Yasrib (Madina) shahridan kelgan olti kishini uchratib, ularni islomga da'vat etdilar. Ular islomni qabul qildilar. Ushbu uchrashuv islom tarixida «Birinchi Aqaba bay'ati» deb nom oldi. Unda As'ad ibn Zarora, Rafi' ibn Molik, Avf ibn Horis, Qutba ibn Omir, Uqba ibn Omir, Jobir ibn Abdullohlar Payg'ambarga din shartlarini bajarishga «bay'at» (qasamyod) qildilar. Keyingi ikki haj mavsumida ham Aqaba bay'ati bo'lib o'tdi. Ikkinchi uchrashuvda madinaliklardan 12 kishi, uchinchisida esa 75 kishi ishtirok etdilar. Bu voqealardan so'ng Payg'ambar Madinaga hijrat qilishga qaror qildi.

Madina davri. Madinalik «ansor» (yordamchi)lar makkalik «muhojir»larni samimiy kutib oldilar. Muhammad payg'ambarning Madinaga ko'chib o'tishi rabi' al-avvalning sakkizinchi kuni, milodiy 622 yil 20 sentyabrda yuz berdi.

Islomning Madina davri uning tarixida juda katta ahamiyatga ega. Musulmonlar birinchi marta alohida diniy jamoa (Umma) bo'lib yashay

boshladilar. Bu esa o'z navbatida diniy qoidalarining takomillashuvini tezlashtirib yubordi. Asta-sekin namoz, azon va boshqa amallar tartibga solindi. Payg'ambar bu shaharga uchinchi taraf vakili sifatida taklif etilgan edi. Avval murosasiz Avs va Xazraj arab qabilalari hamda Banu Qurayza, Banu Qaynuqo', Banu Nadir yahudiy qabilalari bilan o'zaro sulh tuzildi.

Hijratning ikkinchi yili ramazon oyida (mil. 624 y.) musulmonlar ummasi qo'shinlari va makkaliklar o'rtasida *Badr* jangi bo'ldi. Bu jang Madinadan 80 mil (taxminan 150 km.) uzoqda Suriya karvon yo'lida joylashgan Badr qudug'i yaqinida bo'lib o'tdi. Murosasiz kechgan jang musulmonlar g'alabasi bilan tugadi. Bu jangdan so'ng Umma mavqei Madina ahli orasida beqiyos o'sdi. Shu davrdan boshlab Muhammad payg'ambar etakchiligidagi islom jamoasi kuchli bir davlatning vazifalarini bajara boshladi. O'zlarini musulmon deb e'lon qilib, aslida esa Payg'ambar va musulmonlarga muxolif ish yuritganlar *munofiqun* deb nomlandilar. Ko'pxudolikka e'tiqod qiluvchilar *mushriklar* deb ataldi. Musulmon jamoasi davlat darajasiga ko'tarilib, boshqa qabilalar va qabilalar ittifoqlari bilan o'zaro qisqa va uzoq muddatli sulh shartnomalarini tuzildi. Shu yili *zakot* islomning asosiy amallaridan biri sifatida farz qilindi.

Yahudiy, xristian va sobi'iylar *ahl al-kitob* mavqeiga ega bo'lishdi. Ular – Madina davlati xazinasiga har bir voyaga etgan erkak boshidan to'lov (*jizya*) yig'ib berib, o'z ijtimoiy-diniy avtonomiyalarini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldilar. Ammo Madina davlatining asosiy muxolifi Makka jamoasi bo'lib qolaverdi. Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hundaybiya shartnomasi eng muhim g'alabalardan biridir.

Makka fathidan (630 y.) so'ng islom davlati Arabiston yarim orolida to'la g'alabaga erishdi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki shundan so'ng musulmonlar jamoasi Arabiston muhitida etakchi davlat va siyosiy kuchga aylandi.

Shu bilan bir qatorda Madinada diniy qoida va tartiblar bir tekis shakllana boshladi. Musulmonlar va yahudiy qabilalari o'rtasida o'zaro mojarolar bo'lib o'tdi. Qibla Quddusdan Makkadagi Ka'baga o'zgartirildi, *ahl al-kitobga* (yahudiylar, xristianlar, sobi'iylar) *ahl az-zimma* (musulmon davlati himoyasi ostidagi diniy jamoa) mavqei berildi. Payg'ambar Umma hayotini ko'p hollarda atrofdagi odamlar uchun odatiy bo'lgan qoidalar asosida boshqardi. Muhim hollarda yangi diniy va ijtimoiy qoidalar *vahy* orqali kiritildi.

11 hijriy yil 12 rabi' al-avval/632 milodiy yil 8 iyun kuni Payg'ambar vafot etdi. Bu bilan islom tarixida ilk davr – Qur'oniy davr yoki teokratiya davri tugadi. Bundan buyon musulmon-arab davlati tarixida podshohlar – *xalifalar*, islom dini me'yorlarini shakllantirish va rivojlantirishda diniy ilmlar bilimdonlari – ulamolarning roli tobora oshib boraverdi.

Payg'ambar vafoti haqidagi xabar Madina ahli orasida yoyilgach, ansorlar *Umma* boshchisi – *xalifalikka* nomzod masalasini hal qilish maqsadida Banu So'ida qabilasining Saqifa nomli guzariga oshiqdilar. Bir qancha muhojirlar va ansorlar o'rtasida bo'lib o'tgan qizg'in bahs va tortishuvlardan so'ng xalifalikka

(*xalifat rasulilloh*) Abu Bakr as-Siddiqni (632-634) saylab, barcha unga bay'at qildilar. Abu Bakr diniy va dunyoviy hokimiyatni o'z shaxsida birlashtirdi.

Payg'ambar vafotidan so'ng islomni qabul qilgan ba'zi qabilalar Madina shahar-davlati yangi yo'l boshchisi Abu Bakr davrida zakotni berishdan bosh tortdilar. Soxta payg'ambarlar harakatlari vujudga keldi. Ilk islom tarixidagi ushbu voqealar «*Ridda*» nomi bilan ataladi. Abu Bakr bunday xatti-harakatlarni qat'iylik bilan bostirdi. Bu davrda Arab qo'shinlari islomni tarqatish g'oyasi bilan Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqa boshladilar. Bu esa o'z navbatida islomning jahon diniga aylanishiga zamin yaratib berdi.

Islom ta'limoti. *Islom* so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi – *taslim bo'lish, bo'ysunish*, istilohda esa yagona Allohga bo'ysunish ma'nolarini beradi. Islom dini ta'limoti bo'yicha Muhammad payg'ambar avvalgi (o'rta Er havzasi stivilizastiyasida ma'lum bo'lgan) payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (*Xotam al-anbiyo'*) – nabiy va rasul deb tan olinadi.

Islomning asosiy shartlari hisoblanmish besh rukn quyidagilardir:

- 1) imon;
- 2) namoz;
- 3) zakot;
- 4) ro'za;
- 5) haj;

Imon masalasida islomda (*ahl as-sunna, shi'alar, xavorijlar* ichida) avvalgi davrda turli maktablar vujudga kelib, ular shu kungacha rivojlanib kelmoqda. Ba'zi ta'limotlar (masalan, *mu'tazila, murji'a*) yo'qolib, yangi teologik maktablar paydo bo'lgan. Shuningdek, ko'p hollarda alohida olingan mashhur mutafakkir-ulamoning shaxsiy yo'li (*mazhabi*) o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. *Ahl as-sunna va-l-jamoa* ichida klassik davrda ikki asosiy maktab – *moturidiylar* va *ash'ariylar* kuchli mavqega ega bo'ldilar. Masalan, *moturidiylar* nazdida aqida masalalarida quyidagicha fikr mavjud:

«Imon» so'zining lug'aviy ma'nosi *ishonmoq, tasdiqlamoq* bo'lib, istilohda esa «*La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh*» («Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad – Allohning payg'ambari») *kalimasini* til bilan aytib (*al-iqror bi-l-lison*), dil bilan tasdiqlash (*at-tasdiq bi-l-qalb*) demakdir. Mazkur ta'limot boshqalaridan *imon* masalasida *amalni imondan* alohida hisoblashi bilan farqlanadi. Imonning etti sharti bor. Ular:

– Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya'ni Allohning Qur'oni karimda va Muhammad payg'ambar hadislarida bayon qilingan barcha *ismlari* va *sifatlariga* imon keltirish. Ibodat qilish va sig'inishga undan o'zga loyiq zot yo'q deb bilish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish. Qur'onning «al-Ixlos» surasida Alloh taoloning yagonaligi shunday ta'riflanadi: «Aytgin (Ey, Muhammad payg'ambar): Alloh yagonadir, beniyozdir (hech kim va hech narsaga muhtoj emas, balki barcha unga muhtojdir), tug'magan, tug'ilmagan va uning tengi yo'qdir» (Qur'on, 112:1-4);

– farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (*malo'ika*) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so'zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabroil, Mikoil kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur'onda zikr etilgan. Jabroil farishtaning vazifalaridan

biri payg'ambarlarga Allohning vahylarini etkazish bo'lgan. Farishtalardan ba'zilar odamlar bilan doim birga bo'lib, ularning yaxshi va yomon ishlarini yozib boradilar. Qur'onda ular «*Kirom kotibun*» (*mukarram kotiblar*) deb zikr etilgan (Qur'on, 82: 10-12). Bundan tashqari, tafsir kitoblarida Isrofil, Azro'il nomli farishtalarning ismlari qayd etilgan. Qur'on va hadislarida farishtalar haqida juda ko'p erda so'z yuritilgan. Ularga ishonish imonning shartlaridandir;

- ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad payg'ambarga Qur'onni nozil qilganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma'lum bo'lganlari: Ibrohim payg'ambarga «Sahifalar», Muso payg'ambarga «Tavrot», Dovud payg'ambarga «Zabur» va Iso payg'ambarga berilgan «Injil» kitoblaridir. Ulardan boshqa payg'ambarlarga yuborilgan kitoblar haqida Qur'on va hadislarida xabar berilmagan. Yuqorida nomlari zikr etilgan kitoblarning barchasi Qur'onda Alloh tomonidan nozil qilingan deb ta'kidlanganligi sababli ularga shunday deb ishonish imonning shartlaridan hisoblanadi. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan;

- payg'ambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Barcha payg'ambarlar bir zanjirning bo'g'inlari kabi dirlar. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarida payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan. Musulmonlar uchun ulardan Qur'onda nomi zikr qilingan va zikr qilinmaganlarning barchasiga barobar imon keltirish shart;

- oxirat kuniga ishonish. Dunyoning ibtidosi bo'lgani kabi uning intihosi ham bor. Islom ta'limotiga ko'ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud. Qiyomat kuniga va oxirat hayotiga ishonish islomning asosiy g'oyalaridandir;

- taqdirga – inson boshiga tushgan yaxshiligu yomonlik Allohdan ekaniga e'tiqod qilish. Yuqorida aytib o'tilganidek, islomning ma'nosi «*taslim bo'lmoq*» dir. Shunga binoan, inson hayotda ro'baro' bo'ladigan barcha yaxshi-yomon ishlarni o'zi uchun Alloh tomonidan belgilangan sinov va imtihon deb bilishi lozim. Yaxshiliklarga shukur qilmog'i, qiyinchilik va mashaqqatlarga sabr qilmog'i imonning shartlaridan hisoblanadi;

- o'limdan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni bo'lganda barcha insonlar qabrdan turadilar va mahshargoh maydoniga yig'iladilar. U erda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do'zax)ga mahkum etiladilar.

Namoz islomda imondan keyin musulmonlar ustiga farz qilingan ikkinchi amal hisoblanadi. Qur'oni karimda namozga qat'iy buyruqlar kelgan bo'lib, uning ba'zi shartlari bayon etilgan. Namozning vaqti, miqdori hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Bu masalada turli mazhablarda ba'zi farqlar bor. Har kuni besh vaqt namoz: bomdod – (tong otishidan kun chiqquniga qadar), peshin – (quyosh tikkadan oqqanidan to biron narsaning soyasi o'z bo'yiga ikki barobar kelguniga qadar), asr – (peshin vaqti chiqishi bilan to quyosh to'liq botgunga qadar), shom – (quyosh to'liq botganidan ufqdagi qizillik yo'qolguniga qadar), xufton – (shom vaqti chiqqanidan tong otguniga qadar) ado etiladi.

Zakot «poklash» ma'nosini bildiradi, ya'ni ehtiyojdan tashqari bo'lgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga etgan badavlat kishilar uchun farz etilgan. Zakot etim-esir, beva-bechoralar, musofirlar, qarzdorlar, Alloh yo'lida yurganlar, zakot yig'uvchilarga beriladi. Zakot hijriy hisob bilan bir yil davomida ishlatilmay turgan yoki shaxsiy ehtiyojdan tashqari xususiy mulk sifatida foydalanilayotgan mablag'dan beriladi. Zakot islomdagi ijtimoiy himoyalashning o'ziga xos ko'rinishidir. Bu jamiyat taraqqiyoti, tinch va osudaligi yo'lida katta ahamiyat kasb etadi.

Ro'za yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning *ramazon* oyi davomida kunduz kunlari eyish-ichish va jinsiy aloqada bo'lishdan tiyilish. Ro'za *hijrat*ning ikkinchi yili farz bo'lgan. Bu ibodat kasal yo safarda bo'lgan kishilardan boshqa kunlarda tutib berish sharti bilan soqit qilinadi. Sababsiz ro'zani buzgan kishi uning *kafforati* sifatida ikki oy paydar-pay ro'za tutishi lozim bo'ladi. Shuningdek, ro'za ramazondan tashqari oylarda ham tutilishi mumkin. Masalan, *nafl* ro'za yoki qasamni buzishdagi *kafforat* ro'zasi tutiladi.

Haj qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat. Haj *zulhijja* oyining sakkizinchi kunidan boshlanadi. Haj qilishning uch turi mavjud: «ifrod» – faqat haj amallari bajariladi, «qiron» – haj va umra amallari oldinma-ketin bajariladi, «tamattu'» – avval umra qilinib, *ehromdan* chiqiladi va *zulhijja* oyining sakkizinchi kuni *ehromga* kirib, haj ruknlari ado qilinadi. Hajning farzi uchta: *ehrom* bog'lab niyat qilmoq, Arafotda turmoq, Ka'bani *tavof* qilmoq.

Islom dinida yuqorida birinchi rukn sifatida zikr qilingan *imon* va boshqa e'tiqod masalalari – *ilm al-aqo'id* (ilohiyot) ilmida o'rganilsa, keyingi to'rt masala – *ibodat* masalalari boshqa ko'pgina savollar bilan *ilm al-fiqh* (diniy qonunshunoslik) doirasida bayon qilinadi va o'rganiladi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Muhammad payg'ambar qachon va qaerda dunyoga keldi?
2. Islom dinining asosiy aqidasi nimalardan iborat?
3. Yangi din da'vati taxminan qachon boshlandi?
4. 622 yildagi *Hijrat*ning mohiyati nimalardan iborat?
5. Makka va Madina davrlaridagi dinga da'vat mavzularida qanday asosiy farqlar bor?
6. Ilk islom davrida din va siyosat masalalari qay darajada bog'liq bo'lgan?

Adabiyotlar:

1. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya / Sayid Mahmud Taroziy-Oltinxon to'ra tarjimasini. T., Mehnat 1991.
2. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T., 1992.
3. Ахмад ибн Фарис ар-Рази. Ауджаз ас-сияр ли-хайр ал-башар // Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. М., 1994. С. 26-32.
4. Bolshakov O.G. Istoriya Xalifata. 1. Islam v Aravii (570-633). M., 1989.
5. Ибн Хишам. Сират Саййидина Мухаммад Расул Аллах // Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. М., 1994. С. 12-24.

6. Textual Sources for the Study of Islam/Edited and translated by Andrew Rippin, Jan Knappert. Chicago, 1990.

QUR'ONI KARIM

Qur'oni karim – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambarga oyatma-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbai hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri *ahl as-sunna va-l-jamoa* ta'limotiga ko'ra, Qur'on Alloh taoloning so'zi va uning azaliy ilmidir.

Mazkur ilohiy kitobning bir nechta nomlari bo'lib, ulardan «Qur'on» so'zi – arabcha «*qara'a*» (o'qimoq) fe'lidan olingan. Boshqa fikrga binoan, u suryoniy tilidagi «kerain» – «muqaddas yozuv» ma'nosini bildiruvchi so'zdan olingan. Qur'on 114 ta suradan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu har xillik Qur'on nusxalarining bir-biridan farqli ekanligini emas, balki undagi oyatlarning turli qiroat maktablarining (ularning soni 14 dan ortiq) an'analari bo'yicha turlicha taqsimlanganligini bildiradi.

Qur'ondagi suralar o'z mazmuniga yoki nozil bo'lgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki hajmiga ko'ra – avval katta, so'ng kichik suralar tartibida Payg'ambar vafotidan ancha keyin yig'ib joylashtirilgan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmli ikkinchi surada 286 oyat bor bo'lsa, eng kichik suralar faqat uch oyatdangina iborat.

Islomshunoslik va qur'onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha shaklda tasavvur qilish mumkin:

1. Birinchi Makka davri (610-615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan *saj'* janridagi suralar o'qilgan. Evropa olimlari ularga «Nazmiy suralar» deb nom berganlar.

2. Ikkinchi Makka davri (616-619 yillar). Bu suralar Muhammad payg'ambar va ularning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchiligi Habashistonga ko'chib ketgan vaqtda o'qilgan. Bu suralarda Alloh «Rahmon» sifatida ko'p tilga olinganligi sababli Evropa olimlari ularni «Rahmon suralari» deb ataganlar.

3. Uchinchi Makka davri (619 yil boshlaridan – 622 yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad payg'ambar va uning izdoshlari ta'qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida payg'ambarlar haqidagi asotir-hikoyatlarga keng o'rin berilganligi sababli evropalik olimlar bularga «Payg'ambarlik suralari» deb nom berganlar.

Tarixiy voqealarni aniqroq aks ettirishini e'tiborga olgan holda Madinada tushirilgan 24 ta suraning nozil bo'lish davrini quyidagi besh bosqichga ajratish mumkin:

I davr (622 yil oktyabridan 624 yilgacha) Muhammad payg'ambar Madinaga ko'chib o'tganidan so'ng to makkaliklar bilan birinchi yirik to'qnashuv – Badr jangigacha nozil bo'lgan to'rt sura bu davrga kiradi.

II davr (624 yil martidan 625 yil martigacha). Bu davr Badr jangidan to Uhud jangigacha o'tgan bir yil mobaynida nozil bo'lgan uch surani o'z ichiga oladi.

III davr (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhuddagi mag'lubiyatdan to Xandaq jangigacha o'tgan ikki yil ichida beshta sura nozil bo'lgan.

IV davr (627 yil aprelidan 630 yil yanvarigacha). Bu davrga Xandaq jangidan to Makka fathigacha o'tgan salkam uch yil ichida nozil bo'lgan sakkiz sura kiradi.

V davr (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka fathidan Muhammad payg'ambarning vafotigacha o'tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida yana to'rtta sura nozil bo'lgan.

Muhammad payg'ambar vafotidan keyin Qur'on kishilarning xotirasida va yozgan narsalarida saqlanib qoldi. Payg'ambardan so'ng musulmonlarga Abu Bakr boshliq etib saylandi. Uning xalifalik davrida (632-634) mo'minlar va murtadlar (*dindan qaytganlar*) o'rtasida shiddatli janglar (yuqorida eslatilgan *Ridda* voqealari) bo'lib o'tdi. Ushbu janglarda Qur'onni to'liq yod olgan ko'plab qorilar halok bo'ldilar. Shunda bo'lajak xalifa Umar ibn al-Xattob (634-644) Abu Bakrga: «Barcha qorilar shu zaylda o'lib ketaversa, Qur'on nuqsonli bo'lib qolishi mumkin, shu sababli uni jamlab kitob holiga keltirish zarur», - degan maslahatni berdi. Avvaliga Abu Bakr ikkilanib turadi, chunki bu ish Payg'ambar davrida qilinmagan edi. Bu hol bid'at deb qabul qilinishi mumkin edi. Keyinroq Abu Bakr ham Qur'onni kitob shakliga keltirib qo'yish zarurligini anglab etdi va Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib, bu ishni unga topshirdi. Shunday qilib, Zayd va boshqa qorilar mashaqqatli urinishlardan keyin Qur'onni kiyik terisidan bo'lgan sahifalarga yozib chiqdilar va bog'lab Abu Bakrning uyida saqlab qo'ydilar. Bu jamlanma keyinchalik «as-Suhuf al-Bakriya» – «Abu Bakr sahifalari» deb nomlandi. Abu Bakr olamdan o'tgandan keyin jamlanma Umar ibn al-Xattob uyida, u olamdan o'tgandan so'ng uning qizi – Payg'ambar ayoli Hafsa qoldi.

Vaqt o'tishi bilan islom davlatida turli siyosiy guruhlar paydo bo'ldi. Ular o'rtasidagi ziddiyatlar xalifa Usmon ibn Affon (644-656) davrida keskinlashdi. Har bir guruh o'z siyosiy da'volarini Qur'on orqali asoslashga urinar edi. Qur'onni o'qishdagi turli ixtiloflar bunga asos yaratardi. Bu ixtiloflarni bartaraf etish maqsadida xalifa Usmon ibn Affon Qur'onning yangi tahririni ko'chirishga buyruq beradi. Bu topshiriqqa binoan Zayd ibn Sobit barcha Qur'on qismlarini yig'ib, taqqoslab chiqib, qaytadan Qur'oni karim matnini jamladi. Qur'onning birinchi rasmiy nusxasi 651 yilda xalifa Usmonga taqdim etildi. U asl nusxa hisoblanib, undan yana uchta, ba'zi manbalarga ko'ra ettita nusxa ko'chirtirilib, arab askarlari turgan yirik shaharlardan – Basra, Damashq, Kufaga jo'natilgan. «*Imon*» deb nomlangan asl nusxa esa Madinada xalifa Usmon huzurida qoldi. Ko'chirilgan nusxalar «Mushafi Usmon» deb ataldi.

Ilk Qur'on nusxalaridagi arab yozuvida harflarning elementlari – nuqtalar va unli tovush belgilari qo'yilmagan bo'lib, uni Qur'onni to'liq yod biluvchi usta qorilargina o'qiy olar edilar. Hammaga faqat Qur'onning shu nusxasidan ko'chirishga buyruq berildi. Saqlangan ilk nusxalar *hijoziy* va *kufiy* xatlarida ko'chirilgan. Mutaxassislarining fikricha, Arab davlatining poytaxtini 749 yilda Suriyadan Iroqqa o'zgartirilishi *hijoziy* xatining yo'qolib ketishiga olib keldi.

Qur'on yozuvining hozirgi ko'rinishi faqat X asrga kelib to'liq shakllangan. Qur'onning shu kunimizgacha saqlanib qolgan nodir nusxalari arab yozuvi rivojining bebaho yodgorliklari hisoblanadi.

Arab tarixchilarining xabar berishlaricha, xalifa Usmon Qur'onni mutolaa qilib o'tirganida fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. U kishining qoni Qur'on sahifasiga to'kilgan, degan naql xalq orasida keng tarqalgan. Bundan Kufadagi kitob savdogarlari foydalanib, ko'p nusxada «qonli» Qur'on nusxalari tayyorlab sotganlar. Hozirgi paytda jahon muzey va kutubxonalarida Mushafning bir nechta nusxalari saqlanadi. Ulardan biri Toshkent shahrida O'zbekiston musulmonlar idorasidadir. Unda ham qon izlari bo'lib, shu nusxa aynan xalifa Usmonga tegishli degan fikrlar mavjud.

Mazkur Qur'on 353 varaqdan iborat bo'lib, varaqlar o'lchami 68x53 sm, matn yozilgan qism hajmi 50x44 sm. Sahifalar kiyik terisidan ishlangan bo'lib, har biriga 12 qatordan chiroyli *kufiy* xatida yozuv bitilgan. Ko'p varaqlari yo'qolgan va keyinchalik qog'oz sahifalar bilan to'latilgan.

Tataristonlik mashhur olim Shihobuddin al-Marjoniyning (1818-1889) aytishicha, Qur'onni qayta tiklash Samarqandda joylashgan «Mug'ak masjidi» imomi Abdurrahim ibn Usmon al-O'tiz-Imoniy (vaf. 1838 y.) tarafidan bajarilgan.

Usmon Qur'oni ruslar O'rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xo'ja Aeror madrasasida saqlanar edi. Qur'onning Samarqandga keltirilishi haqida ham mutaxassislar orasida har xil taxminlar mavjud. Ulardan birida muqaddas kitobni Abu Bakr al-Qaffol ash-Shoshiy (976 yili vafot etgan, Toshkentda dafn qilingan) Bag'doddan olib kelgan, deb hikoya qilinadi. Avlodlar osha Abu Bakr Qaffol Shoshiy merosxo'rlaridan Xo'ja Ahror qo'liga o'tgan bo'lishi mumkin. Xo'ja Ahror va uning avlodlari bu nusxadan zamonalarining boshqa sufiy tariqatlari shayxlari bilan bo'lgan raqobat kurashida unumli foydalanganlar. Bu nusxa vositasida ular o'zlarining islom sarchashmalariga yaqinroq ekanliklarini isbotlamoqchi bo'lganlar. Chunonchi, Ishqiya tariqati shayxlari ahroriy naqshbandiylarga qarshi Qur'onning o'z qadimiy nusxalariga – Katta Langar Qur'oniga ega bo'lganlar.

Ikkinchi bir rivoyatda esa Xo'ja Ahror muridlaridan biri Makkadan haj qilib qaytayotganida Istambulga kiradi va sultonni og'ir xastalikdan davolaydi. Sulton minnatdorchilik bildirib, unga Qur'onni hadya qiladi.

Ko'pchilik arabshunos olimlarning fikricha, bu Qur'on Amir Temur (1370-1405) tomonidan Basradan ko'plab qo'lyozma kitoblar va boshqa o'ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va Temurning mashhur kutubxonasiga qo'ydirilgan. Temuriylar davridagi (1405-1506) o'zaro kelishmovchiliklarda Temur kutubxonasi yondirib yuborilgan. Tasodifan shu nusxa omon qolgan. Bu fikr haqiqatdan uzoqroq. Chunki Amir Temurning kutubxonasi haqidagi farazlar hali isbotlangani yo'q. Ikkinchi tarafdin, Amir Temur zamonida boshqa bir Qur'on nusxasi hukmdorlar diqqat-e'tibori markazida edi. Bu Samarqand jome-masjidi (keyinchalik bu masjid Bibixonim masjidi nomini olgan) sahniga qo'yilgan Boysung'ur Qur'onidir.

Toshkent Qur'onini ilmiy jihatdan chuqur o'rgangan sankt-peterburglik sharqshunos olim A.F. Shebunin fikricha, Qur'on Basradan Amir Temur

tomonidan Samarqandga keltirilgan. Chunki A.F. Shebunin Parij, Berlin va Makkadagi boshqa nusxalariga solishtirib, bizdagi Qur'onning Basra nusxasi ekanligini isbotlashga harakat qildi. Darhaqiqat, bu muqaddas kitob eski nusxalardan hisoblanib, VIII asr oxiri – IX asr boshlarida yaratilgan.

1868 yilda rus askarlari Samarqandga kirishi bilan Usmon Mushafiga e'tibor kuchaydi. Musulmonlar Qur'onni yashirinchalik Buxoroga jo'natmoqchi bo'ladilar. Biroq bu xabar Zarafshon o'lkasining boshlig'i general Abramov qulog'iga etib, «Fan uchun bunday nodir, bebaho, qadimiy yodgorlikni qo'ldan chiqarmaslikning hamma chorasini ko'rilsin», deb polkovnik Serovga buyruq beradi. Serov Qur'onni general Abramovga keltiradi. Abramov esa uni zudlik bilan Turkiston gubernatori fon Kaufmanga etkazadi. U, o'z navbatida, 1869 yil 24 oktyabrda Usmon Qur'onini Sankt-Peterburgga – Imperator kutubxonasiga alohida kuzatuvchilar nazoratida jo'natdi.

Bu Qur'on nusxasi ustida tadqiqotlar boshlandi. Masalan, 1895 yili mazkur Qur'onning bir varag'i ikki ming nusxada chop etildi. 1905 yili esa Ilyos ibn Ahmad-shoh «Yosin» surasining fotonusxasini chiqardi. Shu yili S.I. Pisarev va F.I. Uspenskiy Qur'onni faksimile uslubida 50 nusxa chop etib, 25 nusxasini sotuvga chiqardi. Har bir nusxasiga 500 so'm baho qo'yildi. Ular faksimileni asl nusxasiga o'xshatish uchun hajmini ham o'shandayligicha qoldirdilar. Hozir bu faksimile nusxadan jumhuriyatda bir nechta bo'lib, biri O'zbekiston musulmonlarining diniy idorasi kutubxonasida, ikkinchisi – O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanadi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Butunrossiya musulmonlar jamiyati nomidan Usmon To'qumboev RSFSR Xalq Komissarlari Sovetiga murojaat qilib, muqaddas Usmon Qur'onini o'z egalariga, ya'ni musulmonlarning o'lka s'ezdiga topshirilishini talab qiladi. RSFSR XKS tomonidan musulmonlarning talabi qondirilib, Qur'on musulmonlar ixtiyoriga beriladi. 1917 yil 29 dekabr kuni Peterburgdagi podshoh kutubxonasining «Nodir qo'lyozmalar» bo'limidan olinib, Butunrossiya musulmonlar jamiyati raisi U. To'qumboev javobgarligi ostida Ufa shahriga jo'natiladi. Qur'on 1923 yilgacha Ufada saqlanadi.

1923 yil 23 iyulda Butunittifoq Markaziy Ijroqo'mi Usmon Qur'onini Turkistonga qaytarishga qaror qiladi. Muqaddas yodgorlik Ufadan Toshkentga maxsus komissiya kuzatuvida olib kelinadi. Komissiya tarkibida sharqshunos olim Sultonxo'ja Qosimxo'jaev, professor A.E. Shmidt va din peshvolaridan 3 vakil bor edi. Komissiya maxsus vagonda qurolli kuchlar kuzatuvida Qur'onni Toshkentga keltirdi. Shundan keyin Qur'on 1923 yil 18 avgustda Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo'ja Ahror jome masjidiga topshiriladi. Lekin ko'p o'tmay Qur'onni Toshkent eski shahar muzeyiga keltiradilar va u maxsus po'lat sandiqda saqlana boshlanadi. Eski shahar muzeyi birinchi o'zbek muzeyiga aylantirildi. Muzey 1926 yilning 1 yanvarida ochildi. 1926 yilning faqat bir oyi ichida muzeyni 4000 kishi kelib ko'rdi.

Qur'oni karimga ko'plab olimlar tomonidan turli *tafsirlar* yozilgan. Qur'on XII asrdan boshlab Evropa xalqlari tillariga, jumladan, lotin tiliga tarjima qilina boshlagan. XVIII asr boshlarida Evropa xalqlari tillaridan, XIX asr o'rtalarida arabcha asl nusxasidan rus tiliga tarjima qilingan. G.S. Sablukovning arabchadan

dastlabki tarjimasi Qozonda uch marta (1878, 1894, 1907 yillarda) nashr qilingan. Akademik I.Yu. Krachkovskiy tomonidan amalga oshirilgan Qur'onning ilmiy izohlari bilan rus tiliga tarjimasi hanuzgacha mashhur. Bu tarjima uning vafotidan (1951 y.) keyin, 1963 va 1986 yillarda to'liq nashr etilgan.

Mamlakatimiz mustaqil bo'lganidan so'ng Qur'oni karimni o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi. Movarounnahr Diniy boshqarmasi vakillari Qur'onning o'zbek tilidagi tarjimasini nashr etishda bir qancha tarjimalar bilan tanishib chiqib, Alouddin Mansur tarjimasini muvofiq topdilar. 1992 yilda Qur'on o'zbek tiliga tarjima qilindi va «Cho'lpon» nashriyotida ko'p nusxada chop etildi. Shuningdek, «Zvezda Vostoka» jurnali Qur'on matnlarini akademik I.Yu. Krachkovskiy tarjimasida falsafa fanlari doktori, professor, islomshunos olim M.A. Usmonovning tuzatishi va qisqa sharhi bilan «Qadimiy adabiyot yangiliklari» – «Drevniy pamyatnik literatury» turkumi ostida 1990 yildan boshlab berib bordi.

Qur'onga o'zbek tilida tafsir yozish ishlari shu bilan to'xtab qolmadi. 2001 yilda taniqli olim Abdulaziz Mansur tomonidan Qur'oni karim ma'nolarining izohli tarjimasi nashr etildi. Islomning ilk davridan to shu kunga qadar Qur'oni karimga turli tillarda, har xil yo'nalishlarda minglab tafsirlar bitilgan. Ularda Qur'oni karimni turli davrlar va muhitlarda tushunish o'z aksini topgan. Binobarin, vaqt o'tishi bilan Qur'onning yangidan-yangi ma'nolari kashf etila boradi. Shuning barobarida yangi tafsirlar ham maydonga kelaveradi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Qur'oni karim qachon nozil bo'la boshladi?
2. Qur'on nozil bo'lish davriga ko'ra qanday qismlarga bo'linadi?
3. Qur'on qachon yaxlit kitob shakliga keltirildi?
4. Qur'on qanday qism va bo'limlardan iborat?
5. Qur'onning jamlanishi kimlar tomonidan amalga oshirildi?
6. Toshkentdagi «Usmon Mushafi» haqida nima bilasiz?
7. Mashhur mufasssirlardan kimlarni bilasiz?
8. Qur'onda ko'tarilgan mavzular qaysilar?
9. Qur'onning o'zbek tiliga tarjimasi kim tomonidan amalga oshirildi?

Adabiyotlar

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T., «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.
2. Karomatov H.S. Qur'on va o'zbek adabiyoti, Fan, 1993.
3. Maxdum, Shayx Ismoil. Toshkentdagi Usmon Mushafining tarixi. T., 1995.
4. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского текста XII-XIII вв. М., 1963.
5. Ислам. Историко-географические очерки. Раздел 1. Коран и коранистика. М., 1991. С. 7-84.
6. Коран / Перевод и комментарии И.Ю. Крачковского. 2-е изд. М., 1986.
7. Прозоров С.М. Арабская историческая литература в Ираке, Иране и Средней Азии в VII – середине X в. Шиитская историография. М., 1980.
8. Резван Е.А. Коран и его мир. СПб., 2001.

HADISLAR

Hadis – Muhammad payg’ambarning aytgan so’zlari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko’rib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o’zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so’zining lug’aviy ma’nosi – «so’z, xabar, hikoya; yangi».

Hadislar islom dini ta’limoti va qonunlari uchun, ba’zi mazhablar nazdida, Qur’ondan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Hadislar tarkib jihatidan ikki qismdan: aynan xabar beruvchi *matn* va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – *isnoddan* iborat.

Hadislar o’zidagi ma’lumot xarakteriga qarab xilma-xildir:

- al-hadis al-qudsiy (bu kabi hadisda ma’no – Allohdan, lafz – Payg’ambardan deb hisoblanadi);
- al-hadis an-nabaviy (bunda ma’no ham, lafz ham Payg’ambarniki deb hisoblanadi) va boshqalar.

Hadislar ilk davrda faqat og’zaki ravishda avlodlardan-avlodga uzatilar edi. Yozma ravishda hadislarini to’plamaslik haqidagi Payg’ambar va xalifalarning ko’rsatmalari, asosan, ilk islom davriga taalluqli edi. Keyingi davrda paydo bo’lgan muhaddislarning fikricha, Payg’ambar o’z so’zlarini yozib olishdan odamlarni qaytarishlariga sabab – hadislarini Qur’on oyatlariga aralashtirib yubormaslik lozim edi. Boshqa hadisda esa Payg’ambar (bu ahl al-hadis muhitiga tegishli bo’lsa kerak): «Bu og’izdan, – deya o’z og’izlariga ishora qildilar, – faqatgina haq so’z chiqadi» – deb, o’z so’zlarini yozib olishga buyurganliklari haqida rivoyat qilingan.

VII – VIII asrlarda musulmon siyosiy guruhlarini o’rtasidagi shiddatli kurash davomida, taqiqqa qaramasdan, juda ko’p sonli hadislar dunyoga kela boshladi. Bunga javoban *ilm al-jarh va-t-ta’dil* (hadislarini tanqid qilib o’rganuvchi) maxsus fani paydo bo’lib, rivojlana boshladi.

Keyinchalik soni tobora osha borgan hadislar alohida to’plamlarga yig’ila boshlandi. Ularda maxsus tekshirish orqali «tozalanib» olingan hadislar jamlana boshladi. Shunday ilk to’plamlardan biri Madinadagi Urva ibn az-Zubayrga (vaf. 94/712 yoki 99/717 y.) va ikkinchisi Suriyaga ko’chib ketgan Muhammad ibn Muslim az-Zuhriyga (vaf. 741 y.) tegishli.

Ilk tuzilgan to’plamlar har bir sahoba nomidan rivoyat qilingan hadislarini o’zida jam qilganligi uchun *musnad* deb ataladi. Keyingi davrlarda tuzilgan at-Tayolisiy (vaf. 818 y.) va Ahmad ibn Hanbalning (vaf. 855 y.) to’plamlari mazkur uslubda yozilgan. Biroq undan foydalanish ancha noqulay. Chunki bunda bir mavzu haqida ma’lumot olish uchun bir necha to’plamlarni ko’rib chiqish kerak.

Ikkinchi turdagi to’plamlarda hadislar shu paytgacha shakllanib ulgurgan fiqh fani mavzulari bo’yicha joylashtirildi. Bu turdagi to’plamlarga Madina regional fiqh maktabi vakili Molik ibn Anasning (vaf. 795 y.) «al-Muvatto» asari misol bo’la oladi.

IX asr mavjud hadis to’plamlari qayta ishlangan holda ularni boblar bo’yicha tasnif qilib, *musannaflar* yozish davri bo’ldi. Musannaflar tuzilishi mobaynida

hadislar, asosan ularning isnodlari tanqidiy o'rganilib, *sahih* (ishonchli)lari *hasan* va *zaif* (ishonchsiz)laridan ajratildi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi XII – XIII asrlardan boshlab alohida e'tiborga molik deb sanala boshlandi. Ular orasida katta nufuzga ega bo'lgan Imom al-Buxoriy (v. 870 y.) va Imom Muslimning (v. 875 y.) «al-Jomi' as-sahih» to'plamlari; undan keyingi muhim to'plamlar: Abu Dovud, at-Termiziy (v. 892 y.), an-Naso'iy (v. 915 y.) va Ibn Mojjaning (v. 886 y.) «as-Sunan» asarlaridir. «Al-Jomi' as-sahih» kitoblari o'z ichiga biografik ma'lumotlar, Qur'on oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini qamrab oldi. «Al-Jomi' as-sahih»ning ishonchlilik darajasi sunniylar orasida boshqa to'plamlardan ko'ra yuqoriroq hisoblanadi.

Hadis to'plamlarining qay darajada ishonchli ekanligini aniqlab beradigan maxsus nazorat bo'lmaganligi bois ularning mavqeini jamiyatda egallagan obro'siga qarab belgilash mumkin. Al-Buxoriy va Muslimning asarlari X asrdayoq e'tirof etila boshlagan bo'lsa, qolgan to'plamlar vaqt o'tishi bilan asta-sekin tan olina bordi. Masalan, molikiy Ibn Xaldun (vaf. 1406 y.) o'zining «al-Muqaddima» asarida Ibn Mojjaning «as-Sunan» kitobini tan olmagan holda faqat besh to'plam haqida so'z yuritadi. Vaqt o'tishi bilan u oltinchi to'plam sifatida tan olindi. Biroq ba'zi ulamolar Molikning «al-Muvatto»sini Ibn Mojjaning «as-Sunan» asaridan yuqori qo'yadilar. Bu kabi e'tirozlar har bir olimda topilishi mumkin. Shialar va xavorijlar bu to'plamlarni umuman tan olmaydilar. Chunki ulardagi isnodlar shialar va xavorijlar uchun ishonchsiz bo'lgan shaxslar nomlaridan iboratdir.

Yana sunniy muhaddislar qatorida Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy Samarqandiy (798-869) aytib o'tish joiz. Bu olim Samarqandda yashab ijod etgan bo'lib, hadis ilmini rivojlantirishga o'zining katta hissasini qo'shgan. Imom ad-Dorimiy «as-Sunan» to'plami tuzuvchisidir.

Keyinchalik islom olamida turli darajadagi soxta hadislarining ko'payib ketishi muhaddis-olimlar oldiga katta mas'uliyatli vazifani – mana shu to'qima va sahih hadislarini ajratib berish vazifasini qo'ydi. Qissanavislar (*qussoslar*) inkor etib bo'lmaydigan isnodlar bilan hadislar to'qish bobida eng «ilg'or» kishilar bo'lib, bu hikoyalari uchun sodda kishilar ularga yaxshigina haq to'lar edilar. Ko'pchilik soxta hadislarini osonlikcha aniqlash mumkin edi. Hadislar turli maqsadlarda to'qilar edi. Ba'zilar siyosiy manfaatlar yo'lida, ijtimoiy mafkuralarni tarqatish maqsadida yangi hadis to'qisalar va mashhur hadislarini qisman o'zgartirsalar, boshqalar o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab turli hadislarini muomalaga kiritdilar. Xususan, hadislar orasida to'qima hikoyalar ko'p uchraydi. Ularda Arabistondan uzoqdagi keyin bosib olingan o'lkalar (masalan, Buxoro, Samarqand, O'sh) va hatto Payg'ambar davrida hali asos solinmagan shaharlar, keyinchalik paydo bo'lgan masalalar, mavzular haqida so'z boradi. Islom tarixining navbatdagi bosqichlarida vujudga kelgan *xorijiy*, *murji'iy*, *qadariy*, *jahmiy*, *shia*, *abbosiy* kabi oqim va guruhlar haqida gapiriladi. Umaviylar (661-749), Abbosiylar (749-1258) va Alaviylarning «benuqson» xalifalari, imomlari, ularning bobokalonlari Payg'ambarning «hamfikr» yordamchilari sifatida zikr qilinadilar.

Turli kishilarning hadis to'qishga bo'lgan urinishlari hadislarning jamiyat hayotida, undagi nufuz, muayyan siyosiy-ijtimoiy maqsadlarga erishishda naqadar katta ahamiyatga ega bo'lganligini isbotlaydi. Hadislar islom ta'limoti rivoji va uning turli davr, mintaqalardagi ko'rinishlarini o'rganishda qimmatli manbadir.

VIII – XII asrlar Movarounnahrda hadis ilmi sohasida olg'a siljish davri bo'ldi. Bu davrda yashagan olimlar faqatgina ma'lum bir chegaralangan doirada ijod qilish bilan kifoyalanmay, balki imkon qadar ilmning ko'proq qirralariga ega bo'lishga intilganlar. Shunga ko'ra biror olim, masalan, faqatgina mufasssir yoki faqihning o'zi emas, balki bir vaqtning o'zida muhaddis ham bo'lgan. Chunki bu davrda, yuqorida aytib o'tilgandek, diniy ixtiloflar kuchaygan edi. Shunga ko'ra ulamolar mavjud ixtiloflarning oldini olish, bartaraf etish uchun har taraflama kuchli bilimga ega bo'lishlari lozim edi.

Hadis sohasida keyinchalik *kompilyativ* (ko'chirma) ishlar ham ko'payib bordi. Ular mazkur olti to'plam darajasiga ko'tarilmasa-da, o'quv jarayonida asosiy qo'llanmalar sifatida foydalanilardi. Ulardan al-Bag'aviyning «Masobih as-sunna» va yana xalq orasida ommalashib ketgan Valiy ad-din al-Xatib at-Tabriziyning «Mishkot al-masobih» asarlaridir. Hadis to'plamlariga ham ko'plab sharhlar yozildi. «Arba'un» («qirqlik») janridagi hadis to'plamlari tuzish xalq orasida sharaflari va sevimli ishga aylandi. Masalan, Abdurrahmon Jomiy (vaf. 1492 y.), Alisher Navoiylar (vaf. 1501 y.) ham hadislarni she'riy usulda tarjima qilib, o'z «Arba'un»larini yaratdilar. Shu bilan birgalikda turli manbalardan hadislar jamlanib, turli mavzular bo'yicha yangi to'plamlar ham yaratilib turdi.

Yuqorida zikr etilgan asarlar asosan sunniylikka taalluqlidir. Shialar faqatgina Ali (656-661) va uning tarafdorlari vositasida rivoyat qilingan *xabarlar* (hadislar)ni o'z ichiga olgan manbalarga egadirlar. Ularda shialik ta'limoti talablariga javob beradigan rivoyatlar mujassam bo'lgan edi. Bunday asarlar qatoriga Abu Ja'far Muhammad ibn Ya'qub al-Kuliniyning (vaf. 939 y.) «al-Kofi fi ilm ad-din», al-Bobuya al-Qummiy nomi bilan mashhur Abu Ja'far Muhammad ibn Alining (vaf. 991 y.) «Kitob man lo yahzuruhu al-faqih», Abu Ja'far Muhammad ibn al-Hasan at-Tusiyning (vaf. 1067-68 y.) «Tahzib al-ahkom» va keyinchalik undan muxtasar qilgan «al-Ibtisor fi-mo-xtulifa fih min al-axbor» asarlari kiradi. Ular ham sunniylik to'plamlaridagi aynan o'xshash mavzularni o'z ichiga olgan kitoblardir.

Hadis ilmi taraqqiyotida ayollarning ham o'ziga xos o'rni bor. Hadislarni rivoyat qilgan roviylar haqida xabar beruvchi *ilm ar-rijol* (roviylar haqidagi ilm) asarlarida bu sohada zikr etilgan hadis rivoyatchilari orasida ko'plab ayollar uchraydi.

Hadislarni tanqidiy o'rganish bo'yicha tez orada olti to'plamda uchragan bir qator maxsus terminlar guruhi vujudga keldi. Imom at-Termiziy bu sohada salmoqli ishni amalga oshirdi. U faqatgina hadislarni to'plash bilangina cheklanib qolmasdan, ularning tahliliga ham alohida bo'lim ajratdi. Imom at-Termiziy birinchilardan bo'lib hadislarni *sahih*, *hasan* va *zaif* guruhlariga ajratgan olimdir. Vaqt o'tishi bilan hadis ilmidagi terminlar taraqqiy etib bordi va bu sohada umumiy qabul qilingan shaklga keldi.

Hadislar *sahih* (ishonarli), *hasan* (yaxshi), *zaif* (ishonchsiz), *saqim* (kasal) va boshqa turlarga ajratildi. Masalan, sunniylikda *sahih* hadislar darajalari bo'yicha etti xilga bo'lindi:

- 1) Imom Buxoriy va Imom Muslim keltirgan;
- 2) faqat Imom Buxoriy keltirgan;
- 3) faqat Imom Muslim keltirgan;
- 4) ikkala muhaddis ham keltirmagan, balki ularning shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
- 5) Imom Buxoriy shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
- 6) Imom Muslim shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
- 7) boshqa ulamolar tomonidan tasdiqlangan hadislar.

Quyidagi isnodga tegishli texnik terminlar barcha ulamolar tomonidan bir xilda talqin qilinmasa-da, asta-sekin ular barqaror istilohga aylanib bordi. O'rganish qulay bo'lishi uchun ularni besh guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin:

- I. Roviylarning soniga ko'ra: *mutavotir*, *mashhur*, *mustafid*, *aziz*, *g'arib*, *fard*, *shozz*, *ohod* hadislar;
- II. Isnodning tabiatiga ko'ra: *muttasil marfu'*, *muttasil mavquf*, *musnad*, *maqtu'*, *munqati'*, *munfasil*, *muallaq*, *mursal*, *mu'allal* yoki *ma'lul* hadislar;
- III. Matn yoki isnodning asosiy xususiyatlariga ko'ra: *ziyodot as-siqot*, *mu'an'an*, *musalsal*, *mudallas*, *mubham*, *maqlub*, *mudraj*, *mudtarib*, *isnod oli* hadislar;
- IV. Hadislarning qabul qilish uchun yaroqliligiga ko'ra: *ma'ruf*, *munkar*, *majhul*, *maqbul*, *mahfuz* hadislar;
- V. Hadislarning inkor etilishiga ko'ra: *munkar*, *mardud*, *matruk*, *matruh* hadislar.

Hadislarni o'rganish fani *ulum al-hadis* (*hadis ilmlari*) deb ataladi. Bu ilmiy sohada ko'plab asarlar yaratildi. Ular orasida eng avvalgi davrda yozilgan, boshqalariga nisbatan har tomonlama mukammal deb hisoblangan asar Abu Muhammad ar-Romahurmuziyning (vaf. 971 y.) etti jildli «al-Muhaddis al-fosil bayn ar-roviy va-l-vo'iy» kitobidir. Undan keyingi o'rinda al-Hokim an-Nishopuriyning «Ma'rifat ulum al-hadis», Ibn as-Salohning «Ulum al-hadis» nomli asarlari turadi. Bu fan hadislar va roviylar tasnifi, sahoba va ularning o'quvchilari – *tobi'un*larni bilish, hadislarni rivoyat qilish, yozib olish, ulardagi xatoliklarni to'g'rilash, isnodda kelgan birinchidan tortib oxirgi roviylarning yashagan yillarini o'rganishdan iborat maxsus bilimlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Hadis ko'pincha *sunna* so'zi bilan ham yonma-yon keladi. *Sunna* so'zining lug'aviy ma'nosi – «odat», «tariqa», «yo'l» bo'lib, istilohda Payg'ambar odatlari, tutgan yo'li, taqrir (ko'rib qaytarmagan) va buyurgan ishlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu istiloh Payg'ambar turmush tarzini anglatadi.

Ayni kunlarda – Vatanimiz istiqloлга erishgandan keyingi davr mobaynida madaniy, ma'naviy va diniy tarix, uni chuqur tadqiq etishga keng yo'l ochildi. Mamlakatimizda hadislarni o'rganish bo'yicha qisqa muddat ichida talay ishlar amalga oshirildi. «Axloq-odobga oid hadis namunalari», «al-Adab al-mufrad», «Ming bir hadis», to'rt jildan iborat «al-Jomi' as-sahih»ning tarjimai nashr

etildi. Xususan, t.f.d. Ubaydulla Uvatov, t.f.n. B.I. Eshonjonov, N. Mirmahmudov kabi tadqiqotchi-olimlarimiz tomonidan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Muslim kabi bir qator muhaddis- ulamolar hayoti, ilmiy faoliyatlari yoritildi. Bu yo'lda ilmiy izlanishlar olib borilib, maqola, risola va kitoblar nashr ettirildi.

Vazirlar Mahkamasi buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rnini hisobga olib, jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoitlar yaratish maqsadida 1997 yil 29 aprelida «1998 yilda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini mamlakatimizda keng nishonlanishi haqida» qaror qabul qildi. Bu qaror asosida buyuk muhaddisning yubiley to'yi mamlakatimiz miqyosida nishonlandi.

1998 yili mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan «Imom al-Buxoriy» xalqaro jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma qisqa muddat ichida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 2000 yildan «Imom al-Buxoriy saboqlari» ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnali prof. Z.I. Munavvarov muharrirligida muntazam ravishda nashr etilmoqda. Unda Vatanimiz va chet ellik tadqiqotchilar tomonidan buyuk muhaddislar ijodi, hadis ilmi rivoji haqidagi ilmiy maqolalar berib borilmoqda.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Hadis, xabar, sunna deganda nimani tushunasiz?
2. Hadislar qachondan boshlab yozila boshlandi?
3. Eng mashhur muhaddislar kimlar?
4. Qanday hadis to'plamlarini bilasiz?
5. Qanday hadis turlarini bilasiz?
6. Imom al-Buxoriy kim bo'lgan?

Adabiyotlar

1. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to'plam). 4 jildli. T., Qomuslar bosh tahririyati. 1991-1999.
2. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy / A. Abdullo tarjimasi. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
3. Imom al-Buxoriy. al-Adab al-mufrad. T., O'zbekiston, 1990.
4. Imom al-Buxoriy. al-Jomi as-sahih. 4 jildlik. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.
5. Karomatov H.S. Arba'in hadis va qirq maqol. T., Fan. 1994.
6. Mirmahmudov N. Imom ad-Dorimiy // Hidoyat, 2000, № 8. B. 6.
7. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1998. 63 b.
8. Eshonjonov B. Imom al-Buxoriy – buyuk faqih // Imom al-Buxoriy saboqlari. T., 2000, № 1. B. 16-18.
9. Ибн Батта ал-ЪУкбари. Аш-Шарх ва-л-ибана ъала усул ас-сунна ва-д-дияна // Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. М., 1994. С. 87-99.

10. Ислам. Историографические очерки. Раздел 2. Хадисы и хадисная литература. М., 1991. С. 85-108.
11. Прозоров С.М. Арабская историческая литература в Ираке, Иране и Средней Азии в VII – середине X в. Шиитская историография. М., 1980.
12. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. М., 1985.
13. Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. М., 1994.
14. Guillaume A. The Traditions of Islam: An Introduction to the Study of the Hadith Literature. Oxford, 1924.
15. Juynboll G.H.A. Muslim Tradition/Studies in Chronology, Provenance and Authorship of Early Hadith. Cambridge, 1983.
16. Wensinck A.J. Concordance et indices de la tradition musulmane: Les six livres, le Musnad d'al-Darimi, le Muwatta' de Malik, le Musnad de Ahmad ibn Hanbal. Par A.J. Wensinck. 1-7. Leiden, 1936-1969.

ISLOM ILOHIYOTI

Islomda ilohiyot masalalari bo'yicha turli g'oyaviy mazhablar shakllandi.

Mu'tazila. Mu'taziliylik so'zi arabchadan olingan bo'lib, ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar degan ma'nolarni anglatadi. Mu'taziliylar – islomdagi aqidaviy firqalardan biri bo'lib, ular *qadariylar*, *ahl al-adl*, *ahl at-tavhid* va *va'idiylar* kabi nomlar bilan ham tanilganlar.

Mu'taziliylik maktabi VIII asrda Umaviylar xalifaligining oxirlarida vujudga kelib, Abbosiylar davrida katta e'tiborga ega bo'lgan firqadir. Abbosiy xalifalar al-Ma'mun, al-Mu'tasim va al-Vosiqlar davrida (813-847) rasmiy e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. Biroq al-Mutavakkil (847-861) davriga kelib mu'taziliylar ta'qibga uchradi.

Uning asoschisi Vosil ibn Ato (vaf. 748 y.)dir. U mashhur islom ilohiyotchisi va faqihi Hasan al-Basriy (vaf. 728 y.)ning shogirdlaridan bo'lgan. Kunlarning birida Hasan al-Basriy shogirdlariga dars berayotgan vaqtda bir odam kelib shunday dedi: «Zamonamizda bir toifa borki, ular katta gunoh qilgan insonlarni kofirga chiqaradilar va ikkinchi bir toifa borki, ular katta gunoh qilgan insonlarning imonlariga zarar etmaydi, deb e'tiqod qiladilar. Siz shunga nima deysiz?» Bu savolga Hasan al-Basriy javob berishga o'ylanib turganlarida, Vosil ibn Ato ustozidan oldin: «Men katta gunoh qilgan insonni kofir ham, mo'min ham deb hisoblamayman, balki u *al-manzila bayn al-manzilatayn*, ya'ni ikki manzil o'rtasidagi manzildadir, agar vafotidan oldin Allohga tavba qilmasa, do'zaxda abadiy qolajakdir», – dedi. Hasan al-Basriy esa ushbu savolga: «Ular munofiqlardir», deb javob berdi. Ustozining bunday javobidan qoniqmagan Vosil ibn Ato hamda Amr ibn Ubayd (vaf. 761 y.)lar uning davrasidan ajralib, mu'taziliylik firqasiga asos soldilar. Keyinchalik ular ta'limotlarini yoyish maqsadida Basra, Kufa, Bag'dod, Nasaf, Damashq va Misrga o'z targ'ibotchilarini yubordilar.

Mu'taziliylik firqasi dastlab «inson o'z amalini o'zi yaratadi», degan fikr bilan o'z ta'limotlarini boshlaganlar. Keyinchalik o'z e'tiqodlarini 5 asosda barpo qilganlar:

1. at-Tavhid (Allohning yagonaligiga e'tiqod qilish). Bu aqidaga asosan mu'taziliylar Allohni sherikdan, o'xshatishlardan pok, uning hukmiga hech kim qarshi chiqa olmaydi, insonlarda sodir bo'ladigan holatlardan hech biri unda sodir bo'lmaydi, deb biladilar. Ahl as-sunna quyidagi mavqelari uchun ularni tanqid qildilar: 1. Allohni oxiratda ko'rish mumkin emas. 2. Allohning sifatleri uning zotidan boshqa emas. 3. Qur'onning yaratilganligi.

2. al-Adl (adolat). Bunga ko'ra, Alloh bandalarning amallarini yaratmaydi, ularning buzilishlariga ham rozi bo'lmaydi, balki bandalarning o'zlari Alloh ularga bergan qudrat bilan buyurilgan ishlarini bajaradilar va qaytarilgan ishlaridan saqlanadilar. Alloh bandalarga faqatgina o'zi yaxshi ko'rgan amallarni buyuradi va ularni o'zi yomon ko'rgan barcha amallardan qaytaradi. Shuning uchun Alloh bandalar qiladigan barcha yomon amallardan pokdir. Ularni qurblari etmaydigan ishga buyurmaydi.

3. al-Va'd (solih amalga mukofot va'dasi) va-l-va'id (yomon amallarga jazo va'dasi). Ushbu aqidaga ko'ra, Alloh taolo bandalarning qilgan amallariga qarab ularga mukofot yoki jazo beradi. Katta gunoh qilgan bandalarni esa to tavba qilmagunlariga qadar kechirmaydi.

4. al-Manzila bayna-l-manzilatayn (mo''minlik va kofirlik orasidagi holat). Bunda zino, o'g'irlik, aroq ichish kabi katta gunoh qilgan banda mo''min ham bo'lmaydi, kofir ham bo'lmaydi, balki shu ikki daraja o'rtasida qoladi. Bu aqida mu'tazila asoschisi Vosil ibn Ato tomonidan belgilangan.

5. al-Amr bi-l-ma'ruf (yaxshilikka buyurish) va-n-nahy ani-l-munkar (yomonlikdan qaytarish). Mu'taziliylar ushbu qoidani islom diniga da'vat, adashganlarga yo'l ko'rsatish uchun barcha mo''minlarga vojib deb belgilaganlar. Har bir mo''min o'z imkoniyatidan kelib chiqib, bu vazifani bajarishi zarur: olim ilmi bilan, kotib qalami bilan, qilich sohibi qilichi bilan.

Mu'taziliylik e'tiqodiy masalalarni bayon qilishda aqlni naqldan ustun qo'yadi. Ular yunon va hind falsafasidan ta'sirlangan holda, har bir masalani aqlga tayanib echishga harakat qiladilar.

Hozirgi kunda mu'taziliylar maktabi mavjud emas. Biroq zamonaviy islom ilohiyotchilari orasida ularning fikr va g'oyalarini qo'llab-quvvatlovchilar bor.

Ahl as-sunna va-l-jamoa e'tiqodi. Kalom ilmi O'rta asrlarda diniy – falsafiy fikrlarni, dinning nazariy asoslarini o'rganish, islom aqidalariga e'tiqod qilish haqidagi bilimlarni jamlagan. E'tiqod qilinishi lozim bo'lgan diniy talablarga nisbatan aqliy mulohaza yurgazish jarayonida kalom maxsus bilimlar tizimi majmui sifatida vujudga keldi. Kalom (*Ilm al-kalom*) atamasi keng ma'noda o'rta asrlar – musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzularda (jumladan, nasroniylik va yahudiylik dinlarida ham) erkin fikr yuritishlarga nisbatan qo'llanilgan, tor ma'noda esa Qur'on va sunna ta'limotini aql-idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan.

Rastionalistik yo'nalish vakillari-mutakallimlar va faylasuflar orasidagi farq ular tahlil etadigan masalalarning boshqa-boshqaligida. Mutakallimlar ilohiyot

masalalari bilan shug'ullanadigan bo'lsalar, faylasuflar dunyo, jamiyat va insoniyat haqidagi g'oyalar dunyosini taelil etadilar.

Kalom ilmi dastlab islomda mavjud bo'lgan turli diniy-siyosiy firqalar (xavorijlar, qadariylar, jabariylar, murji'iyalar)ning o'zaro munozaralari va boshqa din (mazdakiylik, nasroniylik) vakillari bilan bahs jarayonida shakllandi. Ushbu tortishuvlarda Qur'on va sunna kabi islom manbalari asos qilib olindi. Shular asosida kalom ilmining dastlabki predmeti vujudga keldi: Allohning yagona vujudligi va uning sifatleri; *qazo* va *qadar* (inson taqdiri); o'tgan payg'ambarlar, shu jumladan, Muhammad payg'ambar elchiligi; qiyomat kuni va qayta tirilishga ishonish; musulmonlarning diniy hamda dunyoviy rahbarining (xalifa, imomlik) sifatleri kabi masalalar.

Islom tarixining dastlabki bosqichlarida jamiyatning diniy-huquqiy asoslarini turli dindagi xalqlarning milliy madaniyati tashkil qilar edi. O'zga dinlarda bo'lgani kabi islomning nazariy-huquqiy jihatleri keyingi asrlarda shakllana boshladi. Chunki ushbu din o'rta asrlarda o'z atrofiga arab bo'lmagan ajam xalqlarini ham birlashtirishga ulgurgan edi. Shu tufayli islomning diniy-huquqiy ta'limotini yaratishda bu dinni qabul qilgan turli millat va irq vakillarining manfaatlarini ham hisobga olish lozim edi. IX asr o'rtalariga kelib islomda yirik oqimlarni sunniylar, mu'tazila, murji'a, shialar va xavorijlar tashkil qildi.

Moturidiya. Abu Mansur al-Moturidiy o'z ta'sir kuchini asrlar osha saqlab qolgan ash'ariyadan keyingi ikkinchi sunniy kalom maktabining asoschisidir.

Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad al-Moturidiy taxminan 870 yilda yoki undan sal oldin tug'ilgan, degan xulosalar mavjud. U Samarqanddagi Moturid (yoki Moturit) mahallasida tug'ilgan. Al-Moturidiy Abu Bakr Ahmad al-Juzjoni, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy kabi fiqh va kalom olimlaridan dars olgan.

Al-Moturidiy uslub jihatidan mukammal kalom ta'limotini yaratdi. Uning fikrlari «Kitob at-tavhid» va «Kitob at-ta'vilot» asarlarida bayon etilib, bizgacha etib keldi.

Uning tafakkuri mavjud turli ta'limotlardan sintez yo'li bilan yangi nazariyani ishlab chiqishning noyob namunasidir. Al-Moturidiy Movarounnahrda ilohiyot taraqqiyotida burilish nuqtasini belgilab berdi. U asosan mu'taziliylar va dualistik dinlar vakillariga farshi g'oyat sog'lom va ehtiyotkor tarzda kurashib, o'ziga xos sintez ilohiyotining asosini yaratdi.

Uning shogirdlari – Abu-l-Hasan Ali ibn Sa'id ar-Rustufag'niy, Abu Ahmad al-Iyodiy, Abdulkarim al-Pazdaviy va Abu Isma al-Buxoriylar.

Hanafiya mazhabi ilohiyotini bayon etib bergan al-Moturidiy va uning shogirdlari mazkur sohada ko'plab asarlar yozdilar.

Al-Moturidiy Abu Hanifaning «ar-Risola ilo Usmon al-Battiy», Abu Muti' al-Balxiyning «al-Fiqh al-absat», Abu Muqotil as-Samarqandiyning «al-Olim va-l-muta'allim» kitoblaridagi ta'limotni an'anaviy ta'riflar yordamida qaytarish va ta'kidlash bilangina cheklanmaydi. U o'zi so'z yuritayotgan masalalarni asoslab berishga intiladi, imkon bor erda, bir fikrni ikkinchisidan keltirib chiqarishga harakat qiladi. U aniq tarkibga ega bo'lgan epistemologiya, ya'ni bilish nazariyasiga ega ediki, uning yordamida olim o'z fikrlarini tahlil etar hamda bilishning turli manbalarini anglab, ular haqida so'z yuritar edi. Uning usuli

muhim masalalarda doimo (qarama-qarshi ilohiy qarashlar o'rtasida) oraliq yo'lni tanlashni hamda turli da'volar (*vahy* va aql, Alloh va inson, Alloh va olam) o'rtasida mantiqiy mutanosiblik mavjud bo'lishini taqozo etadi. Biror diniy hukm chiqarish lozim bo'lgan hollarda al-Moturidiy turli jihatlar mutanosibligi talabini amalga kiritgan.

Al-Moturidiy 333 hijriy/944-45 milodiy yil Samarqandda vafot etgan bo'lib, ulamolar qo'yiladigan Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.

Ash'ariya. Ash'ariya islomdagi ahl as-sunna va-l-jamoa doirasidagi ikki yirik e'tiqodiy maktabning biridir. Uning asoschisi basralik Abu-l-Hasan Ali ibn Ismoil al-Ash'ariydir. U birinchilardan bo'lib kalom bilan islom aqidalarini uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Abu-l-Hasan al-Ash'ariy ta'limotini asoslashda sunniylikdagi to'rt mazhabning ikkisi – shofi'iya va molikiyaga suyanar edi. Shuningdek, u kalom borasida turli xil ziddiyatlar orasida faoliyat ko'rsatganligi ma'lum. Uning hayotini uch yoki ikki bosqichga bo'lish mumkin:

1) mu'tazila maktabining vakili Abu Ali al-Jubbo'iydan ta'lim olib, 40 yil ushbu ta'limot tarafdori sifatida o'tgan hayoti;

2) 912-13 yil mu'taziladan ajralib chiqib, o'zi uchun yangi yo'l topgan davrdagi hayoti.

Abu-l-Hasan al-Ash'ariy bu borada ko'p asarlar tasnif etgan bo'lib, ularning asosiylari «Maqolot al-islomiyin» va «al-Luma'» kitoblaridir. U 934-35 yili Bag'dodda vafot etdi.

Al-Ash'ariy al-Moturidiydan farqli o'laroq, bilish nazariyasi, olamning tuzilishi, Allohning zoti va ta'siri, insonga taqdim etilgan xatti-harakat maslalarida boshqacha mulohaza yuritgan. Ash'ariya ilohiyoti o'z nazariyasiga eng ifodali, hatto aytish mumkinki, radikal ta'rif izlagan. U kalomni va uning dalillash shakllarini yuksak darajada biladi. Ammo al-Ash'ariy ulardan mohiyat e'tibori bilan sunniy an'anaviychiligiga muvofiq keluvchi fikrlarni himoya qilish maqsadida foydalanadi.

Ash'ariylarning asosiy tayanadigan manbalari Qur'oni karim, sunna va kalom ilmi qoidalaridir. Ular ohod hadislarga aqida bobida tayanmaydilar.

Ular Allohning zoti haqida shunday e'tiqod qiladilar:

- Allohning birligi, uning tengi va o'xshashi yo'qligi;
- Qur'onda zikr qilingan Allohning «yuzi», «ikki qo'li», «ko'zi» kabi so'zlarning o'ziga xos talqini (*ta'vili*) mavjudligi;
- inson balog'atga etganda uning avvalgi vazifasi fikrlash, so'ngra esa imon keltirish ekanligi;
- imon va toat – Allohning tavfiqi bilan, kofir bo'lish va gunohkorlik esa Allohning xor qilishi sababidan ekanligi;
- Allohni qiyomatda ko'z bilan ko'rish mumkinligi;
- *gunohi kabira* qilgan inson *tavbasiz* vafot etsa, uning hukmi Allohga havola ekanligi;
- oxirat, qayta tirilish, mahshar, tarozi, sirot ko'prigi, shafuat, jannat, do'zax va shu kabi g'aybiy narsalarga imon keltirish shartligi;
- sahobalar barcha ishlarini ummatning manfaatini ko'zlab qilganliklari uchun ular haqida yomon so'z aytish mumkin emasligi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Ilohiyot fanida aqliy (rastionalistik) va naqliy (an'anaviychilik) fikrlash uslublari o'rtasida qanday farq bor?
2. Shialik, xavorij va sunniylik ilohiyotida qanday asosiy farqlar mavjud?
3. Moturidiya ta'limotida qanday fikrlar asosiy?
4. Ash'ariya ta'limotining Moturidiyadan farqi nimada?
5. Madaniyatda ilohiyot qanday o'rin tutadi?

Adabiyotlar

1. Ziyodov Sh. Al-Moturidiy hayoti va mYerosi. T., 2000.
2. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. T., Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001.
3. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti (qisqartirilgan nashr). T., Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002.
4. Ислам. Энциклопедический словарь. М., 1991. С. 32-33, 128-129, 161.
5. Gardet L., Anawati G.C. Introduction à la théologie musulmane. Essai de théologie comparée. Paris, 1948.
6. Ibrahim T., Sagadeev A. Classical Islamic Philosophy. Moscow, 1990.
7. Nagel T. Geschichte der islamischen Theologie. Von Mohammed bis zur Gegenwart. München, 1994.
8. van Ess J. Theologie und Gesellschaft im 2. Und 3. Jahrhundert Hidschra. Eine Geschichte des religiösen Denkens im frühen Islam. I-VI. Berlin, New York, 1991-1996.
9. Watt W.M. Islamic Philosophy and Theology. Edinburgh, 1962.

FIQH

Fiqh fani o'ziga xos fan bo'lib, u birinchi navbatda din masalalarini o'z ichiga oladi. Lug'atda «al-fiqh» so'zi «aql ila anglamoq, tushunmoq» ma'nolarini beradi. Istilohda esa u «islom huquqi»ni anglatadi. Fiqh fani – G'arbda Islamic Law, Muslim Law (ingliz tilida), le Droit musulman (franstuz tilida), islamische Gesetz (nemis tilida) kabi nomlar bilan yuritiladi. Dunyoviy huquq normalaridan farqli o'laroq fiqh o'z ichiga ko'proq ibodat masalalarini ham qamrab oladi. Buni Tavrot kitobining ibodat masalalarini jamlab olgan Talmudga qiyoslash mumkin. Shuningdek, fiqhda fuqaroviy jamiyatdagi kishilar o'rtasidagi ba'zi mulkiy, grajdanlik va boshqa masalalar ham ko'riladi. Bu esa, o'z navbatida, fiqhni yurisprudenstiyaga yaqinlashtiradi. Aynan shu jihat davlat huquqi tarixini o'rganuvchilar bilan diniy huquqni tadqiq etuvchi islomshunoslar orasida turli talqinlarni keltirib chiqarmoqda.

Fiqh ilmining musulmonlar uchun amaliy diniy qoidalarni ishlab chiquvchi «furu' al-fiqh» («fiqh tarmoqlari») va sakral manbalardan amaliy qoidalarni chiqarish (*istinbot*) uslublarni tadqiq etuvchi «usul al-fiqh» («fiqh asoslari») degan asosiy sohalari mavjud.

Fiqh ilmi *ummaning* olim kishilari orasida shakllana boshladi. Avval u *Ilohiy Kitobni* aqliy tushunish va izoh berishni anglatgan. Bu ma'noda ilk davrda *fiqh* (aqliy tushunish) *'ilm* (naqliy tushunish) ning aksini bildirgan. Asta-sekin islomning amaliy masalalaridan bahs etuvchi fan shakllanib, unga *'ilm al-fiqh* nomi berildi. Payg'ambar vafotidan keyingi davrda arab davlati hududlari tez sur'atlar bilan kengaya bordi. Uning tarkibiga Andalus (Ispaniya), Shimoliy Afrika, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa o'lkalar kiritildi. Fiqhning mintaqaviy maktablarida islom amaliyoti masalalari tezlik bilan ishlab chiqila boshlandi. Ularning an'analari o'zlari faoliyat olib borayotgan muhit va mahalliy madaniyat ta'siri ostida bir-biridan farq qilar edi. Bir-biridan uzoq bo'lgan erlarda mustaqil fiqh markazlari paydo bo'ldi. Ular orasida katta arab qo'shinlari turgan Iroq (Kufa, Basra), Misr, Shom, Hijozning (Madina, Makka) ahamiyati yuqori bo'ldi. Mazkur mahalliy markazlarning urf-odatlar, ehtiyoj va shart-sharoitlari turlicha edi. Yangi ko'tarilgan masalalarga kirishilganda (*ijtihad*), har bir faqih turli echim (*fatvo*) qabul qilardi. Bularning barisi ma'lum o'lkalarda turli mazhablarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Ilk rivojlanish davrida fiqhga doir bo'lgan masalalar miqyosi, ularni muayyan boblar va fasllarga bo'lib o'rganish an'analari shakllanib ulgurdi. Shu davrning o'zidayoq fiqh islom fanlari orasida o'z o'rnini oldi.

Muhaddislar (tradistionalizm) harakatining boshlanishi fiqh ilmining rivojlanishida yangi davrni ochib berdi. Faqat Payg'ambardan maxsus texnika (muhaddislar texnikasi) asosida naql qilingan xabargina muqaddas (diniy) ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikr diniy ilmlar sohasida eski qoidalarni zudlik bilan o'zgartirdi. Tradistionalizmning VIII asr mobaynida kuchayib borishi kalom va fiqh sohasida keskin burilish yasadi. Bundan avval qabul qilingan qoidalar yangi talablar asosida ko'rib chiqishni taqozo etdi. Bu ishlarni amalga oshirishda ash-Shofi'iyning «ar-Risola» asari muhim rolni o'ynadi. Unda *naqliy* va *aqliy* uslublar, muqaddas matnlar o'zaro munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qiluvchi metodologiya asoslanib berildi. Bu bilan usul al-fiqh fani dunyoga keldi. «Ar-Risola» fiqh olimlari orasida shu davrgacha olib borilgan «Ahl al-hadis» va «Ahl ar-ra'y» guruhlarining ziddiyat va ixtiloflariga barham berdi. Mintaqaviy maktablardan personalashgan mazhablarga o'tish boshlandi. IX – X asrlarda muayyan sunniy mazhablarning soni kamayib, XII – XIII asrlarda ulamolarning o'zaro kelishuvi (*ijmo'*) asosida ular to'rtta deb e'lon qilindi. Shu bilan bir qatorda *ijtihad darvozalari* yopilganligi haqidagi noreal fikr ham tarqatildi.

Hanafiya mazhabi. Mazhab eponimi Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit al-Kufiy (699-767) hisoblanadi. Ammo mazhabni shakllantirishda uning o'quvchilari Abu Yusuf (vaf. 798 y.) va Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniylarning (vaf. 804-05 y.) xizmati kattadir. Umumislomiy masalalarda mazhablar o'rtasida katta farqlarni uchratmasak-da, shu bilan birga xususiy masalalarning qariyb hammasida o'ziga xos qoidalar mavjudligini ko'ramiz. Shu sababli boshqa mazhablar bilan qiyosan hanafiya mazhabiga xos bo'lgan jihatlarni sanab o'tirishga hojat yo'q.

Hanafiya mazhabi, asosan, Albaniya, Bosniya va Gerstegovina, Turkiya, Suriya, Iroq, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Turkmaniston,

O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya, Jibuti, Eritreya mamlakatlarida keng tarqalgan. Hanafiya mazhabi rivojida O'rta Osiyo (Movarounnahr) faqihlarining o'rni beqiyosdir. X-XII asrlar davomida Yaqin Sharq mamlakatlarida shialik tazyiqi ostida so'nib borgan hanafiy markazlarni Saljuqiylar, Usmoniylar imperatorligi davrida aynan Movarounnahr hanafiylari qaytadan tikladilar. Ular barcha yangi markazlar uchun ustoz bo'lib qoldilar.

Molikiya mazhabi. Mazhab asoschisining to'liq ismi Molik ibn Anas ibn Molik ibn Abi Omir al-Asbahiydir. Imom Molik 93/711-12 yili Madinada tug'ilgan. Uning mashhur asarlari orasida «al-Muvatto» bor.

Molikiya mazhabi ko'proq Misr, Sudan, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash, Mavritaniya, Fuvayt, Bahraynda tarqalgan.

Shofi'iya mazhabi. Asoschisining to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon ibn Shofi' al-Hoshimiy al-Muttalibiy. U 767 yilda Falastin diyorida tavallud topgan. Imom Shofi'iy 800 yilda shia mazhabini qabul qilgan deb ayblanib, Iroqqa surgun qilindi. Iroqda Imom Shofi'iy Abu Hanifaning shogirdlaridan Imom Muhammad ash-Shayboniy va boshqa Iroq faqihlari bilan uchrashib, ular bilan ilmiy munozaralar o'tkazdi. U 814-15 yili Misrga kelib, u erda o'z ilmiy faoliyatini davom ettirdi. U bu erda o'z mazhabining asosini tashkil qilgan «al-Umm» asarini yozdi. Imom Shofi'iy 820 yili Misrda vafot etdi. Uning shogirdlari orasida Ismoil ibn Yahyo al-Muzaniy, Abu Ya'qub Yusuf ibn Yahyo al-Buvaytiylarning nomlarini alohida qayd etish o'rinli.

Shofi'iya mazhabi Suriya, Livan, Falastin, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Yaman, Misr, Somali, Komor va Maldiv orollari, Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Bruney sultonligida tarqalgan.

Hanbaliya mazhabi. Mazhabning eponimi – Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal 780 yili Bag'dod shahrida tug'ilgan. Ibn Hanbal faoliyati an'anachilar ilohiyoti bilan mu'tazila orasidagi g'oyaviy kurashning avjiga chiqqan (Qur'oni karimni *maxluq*, ya'ni yaratilgan degan aqidani hokimiyat tarafidan xalqqa kuch bilan singdirish bilan bog'liq *mihna* – «sinov») davriga to'g'ri keldi. Boshqa olimlar qatori Ibn Hanbal ham quvg'inga uchrab, 833 yilda hibsga olindi. U hadis ilmida «al-Musnad» asarini yozdi. Olimning shogirdlari Ibn Hanbal ta'limotini rivojlantirib, keyinchalik fiqhiy mazhab darajasiga olib chiqdilar. Hanbaliya mazhabi hozirgi kunda Saudiya Arabistoni, Qatar, Bahrayn kabi davlatlarda tarqalgan.

VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida Movarounnahrda hanafiya mazhabi tarqala boshladi. Buxoro va Samarqand shaharlarida shu mazhab ta'limoti asosida Movarounnahr fiqh maktabi tarkib topdi. Movarounnahrlik faqihlar teran bilimlari, qimmatli asarlari bilan islom dunyosida katta shuhrat qozondilar. Faqihlarning davlat hukmron doiralari, xalq ommasiga ta'siri juda kuchli edi. Diniy hayotda uchraydigan muammoli masalalar faqihlar orqali echilgan. Fiqh shaxs, oila va jamiyat hayoti turli shahobchalari masalalarini qamrab olganligi tufayli Movarounnahr maktabi namoyandalari bu o'lka xalqlari an'analari, urf-odatlarini umumislom mavqelaridan turib tahlil qilishdek vazifani bajarganlar. Movarounnahrlik faqihlarning bir necha avlodlari faoliyati orqali mahalliy xalqlarning tarixiy, huquqiy an'analari islom madaniyatida o'z aksini topdi.

VIII – X asrlarda Movarounnahrning ayrim shaharlarida hanafiylikka asoslangan ilmiy markazlar paydo bo'ldi. Buxoro maktabiga Abu Hafs Ahmad ibn Hafs al-Kabir al-Buxoriy (vaf. 832 y.) asos solgan. Samarqand ilmiy markazining shakllanishiga Abu Muqotil as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Juzjoni, al-Atakiylarning ta'siri katta bo'ldi. Buxoro faqihlari bu davrda asosan fiqhning amaliy masalalari (furu' al-fiqh) bilan, samarqandliklar esa o'z ilmiy faoliyatlarini ilohiyot (usul ad-din) mavzui bilan shug'ullanishga qaratdilar.

XI – XIII asrlarga kelib, fiqh rivoji yuksak pog'onaga ko'tarildi. Qoraxoniylar (999-1212) davri faqihlari umumislom darajasida shoh asarlar yaratib, hanafiya mazhabi klassiklari mavqeiga erishdilar. Haqiqatan ham Movarounnahr hanafiy mazhabining «qal'asi» edi, desak adashmaymiz. Sadrlar, ar-Rig'damuniy, az-Zaranjariy, al-Mahbubiy, as-Saffor, al-Pazdaviy, Samarqand sayyidlari, al-Xayzoxaziy, al-Aqiliy, al-Marg'inoniy oilalari ilm va ijtimoiy hayotda kuchli mavqega ega bo'ldilar.

XI – XII asrlarda faoliyat olib borgan Movarounnahr faqihlaridan Abu Zayd ad-Dabusiy (vaf. 1037 y. dan avval), al-Halvo'iy (vaf. 1056 y.), as-Saraxsiy (vaf. 1088-1089 y.), al-Pazdaviy (vaf. 1089 y.), as-Sadr ash-Shahid (vaf. 1141 y.), Abu Hafs an-Nasafiy (vaf. 1142 y.), Alo' ad-din as-Samarqandiy (vaf. 1144-45 y.), Burhon ad-din al-Kabir al-Buxoriy (vaf. 1174-75 y.), al-Attobiy (vaf. 1190 y.), al-Kosoni (vaf. 1191 y.), Qozixon (vaf. 1196 y.) va Burhon ad-din al-Marg'inoniy (vaf. 1197 y.) kabi ma'lum va mashhur faqihlarning nomlarini keltirish mumkin.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. «Fiqh» istilohining shakllanishini tushuntirib bering.
2. Fiqh ilmi nimalar bilan shug'ullanadi?
3. Usul al-fiqhning ob'ekti nima?
4. Ilk fiqh maktablari qachon vujudga keldi?
5. *Ijtihad* qilish huquqi kimlarga beriladi?
6. Qanday fiqhiy mazhablar mavjud?
7. Movarounnahr fiqh maktabining asosiy namoyandalari kimlar?

Adabiyotlar

1. Juzjoni A.Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. T., Toshkent islom univ'ersiteti, 2002.
2. Mo'minov A. Imom-i A'zam Abu Hanifa // Muloqot, № 7-8, 1994, B. 37-40.
3. Mo'minov A. Movarounnahr ulamolari: hanafiylar // Sharqshunoslik, № 9, 1999. B. 40-44.
4. Qodirov Z. Imom A'zam hayot yo'li va fiqh usullari. T., Movarounnahr 1999.
5. Абу Йусуф Йа'куб Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж. Санкт-Петербург, 2001.
6. Ислам. Энциклопедический словарь. М., 1991. С. 254-259.
7. Сюкияйнен Л.Р. Мусульманское право: Вопросы теории и практики. М., 1986.
8. Goldziher I. Introduction to Islamic Theology and Law. Princeton, 1981.

9. Hallaq W. A History of Islamic Legal Theories. An Introduction to Sunni Usul al-Fiqh. Cambridge, 1997.
10. Schacht J. An Introduction to Islamic Law by Joseph Schacht. Oxford, 1964.
11. Schacht J. The Origins of Muhammadan Jurisprudence. Oxford, 1950.

ISLOMDAGI OQIMLAR

Xavorijlar. Usmon ibn Affon (644-656) davriga kelib islom jamoasi (*umma*) ichida fitnalar paydo bo'ldi. Usmonga uyushtirilgan suiqasd (656 y.) ham ana shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa o'ldirilgach, uning o'rniga o'z tarafdorlari tomonidan Ali ibn Abi Tolib (656-661) saylandi. Ana shu davrdan *umma*-davlat ichida birinchi fuqarolar urushi boshlanadi (656-660).

Talha ibn Ubaydulloh, az-Zubayr ibn al-Avomm va Mu'oviya ibn Abi Sufyon kabi guruh rahbarlari Aliga qarshi chiqib, bu holatni shunday talqin qildilar: «Ali qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda Usmonga yordam bermadi, qodir bo'la turib odamlarni bu ishdan qaytarmadi, bundan tashqari u xalifalik mansabiga ko'tarilganidan keyin Ibn Affonning qasosini olmadi, balki u Usmonni qatl etilishidan manfaatdor bo'ldi».

Bu uch sahobaning bu fikrga kelishlariga har birining xalifalikka Alidan ko'ra o'zini loyiqroq deb hisoblashi turtki bo'ldi. Ular o'z da'volari haq ekanligini turli yo'llar bilan isbotlardilar: Talha va az-Zubayr «Umar (634-644) vafotidan oldin xalifa saylash xususida kengashga (*sho'ro*) chaqirilgan olti kishidan birimiz» deyishsa, Mu'oviya esa Usmonga yaqin qarindosh (ularning ikkisi ham Quraysh qabilasining Umayya urug'idan edilar) va uning qasosini olishga loyiq ekanligini ro'kach qildi.

Talha va az-Zubayr «al-Jamal» («*Tuya*») jangida halok bo'ldilar. Shundan so'ng Ali o'rniga xalifalikka da'vogarlardan birgina Mu'oviya ibn Abi Sufyon (660-680) qoldi. 657 yili Suriyada Mu'oviya va Ali o'rtasida bo'lib o'tgan Siffin jangi Ali tarafdorlarining ikki guruhga ajralib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu jangda Ali ibn Abi Tolib qarshi tomon (Umaviylar, 660-749) bilan o'zaro bitim tuzib, urushni to'xtatishga rozi bo'ldi. Alining tutgan bunday murosasozlik siyosatidan uning qo'shini orasidagi bir guruh kishilar norozi bo'lib ajralib chiqdilar. Aliga itoat etishdan bosh tortganlar «xavorij» deb, Mu'oviyaga qo'shilmay Ali atrofiga to'planganlar, keyinchalik, «shia» deb nomlana boshlandi. Bu guruhlar islomdagi ikki katta oqimga asos soldilar. O'z navbatida har bir toifaning o'ziga xos diniy-siyosiy nuqtai nazarlari, ta'limot va amaliyotlari shakllana boshladi.

Xavorijning kelib chiqishi. Ali bilan Mu'oviya o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning qo'lidadir», degan shior bilan qo'shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog'iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xypyj» (bo'ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo'ldi. Bu voqea Harura qishlog'ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o'zlarini «Shurot» («Jonlarini Alloh yo'lida tikkan kishilar») deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning qo'lida» deguvchilar) degan nomlari ham bo'lgan.

Xavorijlar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyini *amir* etib saylab, Ali va Mu'oviyani yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini 660 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o'lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749-1258) qo'liga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi.

Xavorijlar ta'limotlari asosi quyidagilardan iborat:

- ular gunohkorni «kofir» deb e'lon qildilar. Shunga ko'ra xalifa Usmonni Abu Bakr va Umar yo'lidan yurmagan uchun kofir deyishadi. Ali, Mu'oviya, Abu Muso al-Ash'ariy, Amr ibn al-Oslar muxolif guruhlarda qatnashganlari uchun ular nazdida kofirlar;

- «zolim» podshohga qo'lda qilich bilan qarshi chiqishni diniy vazifa (*vojib*) deb biladilar. O'z e'tiqodini yashirish tamoyili (*taqiya*) rad etadilar. O'zlari harbiy jihatdan zaif bo'lsalar ham, qudratli «zolim» podshohga qarshi chiqish *vojib* bo'laveradi, deb hisobladilar;

- xalifalikka har qanday odam, Quraysh qabilasidan yoki arab bo'lishligidan qat'i nazar, musulmonlar tomonidan saylanishi mumkin. Xalifalik, shialar aytganidek, ma'lum jamoat (sulola) ichida cheklanmagan;

- namoz, ro'za, zakot va boshqa amallarni imonning bir bo'lagi, deb hisoblaydilar. Kishi to barcha amallarni bajarmaguncha, dili bilan tasdiqlab, tili bilan aytishi musulmon deb tan olinishi uchun kifoya emas.

Xavorij oqimlari. VII asr ikkinchi yarmida xavorijlar orasida yigirmaga yaqin turli guruhlar paydo bo'ldi. Ular ichida eng yiriklari – ibodiylar, azoriqalar hamda sufriylar bo'lib, o'z yo'lboshchilari nomi bilan shunday atalganlar.

Ibodiya. Ibodiya boshqa xavorij guruhlari orasida eng mo'tadili hisoblanib, bizning davrimizgacha saqlanib qolgan yagona xavorij firqasidir. Bu mazhabning asoschisi umaviy xalifa Abdulmalik ibn Marvon (685-705) davrida vafot etgan Abdulloh ibn Ibod (yoki Abod)dir. Mazkur mazhabning ta'limoti mo'tadil bo'lib, u qolgan musulmonlar bilan qiz olib-qiz berishdan, ular bilan meros ulashishdan qaytarmaydi. Shuningdek, ularning ta'limoti hujjat va isbot keltirib e'lon qilgandan so'nggina boshqa musulmonlarga qarshi urush ochishga ijozat beradi. Buning aksi o'laroq boshqa xavorijlar esa o'zlaridan boshqa oqimdagi musulmonlardan uylanishni, ular so'ygan hayvon go'shtini eyishni, ular bilan o'zaro meros ulashishni man etib, e'lonsiz ularga qarshi urush ochishni joiz deb bilishadi. Gunohi *kabira* (katta gunoh) qilgan odamni kofir deb, tovon (*jizya*) to'lab yurgan boshqa din vakillarini (*ahl az-zimma*) o'ldirishni va mol-mulkini tortib olishni mumkin deb bilishadi.

Al-Ibodiya fiqhiy mazhabi ahl as-sunna mazhabi bilan ko'plab amaliy diniy masalalarda (*furu'*) o'zaro kelishadi. Bu mazhabning ta'limoti ko'plab qo'lyozma va bosma kitoblarda jamlangan. Eng muhim chop etilgan kitobi Muhammad ibn

Azraqiylar. Azraqiylar (Azoriqa) guruhining asoschisi Nofi' ibn al-Azraqdir (vaf. 685 y.). Xavorij guruhлари orasida eng muhosasiz va beshafqat sanalgan bu jamoa hozirgi kungacha etib kelmagan.

xalifa Alini «kofir» deb hisoblaganlar; -

gunohi *kabira* qilgan musulmonlarni *kofir* deb e'lon qilganlar; -

azoriqalardan bo'lmagan musulmonlar, ularning qariyalari, ayol va bolalari - qonini to'kishni (*istiroda*) *halol* deb hisoblaganlar;

qonini to'kishni (*istiroda*) *halol* deb hisoblaganlar;

hayz ko'rgan ayollarga ham namoz o'qish va ro'za tutishni farz deb hisoblaganlar;

mayda o'g'rilik uchun ham qo'lni butunlay elkadan kesib tashlashni - buyurganlar.

Sufriya. Sufriya ham xavorijlarning bir guruhi bo'lib, Ziyod ibn al-Asfar degan kishi nomidan shunday deb ataldi.

Sufriylar ta'limoti o'zining nisbatan mo'tadilligi bilan ajralib turadi. Bu guruhning ajralib chiqishiga xavorijlar orasida ko'tarilgan *imon* masalasidagi tortishuvlar sabab bo'lgan. Ular azoriqadan farqli o'laroq qo'zg'olonlarda qatnashmagan o'z dindoshlarini kofirga chiqarmaganlar. Raqiblarning qariya, ayol va bolalarini o'ldirishdan qaytarganlar. Ongli ravishda *taqiyaga* – o'z imonini amalda emas, faqat og'zaki ravishda yashirishga yo'l berganlar. Bu firqa

VIII asrgacha o'z faoliyatini davom ettirganligi haqida ma'lumotlar bor.

Shialik. Shialik islomdagi uch yirik oqimdan biri bo'lib, hokimiyat masalasida islom jamoasida paydo bo'lgan ixtilof natijasida vujudga kelgan.

Shia soʻzining toʻliq shakli «*ash-shiʻa*» («tarafdorlar, guruh, partiya»), aniqrogʻi «*Shiʻat Ali*» («Ali tarafdorlari partiyasi») boʻlib, bu nom xalifa Ali (656-661) va uning avlodlariga ergashganlarga nisbatan berilgan.

Shialikda imomat masalasi asosiy diniy *ruknlardan* hisoblanadi. Imomat jamiyat manfaatlaridan emas, balki din *ruknlaridan* kelib chiqadi, deb e'tiqod qilinadi. Ularning ta'limotiga ko'ra, rahbar jamoa tomonidan saylanmay, balki u meros sifatida o'tadi. Mazkur ta'limotga binoan, Muhammad payg'ambar Alini xalifa etib tayinlagan, undan keyin esa xalifalik uning avlodlarida qonuniy meros sifatida vasiyat yo'li bilan uzatiladi. Imomlik (xalifalik) payg'ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanib, Alloh bandalari orasidan payg'ambarlarini tanlab, ularni gunohlardan saqlagani va ularga *ilmi ladun* (Alloh huzuridan berilgan ilm) bergani kabi xalifalarni ham shunday tanlaydi deyiladi. Abu Bakr, Umar va Usmonlar esa bu huquqni Alidan zo'rlik bilan tortib olishgan. Alining xalifaligi Payg'ambar vafotining birinchi kunidan boshlangan, deb hisoblaydilar.

Ash-Shahrastoniyy (vaf. 1153 y.) iborasi bilan aytganda: «Shialarning e'tiqodiga ko'ra, Alining imomligi va xalifaligiga oshkora va maxfiy dalillar kelgan hamda undan keyingi imomlik uning avlodlaridan tashqariga chiqmaydi, agarda chiqsa ham, bu ularga zulm qilish yo'li bilan oshirilishi mumkin».

Shialar aynan imomat masalasida o'zaro bir necha firqalarga bo'linib ketganlar.

Zaydiya. Zaydiya firqasining asoschisi Zayd ibn Ali Zayn al-obidin (698-740) Madinada tug'ilgan. Imom Zayd otasi qo'lida tahsil oladi. Otasining vafotidan so'ng diniy ilmlarni akasi Muhammad Boqirdan o'rganadi. Shuningdek, o'z tengqurlaridan bo'lgan Ja'far as-Sodiqdan hadis va fiqh ilmlarini o'rgandi. Zayd ibn Ali ilm yo'lida Basraga borib, mu'tazila, qadariya, jahmiya va boshqa turli firqalar aqidalari asoslarini o'rgandi. U vaqtda Basra va Kufada mazkur firqalar kabi xristian va fors falsafasidan ta'sirlangan oqimlar ko'p edi. Bu erda Vosil ibn Ato (mu'tazila kalom maktabi asoschisi)dan aqida ilmini mukammal egallagach, o'zi uchun mu'taziliylar yo'lini tanladi.

Keyinchalik Zayd ibn Ali *imomat* masalasida o'rta yo'lni tanladi. Uning fikriga ko'ra, imomlik bir shaxs tomonidan tayin qilinmaydi va u o'z avlodlariga imomlikni vasiyat ham qilmaydi, balki Fotimaning zurriyotidan bo'lgan shijoatli, mujtahid, haqiqatni baralla aytuvchi kishi saylanadi.

Zaydiylar e'tiqodiga ko'ra:

- bir vaqtning o'zida ikki o'lkada ikki imomga bay'at qilish joiz;
- imomlar begunoh emas, *taqiya* (sharoit og'irlashgan paytda e'tiqodni sir tutish) nojoiz;
- sahobalar haqida nолоyiq so'zlarni aytish mumkin emas;
- Abu Bakr, Umar va Usmonlar ham xalifalikka loyiq bo'lganlar.

Zayd ibn Alining tutgan siyosiy mavqei mazkur e'tiqod paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. U Umaviylarga qarshi urush ochdi va Kufada xalifa etib saylandi. Uning fikricha, xalifalik faqat ma'lum kishilargagina (masalan, Imom Muhammad al-Boqir) emas, balki Fotimaning ikki o'g'li al-Hasan va al-Husayn avlodlaridan bo'lgan har bir olim, taqvodor, shijoatli, urushga qodir, podshohga qarshi chiqqan kishiga o'tishi hamda u xalifa etib saylanishi mumkin.

Imom Zayd ibn Alining «al-Majmu'» nomli kitobida bayon etgan fikrlari zaydiya fiqhining asosini tashkil qiladi. U ham boshqa mazhab faqihlari kabi birinchi o'rinda Qur'onni, keyin esa sunna, ijmo', qiyos, istihson, so'ngra esa aqlni shariat asoslaridan deb hisoblaydi.

Zaydiya fiqhining o'ziga xos tomonlari quyidagilar:

- ahl al-kitob (samoviy kitobga ega bo'lgan boshqa din vakillari: yahudiylar, xristianlar, sobilar) tomonidan so'yilgan hayvon go'shtini eyish, lekin ular bilan quda-andachilik qilish harom;
- mahsi (oyoq kiyim)ga mash tortish joiz emas.

Zaydiya mazhabiga mansub asosiy manbalar – Zayd ibn Alining «al-Majmu'» asari va unga sharh sifatida yozilgan Sharafaddin al-Husayn ibn Ahmadning «ar-Ravd an-nodir» kitobi hisoblanadi. Zaydiylar Shimoliy Afrikada Idrisiylar (789-926), Tabaristonda Zaydiylar (863-928), Yaman (901-1962) davlatlariga asos solganlar.

Zaydiya firqasi vakillari hozirgi kunda Yaman Arab Respublikasi, Saudiya Arabistonida, Pokistonda yashaydilar. Bu firqa bir necha mayda firqachalarga bo'lingan. Ular orasidan jorudiya, sulaymoniya, butriya (solihiya), qosimiya, nosiriya, hoduviyalarni zikr etish mumkin.

Isno'ashariya. Ushbu firqa e'tiqodicha, 12 imomlik (isno'ashariya) Ali ibn Abi Tolibdan boshlanadi, so'ng uning Fotimadan bo'lgan o'g'illari al-Hasan va al-Husaynga o'tadi va nihoyat 12-imom Muhammad al-Mahdiyga borib tugaydi.

Shuning uchun bu firqa isno'ashariylar – «o'n ikki imomni e'tirof qiluvchilar» deb nomlangan.

Isno'ashariylarning e'tiqod qilishicha, o'n ikkinchi imom Muhammad al-Mahdiy hali o'lmagan, balki u 873-74 sanada g'oyib bo'lgan va oxir-zamonda paydo bo'lib, zulm va fasodga to'lgan er yuzini tinchlik va adolatga to'ldiradi. Ular imomlarni xato va gunohdan *ma'sum* (pok) deb hisoblaydilar. Bunga sabab, ularning fikricha, imomlarga *ilohiy ilhom* keladi yoki Payg'ambar o'z zamonida bayon etishlariga hojat bo'lmagan ahkomlar ilmini ularga qoldirganlar. Shu bois ular imomga imon keltirishni musulmonlik shartlaridan biri deb hisoblaydilar. Ular imomga shunday tavsif beradilar: «Imom xatodan, adashishdan yiroq bo'lgan, to'g'ri yo'ldagi, taqvoli va Alloh qo'llagan *ma'sum* kishidir. Alloh va bandalarining o'rtasida hujjat bo'lishi uchun Alloh ularga shu xususiyatlarni berdi».

Isno'ashariylar imomlarning maqomlari xususida turli fikrlar bildirganlar. Ba'zilar Alini Payg'ambardan afzal deb e'tiqod qiladilar hamda Ali va uning o'n bir avlodi insonlarga rizq berib turadi. Ular Payg'ambardan keyingi Allohning hujjatlaridir. Ularning buyruqlari Payg'ambarning buyrug'i, *nahy*(taqiq)lari Payg'ambarning nahyisi, ularga itoat qilish – Payg'ambarga itoat qilish, ularga bo'ysunmaslik – Payg'ambarga isyon qilish, degan fikrlarni bildiradilar. Ularning jasadlari nuroniyliklari sababidan qabrlarda chirimaydi yoki ba'zilarining e'tiqodiga ko'ra osmonga ko'tariladi.

Ular fiqh qoidalarini Qur'onga, o'z olimlaridan naql qilingan ko'rsatmalarga asosan tuzadilar. Sunniylikda fatvo (diniy hukm) chiqarish uchun qo'llaniladigan ijmo' masalasida faqatgina *Ahl al-Bayt* (Ali avlodlari) ijmo'ini qabul qiladilar va boshqalarini rad etadilar.

Isno'ashariya firqasi islomdagi boshqa mazhablardan nafaqat e'tiqod masalalarida, balki ibodat masalalarida ham farqlanadi. Bunga bir necha misol keltirib o'tish mumkin:

- Qur'oni karimning *zohiri* (tashqi tomoni) va *botini* (ichki tomoni) bor bo'lib, insonlar faqat *zohirinigina* biladilar, *botinini* esa imomlardan boshqa hech kim bilmaydi;
- mut'a nikohi (vaqtincha nikoh) – qonuniy;
- taloq ikki guvoh oldidagina qabul bo'ladi;
- ohod xabarlar (faqat bir kishidagina naql qilingan hadislar) qabul qilinmaydi;
- qaytish haq (Alloh o'lganlarning ba'zilarini avvalgi suratda dunyoga qaytaradi, buning uchun imon darajasi o'ta kuchli yoki o'ta buzg'unchi inson bo'lishi kerak);
- *taqiya* – halol.

Isno'ashariya manbalari. Bu firqaning ta'limotini asoslab beruvchi ko'plab kitoblar mavjud. Misol tariqasida Ja'far ibn Hasan al-Halabiyning «Sharo'i' al-islom», Muhammad ibn Hasan an-Najdiyning «Javohir al-kalom», Muhammad ibn Yusufning «Tazkirat al-fuqaho'» va boshqalarni keltirish mumkin.

Isno'ashariya imomlari quyidagilar:

1. Ali ibn Abi Tolib (al-Murtazo);
2. al-Hasan ibn Ali (al-Mujtabo);
3. al-Husayn ibn Ali (ash-Shahid);

4. Ali Zayn al-obidin ibn al-Husayn (as-Sajjod);
5. Muhammad ibn Ali (al-Boqir);
6. Ja'far ibn Muhammad (as-Sodiq);
7. Muso al-Kozim ibn Ja'far as-Sodiq (al-Kozim);
8. Ali ibn Muso (ar-Rizo);
9. Muhammad al-Javod ibn Ali (at-Taqi);
10. Ali al-Hodi ibn Muhammad al-Javod (an-Naqiy);
11. al-Hasan al-Askariy ibn Ali al-Hodi (az-Zakiy);
12. Muhammad al-Mahdiy ibn al-Hasan al-Askariy (al-Hujjat al-Qo'im al-Muntazir).

Bu firqaning markazlashgan joyi Erondir. Undan tashqari Ozarbayjon, Suriya, Livan, Falastin, Hindiston va Pokistonda «Isno'ashariya» oqimi vakillarini uchratish mumkin.

Ja'fariya. Shialikning isno'ashariya firqasidagi imomlardan biri bo'lgan Abu Abdulloh Ja'far as-Sodiq 699 yil Madinada tug'ildi. U Imom Muhammad al-Boqirning o'g'li bo'lib, ota tarafidan nasabi Ali ibn Abi Tolibga borsa, ona tarafidan nasabi Abu Bakr as-Siddiqqa ta'aladi. Yoshligida Ja'far bobosi Zayn al-Obidin qo'lida tarbiya topib, undan ilm oldi. Bobosi vafot etgach, otasining qo'lida ilm olib, keyinchalik zamonasining kuchli olimlaridan biriga aylandi. Otasi 732 yil vafot etgach, ularning xonadoni go'yo Madina dorilfununlaridan biriga aylandi. Kufa, Basra va Hijozdan ko'pgina olimlar kelib, undan ilm olganlar. Abu Abdulloh diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan olimlardan edi. U islomda birinchilardan bo'lib falsafa yo'nalishiga asos solgan. Bundan tashqari fiqh, hadis, kalom ilmlarida ham peshqadamlardan bo'lgan.

Ja'fariya mazhabining o'ziga xos tomoni shundaki, ular da qiyos bilan fatvo chiqarish usuli tan olinmaydi, hadislardan faqat Payg'ambar xonadonidan bo'lgan *Ahl al-Bayt* rivoyat qilganlarigina qabul qilinadi. Bundan tashqari ular da *mut'a* va *taqiya* halol deb hisoblanadi.

Ismoiliya. Ismoiliya firqasi – islomdagi shia oqimining asosiy shaxobchalaridan biri bo'lib, islom tarixida juda muhim o'rin tutadi. Ushbu firqa vakillari turli mamlakatlarda botiniya, sab'iya, qarmatiya, ta'limiya, mulhidiya va h.k. nomlar bilan atalganlar.

Ismoiliyaning paydo bo'lishi VIII asrda shialar orasidagi o'zaro bo'linishdan boshlandi. Shialarning keyinchalik «imomiylar» deb atalgan bir guruhi Ja'far as-Sodiqning kichik o'g'li Muso al-Kozimni ettinchi imom deb tan oldilar. Chunki Imom Ja'far katta o'g'li Ismoilni vorislikdan mahrum etib, imomlikni kichik o'g'liga vasiyat qilgan edi.

Ammo, shunga qaramay, boshqa bir guruh Ja'far as-Sodiqning katta o'g'li Ismoilni imomlikning merosxo'ri sifatida tan oldilar. Ismoil otasi tirikligida vafot etganligi sababli keyinchalik uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni ettinchi imom sifatida qabul qildilar. Imomiya shialaridan farqli ravishda imomatning davomchisi Ismoildir, deb da'vo qiluvchi ushbu firqa o'zlarini «ismoiliylar» deb atadilar.

Manbalarda muborakiylar va xattobiylar ismoiliyaning g'oyaviy asoschilari sifatida ko'rsatiladi. Biroq keyingi ismoiliya mualliflari xattobiylarni tanqid qilib, ularning mazkur yo'nalishga hech qanday aloqasi yo'q deb ta'kidlaydilar.

Muhammad ibn Ismoilning o'limidan so'ng ular orasida bo'linish yuzaga keldi. Ulardan bir guruhlarini ettinchi imom deb Muhammadni tan oldilar. Shuning uchun ular sab'iya (ettinchilar) deb ataldilar.

Fotimiya (Ubaydiya). Imom Ubaydulloh al-Mahdiy Abbosiylar va qarmatiylardan qochib, o'z safdoshlari bilan Mag'ribda joylashadi va 909 yilda Fotimiylar davlatiga asos soladi. Shu tariqa ismoiliylar imomlari yashirin davrdan oshkora davrga o'tadi. Fotimiylar davlati o'z ta'limotini yoyish maqsadida Sharqqa targ'ibotchilar yubora boshladi.

Fotimiy askarlari Javhar as-Siqilliy boshchiligida Misrni qo'lga olib, so'ngra al-Qohira shahrini o'zlariga poytaxt qildilar. Ilmiy markaz sifatida al-Azharni qurdilar. Keyinchalik al-Mustansir bi-l-loh (1036-1094) o'zidan so'ng imomlik o'g'li Nizorga o'tishini ta'kidlaydi, lekin uning vaziri Afzal ibn Badr al-Jamoliy al-Mustansirning vafotidan foydalanib, uning kichik o'g'li al-Musta'liyni imom deb e'lon qiladi. Ammo Ismoiliya firqasi da'vatchilarining ko'p qismi al-Musta'liyga bay'at qilishdan bosh tortib, Nizor va uning o'g'illarini imomlikka haqli deb hisoblashgan.

Demak, ismoiliya shialari shundan so'ng ikkita: Musta'liya (g'arbiy ismoiliylar) va Nizoriya (sharqiy ismoiliylar)ga ajraldi.

Qarmatiylar. Ismoiliylarning da'vatchilari Yamanda muvaffaqiyat qozongach, Bahraynda qarmatiylar harakati bilan tanilgan yangi firqa vujudga keldi. Bu firqaning asoschisi kufalik Hamdon Qarmatdir. Ismoiliya arboblardan Husayn al-Ahvoziy vafot qilgach, Hamdon boshqaruvni o'z qo'lga oldi. U o'z siyosatini targ'ibot qilishda faol ish olib bordi, natijada uning tarafdorlari asta-sekin ko'paydi. U Kufa tashqarisida joylashgan «Dor al-hijra» deb nomlangan markazni o'zi uchun qarorgoh qilib, u erda da'vatchilar tayyorladi. Shuningdek, u kambag'al va beva-bechoralarga yordam berish maqsadida safdoshlaridan mol va turli soliqlarni yig'ar edi.

Qarmatiylarning siyosiy-g'oyaviy harakati Kufa atrofida boshlanib, IX asr oxirlariga kelib davlatga tahdid soluvchi va kishilar qalbiga qo'rquv tarqatuvchi harakatga aylandi. Keyinchalik ular Basra, Kufa va Shomning ba'zi nohiyalariga hujum qilishdi, so'ngra Yaman va Bahrayn hududlariga yoyildilar. Natijada ular Bahraynda Abu Sa'id al-Jannobi boshchiligida kuchli davlatga asos soldilar. Qarmatiylar o'sha davrda Abbosiylar bilan bir qancha janglar o'tkazib, zafar ham qozonishdi. Haj mavsumlarida ham karvonlarga hujum qilib, bosqinchilik va talon-tarojlik bilan shug'ullanganlar. Chunki qarmatiylarning botiniy ta'limotiga ko'ra, ko'p amallar, jumladan, haj, «Qora toshga» sig'inish noto'g'ri edi. Ular faoliyatining kuchaygan davri 929 yil hisoblanadi. Shu yili ular Abu Tohir Sulaymon boshchiligida Makkaga kirib, hojilarni o'ldirib, jasadlarini Zamzam qudug'iga tashladilar hamda Ka'bani buzib, «al-Hajar al-asvad» (Qora tosh)ni o'z poytaxtlari Bahraynga olib ketdilar. Ibn Kasir o'zining «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida zikr qilishicha, «al-Hajar al-asvad» qarmatiylar qo'lida 22 yildan ortiq qolib, 951 yilda Makkaga qaytarilgan. Qarmatiylar faoliyati uzoq muddat davom etib, 1077 yillarga kelib zaiflashgan.

IX asrning ikkinchi yarmida ismoiliyaning bu yo'nalishi qarmatiya deb nomlana boshladi. Boshqa guruh esa Muhammad ibn Ismoilning avlodlarini

imomlar sifatida tan olishda davom etdilar. Bu imomlar Suriya, Xuroson va boshqa erlarda juda faol da'vatchilik harakatini amalga oshirdilar. Shimoliy Afrikada «fotimiylar» hokimiyat tepasiga kelguniga qadar ismoiliya harakati tarixda «as-satr» (yashirinlik, maxfiylik) davrini boshdan kechirdi.

X asr boshlaridan boshlab bu guruh «fotimiy-ismoiliylar» deb atala boshladi. *Yashirin imomning* nomi va qaytish joyi qattiq sir saqlanganligi uchun uzoq vaqt qarmatiylar va ismoiliylar orasida katta farq bo'lmadi. Ba'zi tadqiqotchilar fotimiylargacha bo'lgan davrni ismoiliya harakatining qarmatiylik bosqichi deb hisoblaydilar.

IX asr oxiriga kelib ismoiliya o'z da'vatchilarining harakatlari bilan Janubiy Iroq, Xuroson, Xuziston, Bahrayn, Yaman, Suriya, Misr, Mag'ribda o'zining ko'p tarafdorlarini orttirdi. O'zlarini imom Ismoilning avlodlari deb hisoblagan fotimiylar harakatiga asos solinishi fotimiy-ismoiliylar bilan qarmatiylar orasida qat'iy bo'linishga olib keldi. X asrning oxiriga kelib Mag'rib, Misr, Suriya, Falastin, Hijoz fotimiylar hokimiyati ostiga o'tdi. Ularning maxfiy tashkilotlari xalifalikning sharqida, xususan, Iroqi Ajam (Eron)da keng tarqaldi.

Ismoiliylar o'z ta'limotlarini yoyishda puxta ishlangan maxfiy markazlashgan tashkilot tuzdilar. Muhim, tezkor axborotlarni almashishda xat tashuvchi kaptarlardan foydalanishgan. Targ'ibot ishlarida ular ish olib borayotgan joy va vaqt e'tiborga olingan. Targ'ibot boshlig'i imom hisoblangan.

Ismoiliya da'vatchilarining vazifasi omma oldida olimlar va faqihlar bilan tortishib, o'z ta'limotini tarqatish bo'lgan. Yangi da'vatchilarni tanlashga ismoiliya rahbarlari alohida e'tibor berganlar.

Ismoiliya mafkurasi shakllanishining ilk davridayoq uning ikki qirrasini – «tashqi», ekzoterik (*az-zohir*) va «ichki», ezoterik (*al-botin*) namoyon bo'ldi. Az-zohir jihati jamoaning oddiy a'zolariga ham tegishli bo'lib, al-botin jihati esa faqatgina «xos» kishilarga tegishli bo'lgan. Ular ismoiliya tuzumining yuqori pog'onalarini egallagan kishilar edi. Tashqi ta'limot o'z ichiga barcha urf-odat va jamoaning oddiy a'zolariga majburiy bo'lgan shariatning huquqiy qonunlarini olgan edi. Ismoiliya ta'limotining bu jihati imomiylar ta'limotidan juda kam farq qiladi. Ismoiliyaning «ichki», ezoterik aqidasi ikki qismdan iborat:

1. Ta'vil al-Qur'on – Qur'on va shariatni allegorik tarzda sharhlash.
2. al-Haqoiq – «maxfiy», «oliy» haqiqatlarni tafsir qilishga asoslangan falsafiy va ilohiy bilimlar tizimi. U «neoplatonizm» idealistik falsafasi (xususan, monoteistik-yakkaxudolik g'oyalarining birlashuvi, real dunyo voqeligining ko'p qirraligi), Aristotel rastionalistik falsafasi, xristian gnostistizmi, mistikasi elementlari va boshqalarni o'zlashtirdi. Ismoiliya diniy-falsafiy tizimining asosiy elementlari – kosmogonik va davriylik nazariyalari.

Ismoiliya aqidasi o'z ichiga diniy majburiyatlar (*faroid ad-din*) bilan bog'liq bo'lgan amaliy ilohiyot (*al-iboda*), din arkonlari (*arkon ad-din*) va nazariy ilohiyot – «sirli ilm» (*ilm al-botin*), Qur'onni allegorik sharhlash (*at-ta'vil*)ni oladi.

Bunda ismoiliya ilohiyotchilari «tashqi» va «ichki» jihatlarining bir-biri bilan mustahkam bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ismoiliylar diniy-siyosiy aqidasi asosi imomat – Ali ibn Abi Tolib avlodlaridan begunoh imomning mavjudligi.

Ismoiliylarda din asoslari ettita bo'lib, ulardan asosiysi imomga itoat etishdir. Qolgan oltitasi tahorat, namoz, zakot, ro'za, haj va jihoddir.

Ismoiliyaning huquqiy tizimi al-Qozi an-Nu'monning (vaf. 979 y.) «Da'o'im al-islom» (islom ustunlari) kitobida mufassal bayon etilgan bo'lib, imomifa (ja'fariya mazhabi) fiqxi bilan deyarli mos tushadi. Ular orasida meros, nikoh va boshqa ba'zi xususiy masalalardagina farqlar mavjud. Ismoiliylar vaqtinchalik nikoh – *mut'ani* (*sig'a*) tan olmaydilar.

Bu firqa vakillari Hindiston, Pokiston, Badaxshon, Arabiston yarim orolining janubi va boshqa joylarda mavjud.

Og'axoniylar. XIII asrga kelib ismoiliylarning nizoriy oqimi deyarli yo'q bo'lib ketdi. Biroq XIX asrga kelib, asli shialardan bo'lgan Hasan Ali Shoh (1804-1881) Eronda o'z atrofiga bir qancha qo'shinlarni yig'ib, davlatga qarshi isyon ko'tardi. Ko'pchilik Hasanni qo'llab-quvvatladi. Natijada Eronda davlat to'ntarishi boshlandi. Inglizlar forsiylar yurtlariga bo'lgan qiziqishlari tufayli ushbu to'ntarishga homiylik qildilar. Lekin bu to'ntarish 1840 yilga kelib samarasiz yakunlandi. Hasan Ali Shoh va uning qo'shinlari asir olindi. Keyinchalik inglizlar asirga olinganlarni katta pul evaziga hamda Erondan olib chiqib ketish sharti bilan ozod qildilar. Inglizlar ularni Afg'onistonda qaror topishlari uchun qo'llab-quvvatladilar. Afg'onlar bunga yo'l qo'ymay, ularni Hindistonga chiqarib yubordilar. Natijada ular Bombay shahrida qarorgoh barpo qilib, o'z faoliyatlarini davom ettirdilar. Inglizlar Hasan Ali Shohdan o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar. Hasanga ismoiliylar tarafdorlarining mutlaq hokimligi berilib, ismoiliy-nizoriylarning imomi deb e'lon qilindi va unga Og'axon laqabi berildi. Hasan Ali atrofiga Hindiston ismoiliylari qo'shildi, natijada Og'axoniylar oilasi barpo qilindi. Hasan Ali vafot etgach, o'g'li Ali Shoh (vaf. 1885 y.) Ikkinchi Og'axon nomi bilan tanilib, otasining ishlarini davom ettirdi. Ikkinchi Og'axon vafotidan so'ng yakka hokimlik uning o'g'li Muhammad Shoh al-Husayniy Uchinchi Og'axonga (vaf. 1957 y.) o'tdi. Uchinchi Og'axon o'z vafotidan oldin ismoiliylar an'anasiga xilof ravishda hokimlikni katta o'g'liga emas, balki nevarasi Karimxon al-Husaynga vasiyat qildi. Karimxon Amerika universitetlarining birida tahsil olgan va u hozirgi kunda ismoiliylarning 48-imomi, To'rtinchi Og'axon deb hisoblanadi.

Og'axoniylar Og'axonlarni Fotima naslidan, ular barcha gunohlardan pok va muqaddasdirlar, deb ularga e'tiqod qiladilar.

Og'axoniylar Evropa mamlakatlarida badavlat hayot kechirayotgan bo'lsalar-da, ularning tarafdorlari imomlarini ulug'lashda davom etib, topgan boyliklarining beshdan birini berib turadilar. Shu sababli Uchinchi Og'axon dunyoning eng boy kishilaridan biriga aylangan edi.

Hozirgi kunda Og'axoniylar Karachida o'z markazlarini bunyod etganlar, uning tarafdorlari Afrikaning sharqiy qismi Nayrobi, Dor as-Salom, Madagaskar, Zanzibar, Kongo, Hindiston va Pokistonda o'z ta'limotlarini yoyishda davom etmoqdalar. Shuningdek, Suriya va Livanda ham ularning tarafdorlari mavjud.

Hozirgi kunda bu aqida tarafdorlarining soni taxminan 20 mln. ga yaqindir. **Nusayriya (Alaviya).** Nusayriylar shialarning 12 imomlik firqasidan bo'ladilar. Ular nomini Ibn Nusayrga nisbatlaydilar. Nusayriylarning o'zlari ushbu nomni

yoqtirmaydilar va o'zlarini «alaviylar» deb nomlaydilar. Lekin turklar ularni bu nom bilan atalishini inkor etib, Suriyadagi o'zlari yashaydigan tog'lar nomi bilan nomlashadi. Keyinchalik, fransuzlar XX asr boshlarida ularga eski nomlarini qaytarib berishdi, shunga ko'ra Nusayr tog'lari mustaqil alaviylar erlaridan hisoblanadi. Ular:

- Alini iloh darajasiga ko'tarishadi;
- nasroniylarning (uchlik) aqidasiga o'xshash ta'limotga egalar. Ularning uchliklari – Ali, Muhammad va Salmon al-Forsiylardan tarkib topgan. Bu ramz – ma'no, ism va eshik demakdir. Bunga ko'ra Alini ma'no yoki mutlaq g'ayb (ya'ni xudo), Muhammadni ism yoki zohir ismning shakli, Salmonni esa ma'noga etaklovchi «eshik» (*bob*) yoki yo'l deb biladilar;
- Salmonni Jabroil farishta darajasiga ko'tarib, Muhammad payg'ambarga Qur'onning barchasini Salmon etkazgan deb hisoblaydilar;
- shar'iy hukmlari botiniy uslubda *ta'vil* qilish asosida istinbot etilgan.

Hozirgi kunda bu firqa vakillari Suriya Arab Respublikasi aholisining taxminan 10 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, ular Livan va Turkiyaning janubida joylashgan shaharlarda yashaydilar.

Druzlar. Druzlar ham nusayriylar botiniy firqalardan hisoblanadilar. Ular o'zlarini muvahhidlar deb nomlaydilar. Druzlarning paydo bo'lishi X – XI asrlarda fotimiylar sulolasidan bo'lgan xalifa al-Mansur ibn Abd al-Aziz al-hokim (996-1021) nomi bilan bog'liq. Ular 1017 yili xalifa al-Hokimni ilohiyot deb e'lon qilganlar. Manbalarda bu ta'limot asoschisi haqida turli fikrlar mavjud:

- 1) ba'zilar «Labbod» laqabi bilan tanilgan Hamza ibn Ali az-Zavzaniy;
- 2) boshqalar «Ajda'» nomi bilan tanilgan Hasan ibn Hidra al-Farg'oni;
- 3) uchinchi guruh «Nashtakin» laqabi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn-Ismoil ad-Duruziy (vaf. 1019 y.)ni ta'limot asoschisi deb hisoblaydi. Oxirgi fikr haqiqatga yaqinroq deb hisoblanadi.

Druzlar ta'limoti bo'yicha manbalar mavjud bo'lib, ulardan Hamza ibn Alining «Druz mushafi» nomli asari ahamiyatli sanaladi. Ushbu asar 44 ta bo'limdan tashkil topgan. Asarda Qur'oni karim oyatlari o'ziga xos tarzda talqin qilinadi. Masalan, unda xalifa al-Hokim itoatidan bosh tortganlar oxiratda azobda, itoat qilganlar rohatda, deb ta'kidlanadi. Ushbu asarga qadimgi yunon, xususan Aflotun falsafasi, yahudiylik va buddizm ta'limotlaridan ham g'oyalar kiritilgan.

Druzlar islomning zohiriy qoidalarini – jannat, do'zax, farishtalarni, islomning asosiy ruknlari ro'za, haj amallarini inkor etadilar. Diniy bayramlardan faqat qurbon hayitini va shialarda motam marosimi hisoblangan ashuroni (ta'ziya) nishonlaydilar.

Druzlar jamiyati ikki tabaqa: ruhoniylar va jasadlarga bo'linadi. Ruhoniylar ularda o'z dinlarini chuqur biladigan, e'tiqodlarida mustahkam, barcha man qilingan narsalardan parhezkor insonlar hisoblanadi. Jasadlar – savlatlari boru, lekin o'z dinlari haqida ko'p narsadan bexabar johil insonlardir.

Druzlar ta'limotida masjidga borish, namoz o'qish shart emas. Ularning ibodatxonalarida payshanba kunlari faqat ruhoniylargina to'planadilar. O'rta asrlardan boshlab druzlar o'zlarining merosiy mulklariga va hukmdor amirlar sulolasiga ega bo'lgan. Livanda druz amirlari hokimiyati, ayniqsa, Faxr ad-din II

Maon (1590-1633) va Bashir II Shihob (1789-1840) davrlarida juda yuksalgan. Ular Suriya xalqining 1925-27 yillarda fransuzlar hukmronligiga va 1958 yilda Isroilga qarshi qo'zg'olonlarida faol ishtirok etishgan.

Hozirgi kunda druzlar asosan Livan, Isroil, qisman Suriya, Iordaniya bilan Iroq o'rtasida joylashgan sahrolarda yashaydilar.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Shialikning kelib chiqishi qanday tarixiy voqea bilan bog'lanadi?
2. Shialikda imomat masalasi qanday o'rin tutadi?
3. Shialik haqida qanday manbalar ma'lumot beradi?
4. Shialikning qanday firqalari mavjud?
5. Shialik ta'limotining sunniylikdan farqlanadigan qanday asosiy jihatlari mavjud?
6. Ismoililarning siyosiy faoliyatini yoritib bering.
7. Taqiya nima?
8. Alaviylarning diniy hayotida qanday xususiyatlar bor?

Adabiyotlar

1. Husniddinov Z.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. T., Movarounnahr, 2000.
2. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках (курс лекций). Ленинград, 1966.
3. Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., Петрушевский И.П., Строева Л.В., Беленицкий А.М. История Ирана с древнейших времен до конца XVIII в. Ленинград, 1958.
4. Прозоров С.М. Шиитская (имамитская) доктрина верховной власти // Ислам: религия, общество, государство. М., 1984. С. 204-211.
5. Чураков М.В. Народное движение в Магрибе под знаменем хариджизма. М., 1990.
6. Daftary F. The Isma'ilis, Their History and Doctrines. Cambridge, 1990.
7. Halm H. Le chiisme. Paris, 1995.

TASAVVUF

Tasavvuf – islomdagi mistik-asketik oqimdir. Mistizm, mistika so'zlari qadimiy yunon tilidagi mystikos – «yashirin», «sirli» so'zidan olingan bo'lib, ilohiyot bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta'limot. Bu ta'limot insonning Xudo bilan aql va hissiyotdan yuqori bo'lgan sirli aloqasi bo'lib, uning natijasida insonda Xudoni bilish hosil bo'ladi. Qadimgi Sharq va yunon dinlarida ham insonni g'ayritabiiy kuchlar bilan bog'laydigan urf-odatlar (*misteriyalar*) – mistizm elementlari bor edi. Yakkaxudolik dinlarining barchasida mistizmga xos unsurlar mavjud. Hayotning barcha sohalari diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan O'rta asrlarda uning roli katta bo'ldi.

O'rta asrlarda xristianlikda mistizmning ikki yo'nalishi mavjud bo'lib, ular ortodoks cherkov mistizmi va eretik mistizm edi. Birinchisiga ko'ra, inson

butunlay Xudoning hukmiga bo'ysungan bo'lib, uning xohishiga qarab unga etishishi mumkin bo'lsa, ikkinchisining ta'limotiga ko'ra, inson o'z harakatlari bilan ham Xudoga etishishi mumkin deyiladi.

Tasavvuf, sufiy yoki mutasavvif so'zlarining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Sufiylik mualliflari ko'pincha uning kelib chiqishini «svf» («sof bo'lmoq») o'zagidan yoki «*ahl as suffa*» (Payg'ambarning Madinadagi uyi yaqinidagi suffaga yig'iluvchi zohid kishilar)ga tegishli deb ta'kidlaydilar. G'arbiy Evropa tadqiqotchilari to XX asrga qadar uni yunoncha – «*hikmat*» (*sophia*) so'zidan kelib chiqqan degan fikrga moyil bo'lishgan. Umar Farid Kam (1861-1944) «Vahdati vujud» asarida, Shamsiddin Somiy (1850-1905) esa «Qomusi turkiy» asarining «tasavvuf» va «sufiy» moddalarida ushbu fikrni yoqlaydilar. Shayx Saffet Yetkin ham shu nuqtai nazarni himoya qiladi. Ismoil Xaqqiy Izmirlik esa bu fikrni rad etib, zohidlik yo'liga suluk solgan kishilarning «sufiya» ismi bilan mashhur bo'lishi yunoncha asarlarning tarjima qilinishi va falsafaning musulmonlar orasida tarqalishidan avval sodir bo'lgan, degan dalillarni ilgari suradi va «sufiy» so'zining yunon tilidan olinganligiga qarshi chiqadi. Endilikda bu so'zning «suf» (jun chopon) so'zidan kelib chiqqanligi haqidagi o'rta asr musulmon olimlari ta'kidlagan fikr umumqabul qilingan fikr hisoblanadi. Chunki sufiylarning asosiy belgilari ularning dag'al jundan kiyim kiyishlari edi. Shimoliy Arabiston va Suriyada xristianlikning turli sektalariga mansub jahongashta monax va anaxoretlar «sufiy» deb atalar edi, degan ma'lumotlar ham bor.

Tasavvufga asos bo'lgan tarkidunyochilik kayfiyati deyarli islom bilan bir davrda yuzaga keldi. Sufiylikning ilk namoyandalari deb Payg'ambarning Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (vafotlari VII asrning ikkinchi yarmi) kabi sahobalari hisoblanadi. Ammo islomdagi mistik-asketik oqimning shakllanishi VIII asrning o'rtalari – IX asrning boshlariga tegishli. Bu davrda sufiylar qatoriga muhaddislar, qorilar, qussoslar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashgan jangchilar, kosiblar, tijoratchilar, jumladan, islomni qabul qilgan xristianlar kirganlar. Bu davrda *sufiy* yoki *at-tasavvuf* terminlari hali keng tarqalmagan edi: uning o'rniga *zuhd* (tarkidunyochilik) yoki *zohid*, *obid* so'zlari ishlatilar edi. Islomdagi bu mistik-asketik oqimning paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga musulmon jamiyatidagi ilk ikki asr davomidagi siyosiy-ijtimoiy beqarorlik, diniy hayotning murakkabligi, uning natijasida kelib chiqqan ma'naviy-g'oyaviy izlanishlar va boshqa dinlarning, xususan, xristianlikning ta'sirini ko'rsatish mumkin.

Ilk davr sufiylari, aniqrog'i, *zohid* va *obid*lariga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat edi: Qur'oni karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qur'on va Payg'ambar sunnatlariga qat'iy amal qilish, kechalarini nafl ibodatlar bilan bedor o'tkazish, kunduzlari ro'za tutish, hayot lazzatlaridan voz kechish, gunohdan saqlanish, hokim va harbiylardan o'zini yiroq tutish, halol va harom orasini juda uzoq tutish (*vara'*), o'zini Alloh ixtiyoriga topshirish (*tavakkul*) va h.k.

Sufiylik ta'limoti *mu'taziliylar*dagi mavhum ilohiyotga oid fikrlar, obro'li shaxslarga ko'r-ko'rona taqlid qilish, muqaddas matnlarga so'zma-so'z itoat etishdan farqli o'laroq, insonga asosiy ob'ekt sifatida qaraydi: inson amallarini

boshqaradigan ruhiyatning mayda qirralarini ham chuqur tahlil qilish, shaxsiy kechinmalarga e'tibor bilan qarash va diniy haqiqatlarni chuqur his qilish ularga xos xususiyatlardan edi. Shu bois ham ziyrak rueshunos, *ilm al-qulub va-l-xavotir* (*qalblar va fikrlar ilmi*)ga asos solgan al-Hasan al-Basriy (vaf. 728 y.) sufiylikning asoschilaridan hisoblanadi.

Al-Hasan al-Basriyning ashoblari, basralik zohidlar – Raboh ibn Amr, Rabi'a al-Adaviya (vaf. 752-53 y.), Molik ibn Dinor (131/748-49), Shaiq al-Balxiy (vaf. 770 y.) va Fuzayl ibn Iyod (vaf. 778 y.), Sulaymon ad-Doroniylarning (VIII-IX asrlar) va'z va ma'ruzalarida Allohga bo'lgan sof muhabbat, unga yaqinlashishga bo'lgan intilish haqidagi fikrlar paydo bo'ldi. O'sha davrdan boshlab ular sufiylikka aniq mistik xarakter bag'ishladilar va bu ta'limotlar sufiylik mafkurasining o'ziga xos xususiyatiga aylandi.

IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotini ishlab chiqish uchun qizg'in harakatlar davom etdi. Basra bilan bir qatorda Bag'dod va Xuroson sufiylik maktablari ham eng nufuzli maktablar sirasiga kirdi. Ularning namoyandalari avvalgidek sufiyning ichki dunyosiga asosiy e'tiborni qaratib edilar. Ularning *ahvol*, *maqom*lariga batafsil tavsiflar berdilar. Boshqa mistik ta'limotlar kabi sufiylikka «dunyo gunohkorligidan» poklanib, ilohiyotga yaqinlashishga olib boradigan yo'l (*tariq*) sifatida qaradilar. «*Niyyatlar*» haqidagi ta'limot yanada chuqurlashtirildi. Bunda o'z-o'zini nazorat (*muroqaba*, *muhosaba*) qilishga erishish uchun ibodatning «ixlos» va «sadoqat» bilan bo'lishiga asosiy urg'u beriladi. Bag'dodlik ilohiyotchi al-Muhosibiy tomonidan shakllantirilgan ta'limotning Xurosonda ham ko'plab tarafdorlari topildi va ular keyinchalik «malomatiylar» nomini oldilar.

Tasavvufda Allohga etishish (*vasl*) unga qo'shilib ketish (*baqo*) bilan bo'lishi mumkin, degan fikr ilgari surildi. Bu masala keng omma orasida tushunarli bo'lmaganligi va mazkur g'oya tarafdorlari al-Husayn ibn Mansur al-Halloj (qatli 922 y.), Ibn Ato, Ayn al-Qudot al-Hamadoniylar kabilarning qatl etilishi boshqa sufiylarni eushyorlikka chaqirdi.

Tasavvufning manbalardagi talqini quyidagi yo'sinda: bunga ko'ra, ba'zi musulmonlar kalom va mantiq ilmlaridagi turli ko'rinishdagi tortishuvlardan, quruq bahslardan o'z qalblarini saqlab, Alloh taoloning muhabbati yo'lida *zuhd* va *taqvon*i o'zlariga kasb qilib oldilar. Ularga «sufiy» deb nom berildi. Islom dinida birinchi sufiy nomini olganlardan Abu Hoshim ash-Shomiy (vaf. 776-77 y.), tasavvuf usuliga birinchi marta sharh bergan kishi Imom Molikning shogirdi Zunnun al-Misriy (vaf. 869-70 y.), minbardan turib birinchi marotaba tasavvufga chaqirgan kishi Abu Bakr ash-Shibliy (vaf. 945-46 y.), tasavvuf usulini kengaytirib tartibga solgan kishi Junayd al-Bag'dodiy (vaf. 1007-08 y.) edilar. Ayollardan birinchi sufiy bo'lgan kishi Robi'a al-Adaviyadir (vaf. 752-53 y.). Umuman olganda, tasavvufning rivojlanish yo'li islom tarixining ajralmas bir bo'lagidir.

Movarounnahrda sufiylik Xuroson orqali kirib keldi. Keyingi davr sufiylarining talqiniga ko'ra, Movarounnahrda sufiylik oqimi aqoid olimi shayx Abu Ya'qub Yusuf al-Hamadoniylar (vaf. 1140-41 y.) shaxsidan boshlanadi. Unga ko'ra Yusuf al-Hamadoniylar maktabi ikki tarmoqqa ajratiladi:

Naqshbandiya tariqati. Uning ikkinchi nomi Xo'jagon yo'nalishi bo'lib, u shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xo'ja Yusuf al-Hamadoniyning mashhur shogirdi Xo'ja Abdulxoliq al-G'ijduvoni (vaf. 1179 yoki 1220 y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xo'ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilgan va shu davrdan e'tiboran Naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlagan.

Osiyo zaminida eng keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri – Naqshbandiyadir. Uning haqiqiy asoschisi Bahouddin Naqshband bo'lib, u Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog'ida dunyoga keldi. Bahouddin Naqshbandni yoshligida *Xojagon* tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo-yi Samosiy ma'naviy farzandlikka qabul qildi. Bir muddatdan keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshirdi. Shu bilan birga Bahouddin Naqshbandning haqiqiy shayxi – *uvaysiya* yo'lida tarbiyalagan Abdulxoliq G'ijduvoni hisoblanadi. Ma'lum muddat Samarqandda yashab, u erdagi shayxlarning *suhbat* va *tavajjuh*lariga musharraf bo'ldi. Amir Kuloldan xalifalikni olgach, Qosim shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi Yasaviya shayxlarining huzurida ko'p yillar qolib, ulardan ilmu fayz olishga muyassar bo'ldi. Ikki marotaba hajga borib kelgan Bahouddin Naqshband hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o'tkazdi. Islom olamida juda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan Naqshbandning hayoti *manoqib*larga to'la bo'lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko'plab asarlar bitilgan. Shulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Vo'iz Koshifiyning «Rashahot ayn al-hayot» risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma'lumot beradi. Naqshbandiyaning silsilasi ikki boshqa-boshqa shahobchalar orqali hazrat Ali va hazrat Abu Bakrga borib etadi. Mashoyix silsilasiga qaraganda, bu tariqat boshqa ba'zi tariqatlar bilan aloqador ekanligi va shunga ko'ra o'sha davrda farqli nomlar bilan atalgani ma'lum bo'ladi. Chunonchi, hazrati Abu Bakrdan Boyazid Bistomiya qadar Siddiqiya, Bistomiydan Abdulxoliq al-G'ijduvoniya qadar *tayfuriya*, G'ijduvoniya qadar Bahouddin Naqshbandga qadar *xo'jagoniya*, Naqshbanddan Xo'ja Ubaydulloh Ahrorga qadar *Naqshbandiya*, Xo'ja Ubaydulloh Ahrordan Ahmad as-Sirhindiya qadar *Naqshbandiya-ahroriya*, «Mujaddidi alfi soni» nomi bilan mashhur Ahmad as-Sirhindiya qadar Shamsiddin Mazharga qadar *Naqshbandiya-mujaddidiya*, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidiy Bag'dodiyga qadar *Naqshbandiya-mazhariya*, Xolidiy Bag'dodiydan keyin esa *Naqshbandiya-xolidiya* deya tilga olingan.

Naqshbandiya ahli sunna e'tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo'lib, *xafiy zikr*ga asoslangan. Zohiran ko'zga tashlanadigan xatti-harakatlardan yiroq suhbat va robitaga kuchli e'tibor beradi. Ko'pchilik bilan qilinadigan naqshbandiy zikrga «Xatmi xo'jagon» deyiladi. Bu zikrda tariqatga kirmaganlar qatnashishlari taqiqlanadi. Naqshbandiyada tariqatga kirgan darvish ushbu shartlarga amal qilishi shart: doimo tavbada bo'lish, sunnatga qat'iy amal qilish, bid'atlardan qochish, hayotiy qulayliklardan voz kechib, taqvoni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzdor bo'lmaslik, birovni norozi qilmaslik, qazo namozlarini ado etish, Allohni har lahzada zikr qilish.

Naqshbandiya tariqati quyidagi to'rt tamoyil asosiga qurilgan: 1) shariat bilan *zohirni* poklash; 2) tariqat bilan *botinni* poklash; 3) haqiqat bilan *qurbi ilohiyga* erishmoq; 4) *ma'rifat* bilan Allohga erishmoq.

Bundan tashqari yana o'n bir asos-tamoyil ham borki, Naqshbandiya tariqatiga kirgan har bir darvish unga rioya qilishi talab qilinadi. Abdulxoliq al-G'ijduvoniylar ishlab chiqqan bu tamoyillarning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. *Hush dar dam* (har nafasda hushyor bo'lish) – g'aflatga tushmaslik, har lahza Allohni eslash, har nafas olish-chiqarish chog'ida Allohni zikr qilish, agar g'aflatga tushsa, istig'for aytish.

2. *Nazar bar qadam* (qadamga nazar solish) – solik qaerda bo'lishidan qat'i nazar, yurayotganida oyoq uchiga qarab yurishi lozim, toki qalb ko'zi va nazari bo'lmag'ur manzaralarga qarashdan xalos bo'lsin. Shunda ma'naviy safarda ro'para keladigan tahlakalar tezda oshib o'tiladi. U tamoyil kamtar bo'lish va mavjud holatga shukur qilishni o'zida mujassam etadi.

3. *Safar dar vatan* (vatanda, o'z erida turib safar qilish) – solikning yomon axloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo'nalishi. Darvish bir murshidi komil topgunga qadar jismonan sayohat qilishini bildiradi. Naqshbandiyalar fikricha, sayru suluk chog'ida solikni umidsizlikka tushirib, qiyinchilik keltirib chiqargani uchun murid murshidi komil topgach sayohat qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu tamoyil sayru suluk martabalarini bosib o'tishni o'zida mujassam etadi.

4. *Xilvat dar anjuman* (jamoat ichida turib yakkalanish) – zohirda xalq bilan, botinada Haq bilan birga bo'lish. Solik moddiy borlig'i bilan xalqqa aralashib, turli bashariy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, hayot talab qilayotgan amallarni ijro etayotib, qalban doimo Allohning huzurida ekanini bir lahza bo'lsa-da, esdan chiqarmasligidir. Bu hol doimiy zikr ma'nosini ham bildirib, zikrda erishiladigan eng oxirgi bosqich – maqomdir. Bahouddin Naqshband Naqshbandiyaning tamolini «xilvat dar anjuman» tashkil etishini ta'kidlagan. «Xilvatda shuhrat bor, shuhratda esa ofat bor» deya Naqshbandiyada xilvatga ko'p rag'bat ko'rsatilmaydi. Shu bois bu tariqatda suhbat va xalq bilan aralashib, ularning dardlariga sherik bo'lib, Haq roziligi yo'lida xalqqa xizmat qilish muhim o'rin tutadi. Naqshbandiyada Qur'ondagi «Shunday kishilar bordirlarki, ularni na tijorat va na oldi-sotdi Allohni zikr qilishdan, namozni to'kis ado etishdan va zakotni (haqdorlarga) ato etishdan mashg'ul qila olmas» (Nur; 24-37) oyati ushbu holga ishora qiladi deb ta'kidlanadi.

5. *Yodkard* (eslash, zikr etish) – Allohni yod etib, boshqa narsalardan ko'ngilni uzish. Naqshbandiyada bu zikrning usuli quyidagichadir: murid o'zini *huzur* ichra shayxining ko'ngli ro'parasida tasavvur qilib, ko'zi – og'zini yopadi, tilini tanglayiga yopishtirib, tishlarini bir-biriga jipslab, nafas olmay, xokisorlik bilan qalban «kalimai tavhid»ni zikr qiladi. Bir nafas olib chiqarishda uch daf'a zikr etishga urinadi va hokazo.

Naqshbandiya tariqatining eng mashhur shahobchalari: *ahroriya*, *mazhariya*, *mujaddidiya* va *xolidiya*. Mujaddidiyaning asoschisi Ahmad as-Sirhindiy Ibn Arabiyning *vahdat al-vujud* falsafasini tanqid qilib, *vahdati ash-shuhudni* yoqlab chiqqan. Sunniylik aqidasi zid kelmaydigan tasavvufiy tushunchaga ega

bo'lgan Imom Rabboniyni eng mashhur asari «Maktubot» turkchaga ilk bor Mustaqimzoda Sulaymon Sa'diddin tomonidan o'girilgan va Istambulda nashr etilgan.

Yasaviya tariqati. Shayx Ahmad Yasaviy (vaf. 1166-67 y.) va uning shogirdlari nomi bilan bog'liqdir. Ahmad Yasaviy sufiylik tariqatining targ'ibotchisi bo'lish bilan birga shoir ham edi. Yasaviy g'oyalari bir necha marotaba turli tahrirda nashr etilgan «Devoni hikmat»da jamlangan. Ammo tadqiqotchilar orasida uning Yasaviyga taalluqliligi ilmiy muammo sifatida bahs etilayapti. Uning fikricha, dunyoning noz-ne'matlarini so'ragan kishi sufiy emas, balki *zuhd* va *taqvoni* ixtiyor etib, umrini toat-ibodatda hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi asl sufiydir. Uning «hikmatlar»i xalq orasida keng tarqalgan.

By tariqat asoschisi Xoja Ahmad Yasaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u Yasida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu erda u Arslon-bob ismli mashhur shayxning xayrli duosiga erishgan. Oddiy xalq ommasini anglaydigan uslubda sufiyona hikmatlari, she'rlari bilan atrofdagi odamlarni xaq yo'lga chaqiradi, ularning ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ahmad Yasaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yasaviy *riyozat*, *chilla*, *zikr* va *mujohadaga* kuchli ahamiyat berib, hayotining aksari qismini *chillaxonada* o'tkazdi. Uning hayoti va karomatlarini haqida ko'plab manobalar saqlanib qolgan.

Yasaviy tariqatida *jahriy zikr* ijro etiladi. Zikr chog'ida darvishning tomog'idan arraning tovushi kabi ovoz chiqqani uchun Yasaviya zikriga «*zikri arra*», «*zikri minshoriy*» deyiladi. Bu zikr quyidagicha ijro etiladi: darvish ikki qo'lini tizzasi ustiga qo'yib, nafasini qorniga chiqarib «*ha*» deb, yana qorni tomonidan nafas olib bosh, bel, elka qimirlamagan holda «*hayy*» deydi va zikr shu tarzda davom etadi. Zikrning 12 zarb turi ma'lumdir. Yasaviylikda *xilvatga* ham katta ahamiyat beriladi.

Bu tariqatda muhim o'rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: Allohni tanish (*ma'rifatulloh*), mutlaq jo'mardlik, rostgo'ylik, o'zini Allohga topshirish (*tavakkul*) va teran tafakkur.

Yasaviya tariqati, asosan, sunniy e'tiqodiga amal qilish bilan birga Xuroson *malomatiya* maktabidan biroz ta'sirlangani sababli, terma madaniyat asosiga ega. Uning xususiyatlari keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarda aks etgan. Hatto *Naqshbandiyani* Yasaviyaning bir shahobchasi deb biluvchilar ham bor. Ahmad Yasaviyning eng mashhur xalifalaridan Sulaymon Hakim ota Boqirg'oni (vaf. 1186 y.), Sufiy Muhammad Donishmand az-Zarnuqi va boshqalar ma'lum.

Kubraviya tariqati. Bu tariqatning asoschisi – shayx Najmiddin Kubro al-Xivaqi (vaf. 1221 y.) bo'lib, tasavvuf tarixidagi eng yorqin siymolardan biridir. Xivada tug'ilgan. Yoshligida diniy ilmlarni egallagan. Ayniqsa, hadis ilmida tengi yo'q edi. Turli o'lkalarni kechgan. Misrda shayx Ruzbihon al-Misriy bilan tanishib, unga murid bo'lgan. Qattiq riyozatlar natijasida murshidining tavajjuhiga erishib, uning qiziga uylangan. Bundan keyin u Ammor Yosirga murid bo'lgan, uning tavsiyasi bilan esa Ismoil Kasriy dargohiga kirgan va u erdan «*xirqai tabarruk*» kiygan. Yana Misrga – shayxining yoniga qaytgan Kubro shayxi tomonidan o'z

vatani Xorazmga *irshod* vazifasi bilan jo'natiladi. Kubro Xorazmga ko'chib borib, kubraviya-zahabiya tariqatiga asos solgan. Qisqa vaqt ichida atrofdagilarning muhabbatini qozondi, shogirdlar tarbiyalab, voyaga etkazdi. Chunonchi, Fariddin Attorning ustozlari – shayx Najmuddin al-Bag'dodiy bilan «Mirsod al-ibod» asari muallifi mashhur Najmuddin Doya Kubro shogirdlari jumlasidandir. Najmiddin Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan.

Yozgan asarlari orasida eng mashhuri «Usuli ashara» risolasi bo'lib, bu asar barcha tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ismoil Xaqqiy Bursaviy tomonidan sharh etilgan. «Favoihul jamol» asari esa tasavvuf ruhshunosligi mavzusidadir. Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta'sir qilgan. Chunonchi, bu tariqat naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

Kubraviya ko'proq O'rta Osiyo, Rossiya va Eron mamlakatlarida keng tarqalgan. Kubraviyaning o'ziga xos jihatlari chordona qurib, jahriy zikr qilish. Uning tariqat silsilasi Ali ibn Abi Tolibga borib ulanadi. Tariqat asoslari «Usuli ashara» asarida tavsif etilgan. Kubraviyaning mashhur shahobchalari quyidagilar: baho'iya xilvatiya, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, nurbaxshiya, barzanjiya.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Islomdan avval zohidlik qanday shaklda bo'lgan?
2. Tasavvuf qaysi davrda shakllandi?
3. Klassik sufizmning ilk namoyandalari kimlar?
4. Sufizm qachon mustaqil oqim sifatida shakllandi?
5. Tasavvufning asosiy ta'limoti nimalardan iborat?
6. O'rta Osiyoda tarqalgan tasavvuf tariqatlari qaysilar?

Adabiyotlar

1. Sulaymon Boqirg'oni. Boqirg'on kitobi. T., 1991.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T., Istiqlol, 1999.
3. G'azzoliy, Muhammad Abu Homid. Ihyo-ul-ulum / Arabchadan Alouddin Mansur tarj. // Kamalak. Adabiy-tanqidiy yillik to'plam. T., Yosh gvardiya, 1990.
4. Бабаджанов Б.М. Политическая деятельность шейхов Накшбандийа в Мавераннахре (1 пол. XVI в.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Т., 1996.
5. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература // Избранные труды. Т. III. М., 1965.
6. Ислам: Историографические очерки. М., Главная редакция восточной литературы, 1991. С. 109-207.
7. Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Вып. 1-3. М., 1998-2001.
8. Ислам: Энциклопедический словарь. М., 1991.
9. Тримингэм Дж. С. Суфийские ордены в исламе. М., 1989.

ISLOM VA HOZIRGI ZAMON

Islom – dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biri. Osiyo, Afrika va Evropa qit'alarida yashovchi xalqlarning bir bo'lagi islomga e'tiqod qiladi. Er yuzida islomga e'tiqod qiluvchilar soni 1 milliarddan oshadi.

XIX asrlarning dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy me'yorlarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy islohotlar» (islom modernizmi) nomini oldi. Bu jarayon hanuz davom etmoqda.

XX asrga kelib dunyoda islom omilining ta'siri kuchaydi. Bunga sabab qilib, bir tomondan, dunyoda bu dinga e'tiqod qiluvchilarning soni ko'payib borayotganligi ko'rsatilsa, ikkinchi tomondan, turli rasmiy va norasmiy islomiy tashkilotlar faoliyatlarining kuchayishi keltiriladi. Ushbu jarayon XIX asr oxirlarida islom olamida faollashgan diniy islohotchilik harakatlari bilan bog'liqdir. XX asr oxiri – XXI asr boshida bu harakatlarning turli ko'rinishda davom etishini islom olamidagi yirik davlatlar: Misr, Saudiya Arabistoni, Eron misolida ko'rishimiz mumkin.

Misr. XIX asrning boshlarida Misrda boshlangan mustamlakachi-likka qarshi g'oyaviy kurashlar panarabizm (arab birligi) g'oyasini keltirib chiqardi. XIX asrning ikkinchi yarmida esa bu g'oya panislomizm bilan almashdi. Panislomizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan kishi Jamoliddin al-Afg'oni (1839-1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abduh (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etib, unda panislomizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Al-Afg'oniyaning g'oyalari keyinchalik «Musulmon birodarlar» (*al-Ixvon al-muslimun*) ta'limotlarida radikal shakllarda rivojlantirildi.

«Musulmon birodarlar» 1928 yilda Misrning Ismoilিয়া shahrida misrlik shayx Hasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilotdir. Hasan al-Banno Jamoliddin al-Afg'oni, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta'sirlanib, panislomizm g'oyasi bilan «jihod», «islomiy millatchilik», «islomiy davlat» ta'limotlarini ishlab chiqdi. «Musulmon birodarlar» bu ta'limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur'on va shariatda ifodalangan qoidalarga to'liq rioya qiluvchi, «islomiy adolat» tamoyillari o'rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi. Tashkilotning asosiy maqsadi omma orasida islom ta'limotlarini keng yoyish va hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga olish edi.

30-yillarga borib turli joylarda, jumladan, chet ellarda ham tashkilotning bo'limlari ochila boshladi. «Musulmon birodarlar» tashkil qilingan ilk davrda kambag'allarga yordam berish, bepul maktab ochish va tibbiy yordam ko'rsatish ishlari bilan shug'ullandi. Bunday tadbirlar tashkilot a'zolarining ko'payishiga va uning omma orasida obro'-e'tiborining yanada oshishiga olib keldi.

1935-1938 yillarga kelib tashkilotga 40 mingga yaqin kishi a'zo bo'ldi. Uning 60 ga yaqin bo'limlari bor edi. Tashkilot o'z bosmaxonasida ro'znoma va

oynomalar chiqarar edi. «Musulmon birodarlar» qurolli otryadlar tuzdilar. «Biz hokimiyatga intilmaymiz, aksincha, hokimiyat bizga intilyapti», – degan edi al-Banno.

70-yillarga qadar «Musulmon birodarlar» bir necha bor hukumat bilan yaqinlashib, keyin uning tomonidan tazyiqqa uchrab keldi. Nosir o'limidan keyin 1970 yili hokimiyat tepasiga kelgan Anvar as-Sodot «Musulmon birodarlar»ga keng yo'l ochib berdi. U tashkilotning asoschisi Hasan al-Banno bilan faxrlanishini e'lon qildi. 1971 yilda «Musulmon birodarlar» tashkiloti rahbarligini Shayx Umar at-Tilimsoniy o'z qo'liga oldi. Uning davrida tashkilot parlament tipidagi partiyaga aylana boshladi. Tashkilotning siyosiy kurash usullariga o'zgarishlar kiritildi: «Musulmon birodarlar» islom mamlakatlari hududida kuch ishlatishdan voz kechdilar, ammo ularning mafkuraviy yo'nalishida shariat qonunlarini o'rnatish, islom davlatini qurish, uning iqtisodiy tuzumini amalga joriy qilish ta'limotlari o'zgarishsiz qoldi. «Musulmon birodarlar» arablar birligi uchun kurashdan bosh tortdilar, shu bilan birga panislomizm ham ikkinchi o'ringa tushib qoldi. Ular birinchi o'ringa Mismni «islomlashtirish» maqsadini qo'ydilar.

1952 yilda «Musulmon birodarlar» tashkilotidan ajralib chiqqan guruh tomonidan «Islom ozodlik partiyasi» («Hizb at-tahrir al-islomiy») tuzilgan bo'lsa, 70-yillarga kelib undan «Islom ozodligi» («at-Tahrir al-islomiy») tashkiloti ajralib chiqdi. Bundan tashqari, «Musulmonlar jamoasi» («Jamoat al-muslimin»), «Sostial islohotlar jamiyati» («Jam'iyat al-islohot al-ijtimo'iya») va boshqa guruhlar «Musulmon birodarlar» tashkilotidan ajralib chiqdi.

Misr hukumati avvaliga turli diniy tashkilotlarning faoliyatlarini ijobiy baholab, ularga keng yo'l ochib berdi. 1971 yilda davlat huquqlarini islomlashtirish bo'yicha birinchi qadamlar qo'yildi – yangi konstitustiyada erkak va ayollar huquqlarining tengligi islomda ko'rsatilganidek bo'lishi kerak, deb ta'kidlandi.

Misrdagi diniy-siyosiy partiya va tashkilotlarning orasida eng ko'zga ko'ringani «Musulmon birodarlar» tashkiloti bo'lgani sababli 1971 yilning yozida Sodot «Musulmon birodarlar» tashkiloti bilan aloqa o'rnatdi. Misrda Sayyid Qutb, Muhammad al-Bahiy, Abdulkarim al-Xatib kabi peshqadam islom nazariyotchilarining kitoblari bosib chiqarildi. Ularning asarlarida «xudosiz materializm»ga qarshi chaqiriqlar bo'lib, «musulmonlar jamiyati»ni qurish g'oyalari ilgari surilardi.

70-yillarda Misr ichki va tashqi siyosatida islom rolining oshishiga iqtisodiy-ijtimoiy omillar ham sabab bo'ldi. Iqtisodiyotning ortga ketishi, g'arblashtirish siyosati, Isroil bilan tinchlik shartnomasining tuzilishi, Misrning arab dunyosida yakkalanib qolishi Misrda islomning siyosiy omil sifatida namoyon bo'lishiga olib keldi. Bu davrda yangi islomiy guruhlar vujudga kelib, mavjudlari yiriklashib, siyosiy partiyalar darajasiga ko'tarildi.

70-yillarda bir qator maxfiy diniy guruhlar vujudga keldi. Ularning eng yiriklari «Muqaddas jihod» («al-Jihod al-muqaddas») guruhi bo'lib, u 1980 yilda «Jihod» nomini oldi. «Musulmon birodarlar»ning bir guruhi 1978 yilda «at-Takfir va-l-hijra» («Kofir deb e'lon qilish va hijrat qilish») nomini oldi. Ular ko'proq tuzumni tanqid qilib, aniq ishlab chiqilgan dasturni taklif qilmas edilar.

1981 yil oktyabrda Anvar as-Sodot o'ldirilganidan so'ng Muhammad Husni Muborak Misr prezidenti lavozimiga o'tirdi. U mamlakatning ichki va tashqi siyosatida asosiy masalalar bo'yicha as-Sodotning siyosatiga sodiq qoldi. Muborak Sinay ozod qilinishi munosabati bilan o'tkazilgan anjumanda Anvar as-Sodotni o'z vatani uchun shahid bo'lgan qahramon deb ta'rifladi.

Husni Muborak 20-40-yillarda «modernistik» g'oyalar tarafdori bo'lgan Abdulaziz Fahmiy asos solgan maktabda o'qigan. U islomga qattiq hurmat bilan qaragan holda boshqa diniy konfessiyalarga ham erkinlik beradi. Bunga javoban, xususan, xristian cherkovining patriarxi Shenuda III ham tuzum siyosatini qo'llab-quvvatlaydi.

Misr Arab Respublikasining dasturi 1971 yil 9 noyabrda qabul qilingan va 1981 yil 22 mayda o'zgarish kiritilgan doimiy konstitutsiyasidir. Misr tuzumi demokratik, xalqi – arab millatining bir bo'lagi, islom – davlat dini, arab tili – rasmiy til bo'lgan davlatdir. Siyosiy tuzumi ko'ppartiyalilik asosiga qurilgan.

Amaldagi o'n ikki partiyadan ettitasining, jumladan, hokim «Milliy demokratik partiya»ning tamoyillarida «islom shariati – qonunchilikning asosiy manbai», deb rasman qayd etilgan. Qolgan beshta partiyaning tamoyillari ham shariatga muvofiq ravishda tuzilgan.

«Al-Jomi' al-Azhar» X asr oxirida qurilgan islom olamidagi qadimiy universitet, Qohiradagi ko'zga ko'ringan masjid va musulmon dunyosidagi ilohiyot markazidir. Al-Azharning shayxi (Shayx al-Azhar) musulmon ulamolarining oqsoqoli sanalib, butun dunyo musulmonlari uning fikri bilan hisoblashadilar. 1961 yil 5 mayda «al-Azharni rivojlantirish haqida» qabul qilingan qonundan so'ng uning mavqei yanada oshdi. Bu qonunda aytilishicha, al-Azharning oliy shayxi barcha diniy ishlar, Qur'onni talqin qilish hamda islom ilmlari bo'yicha eng yuqori shaxsdir.

80-yillarda ham al-Azhar Misr siyosatida muhim rol o'ynadi. U islomdagi islohotchilik oqimining rivojlanishi uchun harakat qildi. 1986 yilda Shayx al-Azhar Jod al-Haqq Ali Jod al-Haqq (1982-1995) parlament saylovlari oppozitsiya tomonidan to'sib qo'yilishini qoralab chiqdi. Natijada hukumat saylovlarni tinchlik bilan o'tkazishi uchun qulay vaziyat vujudga keldi.

1995 yil Jod al-Haqqning vafotidan keyin uning o'rniga Muhammad Sayyid at-Tantoviy tayinlandi. At-Tantoviy diniy guruhlar orasida mo'tadil liberallardan deb sanaladi.

Hozirgi davrda al-Azhar Misrning tashqi siyosatida muhim rol o'ynamoqda. Unda nafaqat musulmon Afrika mamlakatlaridan, balki butun dunyodan, jumladan, AQSh va Evropadagi davlatlardan kelgan talabalar tahsil oladilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Misr Arab Respublikasi bilan mamlakatimiz orasida do'stona aloqalar yanada mustahkamlanib bormoqda. Yurtimiz dunyoga yuz tutgan bir paytda boshqa davlatlar qatori Misr Arab Respublikasi bilan ham diplomatik aloqalar o'rnatildi. Toshkentda Misr elchixonasi ochildi. 1995 yil 1 sentyabri – O'zbekiston mustaqilligining 4 yillik bayrami bilan bir vaqtda Qohirada O'zbekiston elchixonasining tantanali ochilish marosimi bo'ldi.

Toshkentda Misr elchixonasi qoshida Misr madaniyat markazi o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Mamlakatimiz fuqarolari bu erda Misr madaniyati, tarixi, uning erishgan yutuqlari haqida o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni olishlari mumkin.

Saudiya Arabistoni. Bu – islom muqaddas joylarining vatani bo'lib, mustaqil islom davlatidir. Davlat dini – islom, mamlakat konstitustiyasi – Allohning kitobi va Payg'ambar sunnasidir. Mamlakatni boshqarish shakli monarxiyadir. Uning negizida «adolat, tenglik va kengash» degan so'zlar yotadi. Davlatning iqtisodiy va ijtimoiy asosini xususiy mulk, boylik (kapital) va mehnat tashkil qiladi. Davlat xususiy mulkning daxlsizligiga kafolat beradi. Davlat ijtimoiy ta'minot tizimini qo'llab-quvvatlaydi va xayriya ishlariga katta e'tibor beradi.

Ikki muqaddas joy – Makka va Madinaning Saudiya Arabistoni erlarida joylashishi uning musulmon olamida obro'-e'tiborining baland bo'lishida birinchi omildir. Islom nufuzining ortishida ommaviy axborot vositalarining roli katta bo'ldi. Mamlakatning katta-katta shaharlarida hojilarni qabul qilish uchun yangi avtomobil yo'llari, aeroport, mehmonxonalar qurildi.

XX asrdan boshlab ko'pgina musulmon mamlakatlarda yangi tijorat, jinoyat va fuqarolik kodekslari joriy qilingan edi. Faqat nikoh, ajralish, meros masalalari Turkiya va Tunisdan boshqa hamma davlatlarda shariat qo'lida edi. Saudiya Arabistonining qonunchilik va sud organlari qirollik davlat tizimi sharoitida ijtimoiy-siyosiy muammolarni echishga tayyor emas edi.

Saudiya Arabistoni rahbarlarini muxolif diniy doiralar chiqishlari tashvishga solmoqda. Ba'zilar keraksiz eskilik sarqitlarini yo'q qilish, kundalik hayotda shariat me'yorlarini yumshatishni talab qilsalar, muxolif diniy doiralar umuman qirol siyosatiga qarshilar. Mamlakatda diniy ekstremistlar soni ko'p. Ularning ijtimoiy tayanchi kengdir. O'z g'oyalarini tashviqot qilish uchun ulardagi nashr imkoniyatlari ham kattadir. 1993 yil ma'lumotlariga qaraganda, qirol devoni ilk islom me'yorlariga qaytishni talab qiluvchi yuz minglab arizalarga to'lib ketdi.

Hozirda amalga oshirilayotgan diniy loyihalarning umumiy qiymati 6 mlrd. saudiya rialini tashkil qiladi. Bu loyihalardan eng kattasi Madinadagi noshirlik majmuasi bo'lib, uning nashr qilish qudrati yiliga 28 mln. nusxa Qur'onni chop qilishga imkon beradi. 1992 yil yanvar oyida qirol Fahd «Islom olami uyushmasi» ixtiyoriga 6,5 mln. nusxa Qur'onni berishga farmon berdi. Shundan 4,5 mln. nusxa dunyo bo'yicha, qolgan 2 mln. nusxa Saudiya Arabistoni masjidlari va madrasalariga tarqatildi.

Ushbu olib borilayotgan ishlarga qaramasdan, qirol Fahd konservatorlarning yangi chiqishlaridan tashvishlanib, ularning yo'lini oldinroq to'sishga intilmoqda. Jazoir tajribasi shuni ko'rsatdiki, agar diniy konservatorlar nazoratdan chiqib ketsalar ichki siyosiy vaziyat kutilmagan natijalarga olib kelishi mumkin. Saudiya davlatchiligi va ijtimoiy hayotining asosiy elementlaridan birini tashkil qiluvchi omil qirol Fahdning islomni qo'llab-quvvatlagan holda, ochiq ravishda ijtimoiy o'zgarishlar tarafdorlariga o'z xayrixohligini bildirishidir.

Turli mamlakat musulmonlarining Makka va Madinaga haj uchun kelishlari musulmon mamlakatlari va xalqlari o'rtasida Saudiya Arabistoni ta'sirini kengaytirishga olib kelmoqda.

60-yillarda marhum prezident Jamol Abdul Nosir arab birligi harakatida etakchi rol o'ynagan edi. Nosirning bu siyosati Saudiyaning hukmron doiralari ga yoqmadi. Shu bois Saudiya Arabistoni va bir qator konservativ musulmon davlatlari rahbarlari arab birligi harakatiga qarama-qarshi «musulmon birdamligi» harakati shiori bilan chiqdilar.

60-yillarning o'rtalariga kelib, Saudiya Arabistoni rahbarlari islom pakti (ahdnoma) tuzish g'oyasini targ'ib qila boshladilar. 1965 yilning oxiriga kelib, ushbu ahdnomani tuzish uchun amaliy ishlar boshlandi. Lekin reja mag'lubiyatga uchradi. Saudiya Arabistoni qiroli tashabbusini faqat Iordaniya sobiq qiroli Husayn va Eron sobiq shohi Muhammad Rizo Pahlaviy qo'llab-quvvatladilar. Boshqacha qilib aytganda, uch qirollik ittifoqi barpo bo'lishi kerak edi, lekin bu ham amalga oshmadi.

Saudiya Arabistoni tomonidan bu loyihani amalga oshirishdagi qiyinchiliklardan biri shu ediki, sunniy bo'lgan Saudiya Arabistoni bilan shialikdagi Eron o'rtasidagi ittifoq diniy emas, balki siyosiy bo'lishi kerak edi. 1967 yildagi Isroilning arab mamlakatlariga qarshi urushi «Islom pakti»ni tuzish rejasiga zarba berdi.

1967 yil avgust oyida arab davlatlari boshliqlarining Xartumda bo'lib o'tgan konferensiyasida Saudiya Arabistoni rahbarlari boshqa arab davlatlari qatori nafaqat Isroil agressiyasini qoraladilar, balki ular Kuvayt va Liviya bilan bir qatorda Misr va Iordaniyaga moliyaviy yordam berish majburiyatini oldilar. O'sha davrda Suriya qirollik davlatlar bilan aloqa qilmas edi va shuning uchun ularning moliyaviy yordamidan voz kechdi.

O'sha paytda Saudiya Arabistoni qiroli Faysal Isroilga qarshi «jihod»ga chaqirdi. Bu chaqiriq nafaqat arablarga, balki barcha musulmonlarga qaratilgan edi. U: «Quddus shahri arablarniki, u erdagi muqaddas joylar arablarga tegishli», – degan chaqiriqlar bilan chiqdi. 1969 yil avgustda Quddusdagi al-Aqso masjidiga o't qo'yilishi shaharni qaytarib olish yo'lidagi kurashni kuchaytirdi.

Jamol Abdul Nosir vafotidan so'ng Faysal arab dunyosida yo'lboshchi bo'lish uchun faol kurash olib bordi. U endi «musulmon birdamligi» g'oyasini «arab birligi» g'oyasiga qarshi qo'yishdan voz kechib, Anvar as-Sodotga o'z ta'sirini o'tkazish yo'llarini qidirdi. Faysal moliyaviy yordam yo'li bilan Misr prezidentiga yaqinlashish choralarini izladi. Isroilga qarshi kurashda neftdan siyosiy qurol sifatida foydalanishni va'da berdi. Misrga moliyaviy yordam berish va 1973 yildagi oktyabr urushida neftdan siyosiy qurol sifatida foydalanish Misr va Saudiya Arabistoni o'rtasida yaqinlashuvga olib keldi.

Bu urushdan so'ng Isroilni qo'llab-quvvatlagan davlatlarga qarshi ishlatilgan neft embargosi Saudiya Arabistoni nufuzini nafaqat musulmon olamining konservativ doiralari o'rtasida, balki arab jamoatchiligining mo'tadil doiralari o'rtasida ham oshirdi. Natijada Saudiya Arabistoni Suriya va Falastin ozodlik harakati bilan aloqa o'rnatib, ularga moliyaviy yordam ko'rsata boshladi.

As-Sodotning 1977 yil 19 noyabrdagi Isroil tomonidan bosib olingan Quddus shahriga tashrifi Saudiya Arabistoni rahbarlari tomonidan ma'qullanmadi. Chunki Saudiyaning Yaqin Sharq siyosatida Quddus shahri muhim o'rin tutadi. Agarda AQSh homiyligidagi Misr-Isroil muzokaralari boshqa bir betaraf shaharda

o'tkazilganda edi, balki Saudiya rahbarlari bunga e'tiroz bildirmagan bo'lar edilar, degan taxminlar ham bor.

Saudiya Arabistoni 1979 yil 26 martda Kemp-Devidda qo'l qo'yilgan Misr-Isroil separat bitimini qat'iyon rad etdi. Saudiya Arabistoni as-Sodot tuzumiga qarshi ishlatilgan iqtisodiy va siyosiy jazo choralarida faol qatnashdi.

1979 yil oxiri – 1980 yil boshida Eron inqilobi natijasida musulmon doiralarning faoliyati yanada aktivlashdi. Ko'pgina Osiyo va Afrika mamlakatlarida muxolif kuchlarning faolligi oshdi. Bu narsa Saudiya Arabistonini ham chetlab o'tmadi. G'arbiy Evropa va arab matbuot organlarining xabar berishlaricha, Saudiya Arabistonining sharqiy rayonlarida, xususan, shialar istiqomat qiladigan mintaqalarda ommaviy chiqishlar yuz berdi.

Saudiya rahbarlari Eron inqilobiga nisbatan ikki xil munosabatda bo'ldilar. Ko'rfazning narigi tarafida shoh tuzumining ag'darilishi Saudiya hukmron doiralari tashvishga soldi. Ma'lum bo'ldiki, har qanday taxtni saqlab qolishda AQSh kafolat bo'la olmas ekan. Lekin islom bayrog'i ostida yuz bergan Eron inqilobi Saudiya rahbarlarida yaxshi ta'sir qoldirdi. Chunki islomni jonlantirish, uni Afrika va Osiyo mamlakatlariga yoyish va u erda islomning rolini oshirish Saudiya rahbarlari tashqi siyosatining muhim bir qismi edi.

Saudiya-Iroq munosabatlari murakkab va ziddiyatlidir. Saudiya ham, Iroq ham Fors ko'rfazida gegemonlik qilishga urinmoqdalar. Iroq ham Saudiya kabi neftga boy davlat, u Saudiyaning moliyaviy yordamiga muhtoj emas. 1992 yildagi Iroqning Kuvaytga qarshi urushi Saudiya-Iroq munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi.

Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlariga to'xtaladigan bo'lsak, sobiq SSSR tarqalib ketganidan keyin Saudiya Arabistonining Markaziy Osiyodagi yosh mustaqil davlatlarga qiziqishi ortdi. 1992 yilning fevral oyida Saudiyaning tashqi ishlar vaziri Faysal bu davlatlarga tashrif buyurdi. Qirol Fahd Markaziy Osiyo musulmonlariga 1 mln. nusxada Qur'oni karimni hadya sifatida topshirdi. Hajga boruvchilar soni ham ortdi. Saudiya Arabistoni va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy-moliyaviy aloqalar hali juda rivoj topgani yo'q. Faqat Qozog'istonda yagona investitsiya banki ochildi.

Eron. 1905-1911 yillarda Eron inqilobidan so'ng shia ruhoniylarining ko'pchilik qismi amaldorlar bilan shoh hukumatini chegaralab qo'yish uchun ittifoq tuzdi. Natijada Eron konstitutsion davlat bo'lib, uning konstitutsiyasi shialikdagi 12 imom (*isno'ashariya*) oqimini rasmiy diniy mafkura sifatida qabul qildi.

1925 yilda hokimiyat tepasiga Rizoxonning kelishi bilan mamlakatda ruhoniylarning mavqei keskin pasayib ketdi. U konstitutsiyaning 36-moddasiga o'zgartirish kiritib, unga ko'ra o'zini Pahlaviy sulolasining shohi deb e'lon qildi. 20-30-yillarda Eronda dunyoviy qonunchilik shakllandi. U shariat mahkamalarining faoliyat doirasini cheklab qo'ydi, biroq ularni to'la siqib chiqara olmadi. Ular diniy tabiatdagi masalalar bilan shug'ullanadigan bo'ldi.

1978-1979 yillardagi inqilob mamlakatda hukumatning o'zgarishiga olib keldi. Shia ruhoniylari davlatda asosiy rahbar kuchga aylandi. 1979 yilning mart oyi

oxirlarida o'tkazilgan umumxalq referendumida ko'pchilik Eronni Islom Respublikasi deb e'lon qilishga ovoz berdi va bu 1979 yilning dekabr oyida qabul qilingan konstitustiyada o'z aksini topdi.

Yangi konstitustiyada ruhoniylarning qonunchilikda yakkahokimligi yana qaytadan tiklandi. 20-30-yillarda qabul qilingan qonunlar bekor qilindi. Ruhoniy qozilar Qur'on va shariat asosida jazo turlarini, ya'ni mast qiluvchi ichimlik iste'mol qilganlarga 50-60 darra, mollarga o'ta yuqori narx qo'yib sotganlarga 75-80 darra, zinoga toshbo'ron, qotillikka o'lim jazolarini qo'llay boshladilar.

Ruhoniylar o'z vazifalarini to'laqonli ijro eta olishlari uchun ular maxsus tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishlari lozim edi, shuning uchun shia madrasalarida oliy va o'rta darajadagi ilohiyotchilarni tayyorlashga katta e'tibor berilgan. Asosan, Najaf, Karbalo, Somarro, Qum va Mashhad shaharlari shialikning yirik ta'lim markazlari bo'lib hisoblangan. Ularda butun shia dunyosida mashhur bo'lgan «Ahmadiya», «Mahdiya», «Hindiya», «Ja'fariya», «Fayziya», «Rizoviya», «Boqiriya» kabi yirik madrasalar bo'lib, Eron, Pokiston, Hindiston, Livan, Suriya, Bahrayn, Iroq, Afg'oniston kabi bir necha davlatlardan kelgan talabalar tahsil oladilar.

XVIII – XX asrlarda bir necha qadimiy madrasalar ta'mirlandi va kengaytirildi hamda ularning yoniga yangilari qurilib ishga tushirildi. 60-yillarda eronlik fabrikant Hoji Ittifoq mablag'iga Najafda «Ja'fariya» shia universiteti barpo etildi. 50-60-yillarda Qum shahridagi madrasalarda olti ming talaba tahsil olar edi. Hozirda Mashhadda 12 ta madrasa bo'lib, ularda 953 ta talaba tahsil oladi. Qum va Mashhaddan tashqari Eronning Tehron, Tabriz, Isfahon, Sheroz, Ardabil, Hamadon, Nishopur kabi shaharlarida ham ko'plab madrasalar faoliyat olib boradi. 70-yillar ma'lumotiga ko'ra, Eronda 138 ta madrasada 7500 talaba tahsil olgan. 1975 yili Qumda 6414 ta, Mashhadda 1800 ta, Isfahonda 1000 ta, Tabrizda 500 ta talaba tahsil olgan.

Madrasaga o'qishga qabul qilish ta'minotchi va yirik shialik namoyandalari tomonidan amalga oshiriladi. O'rta asrlardan madrasalarga o'qishga qabul qilishda yoshlarning nafaqat dinga qiziquvchanligi, balki ularning jismonan baquvvatligi, qo'lga qurol olib jang qila olishi ham e'tiborga olinadi. Ilohiyotchi talabalar bir necha bor o'z madrasalari va ustozlarini himoya qilish uchun qo'lda qurol bilan shoh qo'shinlariga qarshi chiqqanlar. 1979 yildagi inqilobning ham asosiy kurashuvchi kuchini Xumayniyning talabalari tashkil etganlar.

Eronda monarxiya asosidagi tuzumning mustahkamlanishiga va amaldorlarning iqtisodiy jihatdan kuchayishiga kuchli tashviqot tuzilmasiga ega bo'lgan mafkura juda qo'l keldi. Hukumatning asosiy mafkuraviy tamoyillari shohning «Mening vatanga xizmatim», «Oq inqilob», «Buyuk taraqqiyot sari» asarlarida va shohning Eron, Amerika, Angliya hamda boshqa xorijiy mamlakatlar gazeta va jurnallarining muxbirlariga turli vaqtlarda bergan intervyularida jamlangan.

Shoh tuzumining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shoh shaxsining yuqori qo'yilishi edi. Monarxiya uzluksiz milliy an'ana deb ta'riflandi. Rasmiy nazariyotchilar fikricha, monarxiya g'oyasi «millat tabiatining ajralmas qismi va Eron monarxiyasining asosiy an'analaridan bo'lib qoldi».

Shoh va rasmiy mafkurachilarning islomga munosabatlari haqida alohida to'xtalib o'tish lozim. Shoh bilan shia ruhoniylari orasidagi munosabatlar oddiygina emasdi. Shoh o'zining «Mening vatanga xizmatim», «Oq inqilob» asarlarida va dasturiy chiqishlarida juda ko'p marta shialik davlat dini ekanligi haqida gapirilgan Eron konstitutsiyasidan stitatalar keltirar edi. Ammo shoh ruhoniylarning diniy va dunyoviy hokimiyatning bo'linmasligi haqidagi islom qonuni asosida siyosatga aralashishlariga yo'l qo'ymasdi. U «Shoh – Xudoning erdagi soyasi» degan shiorga urg'u berardi. Shoh o'zi o'tkazayotgan islohotni islom qonunlari bilan asoslashga harakat qildi.

Islomni modernistik talqin qilishga yo'l bergan bir qator mafkurachilar islomdan uzoqlashish, ayniqsa, shahar aholisi orasida kuzatilayotganligi haqida kuyinib gapira boshladilar.

Dunyoviy hukumatning ruhoniylar faoliyatiga aralashuviga rozi bo'lishga majbur bo'lgan shia mafkurachilari musulmonlarga o'z ta'sirlarini yo'qotmaslik uchun «dinning hukumatga to'la bo'ysunishi»ni tugatishga harakat qildilar. 60-yillarning boshlarida Tehronda Oyatulloh Mutahhariy boshchiligida Islom diniy jamiyati («Anjuman-i diniy») tashkil etildi. Mutahhariy o'sha davrda Tehron universiteti qoshidagi «Sipohsolor» madrasasida ilohiyotdan dars berar edi. Maorif vazirligi tomonidan tasdiqlangan islom bo'yicha ma'ruza o'qish uchun mo'ljallangan rasmiy dasturdan norozi bo'lgan Mutahhariy va uning ulamolardan hamda islomiy kayfiyatdagi dunyoviy ziyolilardan iborat tarafdorlari musulmon ilohiyoti bo'yicha ommaviy ma'ruzalar kursini Tehrondagi Shemiron degan joydagi maxsus mo'ljallab qurilgan uyda o'qiy boshladilar. Ma'ruzalar o'z atrofiga katta ommani jalb etdi. Unga barcha darajadagi ruhoniylar: ilohiyotchi bo'lgan va bo'lmagan talabalar, professor va o'qituvchilar, ijtimoiy va siyosiy namoyandalar qatnashdilar. Ko'pincha tortishuvga aylanib ketadigan bu ma'ruzalarni oyatulloh Bihishtiy, Toliqoniy, Mulla G'afforiy, Mahdiy Bozargon va boshqalar o'qir edilar. Keyinchalik ma'ruza matnlari uch jildlik umumiy «Go'ftar-i moh» («Oylik xabarlar») nomi ostida bosmadan chiqarildi. «Anjuman-i diniy» jamiyatining faoliyati ikki yarim yil davom etdi. «Go'ftar-i moh» sonlarida bosilgan ma'ruzalar Qum va Mashhad ruhoniylari va madrasa talabalariga tarqatildi. Erondagi shialik diniy institutlarining faoliyatlarini tahlil qilishga harakat qilgan va ilohiyotni o'qitishga o'zgarishlar kiritishni taklif qilgan ilohiyotchilarning asarlari alohida e'tiborga ega bo'ldi. 1967 yilda Qumda yuzaga kelgan hukumatga qarshi ommaviy qo'zg'alishdan keyin shoh barcha ilohiyotchilarning ommaviy chiqishlarini taqiqlab qo'ydi. Shunga qaramay, «Go'ftar-i moh» sonlarida Eron diniy institutlaridagi mavjud shialik konstepstiyalari va holatlarini tahlil qilishga harakat qilgan mualliflarning maqolalari chop etishda davom ettirildi.

Ko'pchilik shia ruhoniylari diniy va dunyoviy hokimiyatning ajralmas ekanligini yoqlab chiqdilar. Ammo buning tatbiq etilishida ularning fikri doimo bir joydan chiqavermas edi.

60-70-yillarda faoliyat ko'rsatgan shia ruhoniylarini g'oyaviy jihatdan an'anachilar, fundamentalistlar va modernistlarga bo'lish mumkin. Bu uch oqim tarafdorlari ham davlatni boshqarishda asosiy mas'uliyat ruhoniylarning elkasidadir, degan fikrda edilar. Diniy va siyosiy hukumatning ajralmas ekanligi

nazariyasi tarafdorlari orasida eng katta nufuzga ega bo'lgani Jamoliddin al-Afg'oniylidir.

Shia nazariyotchilari islomni isloh qilishga turlicha baho berdilar. Masalan, shia voizi falsafiy islomdagi har qanday islohotlarni rad etadi. Uning ta'kidlashicha, islom qonunlari «yuqoridan nozil qilingan», shuning uchun ham faqat diniy hokimiyat bo'lishi kerak, boshqaruvning xalq hokimiyati va demokratik usullari haqida so'z bo'lishi mumkin emas.

1971 yil oktyabr oyidagi Eron monarxiyasining 2500 yilligi nishonlash bayrami ruhoniylar oppozistiyasini qo'zg'atib yubordi: Eron aholisi orasida noqonuniy varaqalar tarqatila boshlandi. Ularda Xumayniy musulmonlarga bu bayramni «ochiq sharmandalik» deb e'lon qildi va musulmonlarni qonli zulmga qarshi qo'zg'olon qilishga chaqirdi.

Shohga Qum, Mashhad, Isfahon, Sheroz, Tabriz, Kirmon, Qazvin, Kuchan, Xumayndagi toliblar, mudarrislar, mujtahidlar, oyatullohlar va mullalar tomonidan norozilik telegrammalari kela boshladi. Mutahhariy, Ruhoniylar, Shiroziy kabi bir qator nufuzli oyatullohlarning maktublari nashr etildi. Ular o'z maktublarida monarxiyaning 2500 yilligi nishonlanishini «XX asrning buyuk komediyasi» deb atadilar. Oyatulloh Xumayniyning so'zlari fatvo sifatida qabul qilinib, xususan, Qum va Mashhadga yashaydigan shia ruhoniylari bu bayramni rad etdilar.

Oyatulloh Xumayniy Erondan quvilib muhojirlikda yashagan va shoh tomonidan «o'zini ruhoniylar qilib ko'rsatayotgan qallob» deb e'lon qilingan bo'lsa-da, u shialar uchun buyuk oyatullohligicha qoldi.

70-yillarda Qum shohi va hukumatiga qarshi chiqishlar qatag'onlar bilan birga bordi. Bu narsa ruhoniylarning hukumat ishlariga aralashishlariga yo'l ochib bermayotganligidan darak berardi.

Oyatulloh Xumayniy muhojirlikda yashab, shohga qarshi jangovar guruhlarining qo'llab-quvvatlashiga tayandi. U «Fedoiyon-e xalq» va «Mujtahidin-e xalq» tashkilotlari bilan aloqalar o'rnatdi. Aynan ana shu ikki tashkilot 1979 yil fevralidagi inqilobda Eron xalqiga aksilinqilobchilarga qarshi kurashda asosiy yordamni ko'rsatdi. Natijada Xumayniy ularni shafqatsiz ta'qib qila boshladi. 1978 yilning boshidayoq u ogohlantirgan ediki, islomiy harakatlarning maqsadi qandaydir guruh yoki partiyaning maqsadlaridan yuqori turadi, zero, bu harakatlarning asosiy maqsadi islom davlatini qurishdir.

1978 yilning kuzida isyonchilar shoh tomonidan beshafqat jazolanganlaridan keyin xalq qo'zg'olonlari ommaviy tus oldi. Bunday choraga javoban butun Eronni qamrab olgan monarxiya, imperializmga qarshi umumxalq qo'zg'oloni darajasiga ko'tarilgan harakat yuzaga keldi.

Bu qo'zg'olonning vujudga kelishiga 1978 yil «Ittiloot» gazetasida axborot va turizm vazirining Xumayniyga qarshi, uni haqoratlovchi so'zlar bilan chiqishi sabab bo'ldi. Bu nashr shia ruhoniylarida qarshi reakstiyani uyg'otib yubordi.

1978 yilning kuzida Eron sayyoramizning eng qaynoq nuqtalaridan biri bo'lib qoldi. Obadondagi neftni qayta ishlash zavodida, Harq orolidagi dengiz neft portida o'n minglab ishchilar ish tashladilar. Hukumatga qarshi namoyishlarda Tehron universiteti talaba va mudarrisarlari, Eron poytaxti va boshqa shaharlaridagi

ko'plab korxonalarning ishchilari qatnashib, barcha siyosiy mahbuslarni ozod qilish, o'quv yurtlari ustidan qo'yilgan polistiya nazoratini yo'q qilishni talab qilib chiqdilar. Xalq chiqishlari va namoyishlari shu darajaga etdiki, hukumat 1978 yilning 7 sentyabrida Eronning 12 katta shaharlarida harbiy holat e'lon qilishga majbur bo'ldi. Taqiqlashlarga qaramay, 8 sentyabrda poytaxtda yangi namoyishlar yuzaga keldi. Namoyishchilar harbiy holatni bekor qilish va shohning o'z mansabidan ketishini talab qildilar. Xalq va polistiya orasida keskin to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. 8 sentyabr kuni Eron xalqi tomonidan «Qora juma» deb e'lon qilindi.

1979 yil 1 fevralda 15 yillik quvg'indan so'ng Oyatulloh Xumayniy Eronga qaytdi. Mamlakatda qo'shhokimiyat vujudga keldi: Shohpur Baxtiyorning hukumati bilan bir vaqtda Xumayniy tomonidan Franstiyadan qaytganidan so'ng tayinlangan M. Bozargon boshchiligidagi Vaqtli inqilobiy hukumat faoliyat ko'rsata boshladi.

1979 yil 11 fevralda butun mamlakatga yoyilgan Tehron qurolli qo'zg'oloni boshlandi. Unda «Fidoiyon-e xalq» va «Mujtahidin-e xalq» tashkilotlari faol qatnashdi. Shoh tomonidan qo'yilgan Sh. Baxtiyor hukumati ag'darildi va majlis tarqatib yuborildi. Shu daqiqadan boshlab Bozargonning Vaqtli inqilobiy hukumati ijrochi hukumatga aylandi. Ammo haqiqiy rahbarlar – Oyatulloh Xumayniy, Bihishtiy, Mutahhariy, Muntaziriy, Toliqoniy, Xalxoliylar edilar.

1979 yil 1 aprelda umumxalq referendumini o'tkazilganidan keyin monarxiyaning ag'darilganligi va Eron Islom Respublikasining tashkil etilganligi e'lon qilindi. Xumayniy buni «Xudo tomonidan Eron xalqiga berilgan ulug' ne'mat» deb baholadi. U o'z qarorgohini avval Qum shahrida, keyinchalik esa Tehronda belgiladi.

Janubi-Sharqiy Osiyo. Bu mintaqaga islomning kirib kelishi boshqa musulmon o'lkalaridagidan farqli o'laroq, nisbatan tinch kechdi. Bu jarayon bir necha o'n va hatto yuz yilliklarga cho'zildi.

Islom davlatlari – Arab davlati vujudga kelgan o'sha davrda arab qo'shinlari bu erlarga kelmagan bo'lsalar-da, birinchi arab savdogarlaridan iborat aholi punktlari bu mintaqada VII – VIII asrlardayoq paydo bo'lgan edi. Bunday punktlar Arabiston yarim orolini Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo bilan bog'laydigan serqatnov dengiz yo'llari bo'yida paydo bo'ldi. Aynan o'shalar islom dinini mazkur o'lkalarda tarqatishda katta rol o'ynadilar. Bu mintaqaga islomni olib kirishda arablardan tashqari hind, fors va xitoylik savdogarlarning xizmatlari ham katta bo'ldi. Savdogarlar ushbu mintaqaning turli burchaklarida asos solgan savdo markazlarining ko'pchiligi hozirgi kungacha mavjud bo'lib, ular diniy faoliyat markazlari sifatida mahalliy musulmonlarni tashqi islom olami bilan bog'lab turadi.

Bu erlarga islomning arab bo'lmaganlar tomonidan kiritilishi o'zining muayyan ta'siriga ega. Mintaqadagi islom o'rta asrlarda Arabistonda mavjud bo'lgan islom ko'rinishidan farq qilib, unda mahalliy an'analar, hind, fors va boshqa millatlarning urf-odatlarini aralashib ketgan.

Islom dinini mahalliy aholi orasida birinchi bo'lib Malakka yarim orolining sohil mintaqalari va Sumatra orolining shimoliy qismida yashovchi xalqlar qabul

qildilar (XI – XIII asrlar). Natijada XV asrda taraqqiy etgan Malakka Sultonligidan chiqqan din tarqatuvchi savdogarlar o'z faoliyatlarini kengaytirib yubordilar. XV – XVII asrlarda Yava, Bruney, XV – XVI asrlarda G'arbiy Sumatra, XV asrning ikkinchi yarmida Patani, XIV – XV asrlarda Sulu va Mindanao, XV – XVIII asrlarda Arakana aholilari islomni qabul qildilar. Yangi din Yava orqali Janubiy Sumatranga (XVIII – XIX asrlar), Janubiy Kalimantanaga (XVI – XVII asrlar), G'arbiy Sumatra orqali Sulavesiga (XVII asr) kirib keldi. Mintaqada islomlashuv jarayoni hozirgi kungacha davom etmoqda. Ayniqsa, islomni ommaviy tarzda qabul qilish Sabax va Saravakning eng ichkari mintaqalarida yuz bermoqda.

Ammo islom dini turli joylarda musulmonlarning maishiy va ma'naviy hayotlariga bir xilda kirib borayotgani yo'q. Turli xalqlar va hatto, turli rayonlardagi islomning ko'rinishi bir-biridan farq qiladi. Islomga eng qattiq berilgan xalqlar bu ilgari da'vatchilar sermahsul faoliyat olib borgan rayonlardir. Yava, Sumatra, Arakanada islom avvalgi dinlar – hinduizm va buddizmga duch keldi hamda ular bilan birga mavjud bo'lib, o'ziga xos ko'rinishni oldi.

Mintaqada musulmon jamoalarining shakllanishi mahalliy tarixning suronli o'zgarishlari davriga to'g'ri keldi. Ilgari qudratli hisoblangan Tyampa (XV asr), Malakka va Majapaxita (XVI asr) davlatlari quladi hamda mintaqaga Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya, Franstiya mustamlakachilari kirib kela boshladi. Bu davrda hali islom davlatchiligi mustahkam ildiz otmagan edi, shuning uchun ham o'zga erlik bosqinchilarning bu erlarga kirib kelishi musulmonlar uchun juda sezilarli bo'ldi. Masalan, islomlashtirilgan Tyampa erlarining avval Vetnam, XIX asrda Franstiya qo'shinlari tomonidan bosib olinishi yuqori mansablarni egallagan musulmon ruhoniy va ilohiyotchilariga qattiq zarba berdi. Qulagan Tyampa davlatidagi sanoqli oliy tabaqali oilalargina qo'shni Kxmer qirolligidan boshpana topdilar. Ammo bu qirollik ham XIX asrning ikkinchi yarmida Franstiya qo'liga o'tdi.

Janubi-Sharqiy Osiyoning mustamlakachilar o'rtasida bo'lib olinishi ilgarigi ichki mintaqaviy o'zaro aloqalar yo'lida mustahkam to'siqlar paydo qildi. Shuning bilan birga ko'pgina mahalliy musulmon jamoalarini xristian mustamlakachilar tomonidan tashqi dunyodan to'sib qo'yish boshlandi. Ammo ba'zi aloqa yo'llari saqlanib qoldi. Masalan, hajga borish, Naqshbandiya, Qodiriya kabi sufiylik harakatlarining faoliyati davom etdi.

Janubi-Sharqiy Osiyoda islom islohotchilik harakatlari G'arbdagi ana shunday g'oya va harakatlar ta'siri ostida XIX asr oxirlari va XX asr boshlariga kelib, avvalo, Singapur, Malayziya va Indoneziyada jonlana boshladi. Keyinchalik ular qatoriga yavaliklar, minangkabauliklar va birmaliklar qo'shildilar. Ular, asosan, islomni zamonaviy fan-texnika yutuqlariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, diniy e'tiqodga oid asarlar faqat arab tilida emas, balki mahalliy tilda ham bo'lishi lozimligiga ko'proq e'tiborni qaratishdi, mustamlakachilarga qarshi kurash g'oyalari ularning faoliyatlarida unchalik sezilmadi.

Har doimgidek, islohotchilik chiqishlari diniy-aqidaviy masalalarni qayta ko'rib chiqish va islomga yangicha qarashni targ'ib qildi.

«Musulmon millatchiligi»ga chaqiruvchi da'vatchilarning ta'siriga ko'proq indoneziyaliklar berildilar. XX asrning ikkinchi o'n yilligidayoq ular mamlakatda birinchi bo'lib Indoneziyaning milliy qayta tiklanishi uchun kurash bayrog'ini ko'targan «Sarekat islam» ommaviy tashkilotini tuzdilar. X. Chokroaminoto boshchiligidagi «Sarekat islam» tashkiloti sostializmga o'xshash ta'limotni – «xalq davlati» konstepstiyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra davlat xalq qo'lida bo'lib, ularning vakillaridan tuzilgan armiya tomonidan qo'riqlanadi. U «G'arb demokratiyasi»ni qat'iy qoraladi. Ammo mustamlakachilardan ozod bo'lgan mamlakat kommunistlar qo'lga o'tib qolishidan xavfsirar edi.

20-30-yillarda Agus Salim boshchiligidagi «Sarekat islam» namoyandalari «musulmon sostializmi» haqida gapira boshladilar. Ular islomiy musaffolik, taqvodorlik, qonunga itoatkorlikka chaqirdilar. Shu bilan birga, ular fuqaro ozodligi, saylovlar, siyosiy mustaqillikni yoqlab chiqdilar.

«Sarekat islam» ichki kelishmovchiliklar natijasida bir necha yo'nalishlarga bo'linib ketdi. Yavada 1926 yilda konservatorlar tomonidan «Nahdat al-ulamo» nomli birlashma tashkil etildi.

Birmada 20-30-yillarga kelib islohotchilarning qatori mahalliy namoyandalar bilan kengaya boshladi. Ular orasida ikkiga bo'linish yuz berdi. Ulardan liberal-konservativ doiralar Hindistonga sodiqlik yoki panislomizm mavqeini egallagan bo'lsalar, radikallar mustaqil Birma g'oyasiga sodiq qoldilar. Bunday holatdan foydalangan angliyaliklar ikki o'rtada nizo chiqarib, to'qnashuvlarni yuzaga keltirdilar.

Hozirgi davrda islom faqatgina Bruneyda rasmiy davlat dini sifatida tan olinadi. Bu erda musulmonlar aholining 63 foizdan ko'prog'ini (85 ming kishi) tashkil qiladi. Mintaqada eng kichik hisoblangan Bruney musulmon jamoasi o'z yurtida ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning asosiy qismi malayziyaliklar, lekin arablar va hindlar ham bor. Bruney aborijenlari (kadazanlar, kedayanlar, ibanlar, melanau va h.k.) orasida yaqin zamonlargacha animistik e'tiqodlar ustuvor edi. Hozirda esa ular faol ravishda islom va xristian dinlariga jalb etilmoqda. Mamlakat konstitustiyasi islomdan boshqa dinlarga e'tiqod qilish erkinligini tan oladi. Ammo bunda boshqa din vakillari tinchlik va kelishuvchilik asosida yashashlari shart qilib qo'yiladi. Yana unda bosh vazir va viloyat hokimi shofi'iylik mazhabidagi musulmon bo'lishi va sulton huzurida islom ishlari bo'yicha maslahatchi – mufti turishi kerak deb ko'rsatib qo'yilgan.

Hukumat 1955 yilda chiqargan va 1960 yilda to'ldirilib tasdiqlangan qarorga ko'ra mufti Bruney diniy kengashining ishini boshqaradi.

5,5 mln. musulmoni bo'lgan (aholining 44 foizi) Malayziyaning faqat G'arbiy Malayziya viloyatlaridagina islom dini davlat maqomiga ega bo'ldi. 60-yillarning oxirlarida G'arbiy Malayziya musulmonlarining ko'pchiligini malayziyaliklar tashkil etar edi. Ular orasidagi arab va hindlardan iborat musulmonlar katta nufuzga ega edilar. Musulmon bo'lmaganlar orasida ko'pchilikni (aholining 35 foizdan ko'prog'ini) daosizm, buddizm, konfutsiychilik dinlariga e'tiqod qiladigan xitoyliklar tashkil qilganlar. G'arbiy Malayziyada yashovchi semanglar, senoylar, jakunlar animizm diniga e'tiqod qiladilar.

Sharqiy Malayziya viloyatlarida musulmonlar ozchilikdan iborat: Saravakda 23,4 foiz (174 ming)ni, Sabaxda 37,9 foiz (117 ming)ni tashkil etadilar. Ularning asosiy qismi malayziyaliklar bo'lib, ular orasida kadazanlar, badjaolar, klemantanlar, melanaular va boshqa millat vakillari ham bor.

Malayziya Federastiyasining konstitustiyasida va Malayziya Federastiyasida konfessional asosdagi ayirmachilikni taqiqllovchi moddalar mavjud. Shuningdek, musulmonlar orasida boshqa dinga yoki islomning sunniylikdan boshqa yo'nalishlariga targ'ibot olib borish qattiq taqiqlanadi. Yana shu narsa ta'kidlanadiki, har bir rasman tan olingan diniy jamoa o'zining shaxsiy mulkidan bemalol foydalanib, ichki ishlarni olib borishlari, xayriya, missionerlik tashkilotlarini va o'quv yurtlarini ta'sis etishi, qonunga muvofiq ravishda ularda ish yuritishlari mumkin. Davlat muassasalari diniy tashkilotlarning ishlarida moliyaviy hamkorlik qilishlari, shu bilan bir vaqtda ularning daromad va xarajatlarini nazorat qilishlari mumkin. Musulmonlarning ruhoniylar rahbarlari viloyat sultoni sifatida, monarxiya asosidagi tuzum mavjud bo'lmagan joylarda esa ular davlatning eng yuqori rahbari sifatida tan olinadi. Viloyat rahbarlarining asosiy vazifasi shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qilishdan iborat.

1963 yilda Saravakda qabul qilingan konstitustiyada shunday modda mavjudki, islom dini ishlari bo'yicha mahalliy kengashning uch a'zosi viloyatning oliy ma'muriyatiga kirishi shart. Sabax va Saravak hokimlari mahalliy musulmonlarga federal hukumat tomonidan moliyaviy yordam berish huquqiga ega. Islom davlat dini degan qonun Malayziyaning bu ikki viloyatlariga tatbiq etilmagan.

Bu qonun Singapurga ham joriy etilmagan. Singapur musulmon jamoasi etnik jihatdan G'arbiy Malayziya bilan bir xil, ammo son jihatdan kamroq (345 ming kishi yoki aholining 15 foizi). Uning asosiy qismini malaylar, oqsuyaklarning asosiy qismini esa arablar va hindistonliklar hamda arablarning malaylar bilan aralash nikohidan tug'ilgan metislar tashkil etadi. Musulmonlardan keyingi o'rinda konfutsiychilik, buddizm, daosizm va hozirda xristianlikka e'tiqod qiladigan xitoyliklar turadilar.

XX asrda davlat va din munosabatlari bir necha bor o'zgardi. Filippin, Sharqiy Malayziya, Janubiy Vetnam, Singapur va Birma (Myanma) qonunchiligida davlatning dinga munosabati o'ndan besh holatda sekulyaristik (davlat va dinni ajratish) tabiatga ega bo'ldi. Bruney va G'arbiy Malayziyada (xususan, Malay shtatlarida) islom davlat dini edi. Kambodja va Tailandda davlat dini deb buddizm qabul qilingan, ammo birinchi o'rinda vijdon erkinligi haqidagi qonun e'lon qilinib, undan keyingina diniy e'tiqod bilan kelishuvchilik tan olingan. Indoneziyadagi vaziyat o'zining shaklini osongina o'zgartiruvchanligi bilan ajralib turadi. Natijada bu davlatni sekulyar deb ham, diniy deb ham atash mumkin.

Kambodjada musulmon jamoalarining ishiga hukumat aralashmaydi. Ular ko'proq buddizmga e'tiborni qaratadilar. Ammo kult ishlari vazirligi islomni o'z otalig'iga olgan.

Janubiy Vetnamdagi tyam musulmonlari Saygon tuzumi ostida uzoq vaqt haq-huquqlari cheklangan va kamsitilgan holda edilar. Faqatgina 60-yillarning boshlariga kelib Vetnam musulmonlari tashkiloti tuzilishiga ruxsat berildi.

Selangor, Paxanga, Negri Sembilan, Malakkada islom diniga mahalliy majlisning buyrug'i bilan o'tildi. Selangorda faqat qozining yozma ruxsatnomasi bilangina islomdan ta'lim berish mumkin edi. Kedax, Perlis, Kelantan, Paxanga, Negri Sembilan, Penangada huquqni majlis, Trenganuda esa diniy departament belgilardi. Bu erda masjidlarda islomdan boshqa dinga targ'ibot ishlarini olib borganlar, Selangor, Kelantan, Negri Sembilan, Kedax, Perlis, Paxangada islom dinini buzganlar va sahna asarlarida Qur'ondan oyat keltirganlarga nisbatan jarima – qamoq jazosi belgilandi. Barcha qonunbuzarliklar maxsus nazoratchilar tomonidan hisobga olib borilardi. Ular polistiya bilan hamkorlikda jinoyatchilarni jazolar edilar. Trenganu va Kelantanda – 1915, Perlisda – 1930, Joxorda – 1934, Negri Sembilanda – 1957, Saravakda – 1967 yildan boshlab zakot bermaganlarni jazolay boshladilar. Bir qator viloyatlarda juma namoziga kelmaganlar va ro'za tutmaganlar jarimaga tortildilar.

Perakda islom ishlari va Malayziya odatlari bo'yicha departament «fikrni chalg'itib, xayolni buzadigan» kiyim kiyishni deyarli taqiqlab qo'ygandi; bunday kiyimlar qatoriga evropacha tikilgan shim va yubkalar kirardi.

XX asrning o'rtalarida Kambodja va Bruneyda diniy holat nisbatan barqaror edi. Birinchi holatda musulmonlar hukumat nazaridan chetda qolgan bo'lsalar, ikkinchi holatda esa an'anaviy islom qonunlarini saqlab qolish uchun diqqat markazida bo'ldilar. Janubi-Sharqiy Osiyodagi qolgan mamlakatlarda mahalliy musulmon jamoalari muammolariga yondashuvda doimiy o'zgarishlar yuz berib turdi. Bu o'zgarishlarga, bir tomondan – diniy, ikkinchi tomondan – etnik va ijtimoiy taraqqiyot muammolarini hal qilishdagi ikki tomonlama bog'liqlik sabab edi. Davlatlardagi musulmon jamoalarga munosabat ularning konfessional ko'pchilikni yoki ozchilikni tashkil etishlariga qarab har xil bo'ldi.

Mintaqada musulmon g'oyaviy oqimlarining rivojlanishi, odatda, islohotchilik harakatlari an'anaviy islomdagi asosiy ta'limotlarga dunyoviy ta'limotlarni ham ilova qilishdan boshlanadi. Filippinlik peshqadam islohotchilardan biri Alunan Glangning ta'kidlashicha, buning natijasida hayotdagi ikki soha orasida qat'iy chegara belgilanadi. Bu ikki sohadan birinchisi – dinni o'z ichiga oladigan ma'naviyat, ikkinchisi – siyosat, iqtisod, jamiyat va madaniyatni o'z ichiga oladigan dunyoviy sohadir. Islohotchilikda dunyoviy ishlarning muhimligiga asosiy ahamiyatni qaratish bilan birga imon, savob tushunchalari hamda ijtihod, ijmo' va tavhid tamoyillari o'ziga xos ravishda talqin qilina boshlandi.

Islohotchilar islom ta'limotini va musulmonlar e'tiqodini buzadigan keyinchalik to'qilgan soxta hadislar, paydo bo'lgan bid'atlar borligini ro'kach qilib, taqlid uslubini tanqid qilib chiqdilar. Mavjud holatdan chiqishning birdan-bir yo'li – «ijtihod eshiklari»ni ochish va ijmo'ga asoslangan holda islom dini merosini qayta ko'rib chiqishda deb bildilar. Ulamolarning birgalikda qabul qilgan fikrlari qonuniy deb tan olinishiga asoslangan bu qoida islohotchilarga o'z g'oyalarini qonuniylashtirish uchun kerak edi. Islohotchilar, o'z fikrlaricha, barchaning ko'nglidagi yagona fikrni olg'a surardilar. 60-yillarning o'rtalarida, xususan, hindixitoylik modernistlar malayalik hamfikrlari oldida taqlidga qarshi kurash yo'lida ijmo'dan foydalanish masalasini ko'tardilar. Bunga javoban ular to'la qo'llab-quvvatlanishga erishdilar, yana unga qo'shimcha ravishda ikki-uch o'n yilliklar oldin Indoneziya, Malaya va Singapurdan chiqqan islohotchilik

bo'yicha salaflari ijmo' tamoyiliga asoslangan holda taqlidga qarshi kurashganliklari haqidagi ma'lumotni oldilar.

Endilikda savobga erishish uchun faqatgina diniy vazifalarni amalga oshirish emas, balki o'z farovonligi yo'lida mehnat qilish, oila, jamiyat, xalq, millat, butun «islom olami»ning taraqqiyoti uchun harakat qilish ham lozimligi uqtirildi. Malayziyalik Abu Bakr Hamzaning yozishicha, savob ishlar bilan mustahkamlanmagan imon o'likdir. Bu dunyodagi hayot narigi dunyo va jannatdagi hayot uchun «hosil etishtiriladigan ziroatgoh» deb qaraldi.

Tavhidni talqin etishda mutlaqo dunyoviy maqsadlar ilgari surildi. Mustamlakachilik davrida bu g'oyaga mustamlakachilarga qarshi kurash maqsadida suyanilgan bo'lsa, mustaqillik davrida esa yosh davlatlarning mustaqil taraqqiyotiga chetdan iqtisodiy aralashuvni qoralash maqsadida unga asoslanildi. Singapurlik mashhur islom dini vakili professor S.Nagib Alatasning fikricha, tavhid musulmonlarning imperialistik ekspansiya qarshisida birlashishlarini bildirardi. Uning ta'kidlashicha, tavhid g'oyasi musulmonlar ustidan yagona Xudoning hukmron ekanligidan kelib chiqadi. Xuddi ana shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bruneylek Avang Badaruddin shunday fikrni ilgari surdi: tavhid shuni anglatadiki, «hech qanday odam yoki xalq Allohning dini ustidan yakkahokimlik qilish huquqiga ega emas». Yanada oydinlashtiriladigan bo'lsa, bu fikr Bruneydagi arab sayyidlari va hind shayxlariga qaratilgan edi. Chunki ular o'zlarining diniy mansablaridan turli biznes sohalarida o'z raqiblariga qarshi yuqori imtiyozlarga ega bo'lish uchun foydalanardilar.

Islahotchilik harakatlari natijasida 40-50-yillarga kelib mintaqadagi ko'pgina mamlakatlar mustamlakachilikdan ozod bo'ldilar, ammo ular orzu qilganlaridek islom davlati o'rnatilmadi.

Yangi ozod bo'lgan mamlakatlarda ikki xil kayfiyatdagi kishilarning kurashi ketdi: ulardan biri mustamlakachilik asoratlarini tezroq tugatish payida bo'lsalar, ikkinchilari esa tezroq hokimiyatga erishish fikrida bo'ldilar.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mintaqada faoliyat olib borgan har qanday islrohochilik harakatlari davlatchilik haqidagi ta'limotlarni ham o'z ichiga olmay qolmadi.

Boshlang'ich bosqichda boylikka, dunyoga berilishga qarshi bo'lgan islrohochilik kayfiyatlari keyinchalik kapital to'plash, hayotning dunyoviy sohalarini rivojlantirish lozimligiga urg'u berishga qaratildi. Endilikda, o'rta asrlardagidan farqli o'laroq, musulmonning vazifalari orasiga mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qilish va shu yo'l bilan imonini mustahkamlash qo'yildi. Islom islrohochilari endilikda o'zlari va o'z oilalarini moddiy tomondan yaxshilab ta'minlashdan bosh tortganlarga qarshi jehod e'lon qildilar.

Kommunistik tuzumga qarshi islrohochilar shunday fikrni ilgari surdilar: «Musulmonlar xudosiz jamiyatda yashaganlaridan ko'ra och yashaganlari afzal».

«Islom iqtisodiyoti» ham turlicha talqin etildi. Masalan, S. Husayn Alatas ishlab chiqarishning texnik bazasini kengaytirish, sanoatlashtirish, iqtisodiy imkoniyatlardan unumli foydalanish va xo'jalik faoliyatini rejalashtirishga asosiy o'rinni berdi. S. Husayn Alatasning bu fikrlari uning ingliz tilida chop etilgan asarlarida keltirilgandi. Ammo mahalliy tildagi ishlarida esa u birinchi o'rinda shariat talablarini bajarish lozimligi, ana shundagina taraqqiyotga erishish mumkin ekanligi haqida yozar edi. Singapur universitetida iqtisodiyot fanlaridan

dars beradigan Ashariy Zahriy ham islom qoidalariga so'zsiz amal qilinishi lozimligi va bu yo'l bilan kapitalizmga qarshi tura olish mumkinligi haqida gapirar edi. Uning yozishicha, kapitalizm yo'li boylarning boyishiga va kambag'allarning qashshoqlashuviga olib keladi. Bundan tashqari, Abdurahmon, Ali Ahmad, Ali Abdulloh, Buyon Odil, Rajo Asmon Rajo Ismoil va shu kabi uchinchi guruh vakillari esa kapitalizm moddiy jihatdan boyib, ma'naviy jihatdan qashshoqlashuvga sabab bo'ladi, deb ta'kidladilar.

Na Singapur, na Malayziya «islom iqtisodiyoti»ning mahalliy variantlari ko'pligi jihatidan Indoneziyadan o'tib keta olmadilar. Ulardan ba'zilari «islom sostializmi» haqida gapirsalar, ba'zilari kapitalistik yoki kommunistik taraqqiyot yo'li afzalligini yoqlab chiqdilar.

Keltirilgan misollardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, XX asr o'rtalarida Janubi-Sharqiy Osiyodagi iqtisodiyotning taraqqiyotida islom omili juda katta edi. Bu omil vaziyat va davrga qarab islohotchilar tomonidan turlicha talqin etilar edi.

Mutlaqo ijtimoiy masalalar islohotchilar tomonidan ishlab chiqilgan diniy-aqidaviy, iqtisodiy, xususan, siyosiy masalalar bilan chambarchas bog'liq edi. Ulardan qoloqlikdan taraqqiyotning zamonaviy darajasiga ko'tarishga qaratilgan rasmiy siyosat muhim ahamiyatga ega edi. Siyosatning bunday yo'naltirilishi jamiyat dunyoqarashi va yangilikni qabul qilishiga e'tiborni qaratishni ham o'z ichiga olmay qolmasdi. Bir qator islom namoyandalari Muhammad payg'ambarni «birinchi sostialist», islomni esa «sostialistik» din deb talqin etdilar.

XX asrning o'rtalarida Indoneziya ikki marta: 40-yillarning o'rtalari va 60-yillarning boshlarida «musulmon sostializmi» g'oyasining faollashuvini boshdan kechirdi. Malayziya va Singapurda bunday jarayon 60-yillarning ikkinchi yarmida, Filippinda esa 60-yillarning oxiri va 70-yillarning boshlarida kuzatildi. Natijada «sostialistik» bo'yoqqa bo'yalgan bir necha xil islohotchilik ta'limotlari paydo bo'ldi.

Rustam Arozal kabi ba'zi nazariyotchilar marksizmning ijtimoiy asoslari bilan islomning ijtimoiy asoslari orasida bir xillik bor, deb ta'kidladilar. Ammo bu nazariyotchilarni liberal mafkurachilar bilan ijtimoiy hayotni tartibga solishda islom dinini mutlaqlashtirish, dindorlarga nisbatan ijtimoiy sokinlik va sinfiy kurash nazariyasini inkor etish yaqinlashtirgan bo'lsa, hozirgi davrdagi jamiyat turmushini nobop deb baholash, uni ilk islom tartiblari asosida qayta qurishga chaqirish, shu bilan birga, «musulmoncha tenglik, birodarlik va adolat»ga muvofiq talqin etilgan an'anaviy-odat (*gotong-royong*) va «oilaviy birdamlik» (*kekeluargan*) bilan hamkorlik qilishga tayanish ularni bir-biridan ajratib turar edi.

Juda ozchilik jamiyatda ayolning teng huquqli ekanligini yoqlab chiqdi. Ular qatorida birmalik Surma, sabaxlik Sayyid Ismoil, G'arbiy Malayziya viloyati Kelantandan Abu Bakr Hamzalar bor edi. Yangicha ijtimoiy tuzum shakllarining vujudga kelishida ayollar masalasi ikkinchi o'rinda turar edi.

Xamka ijtimoiy organizmni inson organizmiga o'xshatadi, bu a'zolardan har biri boshqalarining hayot kechirishlari uchun xizmat qiladi. Uning aytishicha, har kim o'z o'rnini egallab, jamiyatdagi vazifasini to'la ado etishdan bosh tortmasagina to'la adolat qaror topishi mumkin. Xamka inson agar o'zi, bolalari, ayoli, do'stlari, qo'shnilari, vatandoshlariga nisbatan adolatli bo'lsa, jamiyatda adolat o'z-o'zidan qaror topadi, degan fikrni juda ko'p takrorlardir. Musulmonlar o'zaro tengdirlar, chunki ular «Allohning qullari»dirlar. «Demokratik

mamlakat»da esa kishilar o'z o'rinlarida turib yuqorilab ketishlari mumkin, ammo bunday taqdir hammaga ham nasib etavermaydi, degan so'zlar bilan demokratiyani tanqid ham qilib o'tdi.

Ayolning jamiyatdagi kamsitilgan huquqini himoya qilish yo'lida Burhoniddin al-Hilmiy, Aziz Toib va Usmon al-Muhammadiy boshchiligidagi radikallar qat'iy va davomli kurash olib bordilar. Ular musulmon bo'lmaganlarning huquqlari himoya qilinishi va konfessional asosdagi kamsitilishga yo'l qo'ymaslik haqida ham o'zlarining qat'iy fikrlarini bildirdilar. «Barcha boylar va hayotdagi kuchlilar kambag'allarning elkasida o'tiradigan ijtimoiy piramida»ni tezroq bartaraf etishga katta e'tibor qaratildi. Bunday vaziyat ijtimoiy tanazzul va qulash bilan tenglashtirildi. Mavjud tuzumga raqobatchi sifatida ilk islom davridagi tenglik, birodarlik, adolat asosidagi jamiyat qo'yildi.

Janubi-Sharqiy Osiyodagi ijtimoiy ta'limotlar orasida «rivojlangan G'arb»dagi demokratiya, kapitalizm, sostializm g'oyalari ham ilgari surilgan bo'lsa-da, ular orasida «islom jamiyati», «islomiy adolat» g'oyalari alohida o'rinni egalladi. Bu g'oyalarning barchasi mintaqaga xos ko'rinishda, an'anaviy urf-odatlarini chetlab o'tmagan ravishda amalga oshirilishi lozimligi alohida ta'kidlandi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Islomning mintaqaviy formalari uchun umumiy va xususiy jihatlar qaysilar?
2. Arab islomi va siyosati masalasida nimalarni ayta olasiz?
3. Erondagi diniy siyosat nimalar bilan farqlanadi?
4. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida «islom iqtisodi» tushunchasi nimani anglatadi?
5. Islom olami deganda nimani tushunasiz?
6. Misr Arab Respublikasi ichki siyosatida islom qanday o'rinni egallaydi?
7. Saudiya Arabistoni hayotida Muhammad ibn Abd al-Vahhob ta'limoti qanday o'rin tutadi?

Adabiyotlar

1. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
2. Azimov A. Islom va hozirgi zamon: Ma'ruzalar matni. T., 2000.
3. Husniddinov Z.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. T., Movarounnahr, 2000.
4. Борисов А.Б. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта (XX век). М., 1991.
5. Валькова Л.В. Саудовская Аравия: нефть, ислам, политика. М., 1987.
6. Васильев Л.С. История Саудовской Аравии. М., 1982.
7. Жданов Н., Игнатенко А. Ислам на пороге XXI века. М., 1989.
8. Ионова А. Ислам в Юго-Восточной Азии: проблемы современной идейной эволюции. М., 1981.
9. Ислам. Энциклопедический словарь. М., 1991.
10. Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Вып. 1. М., 1998.

11. Мунавваров З.И. Организация Исламской Конференции // Маяк Востока, 1996, №1-2, С. 89-91.
12. Примаков Е.М. История одного сговора. М., 1985.

O'RTA OSIYODA ISLOM DINI

Islomlashuv jarayoni. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bevosita arab istilolari va arablar ko'p asrlik hukmronligining o'rnatilishi bilan bog'liq. O'rta Osiyoga arab yurishlari qariyb 643-644 yil atroflarida boshlangan bo'lsa ham, o'lkani uzil-kesil bosib olishga uzoq davrli kurashdan so'ng faqat arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704-715) erishdi. Mintaqada yangi siyosiy kuchning paydo bo'lishi oqibatida O'rta Osiyo ikki qismga bo'lindi: 1) Movarounnahr («Ikki daryo oraliq'i»), va 2) Arodi at-turk («Turklar erlari», ya'ni arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar erlari). Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kecha boshladi.

Movarounnahrning islomlashuviga quyidagi ikki omil bevosita o'z ta'sirini o'tkazdi. Abu Muslim (747-755) qo'zg'oloni davrigacha O'rta Osiyo islomdan oldingi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) o'z mavqelarini saqlab turdilar. Jumladan, ular mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig'ish vazifalarini bajardilar. Umaviy hukmdorlari mamlakat ichki ishlariga bevosita aralashmasdan mahalliy sulolalardan o'lpon olish bilan cheklanardilar. Ba'zida bu o'lpon mahalliy aholidan yig'ilgan jizya (boshqa din vakillaridan yig'iladigan soliq) sifatida qabul qilinardi. Bu esa keyinchalik islom dinini qabul qilgan aholidan oddiy soliq yoki jizya yig'ish masalasida chigallikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ikkinchi omil Umaviylar davrida (661-750) arablarning mahalliy aholi tarafidan islom dinini qabul qilishga monelik qilishlari bilan bog'liqdir. Chunki arablar ilk davrda talay imtiyozlarga ega edilar. Bu davr qoidalariga ko'ra, islom dinini qabul qilgan kishi «arab»ga aylanardi, ya'ni jamiyatda arablar kabi imtiyozlarga ega bo'lardi.

Bu holda mahalliy musulmonlardan jizya olmaslik, arab va arab bo'lmagan musulmonlarning teng huquqliligi uchun kurash olib borgan murji'ylarning diniy-siyosiy g'oyalari Movarounnahrda keng tarqalish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Chunki o'lkada arab bo'lmagan musulmonlarning haq-huquqlari arablar tomonidan poymol etilardi. Murji'ylarning faol harakatlari VII asrning 20-40-yillariga to'g'ri keladi. Murji'iy al-Horis ibn Surayj qo'zg'oloni (734-746) Movarounnahr aholisi tarafidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. I/VII asrda shakllana boshlagan murji'ylarning aynan imon va amalning ayri ekanligi haqidagi qarashlari bu hududda erli aholining hech bir qiyinchiliksiz islomni qabul qilishlariga, shuning barobarida, yangi shakllanayotgan islom jamiyatida teng huquqlilikka erishishlariga qulay sharoit yaratib berdi; keyinchalik esa ular garchi arab tilini, qiyin diniy amallarni, o'zlariga butkul yot muhitni to'la anglab etmasalar-da, ijtimoiy mavqelari va milliy-madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Abu Muslim (749 yil) harakati g'alabasi oqibatida arab bo'lmagan musulmonlarning arablar bilan teng huquqlilikka erishishi natijasida

murji'iylik g'oyalari siyosiy-ijtimoiy sohadan ilohiyot fani jabhasiga ko'cha boshladi.

Moturidiya ta'limotining shakllanishi. Murji'iyalar ta'limotiga ko'ra, insonning tilda (*iqrar bi-l-lison va tasdiq bi-l-qalb*) dinni qabul qilishi, uni musulmon deb tan olish uchun kifoya qiladi. Diniy amallarning to'liq bajarilishi ikkinchi darajali masaladir. Keyinchalik murji'iyalar g'oyalari asosida ilohiyot fanida uch yirik ta'limot – Najjoriya, Karromiya va Moturidiya shakllanadi. Moturidiya kalom maktabining vujudga kelishida Samarqand ulamolar muhiti katta rol o'ynadi. Bu davrda Movarounnahr siyosiy markazi arablar ta'siri ostida shakllangan Buxoro shahri bo'lsa ham, madaniy va iqtisodiy hayotda Sug'diyonaning qadimgi poytaxti hali salmoqli o'rin tutar edi. Milliy qadriyatlarni, jumladan, ilohiyot sohasida eski an'analarni ko'proq saqlab qolgan Samarqand madaniy muhitida yangi ta'limotning vujudga kelishi bejiz emas edi. U. Rudolf tadqiqotlarining ko'rsatishicha, Moturidiya ta'limotining paydo bo'lishi bir necha bosqichlarda yuz berdi. Birinchi bosqich murji'iy-hanafiy ilohiyotchilari Abu Muqotil as-Samarqandiy (vaf. 823 y.) va Ahmad ibn Nasr al-Atakiy (IX asr) nomlari bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichda Samarqandda al-Juzjoniya (Abu Bakr al-Juzjoni, Abu Mansur al-Moturidiy, al-Hakim as-Samarqandiy), al-Iyodiya (Abu Bakr al-Iyodiy, Abu Ahmad al-Iyodiy, Abu Salama as-Samarqandiy) maktab vakillari faol harakat qildilar. Ular shu diyorda faoliyat ko'rsatayotgan Abu Hafs al-Buxoriy va Nusayr ibn Yahyo al-Balxiy maktablari bilan birgalikda «ahl as-sunna va-l-jamo'a» nomini oldilar. Keyinchalik uchinchi bosqichda mazkur maktablar ta'limoti o'zaro ta'sir jarayoniga kirishib, XI asrda Abu-l-Mu'in an-Nasafiy (vaf. 1115 y.) va Abu-l-Yusr al-Pazdaviy (vaf. 1100 y.) sa'y-harakatlari bilan ilohiyot tarixiga Moturidiya ta'limoti nomi bilan kirdi. Bu ta'limot keyinchalik Samarqanddan butun islom olamiga tarqalib, ahl as-sunnaning Ash'ariya bilan bir qatorda ikki ilohiyot maktabidan biriga aylandi.

So'nggi tadqiqotlar Movarounnahr hududlarida islomning ilk davrlarida rastionalizmning keng tarqalganligi haqida guvohlik beradi. O'lkada tabiiyot (Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy) va falsafa (Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Sino) ilmlari bilan bir qatorda rastionalistik diniy ilmlar ham barq urib rivojlandi. Mu'taziliylar, ismoiliylar, ilk sufiylar (al-Hakim at-Termiziy) madaniy hayot tarixida chuqur iz qoldirdilar. Bunga javoban islom dunyosining markaziy hududlaridan tradistionalistlar (an'anachilar, ahl al-hadis) ta'limotlari kirib kela boshladi. Islom ta'limotini keyingi davrda paydo bo'lgan yangiliklardan (bid'at) tozalash bu oqimning negiz shiori bo'lib qoldi. Bu tanqidiy ruh muhaddislarga siyosiy sohada ham ancha muvaffaqiyatlar keltirdi. Hadislarni yig'ish, tartibga solish va faqat ishonchlilarini to'plamlarga jamlash borasida mislsiz ishlar qilindi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom ad-Dorimiy, Abd ibn Humayd al-Kashshiy, Kulayb ibn al-Haysam ash-Shoshiylar hadis to'plamlari bilan islom tarixi zarvaraqlariga o'z ismlarini yozdilar. Natijada muhaddislarning ijtimoiy-siyosiy mavqei Movarounnahrda, jumladan, poytaxt Buxoroda, beqiyos o'sdi.

Bu esa o'z navbatida markaziy shaharlarda shu paytgacha kuchli mavqega ega bo'lib kelgan hanafiylar va yangi guruh – ahl al-hadis o'rtasidagi ziddiyatni

kuchaytirdi. Murji'ylar va hanafiylarning diniy qarashlaridagi bevosita aloqadorlik bir necha tadqiqotlarda o'z isbotini topgan (Y. van Ess, V. Madelung, U. Rudolf). Darhaqiqat, o'z vaqtida Abu Hanifaning (vaf. 767 y.) arab bo'lmagan musulmonlarning ham teng huquqli ekanligi g'oyasi, ularning jamiyatda kamsitilishlariga qarshi sa'y-harakatlari dastlab uning ilohiyot sohasidagi, keyinchalik esa fiqhiy ta'limotining Movarounnahr hududida tarqalishiga keng yo'l ochgan edi. Endi jiddiy muxoliflar bosimi ostida hanafiylar o'z ta'limotlarini rivojlantirishga majbur bo'ldilar. Abu Abdulloh al-Buxoriy (vaf. 878 y.), as-Subazmuniy (vaf. 952 y.), az-Zandavisatiyning (XI asr boshi) shoh asarlari shu maqsadga xizmat qildi.

Hanafiya mazhabi. Hanafiy faqihlar shahar ahli turli qatlamlari bilan mustahkam aloqalarga ega bo'lib, o'z diniy-ijtimoiy faoliyatlarida ularning manfaatlarini aks ettirar edilar. Shu paytgacha islomshunoslikda Somoniylarning (874-999) hokimiyatga kelishi o'z-o'zidan hanafiylarning mavqelarini kuchaytirdi, deb hisoblanar edi (V. Madelung). Ammo yangi kashf etilgan manbalardan ma'lum bo'lishicha, asli xurosonlik Somoniylar mahalliy aholi va ularning etakchi vakillari – hanafiylar ta'sir doirasini cheklash va toraytirish uchun ahl al-hadis va shofi'iy-lardan foydalanganlar (jumladan, Ismoil Somoni, 892-907). Ular o'rtasidagi keskin raqobat kurashi ilm sohasida mumtoz asarlar paydo bo'lishiga olib keldi. Shu o'rinda Shams al-a'imma al-Halvo'iy, Shams al-a'imma as-Saraxsiy, Abu Zayd ad-Dabusi, Faxr al-islom al-Pazdaviy, as-Sadr ash-Shahid, Abu Hafs an-Nasafiy, az-Zamaxshariy, Alo' ad-din as-Samarqandiy, al-Mutarriziy, Burhon ad-din al-Buxoriy, Faxr ad-din Qodixon, Burhon ad-din al-Marg'inoniyning fiqh metodologiyasi, fiqhning amaliy masalalari, hadis, aqo'id, filologiya, tafsir va boshqa sohalarida yaratgan yuzlab asarlari nomlarini keltirish kifoya. Mazkur asarlar orqali O'rta Osiyo boy madaniy an'analari, diniy tajribasi, huquqiy tasavvurlari islom tamadduni doirasiga kiritildi. Bu bilan islomning to'laqonli, o'z-o'ziga etarli, mukammal mintaqaviy shakliga asos solindi. Unda umumislomiy va mahalliy elementlar orasidagi munosabatda hamohanglik, mutanosiblikka erishila borildi.

Dunyoviy davlat va ulamolar. O'rta Osiyoda uzoq vaqt davomida (VIII – XIII asrlar) davlat tuzumi Bag'doddagi holatni takrorlar edi. Yaxshi ma'lumki, Payg'ambar vafotidan (632 y.) so'ng davlat hayotida dunyoviylik tamoyili ustun bo'lib keldi. Ammo islom dinini birinchi navbatda hukmron doiralar tarafidan yagona (mono-din) haq din deb e'tirof etish jamiyat hayotida ulamolar mavqeining yuqori bo'lishiga tabiiy tarzda olib keldi. Chunki din qoidalarini ishlab chiqish davlat tasarrufida emas, balki etarli diniy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaharliklar – ulamolar qo'lida edi. Ular, albatta, bu qoidalarni ta'birlash davomida o'z tabaqasi manfaatlarini esdan chiqarmas edilar. Yoki og'ir va ziddiyatli hollarda shahar ahli qo'llab-quvvatlashiga tayanib, hokimu sultonlarni «diniy shiorlar» ostida tartibga ham chaqirib qo'yishi mumkin edi. Shuning uchun doimo islom dunyosidagi turli mintaqalarda hurmronlik qilgan davlatlar muayyan diniy siyosat olib borishga majbur bo'ldi. Masalan, Somoniylar kelishuvchan (konformist) ulamolardan o'z siyosatlarini o'tkazishda foydalanib, norozilarini esa ta'qib qildilar. Qoraxoniylar (999-1212) rasmiy diniy mansablarga mahalliy

ulamolar o'rniga chekka hududlardan taklif qilingan olimlarni tayinlay boshladilar. Shuningdek, ular yangi o'z kadrlarini tarbiyalash maqsadida madrasalar ta'sis etdilar. Saljuqiylar, Qora-xitoylar, Xorazmshohlar yurishlari oqibatida markaziy hokimiyat qudratiga putur etdi. Bu esa mamlakat siyosatiga shaharliklarning, ularning etakchilari – ulamolarning aralashuvini kuchaytirdi. Bunday holat ilmu fanda hozirgacha yaxshi o'rganilmagan hodisa – Buxoro shahri boshqaruviga ulamolar sulolasi – Sadrlar (1102-1238) kelishi fenomenini yuzaga keltirdi.

Mo'g'ullar istilosi (1218-1221) natijasida O'rta Osiyoda o'rnatilgan siyosiy tuzum oldingilaridan tubdan farq qiladi. Unga Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida shakllangan davlatchilik tamoyillari o'rniga Markaziy Osiyo ko'chmanchilik an'analari asos qilib olindi. Barpo etilgan yangi tuzumda dinga, xususan, ulamolarga bo'lgan munosabat butunlay boshqacha edi. O'rta Osiyo siyosiy hayotida shaharlik aholi ahamiyati pasayib, yangi aholi tabaqasi – chig'atoylar roli oshib bordi. Natijada Buxoro va Samarqand hanafiy ulamolari ijtimoiy salmog'i tobora pasayib bordi. Bu esa mazkur maktab ilmiy salohiyatida avval turg'unlikka, so'ngra esa parokandalikka olib keldi. Yangi sharoitda ulamolarning boshqa bir toifasi ahamiyati osha bordi. Ular avvaliga xarizmatik (karomatli) shayxlar, ovloq erlik (chekka hududlik) shayxlar nomlari bilan ma'lum bo'ldilar.

Tasavvuf tariqatlari. Ma'lumki, islom madaniyati aksariyat hollarda shahar tamadduni bo'lib, u asosan shaharlarda markazlashdi. O'rta Osiyoning chetki hududlari, ayniqsa, turk hukmdorlari qo'l ostida bo'lgan mintaqalarda (Arodi at-turk) islomlashuv jarayoni erkin holda kechdi. Buning natijasida xalq urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, madaniy an'analari, hatto boshqa konfessiyalar amaliyoti bunday bag'rikenglik sharoitlarida islomiy tasavvurlar bilan uzoq muddatli o'zaro muloqot va ta'sir jarayoniga kirishdi. Shunday qorishiq an'analari vakillari bo'lgan xarizmatik shayxlarning XIII asr siyosiy hayotidagi mavqelari behad oshdi. Ular nafaqat ko'chmanchi aholi, balki shahar aholisining ham e'tiborini o'ziga qaratdi. Kosiblar, hunarmandlar, savdogarlar o'z guruhini manfaatlarini bu shayxlar faoliyatlarida mujassamlashtira boshladilar. Bu esa sufiy tariqatlarining shakllanish jarayonlarini tezlashtirib yubordi. Yangi tariqat nazariy ta'limotlarini ishlab chiqishda tasavvuf tarixining mumtoz davr ta'limotlari qo'l keldi. Bu sohada, masalan Naqshbandiya ta'limoti uchun Xoja Muhammad Porso (vaf. 1420 y.) xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Tasavvuf amaliyotining asosini zikr tashkil etadi. Tariqat hayotini tashkil etishda murshid-murid (binom) aloqalari muhim rol o'ynaydi. Aynan shu aloqa jamiyat ichida o'zaro manfaatlarni birgalashib himoya qiluvchi tashkilot tuzilishi uchun asos bo'lib xizmat etdi. Kichik sufiy jamoalari rahbarlarining tariqat sarhalqasi rahbarligida birlashishi ularning jamiyatda qudratli iqtisodiy, ijtimoiy, hatto siyosiy kuchga aylanishiga olib keldi. Ulardan bu o'rinda o'lka hayotida muhim rol o'ynagan Sayf ad-din Boxarziy, Termiz sayyidlari, Sayyid Baraka, Xoja Ahror, Maxdum-i A'zam, Mir-i Arab, Lutfulloh Chustiy, Juybor xo'jalarini atab o'tish mumkin. Siyosiy tarqoqlik yillarida o'z tashkilotlari madadiga suyang'an bu shayxlarning mamlakat siyosiy hayotiga ta'siri yuqori bo'lgan.

Xonlar, hukmron doiralar pirlarning qudratli siyosiy mavqeini chegaralash uchun turli uslublardan istifoda etganlar. Naqshbandiya, Kubraviya, Yasaviya, Ishqiya, Qodiriya tariqatlari shayxlarini bir-biriga qarshi qo'yish siyosati, «shariat maqomini ko'tarish» shiorlari bunda qo'l keldi. Tariqat pirlari tez orada ulamolar qatoriga qo'shilib, jamiyatdagi rasmiy diniy mansablarni egallab oldilar. Ular orasida mudarrislik ham bor edi. Ammo an'anaviy madrasa ta'limi va sufiylik tarbiyati orasidagi aloqadorlik, o'zaro munosabat, muvozanat kelajakda tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masalalar qatorida qolib kelmoqda.

Diniy ta'lim tizimi. Musulmon dunyosida diniy ta'limning tashkil etilmagan shakli asosiy bo'lib, unda ustoz-shogird binomi muhim rol o'ynaydi. Maktab-madrasa tizimi vujudga kelishida mestenatlik (homiylilik) hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Davlatning yoki shahar boylarining homiyligi bu tizim bitiruvchilariga o'ziga xos ijtimoiy buyurtma vazifasini o'tar edi. Avvaliga ijtimoiy vazifa hisoblangan o'quv jarayonini tashkil etish ustidan nazorat etuvchi shayx al-islom mansabi ham ko'p o'tmay davlat e'tiborini o'ziga qaratdi. Natijada diniy ta'lim tizimini tashkil etish jamiyat hayotida strategik omillardan biriga aylandi. Kim bu jabha ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqara olsa, u jamiyat rivojlanishi yo'nalishlarini belgilay boshladi.

O'rta Osiyodagi diniy ta'lim tizimi mazmunan ikki davrga bo'linishi mumkin: 1) Mo'g'ullar istilosidan avvalgi davr; 2) Mo'g'ullar istilosidan keyingi davr. Bu ikki davr darsliklar ro'yxati, ta'limning maqsadi, undagi o'qitish darajalariga qarab bir-biridan ancha farq qiladi. Temuriy Shohrux (1405-1447) davrida ikkinchi davr yangi diniy ta'lim tizimining tamal toshi qo'yildi. Mazkur tizim, ba'zi kichik tafsilotlarni hisobga olmaganida, to XX asr boshlarigacha o'zgarmay keldi. Uning negizini Movarounnahr va Xuroson ulamolari yaratgan asar-darsliklar qurdi. Bu erda Moturidiya-Ash'ariya kalomi qorishmasi, hanafiy fiqhi, ahl al-hadis to'plamlari, arab filologiyasi, mantiq bo'yicha darsliklar asosiy o'rinda turar edi.

Islohotlar. Evropa madaniyatining nisbatan kech – XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoga kirib kelishi jamiyat hayotining turli jabhalarida, shu jumladan, din sohasida ham islohotlarning boshlanib ketishiga turtki bo'ldi. *Usul-i jadid* tarafdorlari diniy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish jamiyatni isloh qilishda hal qiluvchi omil bo'la oladi deb hisobladilar. *Usul-i qadim* tarafdorlari esa an'anachilik mavqeini egalladilar. Diniy ta'lim islohchilaridan kommunistlar darajasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan jadidchilar dunyoviy ta'lim tizimini yaratishni diniy ta'lim tizimini batamom yo'q qilish orqali amalga oshirish amaliyotini ma'qulladilar. Bu esa o'sha paytda olib borilgan sekulyarizm (hayotning barcha jabhalarini din ta'siridan to'lig'icha tozalash) siyosatiga mos kelardi. Natijada islohchilik harakati din va din peshvolarini ta'qib etish siyosatiga aylanib ketdi. Qatag'on yillarida uch karra olib borilgan «katta tozalash»lar («chistka» – 1927, 1936-37, 1949 yillar) oqibatida ma'naviyat va ma'rifatga talafotlar etkazildi.

Nazariy islom va xalq islomi. Mazkur xatti-harakatlar salbiy oqibatlaridan eng asosiysi – diniy madaniyatning nazariy qismi daf etilib, diniy hayot dinning quyi darajasi – xalq islomi bilan cheklanib qoldi. Natijada ma'naviy

qashshoqlashish chuqurlashib, milliy madaniyat bir taraflama rivojlana boshladi. Diniy hayot oilaviy marosimlar (janoza, xudoyi), tabibchilik, folbinlik, muqaddas joylarga ziyorat (mushkil-kushod) kabi amallar bilan chegaralandi. Oilalarda, hujralarda noqonuniy (illegal) xususiy diniy ta'lim berish kuchaydi. Tabiiyki, tez orada bu sohalardagi faoliyat nazorat qilib bo'lmalik darajasiga etdi. Ba'zi diniy faollar siyosiy muxolifat mavqeini egalladilar. Mayda tovar ishlab chiqarish (tomorqa, savdo-sotiq, mayda va o'rta biznes) kapitalistik rivojlanishning negizidir. Bu iqtisodiy muhitning mafkurasi aksar hollarda xalq islomidan oziqa oladi. Mazkur ijtimoiy qatlamlarning kuchayishi yangi diniy ideologlarni maydonga olib chiqdi. Noto'liq, bir tomonlama bilim olgan, nazariy jihatdan zaif din peshvolari ikki yo'l o'rtasida turib qoldilar.

Milliy manfaatlar va mahalliy ulamolar. Islom madaniyati alohida olingan muayyan jamiyatlarda rivojlandi va buning natijasida ma'lum mintaqaviy shakllarga ega bo'ldi. Konkret islom faqat mintaqaviy shakllardan tashkil topgan. Mintaqaviy islom asosida milliy madaniyat, mafkura va manfaatlar yotadi. Uzoq asrlar rivojlanish natijasida O'rta Osiyoda ham islom dini milliy madaniyat bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Natijada O'rta Osiyo stivilizastiyasi doirasida islomning to'laqonli, o'z-o'ziga etarli, har taraflama boy shakli vujudga keldi. Unda umumislomiy unsurlar bilan birgalikda regional milliy xususiyatlar ham mavjuddir. Asrlar osha mazkur nazariy va amaliy bilimlar xazinasini saqlovchisi va uni o'zgargan davrga moslab turuvchi – yuksak darajada tayyorgarlik ko'rgan mahalliy ulamolar bo'lib kelgan. Bu ulamolar muhiti – mintaqaviy islomning muhim tashkil etuvchi qismidir. Keyingi ikki asr davomida bu muhitning surunkali zaiflashib borishi oqibatida mintaqamizga islom dunyosining boshqa qismlaridan begona milliy manfaatlar vakillari, ifodachilari bo'lgan yot ulamolarning kirib kelib, faoliyatlarini boshlab yuborishiga sabab bo'ldi. Milliy tiklanish, rivojlanish shartlari diniy hayotda normal holatni shakllantirishni talab etadi.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. O'rta Osiyo xalqlari diniy tajribasi tarixi qaysi davrdan boshlanadi?
2. Islomlashuv jarayonida milliy madaniy qadriyatlar ahamiyati nimada?
3. O'rta Osiyolik olimlardan kimlarni bilasiz?
4. Islom ta'limotini rivojlantirishda o'rta osiyolik ulamolarning roli qanday?
5. Evropa madaniyati kirib kelishi bilan diniy hayotda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
6. Diniy ekstremizmga qarshi kurashda nimalarning ahamiyati bor?

Adabiyotlar

1. Karomatov ©. ʻQurʻon va oʻzbek adabiyoti. T., Fan, 1993.
2. Xayrullaev M.M. Uygʻonish davri va Sharq mutafakkirlari. T., Fan, 1971.
3. Бабаджанов Б.М. Политическая деятельность шайхов Накшбандийа в Мавераннахре (1 пол. XVI в.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Т., 1996.
4. Большаков О.Г. Город в конце VIII-начале XIII в. // Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Ленинград, 1973, Б. 132-352.
5. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. М., 1988.
6. Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Вып. 1-3. М., 1998-2001.
7. Камалиддинов Ш.С. «Китаб ал-ансаб» Абу Саъд Абдалкарима ибн Мухаммада ас-Самъани как источник по истории и истории культуры Средней Азии. Т., Фан, 1993.
8. Кочнев Б.Д. Мусульманский чекан Средней Азии // Ислам на территории бывшей Российской империи. Вып. 3 (2001), С. 69-71.
9. Радтке, Бернд. Теологи и мистики в Хурасане и Трансоксании // Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования). Сборник статей памяти Фритца Майера (1912-1998). Составитель и ответственный редактор А.А.Хисматулин. Санкт-Петербург, 2001, С. 40-76.
10. Bosworth C.E. The New Islamic Dynasties. A chronological and genealogical manual. Edinburgh, University Press, 1996.
11. Bibliography of Islamic Central Asia // Compiled and edited by Yuri Bregel. Parts I-III. Bloomington, Indiana University, 1995.
12. DeWeese D. Islamisation and Native Religion in the Golden Horde. Baba Tükles and the Conversion to Islam in Historical and Epical Tradition. Pennsylvania: Pennsylvania State University Press, 1994.
13. Kavakcı, Yusuf Ziya. XI ve XII asırlarda Karahanlılar devrinde Maveraʼ al-Nahr Islâm hukukçuları. Ankara, 1976.
14. Kurt H. Orta Asya'nın Islamlashma Sureci (Buhara örneği). Ankara. 1998 (Fecr Yayınları, 58).
15. Madelung W. The Spread of Maturidism and the Turks // Actas IV Congresso de Estudos Arabes e Islamicos. Coimbra-Lisboa 1 a 8 de Setembro de 1968. Leiden, E.J.Brill, 1971, P. 109-168.
16. Madelung W. The Early Murji'a in Khurasan and Transoxania and the Spread of Hanafism // Der Islam, LIX (1982), P. 32-39.
17. Paul J. Doctrine and Organisation: The Khwajagan / Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin // ANOR. No. 1. Halle-Berlin, 1998.
18. Subtelny, Maria Eva and Khalidov, Anas B. The Curriculum of Islamic Higher Learning in Timurid Iran in Light of the Sunni Revival under Shah-Rukh // Journal of the American Oriental Society, 115 (1995), P. 210-236.

NOAN'ANAVIY DINIY TIZIMLAR

Oxirgi yuz yilliklar ichida, ya'ni XIX – XX asrlarda oldingilari bilan qorishgan yangi dinlar vujudga keldi.

Ulardan bir qanchasi Yaponiyada paydo bo'lgan. Ushbu dinlardan biri bu – «Tenri»dir. *Tenri* yaponcha «samoviy aql» deganidir. Unga 2 mln. kishi e'tiqod qiladi, u sintoizm asosida XIX asrning 30-yillarida vujudga kelgan. Hozirgi paytgacha ayrim tadqiqotchilar uni sintoistik sektaning tarafdorlari deb hisoblaydilar. U 1912 yilda buddizm muhitida sinkretik diniy tashkilot ingliz-yapon aralashuvini bildiruvchi *PL* (inglizcha Perfect Liberty – «mutlaq ozodlik» so'zining qisqartma shakli) *kyodan* (yaponcha «diniy tashkilot» ma'nosini bildiradi; uning 3 mln.ga yaqin tarafdorlari mavjud), shuningdek, *sekay kyusey* (yaponcha «jahon missionerligi»; 1 mln.ga yaqin tarafdorlari mavjud) va *seytyo-no ie* (yaponcha «o'sish uyi»; tarafdorlari 4 mln.ga yaqin) va XIX asrning 20-yillarida ko'plab Omoto sintoistik sektalari va boshqa dinlarning ta'limotlaridan qabul qilgan va unga mos ravishda qoidalar ishlab chiqqan.

Koreyada ham sinkretik din va sektalar paydo bo'ldi. Ularning ichida qadimiyrog'i – *chxondogyo* bo'lib, 1860 yilda tashkil topgan va 2,5 mln. tarafdorlari mavjud.

«Yangi dinlar» Vetnamda ham bor. Bu *kaoday* (Kaoday ruhi nomi bilan atalgan bo'lib, vetnam tilida «oliy qasr» ma'nosini bildiradi) dini bo'lib, 1919 tashkil topgan. U buddizm va xristianlikning qorishuvi va konfutsiychilik va daosizmning ta'siri ostida paydo bo'lib, uning tarafdorlari 2 mln. ga etadi. *Xaoxao* (bunday deb nomlanishi, asoschisi tug'ilgan qishloq nomi bilan bog'liq) yo'nalishi 1939 yilda tashkil topgan bo'lib, uning asosiy maqsadi buddizmdagi *txeravadin* yo'nalishini isloh qilishga mo'ljallangan (1,5 mln. ga yaqin tarafdori mavjud).

Shuni eslatib o'tish joizki, sinkretik sektalar Gonkongda ham paydo bo'lib, konfutsiychilik, daosizm, buddizm, xristianlik va islom dini asosida shakllandi.

Yangi dinlar faqat Osiyo davlatlarida emas, balki Amerika va Evropa davlatlarida ham paydo bo'ldi. Shunday qilib, XX asrning o'rtalarida AQShda saentologiya cherkovi tashkil topdi. Hozirgi vaqtda bu yo'nalishga dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida 8 mln.ga yaqin kishi e'tiqod qiladi. Uning asosiy qarashlari kishilarga izoterik ilmlar berish va shu orqali odamning ruhiy sog'lomlashtirish ishlarida namoyon bo'ladi.

«Yangi dinlar» hozirgi vaqtda «Yangi asr» (New Age – yangi era) deb ham ataladi. Ushbu diniy ta'limot AQSh va Evropaning ko'pgina mamlakatlarida har xil e'tiqod va odamlarning turli qarashlari okkultizmida xudo va inson o'rtasidagi chegara bilmaslikni ifodalaydi.

Ba'zan yangi dinlar sinkretik kult sifatida turli dinlarning uchrashgan joylarida paydo bo'ladi. Masalan, Yavadagi *agama-djavu* islom, hinduizm, buddizm ta'siri ostida mahalliy diniy ta'limot sifatida shakllandi. Katolistizm elementlari hindiy kult (peyotizm, sheykerizm va h.k.) va Amerika negrlarining afro-xristian kultlari (Santeriya, Vudu, Umbanda va h.k.) bilan aralashib, yangi ta'limotlar vujudga keldi.

Yangi dinlarga e'tiqod qiluvchilarning umumiy soni 112 mln. kishidan ortiq. Ko'pincha «Yangi din» termini bir qator marginal protestantik denominastiyalarni (mormonlar, munistlar va hatto iegovistlar ham), metabuddist sektalarni (Nitiren syosyu, Rey yu kay, Rissy kosey kay), hinduiy bo'lmagan sektalarni (Transstendental meditasiya, Ananda marg, Braxma Kumaris, Ilohiy kuchning topshirig'i, Xalqaro krishnait jamiyati va h.k.) anglatadi.

Bobiylik. Bobiylik 1844 yilda Mirzo Ali Muhammad Rizo ash-Sheroziy (1819-1850) tomonidan shialikdagi Shayxiya firqasi zaminida asos solingan harakatdir.

Mirzo Ali ilk bor Shayxiya da'vatchilari qo'lida tahsil ola boshladi. U 1843 yili Bag'dodga borib, u erda Kozim Rushdiydan dars oladi. Keyinchalik 1844 yil 23 martda ustozi vafotidan so'ng o'zini *Bob*, ya'ni yashirin imom, o'z irodasini xalqqa uzatishi mumkin bo'lgan «darvoza» deb e'lon qildi. Uch oy o'tgach, o'zini Muso, Iso, Muhammad payg'ambarlar kabi, balki ulardan ham yuqoriroq payg'ambar deb, o'zining «Bayon» nomli kitobini Qur'oni karim o'rniga qabul qilinishi lozim bo'lgan muqaddas kitob deb e'lon qildi. U 1847 yilda hibsga olindi va Tabrizda bobiylikning davlatga qarshi qo'zg'olonlari avjiga chiqqan vaqtda qatl etildi. Shundan so'ng bobiylik tarafdorlari ta'qib ostiga olindilar, natijada ular o'z mamlakatlarini tark etdilar va yashirin faoliyatga o'tdilar, keyinchalik ulardan bahoiylik harakati vujudga keldi.

Bahoiylik. Bu Erondan Iroqqa ko'chib o'tgan bobiylik harakati davomchilaridan bo'lgan Bahoulloh Mirzo Husayn Ali Nuriy (1817-1892) tomonidan asos solingan dindir. Bahoulloh 1852 yilda Iroqda o'zini Bobning ishini davom ettiruvchi, Xudodan *vahy* olgan *Mahdiy* deb e'lon qildi. 1858 yilda Bag'dodda «Kitob-i iqon» («Ishonch kitobi») asarini yozdi. Unda bobiyning ta'limotlariga o'z munosabatlarini bildirdi. Bahoulloh keyinchalik Turkiyaning Adirna shahrida, so'ng Falastinning Akka shahrida yashadi. Shu erda «Kitob al-aqdas» («Eng muqaddas kitob») asarini yozdi. Ushbu kitobni Qur'on va bobiylikning «Bayon» kitobining o'rniga *vahy* qilingan muqaddas kitob deb hisoblaydi.

Bahoiylik ta'limotida diniy xizmatni bajaruvchi ruhoniylarning roli, marosimlar va shu kabi islom dinida asosiy o'rinni egallagan aqidalar inkor etilgan. Bahoiylik bobiylikdan farqli o'laroq isyonkorlikni emas, balki tinch taraqqiyot yo'lini targ'ib qiladi. Bahoiylik shialik zaminida vujudga kelgan bo'lsa-da, ta'limot jihatidan islom aqidasi ancha farqli.

Bahoiylar Eronda saqlangan bo'lsa-da, keyinchalik Evropa va Amerikada ham yoyildi. Ularning asosiy markazlari Germaniya, AQSh, Panamada joylashgan bo'lib, markaziy qarorgohlari esa Isroildagi Hayfa shahridadir.

1998 yilga kelib dunyoning turli mamlakatlarida bahoiylarning 175 ta milliy va 17867 ta mahalliy jamoalari faoliyat ko'rsatayotgani qayd etilgan.

Bahoiylik dunyoning barcha mamlakatlarida tarqalganligi sababli ular xalqaro tashkilotlarga ham kirib bormoqda. 1948 yilda «Bahoiylarning xalqaro birlashmasi» (BXB) BMT huzurida nohukumat tashkilot sifatida qayd qilingan. 1970 yildan boshlab BXB BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi va bolalar fondida maslahatchi mavqeiga ega. Bundan tashqari BXB xalqaro sog'liqni

saqlash tashkiloti va BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston hududida bahoiylarning ilk vakillari XIX asr oxirlarida Samarqand shahrida paydo bo'lgan. Ularning faoliyati natijasida 1928 yilga kelib bahoiylarning birinchi mahalliy jamoasi tashkil topdi. Keyinchalik Buxoro, Toshkent, Kogon, Andijon va boshqa shaharlarda norasmiy mahalliy jamoalar tuzildi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri qabul qilingan davrgacha bahoiylar jamoalari Toshkent, Samarqand va Navoiy shaharlarida ro'yxatdan o'tib, rasmiy faoliyat ko'rsatib keldi.

Hozirgi vaqtga kelib bahoiylik dini tarafdorlari respublikamizdagi 5 hududiy tuzilmada o'zining jamoalariga ega.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Sinkretik din deganda nimani tushunamiz?
2. Hozirgi zamonda mavjud qaysi noan'anaviy diniy tizimlarni bilasiz?
3. Bahoiylikdagi ta'limot va amaliyot asoslari nimalardan iborat?
4. Amerikadagi qanday yangi dinlarni bilasiz?
5. O'zbekistonda qaysi noan'anaviy dinlar faoliyat olib boradi?

Adabiyotlar

1. Бахаулла. Китаб-и Икан. Академический пер. с перс., предисловие, комментарии и текстологическое приложение Ю.А. Иоаннесяна. СПб., 2001.
2. Попов А.С., Сато М. Диалог: церковь и мир. М., 1990.
3. Рашкова Р.Т. Ватикан и современная культура. М., 1989.
4. Религиозные объединения Российской Федерации. Справочник. М., 1996.
5. Религия и права человека. М., 1996.
6. Ткачева А.А. Новые религии Востока. М., 1991.
7. Торчинов С.А. Религии мира. Санкт-Петербург, 1997.
8. Эсслемент Дж.Э. Баха-Улла и новая эра. Екатеринбург, 1991.
9. Юдина Н.С. Теология и философия в религиозной мысли США XX века. М., 1986.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA DINIY HAYOT

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi».

***O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 31-moddasi***

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda har doim muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Binobarin, uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sog'lom va barkamolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu masalaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va bajaradigan vazifalari g'oyat muhim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavidan tortib barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi o'z ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiy Deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari bu masala yana bir murakkab hodisa – turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi. Zero, odamlar doim turli dunyoqarash va e'tiqod bilan yashaganlar va yashaydilar. Har kimning o'z ichki dunyosi, o'z e'tiqodi bo'ladi.

Vijdon erkinligi qandaydir bir mavhum tushuncha emas, u ma'lum ijtimoiy vaziyatda albatta namoyon bo'ladi. Shuning uchun uni konkret tarixiy, ijtimoiy sharoitsiz, ob'ektiv va sub'ektiv omillarsiz tasavvur qilish qiyin. Bundan tashqari «vijdon erkinligi» tushunchasini ilmiy talqin qilishda milliy, mafkuraviy va madaniy omillarni ham albatta nazarda tutish kerak.

Shu jihatdan 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir fuqaro uchun vijdon erkinligi huquqining kafolatlanishi tabiiy holdir. Yana bir muhim tomoni – keyingi yillarda davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda salmoqli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Dinning jamiyatdagi o'rni tiklanmoqda. Diniy uyushma va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishlariga imkoniyat yaratilmoqda. Qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi, yangi masjidlar ochilmoqda. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari kun sayin kengayib bormoqda.

Mustaqillik yillarida vijdon erkinligi prinsiplarini tiklash va unga og'ishmay amal qilish davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunni qabul qildi. 1998 yilda bu qonunning yangi tahriri qabul qilinib, 15 may kuni matbuotda e'lon qilindi va shu kundan e'tiboran kuchga kirdi.

Mazkur qonun 23 moddadan iborat. Uning 1-moddasida ushbu qonunning maqsadi nimalardan iborat ekanligi ochiq va ravshan bayon etilgan: «Ushbu qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek,

diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat».

Qonunning 3-moddasi vijdon erkinligi huquqi haqida bo'lib, unda har bir fuqaro dinga munosabatini o'zi mustaqil aniqlashi, u har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi va bu huquq esa O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi tomonidan kafolatlanajagi ta'kidlandi.

4-moddada fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'i nazar, teng huquqliligi haqida so'z boradi. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi.

Vijdon erkinligi haqidagi Qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko'rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan shug'ullanmaydi, diniy tashkilot va diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va diniy tashkilotlar ham davlat ishlariga aralashmasligi lozim. Lekin diniy tashkilotlar jamoat ishlarida ishtirok etish huquqiga egalar.

Shuningdek, mazkur moddada davlat turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga, xususan, bir diniy konfessiyadagi dindorni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlarga, missionerlikka yo'l qo'ymasligi ta'kidlangan.

Diniy tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasida diniy xarakterga ega bo'lgan partiyalar tuzish, respublikadan tashqaridagi diniy partiyalarning bo'lim yoki filiallarini ochish man etiladi.

Dindan davlatga va Konstitustiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek, boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning bunday faoliyatlari taqiqlanadi.

Fuqarolar dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ta'limning xilma-xil turlari va darajalarini egallashi mumkin. Qonunning 9-moddasida ko'rsatilishicha, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylarni va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlarni tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli listenziya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq umumiy majburiy o'rta ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy ta'lim beruvchilar maxsus diniy ma'lumoti bor kishilar bo'lib, bolalarni o'qitish uchun diniy boshqarmaning yoki markazning ruxsatnomasiga ega bo'lishi kerak. Xususiylar diniy ta'lim berishga yo'l qo'yilmaydi. Bu qonun-qoidalarni buzganlar qonun oldida javobgardirlar.

Diniy tashkilotlar diniy ta'lim olish uchun fuqarolarni chet elga yuborishlari va chet el fuqarolarini ta'lim olish uchun qabul qilishlari mumkin.

Diniy tashkilot – bu ma'lum dinga ishonuvchilar va ularning jamoalarining uyushmasidir (masjid, cherkov, sinagoga, diniy o'quv yurtlari va h.k.). Uni tashkil etish uchun unga bir xil e'tiqodga ega bo'lgan kamida 100 kishi a'zo bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining har qanday fuqarosi 18 yoshga to'lganidan keyin ma'lum diniy jamiyatga a'zo bo'lishi mumkin.

Diniy tashkilotlar o'z mulklariga ega bo'ladilar. Binolar, din bilan bog'liq buyumlar, ishlab chiqarish va xayriya ishlariga mo'ljallangan inshootlar, pul mablag'lari hamda diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa mol-mulk diniy tashkilotlarning mulki hisoblanadi. Diniy tashkilotlarga tushadigan moliyaviy va mulkiy xayriyalardan, shuningdek, fuqarolardan tushgan mablag'lardan davlat solig'i undirilmaydi.

Ibodot, diniy rasm-rusum va marosimlar o'tkazish mahalliy hokimiyat tomonidan taqiqlanmaydi. Qonunning 3-moddasida ko'rsatilishicha, dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Diniy tashkilotlar fuqarolarni ishga olishga haqlidirlar. Ular davlat, jamoat korxonalari va tashkilotlarining ishchi-xizmatchilari bilan baravar soliq to'laydilar, ijtimoiy ta'minlanish va sug'urta qilish xizmatlaridan foydalanadilar. Umumiy asosda nafaqa olish huquqiga egalar.

Qonunning oxirgi 23-moddasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunni buzgan kishilar qonun oldida javob berishlari ko'rsatilgan.

Konstitustiyada hurfiylik, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi masalalariga katta e'tibor berilgan. Unda dinning tarbiyaviy ahamiyatiga yanada ko'proq e'tibor berilishi lozimligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Uning hududida 15 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladilar. Yuqoridagi qonunda keltirilganidek, ular Konstitutiya oldida huquq va majburiyat yuzasidan tengdirlar. Konstitutiyaning 12-moddasida ta'kidlanishicha, hech qanday mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Shunga ko'ra hech qanday konfessiya boshqalaridan ustun deb qaralishi yoki ularga o'z ta'sirini o'tkazishga intilishi mumkin emas.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutiya'sida diniy e'tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?
2. Diniy e'tiqod erkinligi haqida Konstitutiyaning qaysi moddasida so'z yuritiladi?
3. «Diniy tashkilotlar» deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Diniy tashkilotlarga kimlar a'zo bo'la oladi?
5. Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo'llaydi?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 1992, 48 bet.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) / O'zbekistonning yangi qonunlari, ¹ 19. T., Adolat, 1998, 224-234-betlar; Xalq so'zi, 1998, 15-may, 2-bet.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T., O'zbekiston, 1992.
4. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998.
7. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi, 1998, 5 may.
8. Readon B. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. T., 2002.

DINIY EKSTREMIZM VA FUNDAMENTALIZM

Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o'z aqidasiining shak-shubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, *vahy* va *mo'jizalarning* muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir.

Fundamentalizm iborasi ilk bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoks oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaq mukammalligiga ishonishni mustahkamlashni, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib, 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assostiastiyasiga asos solindi.

Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo'nalishdan biridir (qolgan ikkitasi – tradistionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining

asosiy g'oyasi – «sof islom» prinsiplariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo'lini joriy etishdir.

XX asrning 80-90-yillarida butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. Bu davr jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy hayotdagi tabiiy mavqei tiklanayotgan, ikkinchi tomondan, mazkur asosda ayrim mafkuraviy ziddiyatlar tug'ilishi vaqti bo'ldi.

Asosiy Qonunimizda yana shu narsa qat'iy qilib belgilab qo'yilganki, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi (57-modda).

O'rta Osiyodagi respublikalar o'z mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining emirilib, muayyan vaqt davomida hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji bo'ldi. Kommunistik mafkuraning ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lib, o'ziga xos mutaassibliigi va muayyan millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi sho'ro hokimiyatidan keyin bu hududda diniy fundamentalizm uchun qulay sharoit tug'dirdi.

Sobiq Ittifoqdagi hukmron partiyaning namoyandalari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o'zlarining raqibi deb hisoblashi dinning chekinishi va hatto uning muayyan ma'nodagi muxolif kuchga aylanishiga olib keldi. Dinning doimiy ta'qib ostida bo'lib kelgani, islom dini eng salohiyatli ulamolarining qatag'on qilinishi, minglab masjid va madrasalarning buzib tashlanishi diniy taassubni yo'qotishga emas, balki uning ildizlarini oziqlantiruvchi xatarli omillarning kuchayishiga olib keldi. Millatlar orasida o'zlikni anglash tuyg'usi, etnik jihatdan nasl-nasabini izlashga intilish kuchaydi.

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo'l bilan musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotishga urinishda o'zini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan.

Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga etkazishga yordamga kelgan.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash mumkin. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon, u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan.

Modomiki, biz yoshlarimizni, Prezidentimiz aytganidek, Imom Buxoriylar, Naqshbandlar va Yasaviylar ta'limoti asosida tarbiyalar ekanmiz, biz ularni turli islom niqobi ostidagi g'arazli guruhlar bilan buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga ham tavsiya etgan musaffo islom o'rtasini ajrata oladigan darajada bilimli qilishimiz zarur bo'ladi.

Vahhobiylik. Vahhobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining *al-Uyayna* degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Kurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliigi bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Dir'iya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Sa'ud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylikdek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani *kufirda* yoki *shirkda* ayblashlari va unga qarshi *jihad* e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Sa'ud esa bu *jihadni* amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792 yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vahhobiylik bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeiyliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini *bid'atchilikda*, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi *jihad* olib borishga *fatvo* berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib qilsalar-da, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulkklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli

to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylilik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat yuritadi. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, etim-esirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgalar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

Al-Ixvon al-muslimun. XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy islohotlar» nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislomizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislomizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abduh (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etdi va unda panislomizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Al-Afg'oniyning g'oyalarini keyinchalik «Musulmon birodarlar» (*al-Ixvon al-muslimun*) radikal shakllarda rivojlantirdilar.

Al-Ixvon al-muslimun 1928 yili Misrning Ismoilিয়া shahrida shayx Hasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilotdir. Hasan al-Banno Jamoliddin al-Afg'oniy, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta'sirlanib, panislomizm g'oyasida *jihad*, *islomiy millatchilik*, *islomiy davlat* ta'limotlarini ishlab chiqdi. Al-Ixvon al-muslimun bu ta'limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur'on va shariatda ifodalangan qoidalarga to'liq rioya qiluvchi, «islomiy adolat» tamoyillari o'rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi.

Al-Ixvon al-muslimun o'z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va ma'rifatchilik bosqichi deb atasa bo'ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo'llash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko'plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda al-Ixvon al-muslimun orasida bo'linish yuz berib, ular 3 yo'nalishga ajralib ketdi:

- 1) «mo”tadillar» – Hasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;
- 2) «islom demokratlari» – «islom sostializmi» ta’limoti tarafdorlari;
- 3) «at-Takfir va-l-hijra», «al-Jihod», «Hizb at-tahrir al-islomiy» kabi terror uslubini qo’llovchi tashkilotlar.

Hizb at-tahrir. Hizb at-tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tug’ilib o’sgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida ta’lim olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi – avval arab davlatlari, keyin islom dunyosi va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da’vosi – Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili usmoniy xalifa ikkinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan g’ayriqonuniy chetlatilgani bo’ldi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Partiya dasturi 187 banddan iborat bo’lib, asosiy maqsadi – hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yo’l – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta’lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta’limotini o’rgatish yo’lida madaniy-ma’rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

- g’oyaviy-fikriy kurash;
- jamiyatda g’oyaviy inqilobni amalga oshirish;
- hokimiyatga faqatgina umma-jamoaning to’liq roziligidan so’ng kelish.

Hizb at-tahrir tarafdorlari ko’pgina musulmon davlatlari, jumladan, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o’z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zallumdir.

Hizb at-tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (*halqa*) alohida-alohida bo’lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o’quv ishiga *mushrif* rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar – *amir* bo’lib, u *mushrifga* mashg’ulotlarni o’tkazishda bevosita yordam ko’rsatadi. *Mushrif* bir vaqtning o’zida bir necha guruhda ta’lim ishlarini olib borishi mumkin. O’qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg’ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo’layotgan voqealarni diqqat bilan o’rganadilar.

O’zbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlang’ich bo’linmalari tashkil etila boshlagan. Partiya safiga kiruvchilar o’z partiyalari haqidagi ma’lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o’z *mushrifi* buyurgan vazifalarni so’zsiz bajarishga Qur’on bilan qasam ichadilar. Partiya mutasaddilari o’z tarafdorlarini ko’proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba-yoshlar orasidan qidiradilar.

Etarli ta’lim olgan shaxslar keyinchalik o’zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning ta’limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda «Islom nizomi» va «Izzat va sharaf sari» kitoblari bo’yicha o’qitiladi, «al-Va’y» jurnalidagi ma’lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda «Demokratiya – kufr nizomi», «Siyosiy ong», «Xalifalikning tugatilishi», «Hizb at-tahrir tushunchalari», «Islomiy da’vatni yoyish vazifalari va sifatleri» kabi kitoblar o’qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko’zlab, Qur’on oyatlari va

hadislarni noto'g'ri talqin qilib, dindorlar ongiga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiyashtirilgan islomga targ'ib etib, ularni fuqaroviy bo'ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari – Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniyar Hizb at-tahrirni ohod hadislariga, qabr azobiga, sirot ko'prigiga ishonmasliklari uchun ularni Ahl as-sunna va-l-jamo'a safidan chiqqan deb hisoblaydilar.

Akromiylar. Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to'xtatilgan noan'anaviy, ham islom ta'limotiga, ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo'lgan guruh «Akromiylar»dir.

Akromiylar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi – 1963 yilda tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom nomi bilan bog'liq. A. Yo'ldoshev Hizb at-tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g'oyalari asosida 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» risolasini yozgan. Shu sababdan akromiylar «Imonchilar» deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g'arazli maqsadlarni ko'zlaydilar. Biroq ular tahrirchilardan farqli o'laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo, Andijonda, so'ng Farg'ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar – «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu guruh a'zolari, asosan, hunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zarurat tug'ilganda «birodarlari»ga «jamoabanki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat «birodarlar» o'rtasida amalga oshirilgan.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar

1. Fundamentalizm ilk bor qaysi din doirasida paydo bo'ldi?
2. Diniy ekstremizm deganda nimani tushunasiz?
3. Islomda qanday radikal oqim va guruhlar mavjud?
4. Ekstremistik guruhlarining maqsadlari nimalardan iborat?
5. Markaziy Osiyo mintaqasida qaysi ekstremistik guruhlar o'z noqonuniy faoliyatini olib boradilar?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., O'zbekiston, 1998, 12-b.

4. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi // Xalq so'zi, 1998, 5 may.
5. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
6. Zohidov Q., Mahmud M. Islom madaniyati demokratiyaga zid emas // Guliston, 2000, 6-son. B. 38-39.
7. Борисов А.Б. Рол ислама во внутренней и внешней политике Египта (XX век). М., Наука, 1991
8. Чураков М.В. Народное движение в Магрибе под знаменем хариджизма. М., Наука, 1990.

DINIY ISTILOHLAR IZOHI

ABORIGEN – biror joyning tub aholisi.

ABXIDXARMA-PITAKA – buddizmning muqaddas kitobi Tripitakaning falsafa va psixologiyaga oid qismi.

AVESTO – (qad. eron-pahlaviy. «oʻrnatilgan, qatʼiy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

ALTAR – (lot. «baland») xristian cherkovida ibodatxonaning mehrob va minbar oʻrnatilgan eng baland qismi.

AL-HAJAR AL-ASVAD – (arab. «qora tosh») Kaʼbaning janubiy-sharqiy burchagida erdan 1, 5 m. balandlikda oʻrnatilgan muqaddas tosh.

ANSORLAR – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Paygʻambar va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar.

ARAFOT – (arab. «tanimoq, bilmoq» feʼlidan) Makka shahrining sharq tomonidagi tepalik. Rivoyatlarga koʻra, jannatdan tushirilgan Odam Ato va Momo Havvo erda ilk bor mana shu tepalikda uchrashganlar. Shuning uchun ham uni «Arafot» – «Tanishuv» deb ataganlar. Haj mavsumida barcha hojilar qurbon hayitidan oldingi kun tongdan kun qaytgunga qadar shu tepalik atrofida maydonda turishlari farz. Shu sababli hayitdan oldingi kun «arafa kuni» deb ataladi.

ATARXURRA (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi.

AXRIMAN – zardushtiylikdagi yovuzlik ilohiyoti.

AXURA-MAZDA – zardushtiylikdagi eng oliy yaxshilik ilohiyoti.

BIBLIYA – (qad. yunon. «kitoblar») xristianlikning muqaddas kitobi.

BRAXMAN – Hindistondagi oliy kasta (tabaqa) vakili. Braxmanlik va hinduizmdagi din arbobi.

BUDDA – (sanskrit. «nurlangan, oliy haqiqatga erishgan») buddizm asoschisi Siddharta Gautamaga berilgan nom.

VARNA – (sanskrit. «sifat, rang») qadimiy hind jamiyatidagi diniy-sinfiy kasta.

VASANIYA – (arab. «vasan» – «yogʻ ochdan ishlangan but») butparastlik.

VAHY – ilohiyot bilan insonlarning paygʻambarlar orqali muloqot yoʻli.

VEDA – (sanskrit. «bashorat») Qadimiy Hindistonning shimolida yashagan xalqlarning muqaddas kitobi.

VIJDON ERKINLIGI – diniy eʼtiqod erkinligi.

VINAYA-PITAKA – Tripitakaning rahbonylik odobi va xonaqoh nizomiga bagʻishlangan qismi.

VISHVASPA – zardushtiylikni qabul qilib, uning tarqalishida Zardushtga yaqindan yordam bergan Baqtriya podshosi.

GALAXA – yahudiylardagi diniy, oilaviy va fuqarolik qonunlari majmui.

DAO – daosizm dinidagi oliy ilohiyot.

DAʼVAT – (arab. «chaqirish») dinga targʻib qilish.

DIAKON – xristianlikdagi eng quyi tabaqa ruhoniysi.

DINIY JAMOA – diniy tashkilotning boshlangʻich shakli boʻlib, diniy marosimlar va boshqa diniy faoliyatlar uchun unga birlashganlar.

DINIY IDORA – diniy tashkilot markazi.

DINIY TASHKILOT – diniy jamoalarning eng yuqori rasmiy uyushmasi.

EPISKOP – (qad. yunon. «nazorat qiluvchi») ko'p xristian cherkovlarida – oliy ierarx. Barcha arxiereylarning (patriarx, mitropolit, arxiepiskop) umumlashgan nomi.

ESSEYLAR – qadimiy yahudiylkdagi oqim.

JOHILIYA – (arab. «yagona Allohni tanimaslik») Arabiston yarim orolining islom dinidan avvalgi davri shunday atalgan.

ZAIF – (arab. «kuchsiz, kasal») ishonchli ekanligiga shubha bo'lgan hadis.

ZAKOT – (arab. «tozalanish, poklanish») islomning besh ruknidan biri. Mol-mulk *nisobiga* (muayyan miqdorga) etgach, uning qirqdan biri kambag'allar foydasiga sadaqa sifatida beriladi.

ZARDUSHIYAT – mil. av. VI – V asrlarda yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoir, payg'ambar. Zardushtiylik dinining asoschisi.

ZINO – o'zaro nikohda bo'lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqasi. Zino aksariyat dinlarda katta gunohlardan sanaladi.

ZOOANTROPOMORFIZM – (qad. yunon. «zoo» – hayvon, «antropo» – inson, «morf» – shakl) diniy va mifologik obrazlarni hayvon shaklida, insonga xos xususiyatlarga ega deb tasvirlash.

ZOOMORFIK – hayvon qiyofasidagi.

IBTIDOIY FAYLASUF – evolyusion pozitivistlarning chiqargan xulosasiga ko'ra, borliq va koinot haqida fikrlar yuritib, dinning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan ibtidoiy odam.

IJTIHOD – islomda yangi paydo bo'lgan diniy muammolarni hal qilishning o'ziga xos usuli.

IKONA – xristianlikdagi avliyolar portreti tushirilgan rasmlar. Ular cherkovlarda ibodat buyumi bo'lib xizmat qiladi.

INDULGENTSIYA – katolik cherkovi tomonidan dindorlarga qilingan yoki qilinishi mumkin bo'lgan gunohlarni kechirish haqida beriladigan guvohnoma. U pul yoki cherkov oldidagi xizmatlar evaziga beriladi.

ISNOD – (arab. «suyanish») hadisni rivoyat qilgan roviy ismlarining ketma-ket zanjiri.

ISROIL – (ivrit. «isro» – «banda», «iyl» – «xudo») Ya'qub payg'ambarning ikkinchi nomi, yahudiylar unga nisbat berilib, «Isroil bolalari» deb ataladi.

IISUS NAVIN – Qadimiy Ahd rivoyatlariga ko'ra, Musoning yordamchisi va noibi, Isroil qabilalari uchun Kan'onni (Falastinni) bosib olgan sarkarda.

YOM-KIPUR – yahudiylk dinida nishonlanadigan gunohlardan poklanish bayrami.

KARMA – (sanskrit. «harakat, burch, faoliyat») hindlarning diniy ta'limotlarida alohida mistik kuch, insonni qayta dunyoga kelishiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatadigan amallar to'plami.

KAROMAT – (arab. «ulug'lik, buyuklik») islom ta'limotiga ko'ra, Alloh tomonidan uning do'stlari – avliyolarga ato etiladigan sehdan farqli g'ayrioddiy qudrat.

KASTA – (portugal. «irq, qavm, tabaqa») muayyan kasb bilan shug'ullanadigan, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, tartib-qoidalar va h.k. bilan o'zgalardan ajratilgan ijtimoiy guruh.

KA'BA – (arab. «kub») Makka shahrida hozirgi davrda Baytul Harom (Muqaddas Masjid) ichida joylashgan islom dinining qiblasini hisoblagan binolar. Islom ta'limotiga binoan, uni buyuk to'fondan so'ng Ibrohim payg'ambar o'g'li Ismoil bilan qayta tiklagan.

KONFESSIYA – (lot. «e'tirof, e'tiqod») din, diniy e'tiqod.

KONFUTSIY – Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisi.

KOSMOGONIYA – astronomiyaning osmon jismlari, ularning paydo bo'lishi va o'zgarishlari haqidagi bo'limi. Bu erda osmon jismlarini ilohiylashtirish.

KRISHNA – hinduizmdagi e'tiborli xudolardan biri.

LINGA – (qad. hind. «tavsifnoma, jins belgisi») qadimiy hind mifologiyasida ilohiy yaratuvchilikning ramzi.

MAGIYA – (qad. yunon. «magus», arab. «majus») sehirgarlik.

MAZHAB – (arab. «yo'l») islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo'nalishi.

MATRIARXAT – onalik davriga oid, jamiyatda ayolning roli ustun bo'lgan davr.

MAXAYANA – (sanskrit. «katta arava») buddizmdagi oqim.

MEDITATSIYA – (lot. «fikrlash, o'ylash») shaxsning ruhiy faoliyatga chuqur berilish holati.

MIRMADAN – Qadimgi Yunoniston xalqlaridan biri.

MISTITSIZM – (qad. yunon. «yashirin, sirli») ilohiyot olami bilan bevosita muloqot qilish mumkinligi haqidagi ta'limot.

MITRA – zardushtiylidagi quyosh xudosi.

MITROPOLIT – (qad. yunon. «bosh shahar, poytaxt, mitropoliya odami») pravoslav cherkovining poytaxt shaharlardagi oliy ruhoniylilik unvoni.

MIF – (qad. yunon. «hikoyat, rivoyat») biror xalq orasida mashhur bo'lgan hikoyat, rivoyat, asotir.

MODERNIZM – dinni hozirgi zamon voqeligiga moslashtirishni yoqlab chiquvchi oqim.

MONOTEIZM – (qad. yunon. «mono» – «yagona», «teo» – «ilohiyot») yakkaxudolik.

MUJTAHID – ijtihod qilish darajasiga etgan faqih olim.

MURID – (arab. «xohlovchi») sufizm yo'lga kirib, murshidga qo'l bergan shogird.

MURSHID – (arab. «to'g'ri yo'lga boshlovchi») sufizm yo'lga kirganlarni hidoyatga boshlovchi ustoz, shayx.

MUSULMON (arab-fors. «muslimlar») – islom diniga e'tiqod qiluvchi kishi.

MUSHAF – (arab. «sahifalangan») Qur'oni karimning nomlaridan biri.

MUTAASSIBLIK – o'z g'oyasini «to'g'ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg'unchilikda ayblash.

MUSHRIK – ko'pxudolikda ayblangan odam.

MUQADDAS RUH – xristianlikdagi Xudoning uch ko'rinishidan biri.

MUHADDIS – (arab. «hadis so'zlovchi») hadislar bilan shug'ullanuvchi olim.

MUHOJIRLAR – (arab. «muhojir, emigrant») ilk islom tarixida Payg'ambar bilan Madinaga hijrat qilgan makkalik musulmonlar.

NIRVANA – (sansk. «so'lish») buddizm va jaynizm diniy falsafalariga ko'ra, ruhning sansara kishanlaridan to'la ozod bo'lishi va oliy maqomga erishish.

NOM – mil. av. IV asrlarda Qadimgi Misrda qabilalar *nom* deb atalgan.

OXIRAT – (arab. «boshqa, oxirgi, ikkinchi») bu dunyo oxiriga etganidan keyin barcha qayta tirilib, qilgan amallariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan ikkinchi hayot.

OYAT – (arab. «belgi; mo'jiza») Qur'on suralarini tashkil etuvchi qism, «jumlar».

PERGAMENT – qog'oz kashf etilguniga qadar yozuv materiali sifatida ishlatilgan teri.

PANISLOMIZM – XIX asrning oxirlarida O'rta Sharqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqqan siyosiy oqim.

PAPA – katolik oqimining bosh ruhoniysi.

PASXA – xochga mixlangan Iso Masihning qayta tirilishi xotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xristianlikdagi yirik bayram.

PATRIARX – (qad. yunon. «ota, asos soluvchi») ortodoksal cherkovdagi (pravoslavie) oliy diniy martaba bo'lib, undagi 14 ta avtokefal – mustaqil cherkovlar boshliqlari shu nom bilan ataladilar.

PESAX – yahudiylarning Qadimgi Misrdan qochib chiqib, ozod bo'lishi munosabati bilan nishonlanadigan bayram.

PIR - murshid.

POZITIVIZM – falssafada XIX asrning 30-yillarida vujudga kelgan, pozitiv (aniq) fanlarni birdan-bir haqiqiy bilimlardir, deb e'tirof etgan oqim.

POLITEIZM – (qad. yunon. «poli» – «ko'p», «teo» – «xudo») ko'pxudolik.

PORA (JUZ') – (fors. «pora», arab. «juz'» - «qism, bo'lim») Qur'onning o'ttizdan bir qismi.

POST - xristian dinidagi ro'za. Post kunlari xristianlarga faqat o'simlik mahsulotlarini eyish ruxsat etiladi.

RAVVIN – yahudiy din arbobi. U yahudiy jamoasi diniy va oilaviy masalalarida hakamlilik qiladi.

RISOLAT – payg'ambarlik.

ROVIY – (arab. «rivoyatchi») hadis rivoyat qiluvchi kishi.

ROSH-HASHONA – yahudiylikdagi yangi yil bayrami.

SADUQIYLAR – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

SAFO – Makka shahrida Ka'ba yaqinidagi tepalik. Haj va umra qiluvchilar Safo va Marva tepaliklari orasida etti bor yugurishlari lozim.

SAHIH – (arab. «sog'lom; to'g'ri») olimlar tarafidan ishonchli, to'g'ri deb topilgan hadis.

SAHOBAT – Payg'ambar bilan hamsuhbat bo'lgan ilk musulmonlar.

SIDDXARTXA – Buddaning shaxsiy ismi.

SINAGOGA – yahudiylar ibodatxonasi.

SINION – Quddus yaqinidagi tepalik.

SIONIZM – yahudiylikdagi diniy-siyosiy oqim.

SUNNAT – islomda Payg'ambar amallari.

SURA - (arab. «devor, to'siq») Qur'onni tashkil etuvchi qismlar. Qur'on jamlanish davrida ularning umumiy soni 114 ta deb belgilangan.

SUTRA – (sanskrit. «ip») Qadimgi Hindiston diniy-falsafiy ta'limotlarining lo'nda iboralar shaklidagi qisqa bayoni. Diniy-falsafiy adabiyot turi.

SUTRA-PITAKA – Tripitakaning din mazmuniga bag'ishlangan qismi.

SUFIY – islomdagi mistik-asketik oqim vakili.

TABU – totemistik tasavvurlar mavjud bo'lgan jamiyatdagi diniy taqiq. Bu tasavvurlarga ko'ra, tabuni buzgan odam ruhlar va xudolar tomonidan unga og'ir kasallik yoki o'lim yuborish bilan jazolanadi. Tabu ma'lum bir buyumga tegmaslik, ma'lum so'zni aytmaslik, ma'lum hayvonlarning go'shtini emaslik kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

TAVAKKUL – tasavvuf ta'limotiga ko'ra, o'z irodasini Allohga ishonib topshirish.

TALMUD – (ivrit. «lameyd» - «o'rganish» so'zidan) Tavrotga yozilgan sharhlar to'plami.

TAFSIR – (arab. «bayon qilish») Qur'on oyatlariga o'ziga xos ravishda ma'no berish.

TERRORIZM - (fr. «qo'rqitish») o'z fikrini zo'ravonlik yo'li bilan boshqalarga o'tkazish. Bu yo'lda suiqasd, qo'poruvchilik kabi usullardan foydalaniladi.

TIPITAKA – Tripitaka so'zining o'zgargan shakli.

TOBI'UN – (arab. «ergashuvchilar») Payg'ambar sahobalarini ko'rgan va ularga ergashgan kishilar.

TORA – (arab. «Tavrot») Muso payg'ambarga nozil bo'lgan kitob.

TOTEM – (Shimoliy Amerikadagi Ojibva qabilasining tilida - «uning urug'i») totemizmida muqaddas sanaladigan o'simlik va hayvon.

TRADITSIONALIZM – an'anachilik. Dindagi rastionalizmga qarshi o'laroq, naql (taqlid) tamoyiliga asoslanuvchi oqim.

TRIPITAKA – (sanskrit. «uch savat») buddizmning muqaddas kitobi.

FARZIYLAR – qadimiy yahudiylikdagi oqim.

FARISHTA – nurdan yaratilgan, nafs va xohishga ega bo'lmagan, faqatgina unga xudo tomonidan buyurilgan muayyan vazifalarni og'ishmay bajaradigan, insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan maxluq.

FANATIZM – mutaassiblik.

FATVO – faqihning dinda paydo bo'lgan yangi muammolarni Qur'onga zid kelmaydigan ravishda hal qilib chiqargan hukmi.

FATH – (arab. «ochish») biror shahar yoki mamlakatga harbiy yo'l bilan dinni olib kirish.

FAQIH – fiqh ilmining bilimdoni.

FETISH – (fr. «but, sanam, tumor») tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inish.

FIR'AVN – ilohiyot darajasiga ko'tarilgan Qadimgi Misr podshohlari tituli.

FIQH – (arab. «tushunish») shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.

FUNDAMENTALIZM – ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo’l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish ta’limoti.

XINAYaNA – (sanskrit. «kichik arava») buddizmdagi oqim.

XONAQOH – 1) sufiylar jamlanib zikru samo bilan mashg’ul bo’ladigan maxsus bino; 2) masjidning mehrob va minbar o’rnatilgan qismi.

XOCh – krest, chormix.

ShAMAN – (tungus. «sehrgar») ruhlar olami bilan muloqot qiluvchi ruhoniy.

ShOYIXET – yahudiylikdagi ruhoniylarning boshlang’ich darajalaridan biri bo’lib, uni egallagan kishi qurbonlik yoki kundalik iste’mol uchun atalgan hayvonni so’yish huquqiga ega bo’ladi.

ShOM – Suriyaning qadimiy nomi.

ShOPUR – 243-273 yillarda hukmronlik qilgan Sosoniylar sulolasi hukmdori, Avestoning bizgacha etib kelgan nusxasini tartibga soldirgan.

EVOLYuTSIONIZM – dinshunoslikda din ham dunyoning shakllanishi kabi bosqichma-bosqich soddadan murakkabga qarab rivojlangan degan g’oyani ilgari suruvchi ta’limot.

EKSTREMIZM – o’z maqsadi yo’lida turli haddan ortiq keskin tadbir-choralar ko’rishga tarafdorlik.

ERAN-VEJ – Avestoda zikr qilingan Zardushtning vatani.

ESXATOLOGIYA – dunyoning oxiri, narigi dunyo, jannat, do’zax haqidagi tasavvurlar majmui.

E’TIQOD – dunyoqarash. Biror dinga e’tiqod qilish - uni haq deb bilib, uning ta’limotini tan olish.

YaSNA – Avestodan bizgacha etib kelgan to’rt kitobning ikkinchisi.

YaSRIB – Madina shahrining hijratdan avvalgi nomi.

YaShT – Avestoning 1-qismi.

YaHVE – yahudiylik ta’limotiga ko’ra, dunyolarni yaratuvchi yagona qudratli Xudo.

YaHUDO – Ya’qub payg’ambarning farzandlaridan biri. Uning avlodlari «yahudiylar» deb ataladi.

QIYoMAT – (arab. «tik turish») bu dunyoning oxiri.

QIROAT – (arab. «o’qish») Qur’onni o’ziga xos qoidalarga muvofiq tilovat qilish.

QORATOSH – qarang al-Hajar al-asvad.

QUR’ON – (suryoniy «kerain» - «muqaddas yozuv») islom dinining muqaddas kitobi.

HADIS – (arab. «yangi; so’z») Muhammad payg’ambarning aytgan so’zlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.

HANIFLIK – islomdan avval Arabiston yarim orolida mavjud bo’lgan yakkaxudolik g’oyasi.

HOSHIMIYLAR – Makkada yashagan Quraysh qabilasidan bo’lgan Hoshim ibn Abdumanofning avlodlari.

MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO’YXATI

I. Asosiy

O'zbek tilida

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi. T., O'zbekiston, 1992.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekistonning yangi qonunlari, T. 19. T., Adolat, 1998, 224-234-betlar.
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T., «O'zbekiston», 1992.
6. Karimov I.A. E'tiqod erkinligi qonuniy asosda bo'lsin // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy majlis XI sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi, 1998, 5 may.
7. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. T., «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001.
8. «Avesto» kitobi – tariximiz va ma'naviyatimizning ilk yozma manbai» mavzuidagi ilmiy-amaliy seminar materiallari. T., 2000.
9. Abdusamedov A.I. Dinshunoslik asoslari. T., O'zbekiston, 1995.
10. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. T., Sharq bayozi, 1993. - 126 b.
11. Abu Lays as-Samarqandiy. Tanbehul g'ofilin. Dilmurod Qo'shoqov tarjimasi. T., Movarounnahr, 2000.
12. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
13. Azimov A. Islom va hozirgi zamon: ma'ruzalar matni. T., ToshDShI, 2000.
14. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-Jomi as-sahih (ishonarli to'plam). 4 jildli. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.
15. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy / A. Abdullo tarjimasi. T., G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
16. At-Termiziy. Shamoili Muhammadiya / Sayid Mahmud Taroziy-Alixon to'ra tarjimasi. T., Mehnat, 1991.
17. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. T., 1968.
18. Beruniy, Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. T., 1973.
19. Beruniy, Abu Rayhon. Hindiston // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. II tom. T., 1968.
20. G'azzoliy, Muhammad Abu Xomid. Ihyo-ul-ulum / Arabchadan Alouddin Mansur tarjimasi // Kamalak. Adabiy-tanqidiy yillik to'plam. T., Yosh gvardiya, 1990.
21. Ziyodov Sh. Al-Moturidiy hayoti va merosi. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.

22. Zohidov Q., Mahmud M. Islom madaniyati demokratiyaga zid emas // Guliston. 2000. 6-son. B. 38-39.
23. Imom al-Buxoriy. al-Adab al-mufrad. T., O'zbekiston, 1990.
24. Injil. Stokgolm: Bibliyani tarjima qilish instituti, 1992.
25. Ishoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardushtiylik, Zardusht va Avesto haqida) // «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, № 2 (1992), B. 3-12.
26. Karomatov ©.S. O'ur'on va o'zbek adabiyoti. T., Fan, 1993.
27. Karomatov H.S. Arba'in hadis va qirq maqol. T., Fan. 1994.
28. Qodirov Z. Imom A'zam hayot yo'li va fiqh usullari. T., Movarounnahr, 1999.
29. Qoriev O. Al-Marg'inoniy – mashhur fiqhshunos. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000.
30. Mansur A., Ibrohimov N.I., To'xliiev N., Hasanov A. Ilmu ma'rifat nuri (Saylanma hadislar). T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998.
31. Mansur A. Imom al-Buxoriy mazhabi // Sharq mash'ali, № 3-4. 1998, B. 22-25.
32. Maxdum, Shayx Ismoil. Toshkentdagi Usmon mushafining tarixi. T., 1995.
33. Mahmudov T. «Avesto» haqida. T., 2000.
34. Mirmahmudov N. Imom ad-Dorimiy // Hidoyat. № 8. 2000. B. 6.
35. Muxtasar (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) / Nashrga tayyorlovchilar: R. Zohid, A. Dehqon. T., Cho'lpon, 1994.
36. Mo'minov A. Imom-i A'zam Abu Hanifa // Muloqot, № 7-8 (1994), B. 37-40.
37. Mo'minov A. Movarounnahr ulamolari: hanafiylar // Sharqshunoslik, № 9, 1999, B. 40-44.
38. Mo'minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o'qitish va o'rganishning yagona konstepstiyasi. T., Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1999.
39. Readon B. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. T., 2002.
40. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. T., Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001.
41. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti (qisqartirilgan nashr). T., Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002.
42. As-Sa'olibiy, Abu Mansur. Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-'asr. T., Fan, 1976.
43. Sulaymon Boqirg'oniy. Boqirg'on kitobi. T., 1991.
44. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1997.
45. Uvatov U. Buyuk muhaddislar: Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom at-Termiziy. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1998.
46. Uvatov U. Muhaddislar imomi. T., Ma'naviyat, 1998.
47. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T., Istiqlol, 1999.
48. Xayrullaev M.M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. T., Fan, 1971.
49. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T., 1992.
50. Husniddinov Z.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. T., Movarounnahr, 2000.

51. Husniddinov Z.M. Mustaqillik sharoitida dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash jarayoni. Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2000.
52. Eshonjonov B. Imom al-Buxoriy – buyuk faqih // Imom al-Buxoriy saboqlari. № 1, 2000, B. 16-18.

G'arbiy Evropa tillarida

53. Anawati G.C., Gardet L. Mystique musulmane: Aspects et tendances, experiences et techniques. 3^e ed. Paris, 1976.
54. Ances M.A. and Athor A.N. Guide to Sira and Hadith Literature in Western Languages [j. y.], 1968.
55. Arberry A.J. The Doctrine of the Sufis. Cambridge, 1935.
56. Azmi M.M. Studies in Early Hadith Literature with a Critical Edition of Some Early Texts. Beirut, 1968.
57. Berger P.L. Auf den Spuren der Engel. Frankfurt, 1981.
58. Berger P.L. Zur Dialektik von Religion und Gesellschaft. Elemente einer soziologischen Theorie. Frankfurt, 1973.
59. Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel. Parts I-III. Bloomington: Indiana University, 1995.
60. Blachère R. Introduction au Coran. Paris, 1947.
61. Bosworth C.E. The New Islamic Dynasties. A chronological and genealogical manual. Edinburgh: University Press, 1996.
62. Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur (GAL). 1-2. Weimar-Berlin, 1898-1902; Supplementbände. 1-3. Leiden, 1937-1942.
63. Brown J. The Darvishes or Oriental Spiritualism by John P. Brown. Ed. with an Introduction and Notes by H. A. Rose. London, 1968.
64. Browne E.G. A History of Persian Literature under Tartar Domination (A.D. 1265-1502). Cambridge, 1920.
65. Caetani L. Annali dell'Islam. 1-2. Milano, 1905-1907.
66. Clark H. The Psychology of Religion. New York, 1960.
67. Cook M. Early Muslim Dogma: a Source-Critical Study. Cambridge, 1981.
68. Cook M. Muhammad. Oxford, 1983.
69. Corbin H. En Islam iranien: Aspects spirituels et philosophiques. 1-4. Paris, 1978.
70. Dahm K.W., Drehsen V., Kehr G. Das Jenseits der Gesellschaft. Religion im Prozess sozialwissenschaftlicher Kritik. München, 1975.
71. Daiber K.-G., Luckmann Th. (Hg). Religion in der Gegenwartsströmungen der deutschen Soziologie. München, 1983
72. Damman E. Grundriss der Religionsgeschichte. München, 1978.
73. Dürkheim E. Les formes élémentaires de la vie religieuse. Paris, 1912.
74. Dimand M. S. A Handbook of Muhammadan art. New York, 1947.
75. Donaldson B.A. The Wild Rue: A Study of Muhammadan Magic and Folklore in Iran. London, 1938.
76. Encyclopaedia Judaica, 16 vols and Year Books. Jerusalem, 1972.

77. Endress G. Der Islam. Eine Einfuehrung in seine Geschichte. Muenchen, 1991.
78. Ess J., van. Theologie und Gesellschaft im 2. Und 3. Jahrhundert Hidschra. Eine Geschichte des religiösen Denkens im frühen Islam. I-VI. Berlin, New York, 1991-1996.
79. Fazlur Rahman. Islam. Second Edition. Chicago, 1979.
80. Finkelstein L. (ed.) The Jews: their History, Culture and Religion. 4th ed., 3 vols. New York, 1970.
81. Gardet L., Anawati G.C. Introduction à la théologie musulmane. Essai de théologie comparée. Paris 1948.
82. Geertz C. Islam observed. Religious Development in Morocco and Indonesia. New Haven and London, 1968.
83. Goldziher I. Die Richtungen der islamischen Koranauslegung. Leiden, 1920.
84. Goldziher I. Introduction to Islamic Theology and Law. Princeton, 1981.
85. Goldziher I. Vorlesungen über den Islam. Heidelberg, 1910.
86. Gramlich R. Die schiitischen Derwischorden persiens. 1-3. Wiesbaden, 1965, 1976, 1981.
87. Graves Ch. Proto-religions in Central Asia. Bochum, 1994.
88. Guillaume A. The Traditions of Islam: An Introdcion to the Study of the Hadith Literature. Oxford, 1924.
89. Handwörterbuch des Islam. Leiden, 1941.
90. Ibrahim T., Sagadeev A. Classical Islamic Philosophy. Moscow, 1990.
91. Islam ansiklopedisi. Islam alemi tarih, coğrafya, etnografya ve biyografya luğatı. Istanbul, 1945.
92. Islamic Dilemmas: Reformers, Nationalists and Industrialization: The Southern Shore of the Mediterranean. Ed. by E. Gellner. Berlin, New York, Amsterdam, 1985.
93. Islamic Philosophical Theology. Ed. By P. Morewedge. New York, 1979.
94. Izutsu T. A comparative study of the key philosophical concepts in Sufism and Taoism. 1-2. Tokyo, 1966.
95. Jeffery A. The Foreign Vocabulary of the Qur'an. Baroda, 1938.
96. Juynboll G.H.A. Muslim Tradition: Studies in Chronology, Provenance and Authorship of Early Hadith. Cambridge, 1983.
97. Kister M. Studies in Jahiliyya and Early Islam. London, 1980.
98. Kitagawa Josef M. The History of Religion. Atlanta, 1987.
99. Lambton A.K.S. State and Government in Medieval Islam. New York, 1981.
100. Leeuw, Gerardus, van der. Einführung in die Phénoménologie der Religion. Darmstadt, 1961.
101. Lokkegaard F. Islamic Taxation in the Classic Period: With Special Reference to Circumstances in Iraq. Copenhagen, 1950.
102. Lübke H. Religion nach der Aufklärung. Craz, Wien, Köln, 1990.
103. Luckman Th. Das Problem der Religion in der modernen Gesellschaft. Freiburg, 1963.
104. Luckman Th. The Invisible Religion. New York, 1967.

105. Makdisi G. The rise of colleges: Institutions of learning in Islam and the West. Edinburgh, 1981.
106. Malherbe M. Les religions. Paris, 2000.
107. Malinowski B. Eine wissenschaftliche Theorie der Kultur und andere Aufsätze. Bonn, 1975.
108. Malinowski B. Magie, Wissenschaft und Religion. Frankfurt, 1973.
109. Manichaeism // The Encyclopaedia of Religion. Vol. 9. New York, 1987, B. 161-171.
110. Mensching G. Die Religion. Erscheinungsformen, Strukturtypen und Lebensgesetze. Stuttgart, 1959.
111. Messina G. Cristianesimo, buddhismo, manicheismo nell'Asia antica. Roma, 1947.
112. Nöldeke Th. Geschichte des Qorans. 2. Aufl. bearb. von Fr. Schwally. 1 - 3. Leipzig, 1909-1929.
113. Otto R. Das Heilige. Gotha, 1936.
114. Paret R. Der Koran. Kommentar und Konkordanz von R. Paret. Verlin, 1971.
115. Radcliff-Braun A. Structure and Functions in Primitive Society. London, 1959.
116. Religion in Geschichte und Gegenwart. Tübingen, 1958.
117. Religions in Japan. Buddhism, Shinto, Christianity. Tokyo, 1980.
118. Roux J.-P. La Religion des Turcs et des Mongols. Paris, 1984.
119. Schacht J. An Introduction to Islamic Law by Joseph Schacht. Oxford, 1964.
120. Schacht J. The Origins of Muhammadan Jurisprudence. Oxford, 1950.
121. Sourdel D. Le vizirat 'Abbaside de 749 a 936. 1-2. Damas, 1959-1960.
122. Stolz F. Grundzüge der Religionswissenschaft. Göttingen, 1988.
123. Storey Ch.A. Persian Literature: A bio-bibliographical survey. 1-2. London, 1927-1973.
124. Strunk O. (Ed.). The Psychology of Religion. 1971.
125. Textual Sources for the Study of Islam. Edited and Translated by Andrew Rippin and Jan Knappert. Chicago, 1990.
126. Textual Sources for the Study of Judaism. Edited and Translated by Philip S. Alexander. Chicago, 1990.
127. The Cambridge History of Early Inner Asia. Edited by Denis Sinor. Cambridge University Press, 1990.
128. The Encyclopaedia of Islam. New Edition. Leiden-London, 1960-...
129. The Encyclopaedia of Religion and Ethics. Edinburgh, New York, 1925.
130. The Encyclopaedia of Religion. Eliade, M. editor. 15 volumes. New York, 1959; 2nd Ed. New York, 1987.
131. The Encyclopedia of Unbelief. Buffalo, 1985. Vol. 1, 2.
132. The Oxford Encyclopedia of Modern Islamic World. 4 volumes. New York, Oxford, 1995.
133. The Sacred books of the East translated by various oriental scholars and edited by F. Max Muller. In 50 vol. Oxford, 1879-1910.
134. Thompson L.G. Chinese Religion. An Introduction. 4th ed. Belmont, 1989.

135. Waardenburg J. Classical Approaches to the Study of Religion. 2 vol. Mouton, The Hague, Paris, 1973-1974.
136. Wach J. Religionssoziologie. Tübingen, 1951.
137. Wansbrough J. Quranic Studies: Sources and Methods of Scriptural Interpretation. Oxford, 1977.
138. Watt W. M. Bell's Introduction to the Qur'an: completely revised and enlarged. Edinburgh, 1970.
139. Watt W.M. Islamic Philosophy and Theology. Edinburgh, 1962.
140. Watt W.M. The Formative Period of Islamic Thought. Edinburgh, 1973.
141. Wensinck A.J. A handbook of early Muhammadan tradition alphabetically arranged by A. J. Wensinck. Leiden, 1927.
142. Wensinck A.J. Concordance et indices de la tradition musulmane: Les six livres, le Musnad d'al-Darimi, le Muwatta' de Malik, le Musnad de Ahmad ibn Hanbal par A.J. Wensinck. 1-7. Leiden, 1936-1969.
143. Wensinck A.J. The Muslim Creed. Cambridge, 1932.
144. World Religions. From Ancient History to the Present. Editor: Geoffrey Parrinder. New York, Bicester, 1983.
145. Young G. Confucianism and Christianity. The first encounter. Hong Kong, 1983.

Рус тилида

1. Авеста в русских переводах (1861-1996) / Составител И.В. Рак. Изд. 2-е, исправленное. Санкт-Петербург, 1998.
2. Авеста. М., 1994.
3. Авеста: избранные гимны / перевод с авест. И.М. Стеблин-Каменского. Душанбе, 1990.
4. Авеста: Избранные гимны. Из Видевдата / перевод с авест. И.М. Стеблин-Каменского. М., 1993.
5. Андреева Г.М. Состияльная психология. М., 1994.
6. Арутюнов С.А., Светлов Г.Е. Старые и новые боги Японии. М., 1968.
7. Атхарваведа. Избранное. М., 1977.
8. Ахмад ибн Фарис ар-Рази. Ауджаз ас-сияр ли-хайр ал-башар // Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. М., 1994, Б. 26-32.
9. Бартолд В. В. Сочинения. 1-9. М., 1963-1977.
10. Бартолд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. - М.: Восточной литературы, 1963.
11. Бартолд В.В. Работы по истории ислама и Арабского Халифата // Бартолд В.В. Сочинения. Том VII. М., 1966.
12. Басилов В.Н. Култ святых в исламе. М., 1970.
13. Басилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. М., 1992.
14. Бахаулла. Китаб-и Икан. Академический пер. с перс., предисловие, комментарии и текстологическое приложение Ю.А. Иоаннесяна. СПб., 2001.
15. Беленкий М.С. Иудаизм. М., 1966.

16. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование действительности. М., 1995.
17. Бергсон А. Два источника морали и религии. М., 1994.
18. Библийская енциклопедия. М., 1991.
19. Библия. М., 1997.
20. Бидерман Г. Енциклопедия символов. М., 1996.
21. Боги, брахманы, люди. Четыре тысячи лет индуизма. М., 1969.
22. Богословие в культуре средневековья. Киев, 1992.
23. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. Пер. с англ. И.М. Стеблин-Каменского. Послесл. Е.А. Грановского. 2-е издание, исправленное. М., 1988; третье издание, полностью переработанное. Санкт-Петербург, 1994.
24. Болшаков О.Г. История Халифата. 1-3 части. М., 1989-1998.
25. Бонгард-Левин Г.М. Древнеиндийская цивилизация. Философия, наука, религия. М., 1980.
26. Борунков Ю.Ф. Структура религиозного сознания. М., 1971.
27. Босворт К.Е. Мусульманские династии: Справочник по хронологии и генеалогии / Пер. с англ. П.А.Грязневича. - М., 1971.
28. Буддизм. Словарь. М., 1992.
29. Буддийская философия в средневековой Японии. М., 1998.
30. Булгаков С.Н. Православие. М., 1991.
31. Бхагавадгита: Книга о Бхисме. Введение, перевод с санскрита и комментарии В.Л. Смирнова. 3-е изд., доп. Санкт-Петербург, 1994.
32. Бешем А. Чудо, которым была Индия / Пер. с англ. М., 1977.
33. Василев Л.С. Култы, религии, традиции в Китае. М., 1970.
34. Василев Л.С. История религий Востока. М., 1975, 1988, 1997.
35. Вебер М. Избранное. Образ общества. М., 1994.
36. Вебер М. Избранные произведения. М., 1990.
37. Вебер М. Хозяйственная этика мировых религий. М., 1991.
38. Винничук Л. Люди, нравы, обычаи Древней Греции и Рима. М., 1988.
39. Волков С.В. Ранняя история буддизма в Корее (сангха и государство). М., 1985.
40. Второй Ватиканский собор. Конституции. Декреты. Декларации. Брюссель, 1992.
41. Гараджа В.И. Протестантизм. М., 1971.
42. Гараджа В.И. Религиоведение. 2-изд. М., 1995.
43. Гараджа В.И. Социология религии. М., 1996.
44. Гегел Г.В.Ф. Феноменология духа // Сочинения. М., 1959. Т. IV.
45. Гегел Г.В.Ф. Философия религии. В 2 т. М., 1975, 1977.
46. Гергей Е. История папства. М., 1996.
47. Го Мо-жо. Философы Древнего Китая. М., 1961.
48. Государственно-церковные отношения в России: курс лекций. В 2 частях. М., 1995.
49. Григорян С.Н. Средневековая философия народов Ближнего Востока. М., 1966.

50. Гусева Н.Р. Джайнизм. М., 1968.
51. Гусева Н.Р. Индуизм. История формирования. Культурная практика. М., 1977.
52. Далай-Лама ХИВ. Буддизм в Тибете. М., 1991.
53. Даосская ёга. Составитель Шариев В.А. Бишкек, 1993.
54. Девятова С.В. Современное христианство и наука. М., 1994.
55. Дервиш Р.А., Левтеева Л.Г., Мусакаева А. Памятники истории религии и культуры в Узбекистане. Пособие для факультатива по истории религии. Т., Ўитувчи, 1994.
56. Джатаки. М., 1979.
57. Джеймс В. Многообразие религиозного опыта. Санкт-Петербург, 1993.
58. Добренков В.И., Радугин А.А. Методологические вопросы исследования религии. М., 1989.
59. Древнекитайская философия. В 2-томах. М., 1972-1973.
60. Дхаммапада. М., 1960.
61. Дюркгейм Е. О разделении общественного труда. М., 1990.
62. Ермаков Д.В. Хадисы и хадисная литература// Ислам: историографические очерки. М.: Главная редакция восточной литературы, 1991. Б. 85-108.
63. Закон божий: Вторая книга о православной вере. Волгоград. 1987.
64. Законодательство РФ о свободе совести, вероисповедания и религиозных объединениях. М., 1993.
65. Зенковский В. Основы христианской философии. М., 1992.
66. Зиммел Г. Состиология религии // Зиммел Г. Избранное. Философия культуры. Т. II. М., 1995.
67. Ибн Батта ал-ЪУкбари. аш-Шарх ва-л-ибана ъала усул ас-сунна ва-д-дияна // Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. М., 1994, Б. 87-99.
68. Ибн Хишам. Сират Саййидина Муаммад Расул Аллах // Хрестоматия по исламу. Пер. с арабского, введ. и примеч. М., 1994, Б. 12-24.
69. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. М., 1988.
70. Игнатович А.Н. Буддизм в Японии. М., 1987.
71. Из истории древних култов Средней Азии. Христианство. Т., Главная редакция енстиклопедий, 1994.
72. Иллюстрированная история религий. Под ред. Д.П. Шантепи де ля Соссей. В 2 т. М., 1992.
73. Илин Г.Ф. Религия Древней Индии. М., 1955.
74. Илин И.А. Аксиомы религиозного опыта. М., 1993. Т. II-III.
75. Индийская философия. Тексты. М., 1981.
76. Индуизм. Джайнизм. Сикхизм. Словар. М., 1996.
77. Ислам на территории бывшей Российской империи. Енстиклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Выпуски 1-3. М., 1998-2001.

78. Ислам. Историографические очерки. Под общей редакцией С.М. Прозорова. М., 1991.
79. Ислам. Краткий справочник. М., 1983.
80. Ислам. Енстиклопедический словарь. М., 1991.
81. Ислам: религия, общество, государство. М., 1984.
82. К истории христианства в Средней Азии (XIX-XX вв.). Т., Ўзбекистон, 1998.
83. Капустин Н.С. Особенности эволюции религии. М., 1984.
84. Карташов А.Б. Вселенские соборы. М., 1994.
85. Карташов А.Б. Очерки по истории русской славянофильства. М., 1992—1993. Т. 1, 2.
86. Католицизм. Словарь. М., 1991.
87. Кейпер Ф.Б.Я. Труды по ведийской философии. Тексты. М., 1986.
88. Кимелев Ю.А. Современная западная философия религии. М., 1989.
89. Кимелев Ю.А. Философский теизм. Типология современных форм. М., 1993.
90. Китайская философия: Енстиклопедический словарь. М., 1994.
91. Классики мирового религиоведения. М., 1996.
92. Ковалский Я.В. Папы и папство. М., 1991.
93. Кодзики. М., 1995. Т. 1, 2.
94. Конфуцианство в Китае. Проблемы теории и практики. М., 1982.
95. Конфуций. Изречения. М., 1994.
96. Конфуций. Я верю в древность / Сост., пер. и коммент. И.И. Семенов. М., 1995.
97. Концевич И.М. Православие и буддизм. М., 1994.
98. Кон-Шербок Д., Кон-Шербок Л. Иудаизм и христианство. Словарь. М., 1995.
99. Коран. Перевод и комментарии И.Ю. Крачковского. М., 1963; 2-е изд. М., 1986.
100. Корнев В.И. Буддизм и общество в странах Южной и Юго-Восточной Азии. М., 1987.
101. Корнев В.И. Тайский буддизм. М., 1973.
102. Коростовцев М.А. Религия Древнего Египта. М., 1976.
103. Костюченко Б.С. Классическая веданта и неоведантизм. М., 1983.
104. Кочетов А.Н. Буддизм. М., 1983.
105. Кочетов А.Н. Ламаизм. М., 1973.
106. Краткая философская энциклопедия. М., 1994.
107. Кривелев И.А. История религии. Очерки в 2-х томах. М., 1976; Издание второе доработанное. М., 1988.
108. Кубланов М.М. Происхождение христианства. М., 1974.
109. Кулаков А.Е. Религии мира. Пособие для учащихся. М., 1996.
110. Кун Е.А. Легенды и мифы Древней Греции. М., 1957.
111. Лайтман М. Каббала. Тайное еврейское учение. Новосибирск, 1993.
112. Лао Тзы. Даодестзин. М., 1990.
113. Леви-Брюль Л. Сверхъестественное в первобытном мышлении. М., 1994.

114. Леви-Строс К. Первобытное мышление. М., 1994.
115. Леви-Строс К. Структурная антропология. М., 1980.
116. Лекции по истории религии. Учебное пособие. Санкт-Петербург, 1997.
117. Лекции по религиоведению. Под редакцией профессора И.Н.Яблокова. М., 1998.
118. Литман А.Д. Современная индийская философия. М., 1985.
119. Лобовик Б.А. Религиозное сознание и его особенности. Киев, 1986.
120. Лозинский С.Г. История папства. М., 1986.
121. Лосев А.Ф. Знак, символ, миф. М., 1982.
122. Лукашов В.А., Омурова Т.О., Трофимова З.П. Религиоведение. М., 2000.
123. Лукьянов А.Е. Начало древнекитайской философии. М., 1994.
124. Луния Б.Н. История индийской культуры с древних времен до наших дней. М., 1960.
125. Лысенко В.Г., Терентев А.А., Шохин В.К. Ранняя буддийская философия. Философия джайнизма. М., 1994.
126. Лютер М. Избранные произведения. СПб., 1994.
127. Малявин В.В. Конфутсий: жизнь, учение и судьба. М., 1993.
128. Манихейство // Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье. М., 1992, Б. 508-532.
129. Массе А. Ислам. Очерк истории. Пер. с фр. М., 1963; Изд 3-е. 1982.
130. Мате М. Древнеегипетские мифы. М.-Л., 1956.
131. Махабхарата. М., 1967.
132. Медведев М.И. Человек и его отражение в религии. Минск, 1983.
133. Мен А. История религии. В 6 т. М., 1991-1995.
134. Мест А. Мусульманский Ренессанс. Изд. 2-е (Пер с нем. Предисл. Д.Е. Бертелса) - М., 1973.
135. Мистики XX века. Енстиклопедия. М., 1996.
136. Митрохин Л.Н. Философия религии. М., 1993.
137. Мифологический словарь. М., 1990.
138. Мифы народов мира. В 2-х томах. М., 1980-82; 1991.
139. Мудресты Китая / Пер. с кит. Санкт-Петербург, 1994.
140. Мчедлов М.П. Католицизм. М., 1970.
141. Менли П.Х. Енстиклопедическое изложение масонской, герметической, каббалистической и розенкрейстеровской символической философии. Новосибирск, 1992. Т. 1-2.
142. Невелева С.Л. Мифология древнеиндийского эпоса (Пантеон). М., 1975.
143. Немировский А.И. Мифы Древней Еллады. М., 1992.
144. Никитин А.Б. Христианство в Средней Азии (древность и средневековье) // Восточный Туркестан и Средняя Азия. М., 1984.
145. Никитин В.Н., Обухов В.Л. Религиоведение. Вероучения религий мира. Санкт-Петербург, 1999.
146. Николский Н.М. История русской церкви. 3-е изд. М., 1985.
147. Ничипоров Б.В. Введение в христианскую психологию. М., 1994.
148. Новый завет. С иллюстрациями. М., 1994.

149. Овермайер Д.Л. Религии Китая. Мир как живая система // Религиозные традиции мира. Т. ИИ. М., 1996, Б. 395-490.
150. Осипова Е.В. Состиология Емиля Дюркгейма. М., 1977.
151. Основы религиоведения. Под редакцией И.Н.Яблокова. М., 1994. Издание второе, переработанное и дополненное. М., 1998.
152. Очерки истории западного протестантизма. М., 1995.
153. Очерки историографии Библии и раннего христианства. Минск, 1970.
154. Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., Петрушевский И.П., Строева Л.В., Беленицкий А.М. История Ирана с древнейших времен до конста ХВИИИ в. Л., 1958.
155. Пиотровский М.Б. Коранические сказания. М., 1991.
156. Платонов К.К. Психология религии. М., 1967.
157. Померанстева Л.Е. Поздние даосы о природе, обществе и искусстве. М., 1979.
158. Попов А.С., Сато М. Диалог: стерков и мир. М., 1990.
159. Попова М.А. Фрейдизм и религия. М., 1985.
160. Православие. Словар. М., 1989.
161. Пронников В.А., Ладонов И.Д. Японсты. М., 1985.
162. Протестантизм. Словар. М., 1990.
163. Психологические аспекты буддизма. Новосибирск, 1986.
164. Пятикнижие и Гафтарот. Книга Брейшит. М., 1994.
165. Работы М. Вебера по состиологии религии и идеологии. М., 1985.
166. Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современные религии. М., 1996; 2-е издание, исправленное и дополненное. М., 1999.
167. Радхакришнан С. Индийская философия. Т. И-ИИ. М., 1956-1957.
168. Рак И.В. Мифы Древнего Египта. СПб., 1993.
169. Рак И.В. Мифы древнего и раннесредневекового Ирана. Санкт-Петербург-М., 1998.
170. Ранович А.В. Христианская идеология, организастья христианской стерквы. М., 1990.
171. Ранович А.В. Первоисточники по истории раннего христианства. Античные критики христианства. М., 1990.
172. Рашкова Р.Т. Ватикан и современная култура. М., 1989.
173. Резван Е.А. Коран и его мир. СПб., 2001.
174. Религии мира: Справочник. Под редакцией Я.Н. Щапова. М., 1994.
175. Религиоведение: Яблоков И.Н. Учебное пособие. Учебный словарь-минимум по религиоведению. М., 1998.
176. Религиозные верования: Свод этнографических понятий и терминов. Выпуск 5. М., 1993.
177. Религиозные объединения Российской Федерастии. Справочник. М., 1996.
178. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство, ислам. Справочник школника. Бишкек, 1997.
179. Религиозные традиции мира. В 2-томах. М., 1996.

180. Религия в истории и культуре. Под редакцией М.Г. Писманика. М., 1998.
181. Религия и демократия: На пути к свободе совести. Выпуск 2. М., 1993.
182. Религия и общество. Хрестоматия по социологии религии. М., 1996.
183. Религия и права человека. М., 1996.
184. Религия, свобода совести, государственно-церковные отношения в России. Справочник. М., 1996
185. Религия. История и современность. Под ред. проф. Ш.М. Мунчаева. М., 1998.
186. Ригведа. Мандалы I-IV. М., 1989; Мандалы V-VIII. М., 1995.
187. Рикёр П. Герменевтика и психоанализ. Религия и вера. М., 1996.
188. Рикёр П. Конфликт интерпретаций. Очерки о герменевтике. М., 1995.
189. Родионов М.А. Марониты: Из этноконфессиональной истории Восточного Средиземноморья. М., 1982.
190. Рожков В. Очерки по истории Римско-католической церкви. М., 1994.
191. Росс Ф., Хиллс Т. Великие религии человечества. Перевод с английского. М., 1999.
192. Рудолф У. Ал-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. Алматы, 1999.
193. Самыгин С.И., Нечипуренко В.Н., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и социология религии. Ростов-на-Дону, 1996.
194. Саплин С.Ю. Астрологический энциклопедический словарь. М., 1994.
195. Свенцицкий И.С. Апокрифические евангелия. М., 1996.
196. Свенцицкий И.С. Раннее христианство: страницы истории. М., 1987.
197. Светлов Г.Е. Пут богов: синто в истории Японии. М., 1985.
198. Светлов Р.В. Древняя языческая религиозность. СПб., 1993.
199. Сигх Мохиндер. Угнетенные касты Индии. М., 1951.
200. Скурят К.Е. История Поместных православных церквей. М., 1994. Т. 1, 2.
201. Славянская мифология. Энциклопедический словарь. М., 1996.
202. Словарь символов. М., 1994.
203. Снесарев А.Е. Этнографическая Индия. М., 1981.
204. Современная западная социология. М., 1990.
205. Современная западная философия. М., 1991.
206. Современный философский словарь. Москва, Бишкек, Екатеринбург, 1996.
207. Социология религии: классические подходы. М., 1994.
208. Социологос. М., 1991.
209. Спиноза Б. Избранные произведения. В 2 т. М., 1957.
210. Старообрядчество. Опыт энциклопедического словаря. М., 1996.
211. Сузуки Д.Т. Основы дзен-буддизма. Бишкек, 1993.
212. Сумерки богов. М., 1989.
213. Сухов А.Д. Религия как общественный феномен. М., 1972.
214. Тайлор Е. Первобытная культура. М., 1989.
215. Телушкин Й. Еврейский мир. М., 1992.
216. Темкин Е.Н., Ерман В.Г. Мифы древней Индии. М., 1982.

217. Тихонравов Ю.В. Религии мира. Учебно-справочное пособие. М., 1996.
218. Ткачева А.А. Новые религии Востока. М., 1991.
219. Токарев С.А. Ранние формы религии. М., 1990.
220. Токарев С.А. Религия в истории народов мира. 4-е изд., испр. и доп. М., 1986.
221. Тора. М., 1993.
222. Торчинов Е.А. Даосизм: опыт историко-религиоведческого описания. Санкт-Петербург, 1994.
223. Торчинов С.А. Религии мира. Санкт-Петербург, 1997.
224. Традиционные и синкретические религии Африки. М., 1986.
225. Три великих сказания Древней Индии. М., 1978.
226. Тураев Б.А. История Древнего Востока. Л., 1935.
227. Упанишады. В 3 книгах. М., 1992.
228. Учение. Пятикнижие Моисево / Перевод, введение и комментарии И.Ш. Шифмана. М., 1993.
229. Федоренко Н.Т. Земля и легенды Китая. М., 1961.
230. Федотов Г.Л. Святые Древней Руси. М., 1990.
231. Философский энциклопедический словарь. М., 1983.
232. Фрагменты ранних греческих философов. М., 1989.
233. Франк С.А. Непостижимое. Онтологическое введение в историю религии. М., 1990.
234. Фрейд З. Тотем и табу // Фрейд З. “Я” и “Оно” / Труды разных лет. Тбилиси, 1991.
235. Фрейд З. Психоанализ, религия, культура. М., 1992.
236. Фромм Е. Бегство от свободы. М., 1990.
237. Фромм Е. Имет или быт. М., 1990.
238. Фромм Е. Человек для себя. Минск, 1992.
239. Фромм Е., Судзуки Д., Марино Р., де. Дзен-буддизм и психоанализ. М., 1995.
240. Фрезер Дж.Дж. Золотая ветвь: исследование магии и религии. М., 1986.
241. Фрезер Дж.Дж. Фолклор в Ветхом Завете. М., 1985.
242. Хаксли Д. Религия без откровения. М., 1992.
243. Хрестоматия по исламу. Переводы с арабского, введения и примечания. М., 1994.
244. Христианство и Рус. М., 1988.
245. Христианство. Энциклопедический словарь. В 3-х томах. М., 1993-1995.
246. Христианство: Словарь. М., 1994.
247. Чаттерджи С., Датта Дж. Введение в индийскую философию. М., 1955.
248. Шариев В.А. Даосская ёга. Бишкек. 1993.
249. Швейстер Д. Благоговение перед жизнью. М., 1992.
250. Шелер М. Избранные произведения. М., 1994.
251. Шеллинг Ф.В.Й. Сочинения. В 2 т. М., 1987—1988.
252. Шифман И.Ш. Ветхий завет и его мир (Ветхий Завет как памятник литературной и общественной мысли древней Передней Азии). М., 1987.

253. Шлейермахер Ф. Речи о религии к образованным людям, ее презиравшим. М., 1994.
254. Шмеман А. Исторический путь православия. М., 1993.
255. Шохин В.К. Брахманистская философия. М., 1994.
256. Шпажников Г.А. Религии стран Африки. М., 1967.
257. Шпажников Г.А. Религии стран Западной Азии. М., 1976.
258. Шпажников Г.А. Религии стран Юго-Восточной Азии. М., 1980.
259. Шри Шримад А.Ч. Бхагавад-Гита. М., 1990.
260. Штайерман Е.М. Состииальные основы религии древнего мира. М., 1986.
261. Штайнер Р. Теософия. Введение в сверхчувственное познание мира и назначение человека. Ереван, 1990.
262. Щербатской Ф.И. Избранные труды по буддизму. М., 1988.
263. Ейнштейн А. Религия и наука // Ейнштейн А. Собрание научных трудов. М., 1988.
264. Енстиклики его святишества Папы Римского 1891, 1981, 1991 гг. Киев. 1993.
265. Ерман В.Г. Очерк ведийской литературы. М., 1980.
266. Есслемонт Дж.Е. Баха-Улла и новая эра. Екатеринбург, 1991.
267. Юан-Ке. Мифы Древнего Китая. М., 1965.
268. Юдина Н.С. Теология и философия в религиозной мысли США XX века. М., 1986.
269. Юм Д. Сочинения. В 2 т. М., 1965.
270. Юнг К.Г. Архетип и символ. М., 1991.
271. Юнг К.Г. Конфликты детской души. М., 1995.
272. Юнг К.Г. Ответ Иову. М., 1995.
273. Яблоков И.Н. Религия: сущность и явления. М., 1982.
274. Яблоков И.Н. Состииология религии. М., 1979.
275. Яковлев Е.Г. Искусство и мировые религии. 2-изд. М., 1985.
276. Ян Гус, Мартин Лютер, Жан Калвин, Торквемада, Лоёла. М., 1995.

II. Qo'shimcha

G'arbiy Evropa tillarida

277. Abbot N. Studies in Arabic Literary Papyri. 2. Qur'anic Commentary and Tradition by Nabia Abbot. Chicago, 1967.
278. Arab Culture and Society in Change. A Partially Annotated Bibliography of Books and Articles in English, French, German and Italian. Beirut, 1973.
279. Ayoub M. Redemptive Suffering in Islam: A Study of the Devotional Aspects of 'Ashura' in Twelvers Shi'ism. The Hague, 1978 (Religion and Society, 10).
280. Bel A. La religion musulmane en Berbérie: Esquisse d'histoire et de sociologie religieuses. 1. Etablissement et développement de l'Islam en Berbérie du VII^e au XX^e siècle. Paris, 1938.
281. Birge K. The Bektashi Order of Dervishes. London, 1937.

282. Böwering G. The Mystical Vision of Existence in Classical Islam: The Qur'anic Hermeneutics of the Sufi Sahl al-Tustari (d. 283/896). Verlin, New-York, 1980.
283. Bravmann M. The Spiritual Background of Early Islam. Leiden, 1972.
284. DeWeese D. Islamisation and Native Religion in the Golden Horde. Baba Tükles and the Conversion to Islam in Historical and Epical Tradition. Pennsylvania: Pennsylvania State University Press, 1994.
285. Ess J., van. Zwischen Hadith and Theologie. Berlin-New York, 1975.
286. Fahd T. Le panthéon de l'Arabie centrale à la veille de l'hégire. Paris, 1968.
287. Goitein S.D. A Mediterranean Society: The Jewish communities of the Arab world as portrayed in the documents of the Cairo Geniza. 2. Los Angeles, 1971.
288. Goldziher I. Die Zahiriten, ihr Lehrsystem und ihre Geschichte. Beitrag zur Geschichte der muhammedanischen Theologie von Dr. Ignaz Goldziher. Leipzig, 1884.
289. Henning W. A Bibliography on Old Iranian Subjects. Teheran, 1946.
290. Herzl T. Der Judenstaat. Leipzig and Vienna, 1896; repr. Osnabrück, 1968.
291. Heyd U. Studies in Old Ottoman Criminal Law. Ed. by V. L. Menage. Oxford, 1973.
292. Hodgson M. The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization. M.G.S. Hodgson. 1-2. Chicago and London, 1974.
293. Horovitz J. Koranische Untersuchungen von Josef Horovitz. Verlin, Leipzig, 1926.
294. Kaufmann W. Religion in Four Dimensions: Existential and Aesthetic, Historical and Comparative. 1976.
295. Kavakcı, Yusuf Ziya. XI ve XII. Asırlarda Karahanlılar Devrinde Mâvâra' al-Nahr Islâm Hukukçuları. Ankara, 1976.
296. Köprülüze M.F. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar. Istanbul, 1918.
297. Kurt H. Orta Asya'nın İslamlaşma Süreci (Buhara örneği). Ankara, 1998 (Fecr Yayınları, 58).
298. Laoust H. Les schismes dans l'Islam. Paris, 1983.
299. Madelung W. The Early Murji'a in Khurasan and Transoxania and the Spread of Hanafism // Der Islam, LIX (1982), B. 32-39.
300. Madelung W. The Spread of Maturidism and the Turks // Actas IV Congresso de Estudos Arabes e Islamicos. Coimbra-Lisboa 1 a 8 de Setembro de 1968. Leiden: E.J.Brill. 1971, B. 109-168.
301. Makdisi G. Ibn 'Aqil et la resurgence de l'Islam traditionaliste au XI siècle. Damas, 1963.
302. Massignon L. La passion d'al-Hosayn-ibn-Mansour al-Hallaj martyr mystique de l'Islam executé à Bagdad le 26 mars 922. Étude d'histoire religieuse par L. Massignon. 1-2. Paris, 1922.
303. Nasr S.H. Sufi Essays. New York, 1973.
304. Nicholson R.A. Studies in Islamic Mysticism. Cambridge, 1921.
305. Nwyia P. Exegese coranique et langage mystique. Beyrouth, 1970.
306. Paul J. Doctrine and Organisation: The Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin // ANOR. No. 1. Halle-Berlin, 1998.

307. Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. The University of North Carolina Press, 1975.
308. Siddiqi M.Z. Hadith Literature: Its Origin. Development. Special Features and Criticism. Calcutta, 1961.
309. Snouck-Hurgronje C. Het Mekkaansche Feest. Leyden, 1880.
310. Snouck-Hurgronje C. Mekka. 1-2. Haag, 1888-1889.
311. Studies in Islamic History and Institutions by S. D. Goitein. Leiden, 1966.
312. Subtelny, Maria Eva and Khalidov, Anas B. The Curriculum of Islamic Higher Learning in Timurid Iran in Light of the Sunni Revival under Shah-Rukh // Journal of the American Oriental Society, 115 (1995), B. 210-236.
313. Tyan E. Histoire de l'organisation judiciaire en pays d'Islam par E. Tyan. Preface de E. Lambert. 1-2. Paris, 1938, 1943.
314. Watt W.M. Muhammad at Mecca. London, 1953.
315. Watt W.M. Muhammad at Medina. Oxford, 1956.

Sharq tillarida

316. Abu Zahra M. Al-Imom as-Sodiq: Hayotuhu va-‘asruhu, oro’uhu va-fiqhuhu. Qohira, [yili yo’q].
317. Abu Zahra M. Abu Hanifa: Hayotuhu va-‘asruhu, oro’uhu va-fiqhuhu. Qohira, [y. y.].
318. Abu Zahra M. Ta’rix al-mazohib al-islomiya. 1-2. Qohira, [y. y.].
319. Badaviy ‘A. Mazohib al-islomiyin. 2-nashr. Bayrut, 1979.
320. Badaviy ‘A. Min ta’rix al-ilhod fi-l-islom. Bayrut, 1945.
321. Badaviy ‘A. Shatahot as-sufiya. Qohira, 1949.
322. G’olib M. al-Harakot al-botiniya fi-l-islom. Bayrut, [y. y.].
323. Zaydon J. Ta’rix at-tamaddun al-islomiy. 1-2. Qohira, 1935, 1947.
324. Zarrin-Kub A. Arzish-i miros-i sufiya. Tehron, 1344 Sh/1965.
325. ‘Irfon ‘A. Dirosot fi-l-firaq va-l-‘aqo’id al-islomiya. Bag’dod, 1387/1967.
326. Muborak 3. at-Tasavvuf al-islomiy fi-l-adab va-l-axloq. Bayrut, [y. y.].
327. Mudarrisiy H.Ch. Silsilaho-yi sufiya-yi Iron. Tehron, 1360 y. h.
328. an-Nashshor ‘A. Nash’at al-fikr al-falsafiy fi-l-islom. 7-nashr. Qohira, 1977.
329. as-Suyuti. al-Itqon fi ‘ulum al-Qur’on.
330. Tolibiy ‘A. Oro’ al-xavorij al-kalomiya. 1-2. al-Jazo’ir, 1398/1978.
331. Fayyod ‘A. Ta’rix al-imomiya va-aslofihim min ash-shi‘a. 2-nashr. Bag’dod, 1975.
332. al-Qatton M.X. Mabohis fi ‘ulum al-Qur’on. ar-Riyod, 1996.
333. al-Hakim M.T. al-Usul al-‘omma li-l-fiqh al-muqoran. Bayrut, [1963].
334. Hilmiy M. Ibn Taymiya va-t-tasavvuf. Iskandariya, 1982.

Rus tilida

335. Abelyar P. Teologicheskie traktaty. M., 1995.
336. Avgustin Avreliy. Ispoved. M., 1989.
337. Averinstev S.S. Poetika drevnevizantiyskoy literatury. M., 1977.
338. Alikulov X. A. Eticheskie vozzreniya mysliteley Sredney Azii i Xorasana (XIV-XV vv). T., Fan, 1992.

339. Amerikanskaya sostsiologiya. M., 1972.
340. Amusin I.D. Rukopisi Mertvogo morya. M., 1960.
341. Anselm Kenterberiyskiy. Sochineniya. M., 1995.
342. Apokrify drevnix xristian: issledovanie, teksty, kommentarii. M., 1989.
343. Appolodor. Mifologicheskaya biblioteka. M., 1993.
344. Artamonov S.D. Literatura srednix vekov. M., 1992.
345. Artemev A.I. Svideteli Iegovy Kazaxstana i Sredney Azii: istoriko-religiovedcheskiy analiz. Almaty, 2002.
346. Asmus V.F. Immanuil Kant. M., 1973.
347. Astamba F.M., Kirillina S.A. Religiya i vlast: islam v Osmanskom Egipte (XVIII – pervaya chetvert XIX v.). M., 1996.
348. Babadjanov B.M. Politicheskaya deyatelnost shayxov Nakshbandiya v Maverannaxre (1 pol. XVI v.). Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata istoricheskix nauk. T., 1996.
349. Babaxanov Sh.Z. Velikie muxaddisi o mire i drujbe mejdu narodami (iz shesti obshchepriznannix sbornikov hadisov). T., Izdatelstvo narodnogo naslediya im. A. Kadiri. 1998.
350. Barast A. Liki Torgy. M., 1995.
351. Belenkiy M.S. Chto takoy Talmud: Ocherk istorii i mirovozzreniya Talmuda i sovremennyy iudaizm. M., 1970.
352. Belyaev E.A. Musulmanskoe sektantstvo. M., 1957.
353. Bertels A.E. Nasir-i Xosrov i ismailizm. M., 1959.
354. Bertels E.E. Sufizm i sufiyskaya literatura // Izbrannyye trudy. Tom III. M., 1965.
355. Blavatskaya E.P. Teosofskiy slovar. M., 1994.
356. Boboxo'jaev M. i dr. Istoriya narodov Uzbekistana. T: Fan, 1993.
357. Bolshakov O.G. Gorod v konste VIII-nachale XIII v. // Belenistkiy A.M., Bentovich I.B, Bolshakov O.G. Srednevekovyy gorod Sredney Azii. L., 1973, B. 132-352.
358. Borisov A.B. Rol islama vo vnutrenney i vneshney politike Egipta (XX vek). M., 1991.
359. Borovkov A.K. Leksika sredneaziatskogo tefsira XII-XIII vv. M., 1963.
360. Bonxeffer D. Soprotivlenie i pokornost. M., 1994.
361. Bruno Dj. Dialogi. M., 1949.
362. Buber M. Dva obraza verы. M., 1995.
363. Bulgakov S.N. Svet nevecherniy. M., 1994.
364. Vyichkov V.V. Vizantiyskaya estetika. Teoreticheskie problemy. M., 1997.
365. Valkova L.V. Saudovskaya Araviya: neft, islam, politika. M., 1987.
366. Vasilev A.M. Istoriya Saudovskoy Aravii. (1745-1973). M., 1982.
367. Vvedenie xristianstva na Rusi. M., 1987.
368. Velesova kniga. M., 1994.
369. Vzaimosvyaz fizicheskoy i religioznoy kartin mira. Fiziki-teoretiki o religii / Vypuskayushiy redaktor-sostavitel Yu.S. Vladimirov. Kostroma, 1996.
370. Vinnikov I.N. Legendy o prizvanii Muxammada v svete etnografii // S. F. Oldenburg: Sbornik statey. M., 1934, B. 125-146.

371. Vladimirov Yu.S. Fundamentalnaya fizika, filosofiya i religiya. Kostroma, 1996.
372. Voytyla K. Ioann Pavel II. Lyubov i otvetstvennost. M., 1993.
373. Volter F. Filosofskie sochineniya. M., 1988.
374. Vostochnyy Turkestan v drevnosti i rannem srednevekovye: etnos, yazyki, religii. M., 1992.
375. Gadamer X.-G. Istina i metod. M., 1988.
376. Gaydenko P.P., Davыdov Yu.N. Istoriya i rastionalnost. M., 1991.
377. Gelvestiy K.A. Sochineniya. V 2 t. M., 1973-1974.
378. Gibb X.A.R. Musulmanskaya istoriografiya. Per. s angl. P.A. Gryaznevicha // X.A.R. Gibb. Arabskaya literatura: Klassicheskiy period. M., 1960, B. 117-156.
379. Gobbs T. Izbrannyye proizvedeniya. V 2 t. M., 1964.
380. Golbax P. Izbrannyye proizvedeniya. V 2 t. M., 1963.
381. Goldstiger I. Lekstii ob islame / Perevod s nemetskogo A.N. Chernovoy. Sankt-Peterburg, 1912.
382. Goldstier I. Kult svyatykh v islame (Muxammedanskije eskizy). M., 1938.
383. Gordlevskiy V.A. Baxauddin Nakshband Buxarskiy // Izbrannyye sochineniya. T. 3. M., 1962, B. 369-386.
384. Grigoryan B.T. Filosofskaya antropologiya. M., 1982.
385. Grof S., Xelifaks Dj. Chelovek pered listom smerti. Kiev, 1996.
386. Gul'iga A.B. Nemetskaya klassicheskaya filosofiya. M., 1986.
387. Gurevich A.Ya. Kategorii srednevekovoy kultury. M., 1984.
388. Guseynov A.A., Irrlitst G. Kratkaya istoriya etiki. M., 1987.
389. Gusserl E. Filosofiya kak strogaya nauka. Novocherkassk, 1994.
390. Demidov S.M. Sufizm v Turkmenii (evolyustiya i perejtki). Ashxabad, 1978.
391. Dionisiy Arsopagit. O bojestvennykh imenax. O misticheskom bogoslovii. SPb., 1994.
392. Doroshenko E. A. Shiitskoe duxovenstvo v sovremennom Irane. 2-e izd. M., 1985.
393. Eremeev D.E. Islam: obraz jizni i stil myshleniya. M., 1990.
394. Ermakov I., Mikulskiy D. Islam v Rossii i Sredney Azii. M., 1994.
395. Jdanov N.V., Ignatenko A.A. Islam na poroge XXI veka. M., 1989.
396. Juze P.K. Mu'tazility (techenie v islame v IX v.). Kazan, 1899 (Missionerskiy protivomusulmanskiy sbornik, 22).
397. Zabiyako A.P. Istoriya drevnerusskoy kultury. M., 1995.
398. Zelinskiy F.F. Istoriya antichnoy kultury. SPb., 1995.
399. Ivanov M.S. Babidskie vosstaniya v Irane: 1848-1852. L., 1939.
400. Ilenkov E.V. Filosofiya i kultura. M., 1991.
401. Istoriya at-Tabari. T., Fan, 1987.
402. Kamaliddinov Sh.S. «Kitab al-ansab» Abu Sa'da Abdalkarima ibn Muxammada as-Sam'ani kak istochnik po istorii i istorii kultury Sredney Azii. Tashkent: Fan, 1993.
403. Kamaliddinov Sh.S. Istoricheskaya geografiya Yujnogo Sogda i Toxaristana po araboyazychnym istochnikam IX-nachala XIII vv. T. O'zbekiston, 1996.

404. Kant I. Sochineniya. V 6 t. M., 1963—1966.
405. Kant I. Traktaty i pisma. M., 1980.
406. Kasyimjanov A.X. Abu Nasr al-Farabi. M., 1982.
407. Kleman O. Istoki. Bogoslovie otstov Drevney Sterkvi. Teksty i kommentarii. M., 1994.
408. Kliment Aleksandriyskiy. Pedagog. M., 1996.
409. Kozarjevskiy A.Ch. Istochnikovedcheskie problemy rannexristianskoy literatury. M., 1985.
410. Kochnev B.D. Musulmanskiy chekan Sredney Azii // Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Vypusk 3 (2001), B. 69-71.
411. Kuvakin V.A. Religioznaya filosofiya v Rossii v konste XIX — nachale XX veka. M., 1980.
412. Kuznestov V.N. Nemestkaya klassicheskaya filosofiya vtoroy poloviny XVIII-nachala XIX veka. M., 1989.
413. Kuznestov V.N., Meerovskiy B.V., Gryaznov A.F. Zapadnoevropeyskaya filosofiya XVIII veka. M., 1986.
414. Kerkegor S. Strax i trepet. M., 1992.
415. Lavrov P.L. O religii. M., 1989.
416. Losev A.F. Filosofiya. Mifologiya. Kultura. M., 1991.
417. Losskiy V.N. Ocherk misticheskogo bogosloviya vostochnoy sterkvi. Dogmaticheskoe bogoslovie. M., 1991.
418. Losskiy N.O. Izbrannoe. M., 1991.
419. Losskiy N.O. Istoriya russkoy filosofii. M., 1991.
420. Lukach Y. Puti bogov. M., 1984.
421. Lukrestiy Kar. O prirode veshyey. M., 1983.
422. Lundin A.G. «Docheri boga» v yujnoaraviyskix nadpisyax i v Korane // Vestnik drevney istorii. 1975 god, № 2, B. 124-131.
423. Leyn E.U. Nravyy i obyichai egiptyan v pervoy polovine XIX v. M., 1982.
424. Malashenko A. Musulmanskiy mir SNG. M., 1996.
425. Malov S.E. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti: Teksty i issledovaniya / Otv. red. A.N. Kononov. M.-L., 1951.
426. Marsel G. Tragicheskaya mudrost filosofii. M., 1995.
427. Mednikov N.A. Palestina ot zavoevaniya ee arabami do krestovyykh poходов po arabskim istochnikam. 1. Issledovanie istochnikov. Sankt-Peterburg, 1902; Prilojeniya. 2 (1-3). Sankt-Peterburg, 1897.
428. Mele J. Zaveщanie. V 3 t. M., 1954.
429. Munavvarov Z.I. Organizastiya Islamskoy Konferenstii / Mayak Vostoka. 1996, №1-2, B. 89-91.
430. Musulmanskiy mir: 950-1150. M., 1981.
431. Narskiy I.S. Yum. M., 1973.
432. Nauka, religiya, gumanizm. M., 1996.
433. Nikonov K.I. Kritika antropologicheskogo obosnovaniya religii. M., 1989.
434. Nikonov K.I. Religiozen li chelovek po prirode? M., 1990.
435. Novikov M.P. Xristianizastiya Kievskoy Rusi: metodologicheskii aspekt. M., 1991.

436. Ovsyannikov M.F. Gegel. M., 1971.
437. Oranskiy I. Vvedenie v iranskuyu filologiyu. M., 1960.
438. Origen. O nachalax. M., 1995.
439. Origen. Protiv Stelsya. Apologiya xristianstva. M., 1996.
440. Ot Erazma Rotterdamskogo do Bertrana Rassela. M., 1969.
441. Pamyatniki vizantiyskoy kultury IV—IX vekov. M., 1968.
442. Pamyatniki vizantiyskoy literatury IX—XIV vekov. M., 1969.
443. Pamyatniki srednevekovoy latinskoy literatury IV—IX vekov. M., 1970.
444. Parandovskiy Ya. Mifologiya. M., 1971.
445. Petrushevskiy I.P. Islam v Irane v VII-XV vekax (kurs lekstiy). L., 1966.
446. Piotrovskiy M.B. Muxammad, proroki, ljeproroki, kaxiny // Islam v istorii narodov Vostoka. M., 1981, B. 9-18.
447. Piotrovskiy M.B. Prorocheskoe dvijenie v Aravii VII v. // Islam v istorii narodov Vostoka. M., 1981, B. 19-27.
448. Polosin V.V. "Fixrist" Ibn an-Nadima kak istorika-kulturnyy pamyatnik X veka. M., 1989.
449. Pravoslavie: vext istorii. M., 1989.
450. Problema cheloveka v zapadnoy filosofii. M., 1988.
451. Prozorov S.M. Arabskaya istoricheskaya literatura v Irake, Irane i Sredney Azii v VII-seredine X v. Shiitskaya istoriografiya. M., 1980.
452. Prozorov S.M. K voprosu o «pravoverii» v islame: ponyatie axl as-sunna (sunnity) // Problemy arabskoy kultury. Pamyati akademika I.Yu. Krachkovskogo. M., 1987, B. 213-218.
453. Prozorov S.M. Shiitskaya (imamitskaya) doktrina verkhovnoy vlasti // Islam. Religiya, obshchestvo, gosudarstvo. M., 1984, B. 204-211.
454. Radtke, Bernd. Teologi i mistiki v Xurasane i Transoksanii // Sufizm v Stentralnoy Azii (zarubejnye issledovaniya). Sbornik statey pamyati Fritsta Mayera (1912-1998). Sostavitel i otvetstvennyy redaktor A.A. Xismatulin. Sankt-Peterburg, 2001, B. 40-76.
455. Rezvan E.A. Koran v Rossii // Islam na territorii byvshey Rossiyskoy imperii. Vyp. 1. M., 1998, B. 47-58.
456. Religii mira. Ejegodnik. M., 1982—1988.
457. Rimskie stoiki. Seneka. Epiktet. Mark Avreliy. M., 1995.
458. Ripka Ya. Istoriya persidskoy i tadzhikskoy literatury. Per. s cheshskogo. Red. i avtor predisl. I. S. Braginskiy. M., 1970.
459. Robinson Dj. Byt chestnym pered Bogom. M., 1994.
460. Rozanov V.V. Religiya. Filosofiya. Kultura. M., 1992.
461. Rozenberg O.O. Trudy po buddizmu. M., 1994.
462. Rouzentel F. Torjestvo znaniya: Konstestpiya znaniya v srednevekovom islame. Per. s angl. S. A. Xomutova. M., 1978.
463. Rtveladze L., Rtveladze E. Musulmanskije svyatyini Uzbekistana. - Tashkent: Glavnaya redaktsiya enstiklopediy, 1996.
464. Russkiy kosmizm. Antologiya filosofskoy mysli. M., 1993.
465. Russkoe pravoslavie: Vext istorii. M., 1989.
466. Russo J.J. Izbrannye sochineniya. V 3 t. M., 1961.

467. Рыбаков В.А. Язычество Древней Руси. М., 1988.
468. Рыбаков В.А. Язычество древних славян. М., 1981.
469. Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб., 1994.
470. Сагадеев А.В. Ибн Рухд (Аверроес). М., 1973.
471. Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авистенна). 2-е изд., М., 1985.
472. Саидбаев Т.С. Ислам. М., 1993.
473. Семенкин Н.С. Философия богоискательства. М., 1986.
474. Семенов А.А. Бухарский шейх Бахауд-дин. 1318-1389 (К его биографии) // Восточный сборник в честь А.Н. Веселовского. М., 1914, В. 202-211.
475. Семенова Л.А. Салах ад-дин и мамлюки в Египте. М., 1966.
476. Сергей Радонежский. Сборник. М., 1991.
477. Соловьев В.В. Средневековая философия. М., 1979.
478. Соловьев В.С. Сочинения. В 2 т. М., 1989.
479. Сорokin П.А. Человек. Цивилизация. Общество. М., 1992.
480. Социально-политическое измерение христианства. М., 1994.
481. Ставиский В.Я. Судьбы буддизма в Средней Азии. По данным археологии. М., 1998.
482. Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. Т., Изд. АН УзССР, 1960.
483. Сыкуйяйнен Л.Р. Мусульманское право: Вопросы теории и практики. М., 1986.
484. Тажиризина З.И. Идеи свободы мысли в истории культуры. М., 1987.
485. Тверитинова А.С. Фальсифицированная версия о турецком халифате // Известия исторического отделения общественных наук АН ТаджССР. 1954, № 5, В. 167-180.
486. Тейяр де Шарден П. Божественная среда. М., 1992.
487. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. М., 1987.
488. Тертуллиан. Избранные сочинения. М., 1994.
489. Тиллих П. Избранное. Теология культуры. М., 1995.
490. Топина А.Н. Неместный экзистенциализм и религия. М., 1990.
491. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М., 1948.
492. Толстов С.П. Религии народов Средней Азии / Религиозные верования народов СССР. Том I. М.-Л., 1931, В. 241-379.
493. Угринович Д.М. Введение в религиоведение. М., 1985.
494. Угринович Д.М. Психология религии. М., 1986.
495. Фейербах А. Избранные философские произведения. М., 1995. Т. 1, II.
496. Феномен человека. Антология. М., 1993.
497. Фламинин А.С. Божеества древних славян. М., 1995.
498. Франциск Ассизский. Сочинения. М., 1995.
499. Французские просветители XVIII века о религии. М., 1960.
500. Фукс Е. Иллюстрированная книга нравов. Эпоха Ренессанса. Галантный век. Буржуазный век. М., 1993-1994.
501. Хайдеггер М. Бытие и время. СПб, 1997.
502. Хайдеггер М. Время и бытие. М., 1993.
503. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. М., 1985.
504. Хасанов А.А. Мекка, Медина и верования арабов накануне возникновения ислама. Т., 1994.

505. Keyzinga I. Osen srednevekovya. Issledovanie form jiznennogo uklada i form myshleniya v XIV—XV vekax vo Franstii i Niderlandax. M., 1988.
506. TSisteron Mark Tuliy. Filosofskie traktaty. M., 1985.
507. Chelovek i ego simvolы / Pod red. K.G. Yunga. SPb., 1996.
508. Chelovek kak filosofskaya problema: Vostok — Zapad. M., 1991.
509. Chesterton G.K. Vechnyy chelovek. M., 1991.
510. Churakov M.V. Narodnoe dvizhenie v Magrife pod znamenem xaridjizma. M., 1990.
511. Shestov L.N. Izbrannyye sochineniya. M., 1993.
512. Shtyokl A. Istoriya srednevekovoy filosofii. SPb., 1996.
513. Щербатской F.I. Teoriya poznaniya i logika po ucheniyu pozdneyshix buddistov. Chasti 1-2. M., 1995.
514. Erazm Rotterdamskiy. Filosofskie proizvedeniya. M., 1987.
515. Etnos i religiya. M., 1998.
516. Yannaras X. Vera sterkvi. Vvedenie v pravoslavnoe bogoslovie. M., 1992.
517. Yaspers K. Smysl i naznachenie istorii. M., 1992.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
«Dinshunoslik» faniga kirish	9
Dinning ibtidoiy shakllari	18
Qadimgi dinlar: Misr va Yunoniston.	

HINDISTON DINLARI

Qadimiy dinlar	
Hinduizm	
Buddizm	

UZOQ SHARQ DINLARI

Konfutsiychilik	
Daosizm	
Sintoizm	

MARKAZIY OSIYO

Zardushtiylik	
----------------------------	--

G'ARB DINLARI

Yahudiylik	
Xristianlik	
Manixeizm	
Islom	
Paydo bo'lishi va ta'limoti	
Qur'oni karim	
Hadislar	
Islom ilohiyoti	
Fiqh	
Islomdagi oqimlar	

Tasavvuf	
Islom va hozirgi zamon	
O'rta Osiyoda islom dini	
Noan'anaviy diniy tizimlar	
Mustaqil O'zbekistonda diniy hayot .	
Diniy ekstremizm va fundamentalizm	
 Diniy istilohlar izohi	
Manbalar va adabiyotlar ro'yxati	